

63.0
S40.

**MARHABO SOBIROVA
ESHQOBIL HOLIQOV**

ETNOMADANIYAT

63,5
\$70


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI


MARHABO SOBIROVA, ESHQOBIL HOLIQOV

ETNOMADANIYAT

O'QUV QO'LLANMA



Toshkent
“INNOVATSIIYA-ZIYO”
2019



**UDK: 371.035
BBK: 74.200.51
S-32**

Sobirova, Marhabo

**Holiqov Eshqobil. "Etnomadaniyat". (Uslubiy qo'llanma). Toshkent:
"INNOVATSIYA-ZIYO", 2019, 286 b.**

**UDK: 371.035
BBK: 74.200.51
S-32**

Ushbu uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Ilmiy Kengashida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan

ISBN 978-9943-5866-3-5

Toshkent - "INNOVATSIYA-ZIYO"- 2019

KIRISH

Ma'lumki, boqiy qadriyatlar inson, millat, jamiyat hayoti va faoliyati uchun muhim sanalgan qadriyatlar shakllanishini ifodalaydigan tushunchadir. Oila, mahalla, ijtimoiy institutlar va davlatlar, ona tili, din, avlodlar o'rtasidagi vorisiylik, tarix va tarixiy xotira, tinchlik, barqarorlik, ozodlik va farovonlik kabi hech qachon o'z qadrini yo'qotmaydigan eng yuksak ta'limot va tamoyillar hammamiz uchun abadiy qadriyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Bu qadriyatlar asrlar davomida dunyodagi mutafakkirlar, alloma va ma'rifatparvarlaming e'tibor markazida bo'lib kelgan. "Avesto" kitobidagi "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tamoyili, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy singari ulug' ajdodlarimizning ma'naviy-ma'rifiy merosida ifoda etilgan adolatli jamiyat, komil inson, tinchlik va farovonlik g'oyalari bugungi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmasdan kelmoqda.

Bularning hammasi mustaqillik yillarda hukumatimizning ilm fanga bo'lgan katta e'tiborining natijasi bo'ldi, desak to'g'ri bo'ladi. Amalga oshirilgan ulkan yaratuvchanlik tadbirlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish bilan bir qatorda ilm-fan va texnika sohasida ham katta yutuqlarga yetakladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev mamlakatimizning ilmiy jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvdagi nutqida fan va ta'lim masalasiga alohida urg'u bergen edilar: "So'nggi yillarda olimlarimiz fundamental fan va uning natijalarini amaliyotga tatbiq etish borasida bir qator yutuqlarni qo'lga kiritdi. Tabiiy fanlarning asosiy sohalar - astronomiya, fizika, matematika, kimyo, biologiya, farmatseftika, geologiya, seysmologiya va boshqa jabhalarda jahon miyosida qiziqish uyg'otayotgan natijalarga erishildi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar - tarix, arxeologiya, sharqshunoslik, O'zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, san'atshunoslik va boshqa sohalarda ham salmoqli natijalarga erishilmoxda"¹.

Mamlakatimiz Prezidentining 2017 yil 7- fevraldag'i "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi PF-4947 – sonli farmonida ham uzlusiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorini zamонавиу еҳтиёjlarga mos yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash siyosatini davom ettirish ko'zda tutilgan. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham yangi

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб. янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2018, 169-бет.

avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliv ta'lif muassasalarining ta'lif jarayoniga keng tadbiq etish, oliv ta'lif muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash ta'kidlangan.

Bugun yangilanayotgan jamiyatimiz ko'hna tarixi, boy ilmiy merosi, rang barang madaniyati, o'ziga xos urf-odat va an'analari bilan jahon tsvilizatsiyasiga munosib hissa qo'shgan xalqimizning milliy tiklanishi bilan bog'liq rivojlanish bosqichi sharoitida yashamoqda. Istiqlol o'tmishdan meros bo'lib o'tgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarga yangicha nigoh bilan qarash, yalpi milliy tiklanish, umummilliylar ma'naviy islohatlarni amalga oshirishga asos yaratdi. Ushbu islohotlar milliy ong, milliy madaniyat, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni, milliy til, milliy g'urur singari millatni millat qiladigan fazilatlar va xislatlarni tiklash hamda ularning milliy mazmunini yangi sharoitda yanada boyitish imkonini beradi.

Mustaqillik bizga asl ildizimiz qayerga borishini, ota-bobolarimiz qanday inson ekanligini anglab yetishimiz uchun imkoniyat yaratib berdi. Milliy g'ururimiz uyg'ondi bizning milliy mentalitetimiz naqadar buyuk va tarixiy ekanligini tushunib yetdik va ajdodlarga mos bo'lishga harakat qilmoqdamiz. Ammo bugungi kunda hayotiy zaruratning o'zi xalqimiz fe'l-atvori mentalitetini yangilashga jiddiy e'tibor qaratishga undamoqda. Bugungi kunda yer yuzida kechayotgan boshqa bir muhim jarayon – globallashuv jarayoni natijasida jahon xalqlari uchun umumiy nom, umumiylar fe'l-atvor, umumiylar mentalitet shakllanmoqda va bunga bevosita jahon miqyosida kechayotgan siyosiy iqtisodiy va axborot borasidagi globallashuv ancha kuchli ta'sir qilmoqda. Bunday globallashuv, ya'ni bir xillashuv muayyan ijobiy natijalar berishga qaramasdan ko'plab salbiy oqibatlarga ham olib kelmoqda. Chunki tarixiy haqiqat yaxlitlikni, butunlikni taqozo qiladi. Shuning uchun ham tarixiy tajriba isbot qilganidek, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf odат va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Mustaqillik xalqimizning ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy an'analari, urf-odat va marosimlari, o'zbekona qadriyatlarining tiklanishiga zamin hozirladi. Ayniqsa ma'naviy marosimizni o'rganish, nafaqat o'zbek xalqi madaniy-ma'naviy rivojiga, balki, dunyo tamadduniga munosib ulush qo'shgan buyuk allomalarimiz va tarixiy shaxslarning nomlarini, milliy-madaniy va ma'naviy-ma'rifiy merosimizni qayta tiklash, ona tilimizga, dinimizga munosabatini tubdan o'zgartirish borasida sezilarli darajada ijobiy xatti harakatlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldag'i "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ 3160-sonli qarorida qayd etilganidek, "xalqimizning tarixiy merosi, urf odatlari va milliy tarbiya an'alarini asrab-avaylash, keng aholi qatlamlari, ayniqsa, yosqlarimiz o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr oqibat muhitini mustahkamlash"² – bugungi kundagi dolzarb, kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biridir.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini ta'minlashda metodologik asos bo'lib xizmat qilgan ushbu qarorda ta'kidlab o'tilganidek, o'tmishda yashab o'tgan ajododlarimizning ijtimoiy-ma'naviy dunyosini o'rganib, ularning nazariy hamda amaliy tajribalarini hozirgi zamon talablari darajasida hayotga tadbiq etish yoshlarni milliy g'oya, milliy an'ana va qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash har tomonlama yetuk, barkamol avlodni voyaga yetkazish – bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Zotan, yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamdag'i islohotlar samaradorligi eng avvalo xalqimizning ma'naviyatini tiklanishi, rivojlanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, an'ana va urfatodlarimizning saqlanishi, madaniyat, san'at, fan va ta'limning rivojlanishi hamda jamiyat tafakkurining o'zgarishi va yuksalishiga bog'liq jarayondir. Mamlakatimizda yangi jamiyat barpo etish jarayonida erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur o'quv qo'llanma pedagogika oliy ta'lim muassasalarining "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va dasturi asosida tayyorlangan bo'lsa-da, aslida etnomadaniyat – sotsiologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik, falsafa, etnopsixologiya singari qator ijtimoiy fanlar tomonidan o'rganiladigan, har bir xalqning muayyan tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllanadigan o'ziga xos etnik madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar, madani va axloqiy an'analarning bitmas – tunganmas manbaidir.

Etnomadaniyat fanini o'qitish jarayonida oliy ta'lim muassasalarini ma'ruzachilar quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratishi lozim:

Xalqimizning tarixiy shakllanishi, uning ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot bosqichlari, milliy madaniyatimizning o'tmishda qo'lga kiritgan yutuqlari, elat,

² Узбекистон Республикаси Президентининг "Маънавий-изърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришни япти босқичта кўтариш тўғрисида"ги ПҚ 3160-сонли қарори //Халқ сўзи. 2017 йил, 29 июл.

qavm, millat tushunchalarining mazmun va mohiyatini tushuntirish, o'tmishda va hozirgi kunda muayyan darajada shakllanib va taraqqiy etib kelayotgan milliy madaniyatimizning tadrijiy-tarixiy jarayoni to'g'risida, etnomadaniyat tarixiy jarayon sifatida tarkib topib davrlar mobaynida ma'lum bir yutuq va kamchiliklarini o'zida nomoyon etganligi, etnomologik sifat masalasida jamiyat ma'naviy-madaniy hayotini avloddan-avlodga yetkazib, uning kelajagi uchun zamin yarata olganligi haqida muayyan ma'noda tushuncha va tasavvurlarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, "Etnomadaniyat" o'quv fanining fanlar tizimidagi o'mi, uning boshqa fanlar bilan aloqadorligi, ajdodlarimizning tarixiy rivojlanish davrlarida qo'lga kiritgan yutuqlari, xalqimizning madaniy-ma'rifiy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, rasm-rusumlari, odob-axloq borasidagi saboqlaridan namunalarini mukammal o'zlashtirish ko'zda tutiladi.

Demak, xalqimiz tarixi o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlari, etnomadaniyatini chuqur o'rganish, uni yoshlarga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin afsuski, etnomadaniyat fanining dolzarb muammolari, uning ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida tutgan o'mi, o'zbek folklori, xalq og'zaki ijodi, xalq dostonlari, maqollar, milliy raqslarning etnomadaniyatni boyitishga ko'rsatayotgan ta'siri, etnopedagogika va milliy ma'naviyat uyg'unligi etnomadaniyatimizning o'q ildizlari kabi muammolarni yoritib beruvchi hamda ularni yosh avlod tafakkuriga singdiruvchi darsliklar va o'quv qo'llanmalar hali hanuz yetishmaydi. Shu bois ham mazkur o'quv qo'llanmada yuqorida bayon etilgan muammolarni yaxlit bir tizimli tarzda umumlashtirgan holda talabalarga yetkazishga harakat qilindi. Zero mazkur muammolarni atroflicha o'rganish shubhasiz ma'naviy yetuk va malakali mutaxassislarni tayyorlashda katta ahamiyatga ham ega.

I BOB

ETNOMADANIYAT FANINING IJTIMOIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI

1-§. Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Mustaqillik sharoitida xalqimizning turmush tarzi, urf-odat va an'analariga e'tibor. Etnomadaniyat muayyan xalqning hayotida har doim nihoyatda muhim mavzu bo'lib kelgan, bundan keyin ham uning dolzarbligi oshib boraveradi. Chunki u millat mavjudligining asosi, uning bugungi kuni va istiqbolini ta'minlaydigan ma'naviy boylik hisoblanadi.

Ayniqsa, mustamlaka va qaramlik azoblarini o'z boshidan kechirgan, etnomadaniyati toptalgan xalqimiz uchun uni o'rganish, hali yuzaga chiqmagan imkoniyatlarini ochish, ommaviylik darajasiga ko'tarilmagan jihatlarini xalqimizga, ayniqsa yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirish milliy tiklanishimiz jarayoni ketayotgan bugungi kunda uning dolzarbligini yana ham oshirib bormoqda. Chunki, ana shunday sharoitda milliy mentalitetimizni zo'ravon kommunistik g'oyalar asosida o'zgartirish, uni mazmunan yagona, shaklan "milliy" bo'lgan g'ayri ilmiy va g'ayri milliy "ma'naviyat" asosida rivojlantirishga qaratilgan siyosatning olib borilishi oqibatida etnomadaniyatimiz zaiflashdi, milliy urf-odat, an'ana, qadriyat, udum va marosimlarimiz toptaldi, millatimiz ulardan nafaqat mahrum etildi, shuning bilan birga ulardan uzilib qoldi va buning natijasida millatimiz ongi va qalbida "begonalashuv" ruhiyatini shakllantirish ham amalgalashdi.

Mustamlakachilik siyosatining yalovbadorlari Sovet hokimiysi yillarda Markaziy Osiyo respublikalari, jumladan O'zbekistonda odamlarda milliy ongning rivojlanishiga tish-tirnoqlari bilan qarshilik ko'rsatib keldilar. Milliy madaniyatning rivojlanishiga yo'l qo'ymadilar. Mahalliy millat kishilarining ma'naviy qadriyatlarini kamsitib, uni yo'qotib tashlashga, ayniqsa, O'rta Osiyoliklar uchun avlod va ajdodlarining noyob madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan etnik madaniyati va an'analarini tag-tomiri bilan qo'porib tashlashga urindilar.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov mazkur jarayonlar haqida shunday yozgan edi: "...biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy ma'naviyatimizni rivojlantirishga mutlaqo yo'l qo'yilmagan. Aksincha,

xalqimizning tabiatini, yashash tarziga yot bo‘lgan kommunistik mafkurani har qanday yo‘llar va zo‘ravonlik bilan joriy etishga harakat qilishgan”³.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach millatimizning ana shunday mustabidlik yillarda toptalgan etnomadaniy salohiyatini qayta tiklash, milliy mentalitetimizni uning boy sarchashmalari bilan boyitish borasida yangi imkoniyatlar yuzaga keldi.

Bugungi kunda turmush tarzimizni ijtimoiy-madaniy faoliyat yutuqlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Buning boisi o‘zbek xalqi uzoq o‘tmishdan boshlab ma’naviy madaniyatni yuksaltirishda yetarlicha faoliyat ko‘rsatib kelgan. Kishilik tarixida yaratilgan va ma’lum taraqqiyot bosqichlami o‘z boshidan kechirgan buyuk siymolar hamda ota-bobolarimiz, ma’naviy madaniyat yutuqlarini oltin meros sifatida kelajak avlodlarga qoldirib ketganlar. Albatta bunday vorisiylik o‘z navbatida yosh avlodning ijtimoiy ongida hurmat, ehtirom shukuhini tashkil etsa, bu muqaddas qadriyatni ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarga qaramay, bu merosdan mukammal foydalanishni, uni yanada taraqqiy etishi uchun barcha imkoniyatlarimizni amalda qo‘llashlikni taqozo etadi.

Mustaqillik yillarda xalqimizning milliy qadriyatlarini tiklash, yangi ma’no mazmun bilan boyitish yo‘lida bir qator xayrli ishlarni amalga oshirildi.

1994-yil 23-apreldagi O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimiv farmoni asosida tashkil etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 27 iyuldagagi qarori asosida yanada takomillashtirilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi o‘zbek xalqining ma’naviy- madaniy merosini tiklash, millat kelajagini belgilaydigan g‘oyalarni yuzaga chiqarish, yuksak iste’dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan ravnaqi sari yo‘naltirishga qaratilgan tadbirlar, anjumanlar, ko‘rgazmalar tashkil etishni yo‘lga qo‘ydi. Markaz tomonidan aholi o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, so‘rovlar asosida ishlab chiqilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish boyicha tavsiyalar jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining ma’naviy-tarbiyaviy saviyasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

1996-yil yanvarda Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazi huzurida “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi tuzildi. O‘zbekiston Respublikasi

³ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008, 4-5 -betlar

Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 sentyabrdagi “Oltin meros” xayriya jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” gi Qarorida o‘tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirish, buyuk ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan bebaho madaniy-ma’rifiy merosini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yodgorlik qilib qoldirish, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga qo‘shtan hissasini butun dunyoga qayta tanitish, uni keng targ‘ib etish, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga milliy g‘urur, milliy iftixor, Vatanga muhabbat va istiqlol g‘oyalariga sadoqat tuyg‘ularini singdirib borish kerakligi haqida aniq ko‘rsatmalar berildi.

O‘tgan yillar davomida “Oltin meros” jamg‘armasi sa'y-harakatlari natijasida buyuk allomalarimiz yaratgan ko‘plab madaniy-ma’naviy meros namunalari mamlakatimizdan va xorijiy davlatlardan izlab topildi, jamlandi hamda kutubxona va muzeylarga joylashtirildi. Endilikda bu namunalar xalqimizning rasm-rusumlarini, urf-odatlarini, marosimlarini o‘rganish, tiklash, xalqimizga qaytarish, ularning ma’no-mohiyatini, hozirgi kundagi ahamiyatini keng ommaga tushuntirish ishiga katta hissa qo‘shtoqda.

Mamlakatda qaramlik davrida taxqirlangan diniy qadriyatlar mustaqillik natijasida qayta tiklandi, islomshunos allomalarining ulug‘ nomi o‘z o‘miga qo‘yildi.

1993-yil sentaborda Buxoroda mashhur shayx Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi tantanalari bo‘lib o‘tdi. Yubiley munosabati bilan Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy yodgorliklar qaytadan tiklandi, uning ijodiga bag‘ishlangan qator risolalar chop etildi.

1998-yil Samarqandda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlandi. Shu kuni Xartang (Chelak) qishlog‘ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuyi ochildi. Yubiley munosabati bilan bobokalonimizning 4 jiddlik “Al-Jomi as-Sahih” kitobining ko‘p ming nusxadagi nashri o‘zbek kitobxonlariga taqdim etildi.

Mustaqillik xalqimiz taqdirini yuksaltirdi, ko‘hna zaminimizda azaldan istiqomat qilib kelayotgan turli millat vakillari o‘z qadri va insoniy huquqlarini egalladi, shu bilan birga uzoq muddatli me’yorlarning buzilishi, millatimiz va xalqimiz tabiatiga xos to‘g‘ri tushunchalarining toptalishiga chek qo‘yildi. Bugun har bir narsa o‘z nomi bilan atalmoqda, imon, e’tiqod, millat, Vatan kabi tushunchalar barchamizning ongimizda, ruhimizda va vujudimizda qaynoq buloq bo‘lib joylandi.

Madaniyatimizning milliyligi mustahkamlandi, asriy qadriyatlarimiz qaytadan tiklanib madaniyatimiz o‘zining tabiiy tarixiy-milliy, diniy va falsafiy negizlarini mustahkamladi. Buyuk allomalarimiz va tarixiy shaxslarning nomlari, milliy-madaniy merosimizning qayta tiklanayotganligi, ona tilimizga, dinimizga munosabat o‘zgarganligi ma’naviyatimizning yuksalishiga kuch-quvvat baxsh etib, jamiyatimizning kelgusi taraqqiyoti uchun zamin bo‘ldi.

O‘zbekiston Respubikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160 sonli Qarorida ta’kidlanganidek, “mustaqillik yillarda mamlakatimizda jamiyat hayotining ma’naviy-ma’rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas’uliyat hissini oshirish, yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo‘naltirilgan targ‘ibot tizimi shakllandi”⁴.

Mustaqillikka erishgaganimizdan keyin jamiyatimiz ijtimoiy hayotining turli jabhalarida, shiddatli tarzda ro‘y berayotgan ulkan taraqqiyot va yuksalish barchamizda xalqimizning o‘tmish madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytirmoqda. Bunday harakat o‘tmishda sodir bo‘lgan madaniy taraqqiyotni to‘laqonlik bilan tushunib o‘rganishga da‘vat etadi. Shu bilan birga bu murракаб jarayonni jamiyatimizning bugungi kundagi tub o‘zgarishlariga aynan ta’sir etib kelayotganligini ko‘ramiz. Nihoyat, o‘tmishda yashab o‘tgan ajodolarimizning ijtimoiy-ma’naviy dunyosini o‘rganib ularning nazariy hamda amaliy tajribalarini hozirgi zamon talablari darajasida hayotga tadbiq etish, yoshlarni istiqlol g‘oyalariga sodiq ravishda elparvar, vatanparvar etib tarbiyalash barkamol avlodni voyaga etkazish vazifasi yotganligini tushunib yetdik. Shu bilan bir vaqtida o‘tmishdagi milliy madaniyatimizning shakllanib, ma’lum sifatlarda taraqqiy etib kelganligini mukammal o‘rganmay turib hozirgi kunimizda mustaqillik madaniyatimizni taraqqiy ettirib bo‘lmasligini chuqr his etmog‘imiz kerak.

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda madaniyat, fan va ta’lim sohasida avvalgi davr bilan taqqoslab bo‘lmaydigan darajada beqiyos yutuqlarga erishildi. Chunonchi, O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgach, yurtimizning barcha viloyatlari uchun

⁴Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини опириши ва соҳани ривоҷлантиришини ялги босқичга кўтариш тўғрисида”ти ПҚ 3160-сонли қарори //Ҳаракат сўзи, 2017 йил, 29 июл.

an'anaviy bo'lgan hunarmandchilikka e'tibor kuchaytirilib, bu soha davlat va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Milliy hunarmandchilik sohasi bilan shug'ullanib, bu boradagi an'ana va udumlarimizni tiklashga o'z hissasini qo'shayotgan yurtdoshlarimizni rag'batlantirish maqsadida Prezident va hukumatning milliy hunarmandchilik va kasanachilik bilan shug'ullanuvchilarni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi bir qator farmon va qarorlari qabul qilingani bunga misol bo'la oladi.

Keyingi vaqtarda respublikamiz shahar va qishloqlarida xalq bayramlari va marosimlarining qayta tiklanishi va ularni takomillashtirishga e'tiborning oshganligi diqqatga sazovordir. Ramazon va Qurbon Hayitlarining nishonlanishi, ayniqsa, Navro'z bayramini tiklanishi jamoatchilik tomonidan qizg'in ma'qullandi. Yaqin o'tmishda yuz bergen xalq turmushining madaniy va ma'naviy sohasida ma'muriyatichilik, asrlar davomida tarkib topgan an'ana va qadriyatlarni mensimaslik kabi holatlar barham topdi. Azaliy qadriyatlarni ozida mujassam etgan Navro'z bayrami, "Xotira va qadrlash" kuni, "Birinchi pushta", "Birinchi ekin", "Don, maysa va suv" kuni, "Boy-chechak" bayrami, "Lola sayli" kabi ko'pgina marosimlar tiklandi.

Istiqlol yillarda O'zbekistonda ma'naviy hayotning ajralmas qismi bo'lgan xalqaro kino, teatr va musiqali festivallar o'tkazish yaxshi an'anaga aylanib qoldi. Xalq baxshichilik san'atiga e'tibor kuchayib, respublika konkurslari o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. Xususan, yil sayin ishtirokchilari soni ko'payib borayotgan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali jahon madaniy jamoatchiligi orasida keng shuhrat qozondi. Shuningdek, milliy kurashimiz xalqaro maqomga ega bo'lib, bu borada muntazam ravishda jahon championatlari o'tkazilishi yo'lga qo'yildi.


Tarix - ijtimoiy hayat hamda inson tafakkuri mahsulidir. Shunday ekan o'tmishda yuz bergen har bir hodisa ma'lum ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy muhit ta'sirida yuz bergenligini ko'ramiz. Unga nazar solsak, asrlar silsilasini varaqlash jarayonida har birimizdan alohida ziyraklik va zukkolik bilan ish ko'rishlik talab etiladi. Natijada voqealar zamiridagi mantiq, falsafa, ruhiyat, siyosat qo'yingki, har bir davrning o'ziga xos shukuhi-yu tashvishlari, sevinch-u izardorlari ko'zga yaxlitligicha tashlanayotganligining guvohi bo'lasiz. Bunday hol kishini fikrplashga, o'tmishni idrok qilib kelajakni aql yo'rig'i bilan belgilashga chorlaydi. Tarixning tafakkur mahsuli va ulug' murabbiyligi, uning muqaddas hamda oliy qadriyat

ekanligini o‘tmish ajdodlarimiz isbotlab keldilar. Jonajon tariximiz Mustaqillik davrida yana ham oliymaqom mavqe’ va nufuzga ega bo‘ldi.

Etnomadaniyat o‘quv fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichi ba’zi bir yo‘nalishlarida o‘qitiladigan **etnomadaniyat** fani yuqorida dasturulamal sifatida qo‘yilgan ulkan vazifalarni bajarishga qaratilgan. Bu fan asoslarini insonshunoslik fanlariga tayangan holda o‘rganamiz. Bularning zamirida yoshlarning umuminsoniy dunyoqarashini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish kabi omillarni ilmiy jihatdan tadbiq etib, yoshlarni istiqlol g‘oyalari asosida tarbiyalash vazifasi yotadi. Demak, etnomadaniyat fani asoslariga kirish uchun biz xalqimizning uzoq o‘tmish tarixiga e’tibor berishimiz zarur.

Avvalo “etnomadaniyat” atamasining etimologiyasiga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. **etnomadaniyat** atamasi ikki iboradan, ya’ni : etno va madaniyat so‘zleri qo‘shilmasidan tashkil topgan. **etno** - so‘zi yunoncha – elat, xalq, shu bilan birga, ma’lum bir elat yoki xalqqa bo‘lgan ishora, ko‘rsatuv ma’nolarini anglatса, madaniyat so‘zi arabcha “madina” – ya’ni, shahar, kent so‘zidan kelib chiqqanligi qator manbalarda qayd etiladi.

Shuningdek, etno iborasi biror xalqning kelib chiqishi (etnogenezi)ni ham ifodalaydi. Quyidagi 1-chizmada etnomadaniyat fanining asoslari aks etgan:



1-chizma Etnomadaniyat fanining asoslari

Shu bilan bir vaqtida **etno** iborasi ko‘pchilik ilmiy-nazariy manbalarda “etnografiya” atamasi bilan ham uyg‘un holda qo‘llaniladi. **Etnografiya** –xalqlarning kelib chiqishi, turmushi, moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganadigan fan bo‘lib, u biror xalqning turmushi, madaniyati va urf-odatlariga xos bo‘lgan xususiyatlariga ham e’tibor qaratadi.

Yana fanda *etno* iborasi bilan uyg'un ishlatiladigan *Etnonim* tushunchasi ham mavjud bo'lib, *Etnonim* – xalq nomi yoki xalq nomini ifodalovchi so'z sifatidagi atama hisoblanadi. Bu so'zni yanada mukammallashtirish maqsadida *Etnonimika* iborasi ham ishlatilib leksikologiyaning xalq, qabila hamda urug'chilik nomlarini o'rganishga qaratilgan bo'limiga aytildi.

Etnografi iborasini ham biz kundalik o'quv jarayonida qo'llaymiz va bu iborada biz etnografiya fani bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan mutaxassisni tushunamiz.

Bundan tashqari *etnografiya va folklor* tushunchalari bilan ataladigan fanlar ham mavjudki, shu o'rinda ularning izohiga e'tibor qaratish o'rinli:

1. *Etnografiya* – xalqning kelib chiqishi, turmushi, moddiy va ma'naviy madaniyati;

2. *Folklor* – xalqning og'zaki, yozma hamda musiqiy ijodini o'rganadigan fandir.

Shunday qilib bir so'z bilan aytish mumkinki, *etnomadaniyat xalqning, millatning uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, turmush tarzi, tili, urf-odatlari, tashqi dunyonı o'zlashtirish va o'zgartirish, o'zini, o'zligini idrok etish, anglash usullari, xullas, etnosning, millatning mavjudligini ifoda etuvchi ijtimoiy voqelikdir.*

O'zbek xalqining etnomadaniyati, uning etnogenezi masalalarini o'rganishga qiziqish mustaqillik yillarda yanada avj oldi. Ommaviy axborot vositalari va maxsus nashrlarda bildirilayotgan fikrlarni umumlashtirib, taniqli olim K.Sh.Shoniyo佐 shunday yozadi: "Etnografiya fanida elatni (millatni ham) belgilovchi bir qancha alomatlar mavjud: hudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy qismatning umumiyligi, ong tizimi, etnosning uyushqoqligi, ma'lum bir davlat doirasida bo'lishi, o'z etnik nomiga (etnomiga) ega bo'lishi, din umumiyligi va bir qancha boshqa alomatlar. Albatta, bu alomatlar etnosning shakllanish jarayonida ishtiroy etishi kerak bo'lgan. Ammo, amalda esa bu alomatlarni barchasi elatning shakllanayotgan kezlarida muayyan bir vaqtda hozir bo'lishi yoki bir davrda muhim rol o'ynashi mumkin bo'lmasan. Etnik alomatlarning biri, balki bir nechta bir vaqtda hosil bo'lsa, boshqasi esa keyinroq paydo bo'lishi mumkin. Ma'lum bir etnosni tashkil topishida til bosh rol o'ynagan

bo'lsa, ikkinchi bir elatning paydo bo'lishida xo'jalik, uchinchisida esa moddiy madaniyat yetakchi alomat bo'lishi ehtimoldan xoli bo'lmasa kerak”⁵.

Demak, etnomadaniyat etnogenezda muhim omildir, biroq uning barcha komponentlari bir vaqtida to'la namoyon bo'lavermaydi.

Mazkur soha taddiqotchilaridan biri O.Z. Nishonovaning qayd etishicha, o'zbek xalqi etnomadaniyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiylar va yondashuvlarni quyidagi yo'naliishlarga ajratish mumkin:

- ✓ Tarixiy-arxeologik yondashuv;
- ✓ Mifologik-diniy yondashuv;
- ✓ Sotsiolingvistik yondashuv;
- ✓ Folkloristik yondashuv;
- ✓ Jug'rofiy-etnografik yondashuv;
- ✓ Ijtimoiy-pedagogik yondashuv;
- ✓ Badiiy-estetik yondashuv;
- ✓ Sivilizatsion yondashuv;
- ✓ Sotsiologik (sotsiodinamik) yondashuv;
- ✓ Falsafiy-madaniy yondashuv va b.

Eng avvalo shuni aytish zarurki, ushu yondashuvlar ijtimoiy-tarixiy rivojlanishdan o'ziga taalluqli yo'naliishlarni tadqiq etadi. Ularning har biri etnomadaniyatdan o'z tadqiqot maqsadlariga taalluqli belgilarni, jarayonlarni, o'zgarishlarni qidiradi va ularni ilmiy-nazariy baholaydi⁶.

Aslida etnomadaniyat quyidagi tamoyil va sifatlarni o'zida aks ettiradi:

- etnomadaniyat tarixiy jarayon sifatida tarkib topib, turli davrlar mobaynidan ma'lum bir yutuq va kamchiliklarni o'zida namoyon qiladi;

- jamiyat ma'naviy-madaniy hayotini avloddan-avlodga yetkazib, uning kelajagi uchun zamin yarata oladi;

- o'tmish madaniyatni ongli ravishda o'rganish zarurligini, uni o'rganib olmasdan turib madaniy merosni yangi jamiyat farovonligi yo'lida qo'llashga asos bo'lmasligini ko'rsatib bera oladi;

-diniy, islomiy merosni chuqur o'rganishning ahamiyati ochib bera oladi;

⁵ Шониёзов Ш.К. Ўзбек халқининг этногенезига оид баъзи назарий мисалалар. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998, 6-сон. -33бет.

⁶ Нипонова О.З. Этник маданият ва маросимлар. Маъразалар матни. – Т.: ЎДСИ, 2009 йил, 6-бет.

-Markaziy Osiyo hududi moddiy-ma'naviy madaniyatning shakllanish va taraqqiyot markazi ekanligini isbotlab bera oladi;

-Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining tarixiy tarqqiyoti va uning mohiyatini to'g'ri tushunish zaruriyatini izohlab beradi;

-Sharq xalqlari ma'naviy madaniyatining asosiy tub negizlarini to'laligicha (tadqiqotlar asosida) o'rganishga da'vat etadi.

Etnomadaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini moddiy va ma'naviy, ijtimoiy, badiiy-estetik, axloq, xulq-atvor, imo-ishora, maishiy hayat kabi ko'rinishlarga ajratib o'rganish mumkin.

Etnomadaniyat sohasiga oid qator ilmiy izlanishlarni olib borgan olim U.H.Qoraboyev o'zbek xalqi etnomadaniyatining o'ziga xos xususiyatlariga xalq donishmandligi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush-madaniyati kabi ko'plab sohalarni kiritadi⁷.

Etnomadaniyat sohasini maxsus tadqiq etgan S.A. Arutyunov esa uni insonning mikrokosmida kechadigan ma'naviy va makrokosmida kechadigan moddiy madaniyatlar sistemasiga ajratib qarashni taklif etadi. Shu bilan birga u ushbu ikki sistemani uyg'unlashtirib, dialektik bog'lab keluvchi jismoniy yoki insoniy "vujudiy xatti-harakatlari madaniyati" ham bor, – deb ko'rsatadi. Ushbu sistemalar borliqni o'zlashtirish va o'zgartirish, insonni o'zini anglash va shakllantirish, iste'mol qilish (oziq-ovqatdan tortib badiiy estetik asarlardan huzur olishgacha), kishilararo aloqalarni va jamiyatdagi iyerarxik bog'liqlikni ta'minlovchi muloqot (kommunikatsiya) – normativ funksiyalarni bajaradi.⁸

O'z o'mida etnomadaniyat o'zbek xalqining milliy xususiyatlarini ifoda etadigan voqelikdir. Shu o'rinda milliylik o'zi nima? – degan savol tug'iladi. **Milliylik** deganda, eng avvalo, o'z millatini ulug'lash va uni himoya qilish, milliy g'urur va nafsoniyat tuyg'usi, o'zining tili, adabiyoti, madaniyati va san'ati, dini, tarixi va urf-odatlari, barcha ma'naviy qadriyailarini qadrlash, o'zi tug'ilib, voyaga yetgan ona diyorini ardoqlash, uning tabiatini, daryolari, ko'llari, musaffo osmoni bilan faxlanish tushuniladi.

⁷ Муродов М., Корабоев У., Рустамова М. Этномаданият.–Т.: Адолат, 2003.10-11 бетлар.

⁸ Арутюнов С.А. Народы и культуры. Развитие и взаимодействие.–М.:Наука, 1989. 129-130 с.

Muayyan xalqning etnomadaniyati eng avvalo uning ma'naviyati bilan chambarchas bog'liq. Ma'naviyat subyektiv xarakterdagi tushuncha, u ko'pincha axloqiy sifatlarni, munosabatlarni o'z ichiga oladi, etnomadaniyat esa millatimiz hayotidan muqim o'rinni olgan, tarixiy-madaniy qadriyatlarga aylangan boyliklardan iborat. Ma'naviyatga zamонавиy munosabatlar ham kirgани uchun u tez transformatsiyaga uchraydi, etnomadaniyatga esa o'z o'zagini asrash, hatto konservativlik xos. U yangi, zamонавиy o'zgarishlarga, modernizatsiyaga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'ladi, davr va hayot sinovidan o'tgan qadriyatlarning innovatsiya sifatida qabul qiladi. Xullas, etnomadaniyat milliy ma'naviyatning o'zagidir.

O'zbek xalqi ma'naviyatining etnomadaniyat bilan bog'liq, uyg'un jihatlarini an'anaviy va zamонавиy qadriyatlar orqali ko'rish mumkin. Ushbu qadriyatlarning bir-biriga dialektik bog'liqligi o'zbek xalqining dunyoda kechayotgan o'zgarishlarga, jamiyatni modernizatsiyalashga faol munosabatda bo'layotganini, ularning ijtimoiy taraqqiyotni dinamik voqelik tarzida qarab, ushbu taraqqiyot inson ongi, ijodiy faoliyat, madaniyatiga bog'liqligini to'g'ri anglayotganini ifoda etadi.

Etnomadaniyat genezisi va mohiyati nuqtai nazaridan ijtimoiy munosabatlarning madaniy boyliklar timsolidagi in'ikosidir. Shuning uchun har qanday etnomadaniyat o'z funksiyalari doirasida chegaralaniб qolmasligi, jamiyatda, kishilar ongi va hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan dialektik bog'liqlikda qaralishi lozim.

Madaniyat insonning biologik jihatlari bilan ham bog'liq. Bu o'rinda insonning nafaqat yeyish, ichish, kiyinish ehtiyojlari, shu bilan birga, har bir ijtimoiy guruhning o'z ehtiyojlari va intilishlariga muvofiq madaniyat yaratish xususiyatlari ham nazarda tutiladi. Demak, o'zbek etnomadaniyatini birinchidan, keng ijtimoiy munosabatlar, jamiyat hayoti, ikkinchidan, insonning ehtiyoj va intilishlari, turmush tarzi, psixologiyasi, oiladagi o'rni kabi omillar bilan bog'lab o'rganish zarur.

O'zbek xalqi etnomadaniyatining o'ziga xos ko'rinishlarini quyidagi ijtimoiy-madaniy faoliyatlarini orqali aniqlash, ohib berish mumkin:

- ✓ Markaziy Osiyo jug'rofiy muhitiga mos xo'jalik-madaniy tiplari;
- ✓ Oilaviy va maishiy hayot tarzi;
- ✓ Axloqiy-ma'naviy tarbiya usullari;
- ✓ Og'zaki ijodi;

- ✓ Ommaviy bayramlar va tomoshalardagi ishtiroki;
- ✓ Amaliy san'ati;
- ✓ Pazandachilik san'ati;
- ✓ Dam olish va hordiq chiqarish usullari;
- ✓ Ijtimoiy, siyosiy, huquqiy qadriyatlar;
- ✓ Tarixiy-madaniy tajribalarni asrashi;
- ✓ Ilm-fanga va dindagi gumanistik g'oyalarga e'tiqodi;
- ✓ Zamonaviy ijod turlarida ishtiroki kabi

Xo'jalik-madaniy tiplari bilan oilaviy va maishiy hayot tarzi bir-biriga bog'liqdir. Agar xo'jalik-madaniy tiplari o'troq yoki ko'chmanchi hayot, dehqonchilik, chorvachilik yoki kosiblik, hunarmandchilik kabilalar bilan belgilansa, oilaviy va maishiy hayot tarzi yaratilgan moddiy hamda ma'naviy boyliklardan foydalanish xususiyatlari, amal qilinadigan oilaviy an'analarda namoyon bo'ladi.

Axloqiy-ma'naviy tarbiya odamning fe'l u huyi va harakatida yaxshi fazilatlarni shakllantirmoq demakdir.

Og'zaki ijod turlarida har bir xalqning, ijtimoiy guruhning dunyoga, tuzumga, o'zgarishlarga o'ziga xos munosabatlari aks etadi. Allalar, maqollar, qo'shiqlar, ertak va afsonalar, o'zлari qahramoni bo'lgan dostonlarda xalqimiz etnomadaniyatining muhim jihatlari badiiy-falsafiy tasvirlarda o'z aksini topgan.


O'zbek xalqi etnomadaniyatida amaliy san'at alohida o'rinn egallaydi. San'at, ayniqsa amaliy san'at xalqning olamni idrok etish va o'zgartirishga bo'lgan intilishlarini yorqin aks ettiruvchi ijodiy-madaniy faoliyat turidir.

Etnomadaniyat mutlaq shakllangan, o'zgarmas vogelik emas, u jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy jarayonlar ta'sirida, kishilarning ma'naviy, madaniy, ruhiy ehtiyojlari, qiziqish va talablari ta'sirida transformatsiyaga uchraydi, o'z manfaatlariga mos innovatsiyalarni qabul qiladi. O'zbek etnomadaniyatida esa u zamonaviy san'at turlari - estrada musiqasi, tasviriy san'at, xor san'ati, texnika ijodiyoti, turizm, fizkultura va sport, askiyabozlik, sirk san'ati kabilalar bilan shug'ullanishda ko'rindi. Ushbu innovatsiyalar o'zbek etnomadaniyatini dam olish va hordiq chiqarish, ijodiy-madaniy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan yangi, noan'anaviy ijod turlari bilan boyitmoqda.

Mustaqillik o'zbek etnomadaniyatidagi an'anaviy qadriyatlarini qayta tiklash, ulardan unumli foydalanish, xalqimizning jahon madaniyatini va tsivilizatsiyasidan,

ilg'or davlatlar erishgan yutuqlardan, umuminsoniy qadriyatlardan bevosita va to'la bahramand bo'lishiga imkon yaratdi.

Etnomadaniyat fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. Etnomadaniyat fani bir qator ijtimoiy gumanitar fanlar bilan uzviy aloqadorlikda o'rGANILADI: Quyidagi 2-chizmada "Etnomadaniyat" fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi aks etgan:



2-chizma: Etnomadaniyat fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi

Etnomadaniyat Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy va madaniy tarixini o'rGANISHNING ba'zi masalalari, qadimiy ma'naviyat va madaniyat yodgorliklari, asotir tafakkur, islomiy tafakkur, mantiqiyl tafakkur muammolari, temuriylar davrida ma'naviy-madaniy hayot, Markaziy Osiyo xalqlarining birinchi va ikkinchi Uyg'onish davrlariga xos bo'lgan ilmiy-madaniy merosini, o'zbek xalqining kelib chiqishi tub negizlarini, bu xalqning jahon va boshqa xalqlardan farq qiluvchi xususiyatlarini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarini, oila, mahalla turmush madaniyatini, Turkistonda ma'rifatchilik madaniyati, jadidchilik harakatining mohiyati va buyuk siymolar iiodi, tarixiy ajdodlarimizning mumtoz merosini

o'rganishga sharoit yaratadi.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan nodir qo'lyozmalar, turli (moddiy, etnografik, yozma va boshqa) manbalar, o'zbek xalqining etnik madaniyatining yuzaga kelishi **tarix** fani bilan aloqadorlikda o'rganiladi.

Etnomadaniyat fani **falsafa** bilan ham uzviy bog'liq. Falsafaning qonun va kategoriyalari bevosita etnomadaniyatga xos bo'lgan nazariya va konsepsiylar uchun nazariy va metodologik asos bo'ladi.

Etnomadaniyatning **etika** bilan uzviy aloqadorligi etika fanining axloqiy norma, qoidalarni; axloqning manbai va kelib chiqishini, axloqiy kategoriyalarni, ya'ni, yaxshilik va yomonlik, or-nomus, vijdon kabi umumiy tushunchalarni, axloqiy e'tiqod, maslak va his-tuyg'ularni izohlab berishida namoyon bo'ladi. O'z o'mida axloqiy madaniyat etnik madaniyat tarkibida shakllanadi. Axloqshunoslikning o'zak tomiri bo'lgan odob, xulq, axloq tushunchalari muayyan xalq etnomadaniyatida ham muhim o'rinni tutadi:

Odob – inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa.

Shuningdek, etnomadaniyat estetika fani bilan uzviy aloqadorlikka ega. Chunki insondagi, jamiyat va tabiatdagi go'zallikni o'rganish, go'zallikdan boshqa ulug'verlik, fojiaviylik, kulgililik, mo'jizaviylik, uyg'unlik, noziklik singari ko'pdan-ko'p tushunchalarni tadqiq etish jarayonida estetika etnomadaniyat mo'jizalarini kashf etadi, xalq udumlari va an'analarining ulug'verligini namoyon qiladi.

O'z o'mida etnomadaniyat jamiyat tarkibiga kiruvchi alohida institutlar, tizimlar, guruhlar va ular orasidagi ijtimoiy munosabatlar to'g'risidagi fan – sotsiologiya bilan ham uzviy aloqador. Chunki sotsiologiya insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Etnomadaniyat muayyan millat, qavm, etnosning etnopsixologik xususiyatlarini o‘rganishda psixologiya fani an‘analariga ham tayanadi.

Etnomadaniyat bilan eng yaqin aloqadorlikda o‘rganiladigan fanlardan biri etnografiya bo‘lib, xalqlarning kelib chiqishi, turmushi, moddiy va ma’naviy madaniyati, urf-odatlari va ularga xos bo‘lgan xususiyatlarini o‘rganishda etnografiya fani manbalari hamda yutuqlaridan keng foydalaniladi.

Etnomadaniyatning folklor bilan aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq tomonidan yaratilgan barcha san’at namunalari, jumladan, me’morchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo‘zlik, musiqa, raqs, og‘zaki adabiyot namunalari – barchasini o‘rganishda folklor manbalarga tayaniladi.

Etnomadaniyat takomilini musiqasiz tasavvur etish qiyin. Zero, ajdodlarimiz hayotida etnomadaniyat tarkibiga kiruvchi bayramlar, marosimlar, tomoshalar muhim o‘rin egallab kelgan bo‘lsa, o‘z o‘rnida ularning rivojlanishida musiqa muhim o‘rin tutadi.

Etnomadaniyat tasviriy san’at, uning tarixi bilan ham bevosita bog‘liq. O‘sib kelayotgan yosh avlodning ijobiy qobiliyatlarini, ko‘rish xotirasi, marom va uyg‘unlik tuyg‘ularini, hayotdagи va san’atdagi nafosatni ko‘ra bilish hamda anglab yetish mahoratini, rang sezish, emotsiyonal sezgirlik, kuzatuvchanlik va obrazli tafakkurni o‘stirishda, sabr-toqat va fikrni bir joyga to‘plash ko‘nikmasini hosil qilishda tasviriy san’atdan kuchliroq omil va vosita bo‘lmasa kerak. Tasviriy san’atning ana shu spetsifik xususiyatlarida etnomadaniyat xususiyatlari bilan uyg‘unlikni ko‘rish mumkin.

Etnomadaniyat bilan aloqadorlikda o‘rganiladigan fanlar tizimida arxitekturaning alohida o‘rnii bor. Dunyoda istalgan mamlakatni olib qaramang, u o‘z me’morchilik an‘analari bilan ajralib turadi. Biron hudud haqida gap ketishi bilan aynan o‘sha joyga xos bo‘lgan betakror binolar, imoratlar ko‘z o‘ngimizda gavdalananadi.

Jumladan, o‘zbek milliy arxitekturasining betakror namunalari hisoblangan Samarqand, Buxoro, Qo‘qon va Xiva me’morchilik maktablari bugungi kunda ham turli xorijiy davlatlardan tashrif buyurayotgan sayyoohlar, YUNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar ekspertlari va olimlarining e’tiborini tortib kelmoqda.

Dunyo mamlakatlari orasida Yaponiya, Hindiston va Britaniya me’morchilik an‘analari haqida ham aynan shunday fikrlarni qayd etish mumkin. Sir emas, har bir

hududda imoratlarni bunyod etish jarayonida, avvalo, mavjud iqlim sharoiti, aholining urf-odatlari, turmush tarzi, dini va madaniyatni e'tiborga olinadi.

Etnomadaniyatning dinshunoslik bilan aloqasi alohida diqqatga sazovor. Chunki din, san'at va madaniyat doimo bir-birini to'ldirib keladi va ko'p hollarda biri boshqasi uchun yashash sharti bo'lib maydonga chiqadi.

O'sib kelayotgan yosh avlodni milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'lmas merosimizga mehr-muhabbat, ularga sodiqlik ruhida tarbiyalashda etnomadaniyatning pedagogika bilan aloqasi namoyon bo'ladi. Etnomadaniyat fani dasturiga kiritilgan ba'zi mavzularni yoritishda o'zbek pedagogikasining durdonalari bo'lgan shoh asarlardan, ularda ilgari surilgan ilg'or g'oyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlari asarlardagi pedagok g'oyalarni o'rgatish, ta'lim jarayonida ulardan foydalanish talabalarda ijodiy fikrlashni, o'zlikni anglashni, e'tiqodga sodiqlikni, Ona Vatanga muhabbat, millati farovonligi yo'lida qayg'urishni, davlatni yuksaltirish sohasida jonkuyarlikni, barcha go'zal insoniy fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Chunki, o'zbek xalq pedagogikasi va manbalari bo'lgan xalq donoligi narnunalari asrlar osha bizni ezungulikka, insoniylikka yetaklaydi.

Etnomadaniyat bilan uzviy aloqadorlikdagi fanlardan yana biri ma'naviyatshunoslikdir. Aslida ma'naviyat va madaniyat egizak va mushtarak tushunchalar hisoblanadi. Insonda ong shakllanib, tilning paydo bo'lishi madaniyatning ilk qadamlari sanaladi. Odamzod hali ma'rifatli bo'lmasdan avval rasm chizishni, kuy chalish va qo'shiq aytishni, diniy rasm-rusumlarni bajo keltirishni o'rgangani madaniyatning dastlabki shakllanishi va rivojlanishidan darak beradi. So'ngra insoniyat o'z tarixiy taraqqiyot yo'liga tushib olgach, asta-sekin ma'rifatli bo'la boshladi va madaniyatning yuksak pog'onalariga ko'tarilib bordi. Bu jarayon, shubhasiz ma'naviyatni madaniyat va san'at, ma'rifat va etnomadaniyatdan ajralmagan holda o'zaro aloqadorlikda bo'lishini, ma'lum dunyoqarash bilan mustahkamlanishini taqozo etadi.

Etnomadaniyat milliy g'oya bilan ham uzviy bog'liq fandir. Mohiyatan olib qaraganda, etnomadaniyat va milliy g'oya tushunchalari bir birini to'ldiradi.

Milliy g'oya – millatning o'tmishi, buguni va istiqbolini o'zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g'oya shaklidir. U bevosita insonlarning o'zligini anglashi bilan bog'liq.

Milliy g'oyada ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan etnos borlig'i ifodalanadi. O'zbek xalqining: "Yetti boboni bilgan er, yetti yurtning g'amin yer" degan hikmati bor. Bu esa o'z ajdodlari va ularning tarixini bilish demakdir. Demak, milliy o'zlikni anglash, avvalo, o'z xalqining tarixini, asriy an'analarini bilish, o'z etnik ildizlarini tanish bilan bog'liq.

Shuning uchun bugun o'zligini anglaydigan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish mamlakatimiz siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Chunonchi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishining "Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish" yo'nalishida "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" vazifasi ko'zda tutilganligi bejiz emas⁹.

Etnomadaniyat ana shunday vazifalarni ko'zda tutadi va milliy tarbiyaning asosiy resursi hisoblanadi. Shu ma'noda ham uni asrash, rivojlantirish va keyingi avlodga etkazish milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil qiladi.

Shu bilan birga etnomadaniyat quyidagi tamoyil va sifatlarni ham o'zida aks ettiradi:

- etnomadaniyat tarixiy jarayon sifatida tarkib topib davrlar mobaynida ma'lum bir yutuq va kamchiliklarni o'zida namoyon qilganligi;

- etnomologik sifat masalasida jamiyat ma'naviy-madaniy hayotini avloddan-avlodga yetkazib, uning kelajagi uchun zamin yarata olganligi;

- o'tmish madaniyatini ongli ravishda o'rghanish, uni o'rganib olmasdan turib madaniy merosni yangi jamiyat farovonligi yo'lida qo'llashga asos bo'lmasligi;

- diniy, islomiy merosni chuqur o'rghanish, uning milliy ma'naviyat va madaniyatning oliy sifati ekanligi;

⁹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳуҷожатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда.

-Markaziy Osiyo hududi moddiy-ma'naviy madaniyatning shakllanish zamini va taraqqiyot markazi ekanligi;

- Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatining tarixiy taraqqiyoti va uning mohiyatini to'g'ri tushunish;

-Sharq xalqlari ma'naviy madaniyatining asosiy tub negizlarini to'laligicha (tadqiqotlar asosida) o'rganish kabilarga e'tibor qaratadi.

Albatta yuqoridaq sifat va tamoyillarni har tomonlama o'rganish va kundalik faoliyatga tadbiq etish maqsadida, *birinchidan*, ajoddarimizning tarixiy evolyutsiya davrlarida qo'lga kiritgan yutuqlarini; *ikkinchidan*, xalqimizning madaniy-ma'rifiy merosi, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, rasm-rusumlarini; *uchinchidan*, xalqimizning axloq-odob saboqlaridan namunalarni mukammal o'zlashtirish zarur.

Har bir xalqning madaniyati uning milliy ma'naviyati hamda ma'rifiati bilan uzbek bog'langan. Mustaqil davlatimizning bugungi kundagi ma'naviy-madaniy taraqqiyoti islohatlar davrida qo'lga kiritilgan yutuqlarimizning garovidir. Vaholangki, biz bu tarixiy ma'naviy va madaniy yutuqlarni har tomonlama tadqiq va tashviq etish uchun yetarlicha shart-sharoit va imkoniyatlarga egamiz.

Shu o'rinda madaniyat atamasining mohiyatini izohlab o'tish zarur. Madaniyat iborasi arabcha *madina* (shahar, kent) so'zidan kelib chiqqan ekan¹⁰. Shahar ma'nosida kelgan madaniyat so'zining talqini kishilar hayotini ikki turdag'i ko'rinishi, ya'ni ko'chmanchi – dasht-u-sahrolarda yashovchi xalqlar hamda shaharda yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatalilib kelingan.

Madaniyat tushunchasi keng ma'noni anglatib jamiyat va inson tarixiy taraqqiyotining muayyan bir darajasi, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek ular yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi.

Madaniyat muayyan tarixiy davrlar, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar, masalan, **antik madaniyat**, **sotsialistik madaniyat**, shuningdek inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari, masalan **mehnat madaniyat**, **diniy madaniyat**, **san'at madaniyati**, **turmush madaniyatini** izohlash uchun qo'llanib kelinadi. Agarda bu so'zni tor ma'noda ishlatadigan bo'lsak bu atamani kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan mansubligini ko'ramiz.

¹⁰ Иброҳимов А., Султонов X., Жўраев Н. Ватан туйғуси. – Т.:Ўзбекистон, 1996, 114-115 бетлар.

O'rtta asr madaniyatining buyuk namoyondalari Abu Nasr Muhammad ibn Uzluq¹ Tarxon Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalar shahar turmush tarzini yetuklik shakli sifatida ekanligini ochib bergenlar.

Hazrat Navoiy yetuk axloq va obro'da, odob va insoniy fazilatlarga xoslikni, ma'rifatli va adolatli jamiyat, jamao masalasini olg'a surish bilan birga, ma'naviy yuksaklikka erishishning asosiy mezoni deb gumanistik ideallarga muvofiqlikni tushungan va o'z asarlarida bu ta'limotni namoyish etib kelgan.

Milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirishda etnomadaniyat fanining ahamiyati. Har bir jamiyat va davr o'z madaniyatiga ega bo'ladi. Jamiyat o'zgarishi bilan uning madaniyati, tili ham o'zgaradi.

Har bir yangi avlod moddiy va ma'naviy madaniyat negizini har gal yangitdan yaratmasligi mumkin. Shu bilan birga ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni o'z ehtiyojimiz va sharoitimizga qarab dunyoqarashimiz, jamiyatimiz va xalqimiz manfaatlariga mos keladigan, bugun va kelajak uchun xizmat qilishi mumkin bo'lган qismini qabul qilamiz. Sho'rolar o'z niyatlarini barcha xalq va elatlarga singdirish borasida bir qancha g'ayriilmiy "qonunlar" yaratganlar. Shulardan biri: "*Sharq – G'arbdan sira oldin turishi mumkin emas, jahon sivilizatsiyasi G'arbdan boshlangan, G'arb insoniyat madaniyatining ilk beshigi*"dir. – bu soxtalikning yana bir isboti shundan iboratki, sho'rolar davrida Markaziy Osiyoning g'ururi va shavkati hisoblanmish Samarqand shahrining yilnomasi maxsus tarzda qisqartirilib ko'rsatilgan. Aslida esa "**ro'yi zamin sayqali**" deb nom olgan **Samarqand 3800 yoshda**. Bu sana buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida to'liq isbotlangan. Beruniyning yozishicha, Samarqand Iskandar Maqduniy (Aleksandr Makedonskiy) Turonga kelishidan 1500 yil avval ham navqiron shahar bo'lган ekan. Iskandar Turonga mil. av. III-asrda bosqinchilik qilgan. Bu haqida buyuk adibimiz, akademik G'afur G'ulom ham bir suhbatda: "**Fotixlar anoyi bo'lmaydilar. Ayniqsa muallimning avvalning, piri komil Arastudek ustozining sbogirdi bo'l mish Iskandardek podshohni anoyi deb bo'lmaydi. O'sha olis zamonalarda Turon zamin obed, eli farovonu ma'mur bo'lган, Samarqandu Buxoro, Shosh va Xorazmda hayot qaynagan. Bu obodon o'lkaning dovrug'i Eron osha Yunongacha borib etgan. Iskandarning fotixlik qonini jo'shtirgan, bu yerlarni zabit etishga undagan**"- deb eslaganlar. Buyuk adibimizning bunday fikrlarini

izohlashga o‘rin bo‘lmasa kerak. Sho‘rolar siyosati, millatning ma’naviy - madaniy hayotini “sovietlashtirish, baynalminallashtirish, “Butun jahon proletarları, birlashingiz!” xitobi kabi zo‘ravonlik siyosati o‘zbek xalqi bilan birgalikda O‘rta Osiyodan tashqarida bo‘lgan qondosh xalqlar boshiga ham tushgan.

Mustaqillik sharofati bilan biz o‘zligimizni angladik, dinimiz va millatimizning mohiyatini tub ma’noda tushunib yetdik.

Xulosa qilib aytganda, etnomadaniyat fani asoslariga kirish jarayonida:

-talaba yoshlarga fanning tarixiy-ilmiy mohiyatini o‘rgatish;

-ularning barcha ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘zlashtirishlarini takomillashtirish;

-fanning nazariy hamda amaliy bo‘limlarini mukammal o‘rgatish;

-bo‘lg‘usi mutaxassis kadrlarning ma’naviy dunyosini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatni yuzaga chiqarishning omillarini ilmiy jihatdan tadqiq etish;

-ularni yuksak e’tiqodga munosib qilib tarbiyalash;

-o‘tmish ajdodlarimizning tarixiy merosini mukammal o‘rganishlariga zamin yaratish mazkur fan o‘qituvchilarining eng muhim vazifasidir.

Yuqorida qayd etilganidek, **etnomadaniyat** fani Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy va madaniy tarixini o‘rganishning ba’zi masalalari, qadimiy ma’naviyat va madaniyat yodgorliklari, islomiy tafakkur muammolari, temuriylar davrida ma’naviy-madaniy hayot, Markaziy Osiyo xalqlarining birinchi va ikkinchi Uyg‘onish davrlariga xos bo‘lgan ilmiy-madaniy merosini, o‘zbek va o‘zbek xalqining kelib chiqishi tub negizlarini, bu xalqning jahon va boshqa xalqlardan farq qiluvchi xususiyatlarini, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarini, oila, mahalla, turmush madaniyatini, Turkistonda ma’rifatchilik madaniyatini, jadidchilik harakatinig mohiyati va buyuk siymolar ijodi, tarixiy ajdodlarimizning mumtoz merosini o‘rganishga sharoit yaratadi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Etnomadaniyat, xalqimizning tarixiy shakllanish jarayoni, etimologiya, etno, etnografiya, etnografiya, folklor, etnonimika, etnograf , etnonim, etnogenet, etnik alomatlar, o‘zbek xalqi etnomadaniyatini o‘rganishning ilmiy-nazariy konsepsiyalari, xalq donishmandligi, xalq e’tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o‘yinlari, dam olish madaniyatni, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me’morchiligi,


xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush-madaniyati, o'zbek xalqi etnomadaniyatining o'ziga xos ko'rinishlari, o'z-o'zini anglash va hk.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Etnomadaniyat atamasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Etnomadaniyat fanini o'rganishdan maqsad nima?
3. Etnografiya nima? Etnonim iborasi qanday ma'noni anglatadi?
4. Nima uchun mustaqillik sharoitida xalqimizning turmush tarzi, urf-odat va an'analariga e'tibor qaratilmoqda?
5. O'zbek xalqi etnomadaniyatini o'rganishga qaratilgan ilmiy-nazariy konsepsiyalarni sanab o'ting...
6. O'zbek xalqi etnomadaniyatining o'ziga xos ko'rinishlari qaysilar?
7. Bir qator tadqiqotlarda milliy o'z-o'zini anglash ijtimoiy ong fenomeni sifatida talqin etilib, o'z o'mida 3 ta komponentdan iborat deb ko'rsatiladi. Ular qaysilar?
8. "Etnomadaniyat" o'quv fanining qanday maqsad va vazifalari bor?
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrdagi "Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilishicha, "hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida qancha qo'lyozma asarlar saqlanmoqda?
10. Nima uchun "Etnomadaniyat" fanini o'rganish - davr taqozosi?

2-§.Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyi, etnografiyasi muammolari

Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri sifatida. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelgan, deya baholanishi mezonlarini, ya'ni nima uchun shunday xulosaga keliunganligi sabablarini quyidagi 3-chizmada ko'rish mumkin:



3-chizma: Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelgan deya baholanishi mezonlari

Ko'plab qazilma hamda tekshiruvlar Markaziy Osiyo zaminining barcha hududlarida olib borilganligini bilamiz. Eramizdan million yillar burun bu zaminda kishilar yashab kelganligi ham isbotlangan.

Odamzodda ong paydo bo'libdiki, o'z davriga xos turmush tarziga, moddiy va ma'naviy madaniyatiga, ya'ni ma'lum darajadagi tsivilizatsiyasiga ega bo'la boshlagan. Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston xalqlari ham qadim zamonlardan beri hayot tarzini takomillashtirar ekan, turli qulayliklar yaratgan, odatlar, rusumlar esa an'anaga aylangan.

Ajdodlarimiz qoldirgan bu bebaho meros keyingi yillarda chuqur o'rganilmoqda. Qadimshunoslar va boshqa olimlar o'lkamiz o'tmishini tadqiq etib, bu makon jahon

tsivilizatsiyasining o'choqlaridan biri ekanligini ta'kidlaydilar. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining keyinchalik "Tarixiy xotirasiz keljak yo'q" nomi bilan risola tarzida chop etilgan tarixchi olimlar va jurnalistlar bilan suhbatida "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud" ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini jahon tan olmoqda", – degan edi¹¹.

Tarixchi, madaniyatshunos olimlarning fikrlariga asoslanib o'tmishdagi ajdodlarimiz madaniyatni ma'lum darajada rivojlanib o'tganligini asos deb qabul qiladigan bo'sak, bu madaniyat rivojlanish kurtaklarini eng qadimiy poleolit davridan, ya'ni O'rta Osiyoda odam zoti paydo bo'la boshlagan - 500 ming yil avvalgi davrlarga borib etadi. Shu bilan bir qatorda bu yarim million yil doirasidagi inson hayoti, madaniyati, rasm-rusm hamda odatlarini o'rganish uchun hozirgi kunimizda yetarlicha sharoitlarga egamiz¹².

Miloddan ilgarigi I-ming yilliklar boshlarda, ya'ni bundan 30-26 asrlar muqaddam Markaziy Osiyoda o'troq dehqonchilik rivoj topishi, ibtidoiy jamiyat yemirila borib quldarlik tuzumining vujudga kelishi, Sug'd, Xorazm, Baqtriya kabi davlatlarning paydo bo'la boshlashi, yangi diniy qarashlarning shakllanishi natijasida o'sha davrga xos bo'lgan turmush tarzini ifodalovchi an'ana, rasm-rusumlar, marosim va bayramona qadriyatlar yuzaga kelgan.

Farg'ona vodiysining So'x tumanida topilgan Sulung'ur g'oridagi asoriatiqalar, Anov va Namozgoh, Sopollitepa qazilmalarining namunalari ajdodlarimizning qadimgi makonlari qanday bo'lganligi, hayot va turmush tarzi, ma'naviy-madaniy xususiyatlari to'grisida ma'lum tasavvurlar hosil qilishga imkon beradi.

Agarda biz tarix zarvaraqlarini ochishga e'tiborimizni beradigan bo'sak, Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan ajdodlarimiz –saklar, massagetlar, baqtriyalar, sug'diyalar, xorazimiylar o'zları yashayotgan qadimgi viloyatlar, tumanlarni doimo asrashga, bir-birlariga yaqin bo'lishga intilishgan¹³. Dehqonchilik vohalarini o'rab olgan dasht-u-adirlarda yashovchi chorvador xalqlar saklar nomi bilan mashhur bo'lib, ularning voha xalqlari tili, dini, kelib chiqish ildizlari, urf-odatlari bir-biriga

¹¹ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак тўйк. //Тарихчи олимлар ва журналистлар билан сұхбат. "Мулоқот" журнали. 1998 йыл 5-сон.

¹² Корабоев У. Ўзбекистон байрамлари. –Т.: Ўқитувчи, 1991, 6-7-бетлар.

¹³ Карапан: Ўзбекистон халқлари тарихи. –Т.: Фан, 1992, 1-жилд, 4-5-бетлар.

yaqin, ular tashqi dushmanga birgalashib kurashgan. Qavm-qarindosh, quda-anda bo'lib yashashgan, bir daryodan suv ichishgan, birgalashib O'rta Osiyoning qadimgi madaniyatini yaratganlar.¹⁴

Mintaqamizning muhim xususiyatlaridan biri uning murakkab etnik-madaniy chorrahada joylashganidir. Aholi bir qancha turli qavm, qabila va elatlardan tashkil topgan va ular etnik jihatdan aralashgan holda yashaganlar. Shu bilan birga aholining ko'pchiligini turkiy va forsiy-tojik ajdodlari bo'lgan, ular o'zaro hamjihatda yashaganlar, san-manga bormaganlar. Bu ham bag'rikenglik, tolerantlik xislatlarining sarchashmalari bo'lsa kerak.

Qadimda o'lkamizda yashagan aholining ma'nnaviy va madaniy qiyofasi mashhur "Avesto" mazmunida o'z ifodasini topgan. Ma'lumki, bu muqaddas kitob Markaziy Osiyo xalqlari to'g'risidagi dastlabki noyob manbadir. "Avesto" avval xalq og'zaki ijodi shaklida tarqalgan va bir necha asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib, qadimgi Turon, Xuroson, Eron, Ozarbayjon elatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotini, olam haqidagi tasavvurlarini va diniy qarashlarini o'zida aks ettirgan. Bu asar ko'p yillar davomida zardushtiylik-otashparastlik dinining ulamo kohinlari tomonidan to'ldirilib, takomillashtirilgan. Abu Rayxon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ta'kidlanishicha, "Avesto" ilk bor mil. av. VI asr boshlarida to'liq holda 12 ming qoramol (ho'kiz) terisiga zarkal harflar bilan bitilgan. Iskandar Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) sharqni zabb etganda "Avesto"ning nodir nusxasidan o'ziga ma'qul bo'lgan joylarini tarjima qildirib olib qolgan, boshqa qismini esa yoqtirib yuborgan. Shu sabab, bu qomusiy asarning 5 dan 3 qismi kuydirib yuborilgan. Keyinchalik – milodiy I-IV asrlarda "Avesto"ning qolgan qismlari jamlanib, ayrim joylari qayta tiklanib, yangidan kitob holiga keltirilgan. Bizga qadar "Avesto"ning ayrim qismlarigina yetib kelgan. Bular: "Yasna" - ibodat paytida ijro etiladigan matnlar, "Yasht"-otashparastlarning tangrini ta'riflash madhiyalari, "Vendidot"-zulm timsoli - devlarga qarshi qonunlar va afsonalar, "Visparat" - ibodat yo'sinlari va mazmuni haqida ma'lumotlardir.

"Avesto" katta hajmda bo'lganligi sabab, dindorlarning kundalik faoliyatida foydalanishi uchun kichik "Avesto" ham yaratilgan. Unga katta "Avesto"dan tanlab olingan duolar kiritilgan. Demak, "Avesto"da zardushtiylik dinining qonun-qoidalari, ibodat vaqtida ijro etiladigan qo'shiqlari bitilgan.

¹⁴ Shu manba.

“Avesto” ta’limotining asoschisi tarixda payg’ambar nomi bilan tanilgan Zardushtra (Zardust) ismli shaxs bo’lgan. Zardushtra –“oltin tuyali” yoki “oltin tuya” yetaklovchisi, degan ma’noda ishlatilgan. Zardushtra otashparastlik g’oyalarini o’z hamfikrlari bilan birgalikda Katta Xorazm, Baqtriya, Sug’diyona, Eron, Ozarbayjon qisman Hindiston aholisi o’rtasida targ’ib etgan.

Beruniy keltirgan rivoyatga ko’ra, Baqtriya podshosi Vishtasp va malika Xutaosa birinchilardan bo‘lib zardushtiylik e’tiqodini qabul qilganlar, so‘ng bu din keng yoyilgan.

“Avesto”da dunyo ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashidan iborat, ezgulik xudosi Axuramazda (Xurmuzd) yovuzlik tangrisi Axriman ustidan g’alaba qozonishi bayon etilgan. Zardushtiylik dinida olov muqaddaslashtirilib, u insonning baxt-u-saodati ramzi sifatida ulug’langan.

Zardushtiylik jamiyatda barcha odamlar tanasining rangidan, tili, urf-odatlari va yashagan joylaridan qat’i nazar, osoyishtalik bilan yorqin hayot kechirishga haqlidir, deb hisoblaydi. Bu din odamlarni jur’atli, dovyurak, yetuk insonlar bo‘lishga da’vat etadi. Otashparastlikda zamin (yer), suv, quyosh va havo ilohiyat darajasiga ko’tariladi va ularni ifloslash og’ir gunoh hisoblanadi. Kitobda aytlishicha, Zardusht odamlarga murojaat qilib, yerga, tuproqqa sifatli urug’lar sepinglar, pirovard natijada o’zlarigiz har xil illatlardan va balolardan xoli bo’lasizlar. Bilib qo’yinglar, ishlov berilmagan tashlandiq yerlarda turli kasalliklar, iflos narsalar va balo-qazolar paydo bo’ladi. Demak, sizlar yerga ishlov berib, unga yaxshi urug’ sepib, tuproqni e’zozlasangiz har xil balolardan qutulasiz, hayotga, insonga ishonchingiz kuchayadi, yashagan joyingizga, vatananingizga mehringiz oshadi, deydi.

Ko’rib turibmizki, zardushtiylikda tabiatga ehtirom asosiy yo’nalish bo’lgan. Zardushtiylik diniga oid turli buyumlar, rasmlar, urf-odat asoratlari qadimgi Xorazm, So‘g’d va boshqa o’lkalarda ko’plab topilgan.

Ko’pchilik tadqiqotchilarning fikricha, “Avesto”ning Vatani Amudaryo sohili, aniqrog’i qadimgi Xorazmdir. Bu asarda olingen 16 yirik hududiy-geografik nomlarning ko’pchiligi O’rta Osiyoga taalluqlidir. Bular Xorazm, So‘g’d, Baqtriya yurtlari, Hisor, Pomir, Tiyonshon tog’lari, Kaspiy, Orol, Issiqko’l suv xavzalari, Amudaryo va Sirdaryolardir. Demak, bu muqaddas asarda geografiyaga oid mulohazalar ham bisyor.

“Avesto” jahon olimlari tan olgan boqiy yodgorlik, noyob tarixiy manba. U dunyoning ko‘p tillariga tarjima qilingan. Kitob fransuz, ingliz, rus, nemis, fors va boshqa tillarda chop etilgan. Asarning jahon madaniyati va dinlar tarixida tutgan o‘mi beqiyosdir. Shuning uchun ham 1999 yil noyabrdagi YUNESKO bosh konferensiysi “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligini dunyo miqyosida keng nishonlashga qaror qildi, 2001 yil oktabrida Xorazm zaminida “Avesto” va uning insoniyat taraqqiyotidagi o‘mi mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya o‘tkazildi.

Ma‘lumki, qadimgi zamон moddiy va ma’nавиy taraqqiyoti fonda antik, ya‘ni, qadimgi tsivilizatsiya deb ataladi Jahanning turli mintaqalarida vujudga kelgan bunyodkorlik va taraqqiyot bora-bora umuminsoniy qadriyatlarga, madaniyatga, tsivilizatsiyaga aylandi. O‘zbekiston esa insoniyat tsivilizatsiyasining qadimgi o‘choqlaridan biri bo‘lgan. Demak, o‘lkamizda yashab o‘tgan qadimgi odamlar jahon ravnaqiga, uning bugungi rivojiga o‘zining munosib hissalarini qo‘shganlar. Shu bois bugungi mustaqil O‘zbekiston xalqlarida milliy g‘urur bilan birga taraqqiyotga, tsivilizatsiyaga intilish hissi kattadir.

Xitoyning Tinch okeani bilan Hindiston, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Yevropa davlatlarini bog‘lovchi qadimgi savdo yo‘li - Buyuk ipak yo‘lidir. Bu yo‘l orqali asosan ipak eksport qilinganligi sababli “Ipak yo‘li” nomi bilan shuhrat qozongan. Bu yo‘l m.a. II asrдан to milodiy XV asrgacha, suv yo‘llari rivojlancha Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Eron, Yaqin Sharq hamda O‘rta Yer dengiz mamlakatlari o‘rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojida muhim rol o‘ynagan.

Manbalarga qaraganda, Sariq dengiz qirg‘oqlaridan Xuanxe daryosidagi Sian shahridan boshlangan dastlabki yo‘l Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan (Xutan), u yerda ikkiga ajralib, biri shimoli-g‘arbga, ikkinchisi janubi-sharqqa yo‘nalgan. Karvon yo‘lining umumiyligi 12 ming chaqirim atrofida bo‘lgan. Nemis muarixi K.Rixtgofen 1887 yil ushbu yo‘nalishga ilk bor “Buyuk ipak yo‘li” degan nisbat beradi va bu ibora muomila (istofoda) ga kiritiladi.

Shimoliy yo‘l Turfon orqali Tarim vohasiga va bu yerdan Qashg‘ar, Dovon (Farg‘ona vodiysi) ga borgan. U yerdan So‘g‘dning markazi Samarqand va Marg‘iyona (Marv) ga yo‘nalgan. Ipak yo‘li Farg‘ona vodiysida yana juft tarmoqqa bo‘lingan. Janubiy qismi O‘zgandan O‘sh, Quva, Marg‘ilon, Qo‘qon orqali Xo‘jand, Samarqand, Buxoro sari uzaygan. Keyingisi Aksi (Andijon) va Qamchiq dovonidan

o'tib, Iloq vohasi hamda Toshkent tarafga engan. Demak, qamchiq tarixiy yo'lning uzviy bo'lagi hisoblangan. Bu yo'l mohiyat-e'tibori bilan Sharq va G'arbni turli jabhalarda bog'lovchi yo'ldir (savdo-sotiq, diplomatiya, madaniyat va boshqalar).

Shu karvon yo'l orqali Xitoydan ipak, Xitoya esa har xil gazlamalar, gilam va poloslar, oyna, metall, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbaho tosh va dorivorlar keltirilgan. Baqtiriya va Dovon (Farg'onasi) dan ot va tuyalar olib borilgan. XV-XVI asrlardan bu yo'lning ahamiyati ancha pasaydi, ammo Markaziy Osiyo respublikalarining siyosiy mustaqillikka erishuvli tufayli, bu yo'lni yanada jonlantirishga katta ehtiyoj tug'ildi. Xitoy, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston, Kaspiy dengizi orqali Ozarbayjon, Gruziya, Qora dengizga chiquvchi undan Yevropa (Parij, Rotterdam) ga yetkazuvchi yo'l loyiha ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda, bu yo'lning kelajagi porloq.

Endi esa, moziyga qaytib, O'rta Osiyoning Buyuk ipak yo'li o'rni va eksport potensialiga e'tiborni qaratssak. Markaziy Osiyoga, xususan, hozirgi O'zbekiston hududiga qiziqish avvaldan ma'lum va bu har tomonlama (siyosiy, iqtisodiy jihatdan) ahamiyatli bo'lgan. Tarixiy va hozirgi ma'lumotlarga ko'ra, bu hudud, yer, suv, iqlim, tabiat, geografik o'rni, qazilma boyliklari, hayvonot dunyosi jihatidan ajralib turgan. Aholining mehnatsevarligi, mirishkorligi, bunyodkorligi, kasb-hunarga mehr qo'yganligi va ijodkorligi muhim ahamiyatga ega.

Hudud zaminida turli-tuman boyliklar, ayniqsa oltin, kumush, boshqa rangli metallar va javohirlarning mavjudligi va serobligi shu soha hunarmandchiligi rivojida hal qiluvchidir. Ayniqsa oltin ajnabiylami magnit (oxangrabo) kabi tortganligi aniq.

Bu o'lka eksport potensialida oltin, kumush va undan qilingan zeb-u-ziynatlar, zargarlik buyumlari, sifatli po'lat olish va undan yasalgan asbob-uskunalar, ayniqsa, qilich, qalqon va boshqa harbiy asbob-anjomlar, ipakdan to'qilgan xon atlas va boshqa nafis matolar, ajoyib ko'rinishli qorako'l terisi va undan tikilgan buyumlar xaridorgir bo'lgan.

Markaziy Osiyo donishmandlarining kitoblari, diniy va ilmiy asarlar hammani qiziqtirgan. Kitob yozish (xattotlar) san'ati ham yuqori bo'lgan. Miniatyura san'ati yuqori darajada rivojlangan.

Shu sababli bilim, ilm makoni bo'lgan kitob savdo-sotig'i yetakchi o'rinni egallagan. Hozirgi davrda ko'plab taniqli mutafakkirlarimizning asarlari xorij davlat va shaxsiy kutubxonalaridan topilmoqda va o'z Vatani, O'zbekistonga

qaytarilmoqda. Bu fakt shundan dalolat beradiki, o‘z davrida kitob savdosi Buyuk ipak yo‘lining asosiy faoliyatidan biri bo‘lgan, demak, bu yerdan chetga ko‘plab ilm va san‘at asarlari chiqarilgan.

Mamlakatimizda dunyodagi eng yaxshi ot zotlari bo‘lganligi ma'lum, xalq eposida uchqur, ziyrak tulporlar haqidagi rivoyatlar haqiqatga juda yaqin. Masalan, Xitoy elchisidan uni qanday tuhfa qiziqtirishini so‘ralganda, ot olishni afzal ko‘rgan. Otlar xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida, harbiy xizmatda, transport vositasi sifatida, uloq chopish, chovgan o‘ynash, zeb-ziynat sifatida nihoyatda qadrlangan. Shu sababli otlar eksportda yetakchi o‘rinni egallagan.

Qishloq xo‘jaligida paxta yetishtirish va paxtadan olinadigan mahsulot asosiy o‘rinda turgan. Polizchilik (ayniqsa, qovunchilik), bog‘dorchilik (uzum) yaxshi rivojlangan. Agar bizga ipak yetishtirish Xitoydan kirib kelgan bo‘lsa, xitoyliklar bizzdan zotli otlar sotib olgan, uzum va beda yetishtirishni o‘rganishgan.

Vatanimiz hududida qorako‘l teri beradigan qo‘ylar parvarishi muhim bo‘lib, ularning terisi bilan savdo qilish muhim ahamiyat kasb etgan. Hozirgi davrda ham bu sohaga e’tiborni kuchaytirish O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash uchun zarur vosita hisoblanadi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, bir karvonda 500-1000 tagacha odam, ot, tuya, boshqa ulovlar, savdogarlar bilan birga diplomatlar, elchilar, hajga boruvchilar, harbiy qo‘riqchilar bo‘lgan. Butun yo‘l boshidan-oxirigacha 120-150 kun davomida bosib o‘tilgan.

Demak, yuqoridaq dalillarga tayanib xulosa qilish mumkinki, Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiylari markazlaridan biri bo‘lgan.

O‘tmishdagi ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish kurtaklari. “Avesto” kitobidagi va boshqa ma'lumotlarga ko‘ra, qadimda, taxminan bundan 3-3,5 ming yil muqaddam Markaziy Osiyo jamiyati alohida yirik oilalardan tashkil topgan ekan. Urug‘ jamoasi (vis) yerga egalik qilgan, bir nechta bir-biriga yaqin bo‘lgan urug‘lar qabilaga birlashgan. Nisbatan yirik qabilalar esa muayyan hududda birgalashib yashaganlar. Bu birlashma **daxyo** degan nom olgan. Viloyat boshlig‘i **daxyopati** deb atalgan. Ana shu uyushma dastavval harbiy-siyosiy birlashma sifatida paydo bo‘lgan. Ular o‘zi yashagan hududni mudofaa qilgan. Sug‘orish ishlarini uyshtirgan va boshqarib borgan. Qabila boshliqlari vaqt-i vaqtida to‘planib, kengashib turishgan. Bular dastlabki davlatchilikning alomatlari edi. Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot

jarayonida jamiyatning siyosiy tuzilmasi davlat va uni boshqaruv tizimi muttasil takomillashib borgan. Xususan, davlatlar paydo bo'lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan "Sharq yo'li" bo'lib, unda iqtisodiyotning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Binobarin, yer va irrigatsiya inshootlari davlatning mulki bo'lgan. Shuningdek, dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yachevkasi, ya'ni hujayrasi hisoblanagan. Aholining katta qismini safarbar etish zarurati esa, qat'iyatli boshqaruvchilar tabaqasining shakllanishiga olib kelgan.

O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'i – alohida tarixiy-geografik va tarixiy-madaniy hududdir. Uning tsivilizatsiyasi Amudaryo va Sirdaryo tufayli ko'p ming yilliklar mobaynida vujudga keldi.

Bu mintaqada yuzaga kelgan davlatlar qadimgi davrlarda ham, o'rta asrlarda ham umumiy belgilarni bo'lishiga qaramay, Markaziy Osiyoning boshqa ismlardagi davlatlaridan o'ziga xos belgilariga ko'ra ajralib turgan, Markaziy Osiyodagi ikki daryo oralig'i hududi doirasining o'zida ham shimoliy viloyatlar (Xorazm) va janubiy viloyatlar (Baqtriya), ayniqsa, qadimgi davrlarda etnik va madaniy, til va yozuv, davlat qurilishi tizimi jihatidan bir-biridan farq qilgan. Bu har bir viloyatga xos bo'lgan madaniy-genetik tiplar, darajasi har bir viloyatda turlicha bo'lgan o'troq va ko'chmanchi xalqlarning raqobatlashuvi bilan belgilangan.

Qadimgi davrda, Markaziy Osiyodagi ikki daryo oralig'ida davlat birlashmalarining har xil shakllari mavjud bo'lgan. Jumladan:

1. Davlat tipi – podsholik. Boshqaruv shakli – mutlaq monarxiya.
2. Davlat tipi – konfederativ podsholik. Boshqaruv shakli – cheklangan monarxiya. Ular odatda qabila boshliqlari yoki o'z tangasini zarb qiluvchi urug' boshliqlari tomonidan boshqariladigan bir nechta mustaqil o'lkalardan iborat bo'lgan.
3. Davlat tipi – mulkka egalik qilish. Boshqaruv shakli – qabila doxiylari yoki urug' boshliqlarining meros qilib qoldiriladigan hokimiyati.

Ilk davlatchilikning tashkil topishi bilan hunarmandchilik rivoj topgan. Ayrim yirik qishloqlar kengaya borgan. Ularning atrofi baland mudofaa devori bilan o'ralib, uning tashqarisida qo'rg'onli turar joy, jamoat ahli uchun umum ibodatxona kabi yirik binolar qad ko'targan. Ilk shaharsozlikka xos bunday mahobatli inshootlar mil.av.2-ming yillikning 2-yarmi va 1-ming yillikning boshlarida barpo etila

boshlangan. Bu shubhasiz, istehkomli yirik qishloqlar zaminida ilk shaharlarning paydo bo‘lishi edi.

Markaziy Osiyodagi qadimgi davlatchilik evolyutsiyasini (taraqqiyotini) bir necha davrlarga ajratib ko‘rsatish mumkin.

1-davr – miloddan avvalgi II-ming yillikning ikkinchi yarmi – O‘zbekiston janubida davlatchilik tuzilmalarining ilk belgilari paydo bo‘ldi. Davlatning bunday namunasi Jarqo‘ton yodgorligi ostidan topib o‘rganildi. Shahar 2 qism: hokim qarorgohi ark (xisor) va turli xil kasbdagi hunarmandlarning turar joy va ustaxonalari joylashgan Shahristonidan iborat. Bu ilk shahar – davlatchiligining umumiy maydoni qariyib 100 gektarga teng. Shahriston bo‘ylab atrofi alohida-alohida devorlar bilan mustahkamlangan 20 ga yaqin turar-joy, mahalla kuylar joylashgan. Jarqo‘tonning eng baland qismida otashparastlarning ibodatxonasi qad ko‘targan. Shahristonning janubida ilk shaharliklarning qabristoni bo‘lgan. Markaziy Osiyoning janubiy hududida yuzaga kelgan bu ilk shahar-davlatchada kulolchilik, to‘qimachilik, amaliy san‘at va binokotlik kabi ixtisoslashgan hunarmandchilik yuqori darajada rivoj topgan. Hunarmandchilik mahsulotlari nafaqat ichki bozor, balki tashqi bozor uchun ham keng ko‘lamda ishlab chiqilgan. Shahar aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo sotiq bilan shug‘ullangan erkin dehqon jamoalari, hunarmandlar, savdo ahlidan iborat bo‘lgan.

2-davr – miloddan avvalgi I-ming yillikning boshida Xorazm, Baqtriya, So‘g‘d tarixiy-madaniy viloyatlarining shakllanishi.

3-davr – miloddan avvalgi VI-V-asrlarda Ahamoniylar bosqini va Markaziy Osiyoning Ahamoniylar davlati tarkibiga kirishi natijasida mahalliy davlatchilik rivojlanishidagi tanaffus.

4-davr – miloddan avvalgi IV-III-asrning yarmi A.Makedonskiy bosib olgandan boshlab Yunon-Baqtriya podshohligining qulashigacha. Bir vaqtning o‘zida mahalliy davlatchilikning tiklana borishi.

5-davr – miloddan avvalgi II-asrning yarmi va milodiy I-asrning boshi. Mahalliy davlatlar: Qang‘, Xorazm podshohligi So‘g‘d, Dovon davlatlarining mustahkmlanishi va yanada rivojlanishi.

6-davr – milodiy I-asrning boshidan III-asrning yarmigacha. Mahalliy davlatchilikning ravnaq topishi. O‘zbekistan janubiy hududlarining Kushon imperiyasi tarkibiga kirishi.

Davlatchilik rivojlanishining II-bosqichi bo‘lgan mil.av. I -ming yillikning 1-yarmida daryo bo‘ylaridagi vodiylarda yirik sug‘orish tarmoqlari barpo etilishi bilan dehqonchilik maydonlari tobora kengayib bordi. Ayrim sersuv kanallar bo‘ylab ziroatkor vohalar shakllandi. So‘g‘d (Samarqand), Baqtriya (Baxtar) va Xorazm kabi tarixiy-madaniy viloyatlar tashkil topdi.

“Avesto” hamda yunon mualliflarining guvohlik berishicha, miloddan avvalgi VII-VI-asrlarda O‘zbekistan hududida So‘g‘diylar, Baqtriyaliklar, xorazmliklar, sak va massaget elatlari yashaganlar. Zarafshon va Qashqadaryo vodiysisida dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi ko‘plab aholi istiqomat qilgan. Yozma manbalarda bu hudud So‘g‘da (Tova) (“Avesto”da), Suguda (Bexistun yozuvlarida), Arrian, Strabon, Kursiy Ruf asarlarida esa So‘g‘diyona deb nomlangan.

Amudaryoning quyi oqimida yashaydigan o‘troq dehqon elatlari xorazmliklar bo‘lgan. Ularning yurti **Xvarizam** (“Avesto”da), **Xvarazmish** (Bexistun yozuvlarida), **Xorasmiya** (Arrian, Strabon asarlarida) deyilgan.

So‘g‘diylarning eng yaqin qo‘snilari baqtriyaliklar bo‘lib, ularning yurti Surxon vodiysi, Afg‘onistonning shimoli, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashgan. Yozma manbalarda u Baxdi (“Avesto”da), Baqtrish (Bexistun yozuvlarida) deb nomlangan. Yunon-rim mualliflari uni Baqtriana yoki Baqtriya deb ataganlar.

O‘rta Osiyoning o‘troq dehqonchilik viloyatlarida, asosan, ziroatchilik bilan shug‘ullanuvchi so‘g‘diylar, baxtarliklar va xorazmliklar yashagan. Ular atrofida dashtlik va tog‘ oldi hududlarida chorvador qabilalarning yaylov-manzilgohlari joylashgan edi. “Avesto”da O‘rta Osiyoning chorvador aholisi –“tur”lar, ular yashaydigan el-yurt esa Turon nomlari bilan tilga olinadi. Qadimgi Turon chorvadorlarining eng jasur, jangovori saklar va massagetlar edi. Ular Yevro-Osiyo (Dunay havzasasi)dan Oltoygacha bo‘lgan hududlarda yashovchi skiflarga qon-qarindosh bo‘lgan. Miloddan avvalgi VI asrda ular o‘z yerlarini qabilalar hujumidan himoya qilish uchun o‘zlarining harbiy ittifoqini tuzadilar.

Qadimgi rim va yunon tarixchilarining yozishlaricha, saklar uch ijtimoiy guruhga bo‘lingan. Ularning ko‘pchilik qismi “**saka tigraxauda**”, ya’ni, “**o‘tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar**” deb atalgan. Ular hozirgi Toshkent viloyati va Janubiy Qozog‘iston yerlarida yashaganlar. Ikkinci guruh “**saka tiay darayya**” ya’ni, “**daryoning narigi tomonida yashovchi saklar**” deb atalgan. Ular

Orol dengizi bo‘ylarida, Sirdaryoning quyi oqimida yashaganlar. Pomirning tog‘li tumanlarida va Farg‘onada “saka-xaumovarka” deb ataluvchi saklar yashaganlar. “Saka-xaumovarka” – “marosimiy muqaddas ichimlik – “xauma” iste’mol qiluvchi saklar” deb yuritilgan.

Sak qabilalarining hammasi ham faqat chorvachilik bilan kifoyalanmaganlar. Masalan, xaumavarka saklari yilqichilik qatorida g‘allakorlik bilan ham mashg‘ul bo‘lganlar. Tigraxauda saklari esa, mayda shoxli hayvonlarni boqish bilan bir qatorda dehqonchilik ham qilganlar.

Ma’lumki, dehqonlarning hayotida eng quvonchli voqeа hosilni nest-nobud qilmay yig‘ib - terib olishdir. Yil bo‘yi kutilgan bunday jarayon, tabiiyki, dehqonlarda o‘z mehnatlariiga bo‘lgan munosabat hamda ko‘tarinkilik ruhidagi kayfiyatni vujudga keltirib, “Hosil bayrami”, “Mehnat bayrami” uchun zamin yaratilgan. Bunday hol insonning tabiatga bo‘lgan qaramligiga chek qo‘yib, “Yashash uchun kurash” shiori – mehnatning natijasida vujudga keldi. Bunday holat mehnat natijasi yutuqlarini namoyon etib inson madaniyati va san’atini rivojlantirish uchun zamin yaratgan. Chunonchi, bunday mehnat va hosil bayramlari jarayonlarida turli chiqishlar: pantomima, yerga ishlov berish, hosilni yig‘ish kabi o‘yinli harakatlar, raqslarga xos bo‘lgan chiqishlar, biroz primitiv-soddagina ko‘rinishlarda bo‘lsada, keyinchalik bunday san’at turiga xoslik ma’lum darajada rivojlanha borgan.

Ibtidoi jamiyat davrida jamoa va uning a’zolariga bag‘ishlangan tantanalar asta-sekin shakllangan. Bu davrda inson turli tosh qurollar yasash va ulardan foydalanishni o‘rgandi, kamon va o‘q-qoy, ibtidoi sopol idishlar kashf etdi. Ibtidoi chorvachilik va dehqonchilik shakllandi, ilk uy hayvonlari va madaniy o‘simpliklar paydo bo‘la boshladi. Bu davrda ajodolarimizning bunday hayotiy harakatlarida yerga ishlov berish va chorva hayvonlarini parvarishlash nihoyatda muqaddas bir yumush, oliv maqsadga aylangan. Tarixdan ma’lumki, kishilar turli davrlarda har xil tarzda hayot kechirib kelganlar. Moddiy hayot sharoitlari o‘zgarishi bilan ijtimoiy tuzum, ularning ongi va hayot tarzi ham, binobarin, kishilarning o‘zlari ham o‘zgara borganlar. Qadimgi ota-bobolarimiz turli-tuman dinlarga topinganlar, u bilan bog‘liq bo‘lib kelgan ko‘plab rasm-rusumlarni bajarganlar.

Masalan, asli Kichik Osiyoning Galikarnas shahridan bo‘lgan, miloddan avvalgi 490-480-yillarda yashagan yirik qomusiy olim, tarix fanining “ota”si Geradot qadimgi ajodolarimiz massagetlar haqida shunday hikoya qiladi: “Massagetlar skif

(sak)lar singari kiyinadilar. Turmush tarzlari bir xil. Ular otda va piyoda holda jang qiladilar. Odatda, o‘q-yoy, nayza va jangovar boltalar bilan qurollanadilar. Ularning barcha buyumlari va asboblari oltin va misdan ishlangan. Nayzalarining, kamon o‘qlarining uchi, jangovar boltalari esa misdan yasalgan. Bosh kiyimlari, kamarlari va fo‘talari oltin bilan bezatilgan. Otlari ustidagi bargustivoni ham misdan to‘qilgan.

Massagetlar g‘alla ekishmaydi, chorvachilik va baliq ovlash bilan kun kechiradilar. Araks (Amudaryo)da baliq ko‘p. Sut ichadilar. Ular ibodat qiladigan yagona tangri – quyoshdir. Quyosh xudosiga otni qurbanlik uchun keltiradilarki, g‘ayratli Tangriga g‘ayratli va tez chopar jonliqni qurban qilish lozim deb hisoblaydilar”.

Iskandar Zulqarnaynning Eron, Turon va boshqa mamlakatlarga qilgan harbyj yurishlari haqida 10 kitobdan iborat “Buyuk Iskandar tarixi” nomli asar yozib qoldirgan mashhur Rim tarixchisi Kvint Kurtsiy Rufning yozishicha, “Baqtriya tabiat boy va xilma-xil. Ba’zi joylari qalin daraxtzor, tok novdalarida shirin-shakar mevalari bor. Serhosil yerlar ko‘p sonli buloq suvleri bilan sug‘orilgan. Yeri yumshoq joylarga g‘alla ekiladi, qolgan yerlar yaylov uchun ajratiladi.

Serhosil yerlarni odamlar makon qilishgan. Bu viloyatning poytaxti Baqtra Paropamis (Hindikush) etagida joylashgan. Uning devorlari yonidan Baqtra daryosi oqib o‘tadi. Shahar va viloyatga shu daryoning nomi berilgan”.

Bularning barchasi o‘tmishdagi ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish kurtaklari juda erta, ya’ni, insoniyat svilizatsiyasining ilk davrlaridan boshlanganligiga guvohlik beradi¹⁵.

Zardushtiylik davrigacha va undan keyingi davrlarda madaniy takomil. Buyuk adib, tarixchi, mutafakkir Abulqosim Firdavsiyning “Shoxnoma” asarining ayrim boblarida hamda “Gushtasp” dostonida Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining islomgacha bo‘lgan dini bo‘lgan – zardushtiylik hamda uning asoschisi Zardusht haqida juda iltifot va mehr bilan yozilgan bo‘lib, mazkur manbalarda u muhbadlar muhbadi - donishmandlar peshvosi, payg‘ambar deb ta’riflangan va shu bilan u asos solgan kitob “Avesto” eslangan.

Haqiqatda ham, Zardusht Sharqning birinchi faylasufi, notig‘i, shoiri, donishmandi, xalq dohiysi hisoblanadi. Zardusht haqida anchagini ma’lumotlarni

¹⁵ Qarang: Сайдулов Т.С. Ўрта Осиё ҳалқлари тарихининг тарихнавислигидан лавъялар. –Т.: Ўқитувчи, 1993 йил, 33-88 бетлар; Сайдулаев А.С. Қадимни Ўзбекистон тарихи манбалардан. –Т.: 1996; Ахмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Т.: Ўқитувчи, 2001 йил, 5-95 бетлар.

bayon etish mumkin. Jumladan, sharqshunos olimlarimizning tadqiqotlaridagi mulohazalarga qaraganda, Spitamen urug'idan bo'lgan Zardusht eramizdan oldingi VI asrda yashagan. Otasini Paurushasa, onasini esa Dugdova deb atashgan. Zardusht bolaligidanoq ot, tuya boqish bilan shug'ullangan. O'z urug'lari orasida yurib ularning urf-odatlari, dini hamda udumlarini o'rgangan, har xil e'tiqoddagi kishilar, donishmand va peshvolarning suhbatlarida bo'lgan, chorvadorlar orasida kezib yurib, muysafidlarning gurungi-suhbatlarida ishtirok etgan. Zardusht qurbanlik natijasida borgan sari mollarning kamayib, qirilib ketayotganini ko'rib aziyat chekkan, buning oqibati xunuk bo'lishini ko'ra bilgan va qabilalar o'rtasida tez-tez sodir bo'lib turgan nizo, qirg'in urushlarning negizi ham mana shu odat bilan bog'liqligini tushungan. Keksalar bilan bo'lgan bir qancha suhbat va maslahatlardan keyin u o'zining nor tuyasiga minib (*20 yoshli "sariq tuya egasi" – Zardusht*) qishloqma-qishloq, shaharma-shahar kezadi, ko'p xudolikning zararli tomonlarini xalq o'rtasida tarqatib yakkaxudolik g'oyasini targ'ib etadi. Natijada, o'n yildan keyin yagona xudo Axuramazzani ko'rsatadi.

Zardusht ilgari surgan g'oyaning asl negizi ikki narsaga tayanadi: mutlo'q g'oya Xurmuzdning yakkayu-yagonaligini tan olish; yaxshilik bilan yomonlik, rostgo'ylik bilan yolg'onchilik, zulmat bilan nur o'rtasidagi doimiy kurash haqidagi ta'limot – borliqni ikkiga bo'lib qarash - dualistik qarashga sodiq qolishlikni olg'a suradi. Zardusht ta'limoti tobora xalqqa ta'sir o'tkazayotganini sezgan muholiflari unga qarshi kurashga otlanadilar. Hayoti xavf ostida qolgan Zardusht bir guruh do'stlari hamda tarafdoirlari bilan Xorazmdan Eronga qochib o'tib o'z ta'limotini yerli xalqlar orasida uzil-kesil shakllantiradi.

Firdavsiy va Beruniyning ta'biricha, Zardusht birinchi bo'lib o'z dinini Eron shoxi Vishtaspga asoslab ko'rsatib uning e'tirofini qozonadi. "Shaxistonxon Eron" kitobida Vishtasp farmoniga ko'ra Zardo'sht 1200 bobdan iborat Pandnoma – "*Avesto*" ni oltin taxtachalarga yozib, shoxning otashkadasiiga topshirgan" deb yozilgan. Shundan keyin shox payg'ambarning tarafdori sifatida yangi dinning ashaddiy targ'ibotchisiga aylandi. Zardushtning xohishi va Vishtaspgning farmoniga muvofiq barcha shaharlarda otashkadalar-ibotadxonalar quriladi. Ana shunday otashkadalaridan biri – eng ulkani Balx shahrida qad ko'taradi.

Zardusht 77 yoshida o'sha oltin suvi bilan zaxallangan binoda ibodat paytida ko'pxudolik tarafdori Bratarvaxsh tomonidan chavaqlab o'ldiriladi¹⁶. Ammo uning ta'limoti, u asos solgan dini Ajam o'lkalarida Islom majburan qabul qildirilgunga qadar muqaddas e'tiqod bo'lib kelgan. Hozir ham Janubiy Hindistonda yuz mingdan ziyod, Shimoliy Eronda bir necha ming kishi zardushtiylik e'tiqodiga mansub bo'lib kelmoqdalar.

Barchamizga ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari orasida turli marosimlarda, ba'zi udumlar yuzasidan sham yoqib qo'yish, to'ylarda o't-gulxan yoqib, uning atrofida bazm uyuşdırısh, kelinni eshik oldidagi yoqilgan gulxan atrofida bir aylantirgach, uyga olib kirish, chavandozlarning katta gulxan ustidan u yoki bu yoqqa sakrab o'tishlari, yo'rgaklangan go'dak - chaqaloqni gulxan ustidan otib olish va boshqa an'analar ham otashparastlikning hamon saqlanib kelayotgan udumlaridan ekanligini eslashimiz ham mumkun.

Quyida e'tiborimizni zardo'shtiylikning muqaddas sanalgan kitobi "Avesto"ning yaratilish davriga qararamiz. Bu muqaddas kitob Zardusht tomonidan Amudaryo sohillarida eramizdan avvalgi milodning 548-529 yillari orasida yaratilgan ekan. *12 ming ho'kiz terisiga* bitilgan bu kitob davrlar o'tishi bilan Janubiy Eronda otashparastlik dinining ulamo-koxinlari tomonidan to'ldirilib yanada takomillashtirilgan.

Makedoniyalik Aleksandr, uning nomini yuqorida ham tilga olgan edik (rus olimlari esa Aleksandr Makedonskiy deb atashadi) Sharqi zabit etganda bu kitobning nodir nusxasini Elladaga olib ketgan, o'zi uchun kerakli bo'lgan joylarini tarjima qildirib, qolgan qismlarini yo'qotib yuborgan.

Tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda, eramizning birinchi asrida Ashkoniyalar podshosi Valages Ariakid, III-asrga kelib Xusrav Parviz, Shouri Kurmuzd davrida bu muqaddas kitob bir necha bor ko'chirilgan. Shu sabablarga ko'ra, keyingi vaqtarga qadar "Avesto"ning vatani, ya'ni qaysi davlatga, xalqqa mansubligi haqida biror to'la ma'lumotlar berilmagan edi. Keyingi vaqtarda chop etilgan ilmiy-tarixiy maqolalarda "Avesto"ning vatani Xorazm", "Xorazm – "Avesto"ning ilk markazi" kabi ma'lumotlarni uchratamiz¹⁷.

¹⁶Qarahg: Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.:Ўқитувчи, 1995 йил, 1 жилд, 30-31-бетлар.

¹⁷Qarang: Махмудов Т. Авесто ҳакида. – Т. Шарқ, 2000, 34-35 -бетлар.

Muqaddas "Avesto"ning 2700 yillik yubileyi shodiyonalari 2001 yil 3 noyabrdagi ko'hma Urganch shahrida – "Avesto"ning vatanida bo'lib o'tdi. Bu tantanalarda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov qatnashib, o'zining nutqida: "Avesto" birligina o'zbek xalqining tarixiy ilmiy-madaniy yodgorligigina emas, balki u butun umumbashariyatning bebaaho durdonasidir" – deb ta'kidladi. Uning tarixchi olimlar bilan qilgan suhbatidan quyidagi fikrlarni bayon etamiz: "Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi" – deb faxr va iftixon bilan so'z yuritgan edi¹⁸.

"Avesto"ning qancha qismdan iboratligi, umumiy mundarijasi hamda zardo'shtiylik diniy-falsafiy tizim to'g'risidagi asar ekanligi haqida "Denart"da (IX asrda mansub) keltirilgan ma'lumotlarga mavjud. Bu asarda "Avesto"ning 21nasok qismdan iboratligi qayd qilinib, ularning mazmuni qisqacha bayon etiladi. "Avesto" sosoniyalar davrida muqaddas hisoblangan va xalq orasida ishlatalmaydigan tilda yozib olingan. Bu tilni hatto ruxoniylar ham tushuna olmaganliklari sababli o'sha davrning adabiy tili hisoblangan paxlaviyga tarjima qilingan va uning asosiy mazmuniga keng sharxlar berilgan. Bu tarjima va sharxlar "Zend" nomi bilan ma'lum. Shu tufayli o'tgan asrda Ovropada "Avesto" kitobi "Zend Avesto" deb noto'g'ri nomlangan. "Avesto" katta hajmda bo'lganligi sababli dindorlarning kundalik faoliyatida foydalanish uchun "Kichik Avesto" yaratilgan. "Kichik Avesto", "Katta Avesto" dan tanlab olingan duolar to'plamidan iborat bo'lgan va bizgacha "Avesto"ning juda oz qismi yetib kelgan.

VII asrda sosoniyalar davlati mag'lubiyatga uchrab, Eron va Markaziy Osiyo arablar tomonidan bosib olingandan so'ng zardo'shtiylik diniga sig'inuvchilar quvg'inga uchradilar va ta'qib ostiga olindilar. Shu sababli "Avesto"ning ko'pgina qismi asta-sekin unitila boshlangan. Bizgacha "Avesto"ning Yasna, Videvdat, Visparat, Yashita nomlari bilan ma'lum bo'lgan qismlari etib kelgan. "Avesto"ning mazmuniy tomonlariga e'tiborni qaratsak, bu muqaddas kitob zardo'shtiylik diniy-

¹⁸ Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. //Тарихчи олимлар ва журналистлар билан сұхбат. "Мулокот" журналы. 1998 йил 5-сон.

falsafiy tizimining prinsip va qoidalardagi mazmunini o‘z ichiga olsa-da, bu tizim hozirgacha mukammal ma’lumot berolmaydi. “Avesto”ni o‘rganish hamda tadqiq etish jarayoni hozirda butun jahon ilmiy jamoatchiligining e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda¹⁹.

“Avesto” da bayon etilgan naturfilosofiya, komogoniya, afsonaviy tarix, etika, meditsinaga oid barcha ma’lumotlar ana shunday dualizmga asoslanadi. Bu ma’lumotlarda materialistik qarashlar, eng sodda dialektik elementlar mavjudligini ko’ramiz. “Avesto” da podsho, oliv tabaqa, dindorlar va diniy urf-odatlarga katta o‘rin ajratilgan, shu bilan birga ularning jamiyat hayotida yuqori o‘rin egallaganliklari alohida ta’kidlanadi, ruxoniylar muqaddas deb tasvirlanib, ularning xohish-istaklarini qanoatlanirish uchun qurbanlik bajo keltirilishi zarur deyiladi. Shunday qilib, “Avesto” sosoniylar quldarlik davlatining rasmiy diniga aylantirilgan va zardo’shtiylikning muqaddas kitobi hisoblanib hukmron tabaqa, jumladan ruxoniylarning sinfiy manfaatini himoya qilib kelgan.

O‘tmish madaniyatimizning taraqqiyot bosqichlarini o‘rganish borasida hali oldimizda ancha mas’uliyatli hamda olivjanob ishlarni amalda bajarish vazifalari turibdi. Tarix bayonnomalariga asoslanib shunga e’tibor beramizki, ma’naviy, madaniy-ruhiy tiklanish insonning yerga va uning boyliklariga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirib kelgan. Xalqimiz yer, havo, suv va olov, quyoshni Markaziy Osiyoda qadimdan e’zozlab kelgan.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy-madaniy hayotida zardo’shtiylik dini va uning progressiv g’oyalariga tayanish keskin shakllandi. Keyingi davrlarga kelib boshqa diniy oqimlarning tiklanishi va mumkin qadar rivojlanishiga muhit yaratildi. Zamonaliv qadriyatlarning vujudga kelishini ta’minladi va nihoyat, Markaziy Osiyodagi islom dinining ruhan o‘ziga xosligini anglab etishni, madaniy boyligimizning ajralmas qismi bo‘lmish islomdan oldingi madaniyatni chuqur o‘rganishni taqozo etib kelmoqda.

Bugungi kunda o‘tmish ajdodlarimiz hayoti, madaniyati, rasm-rusm hamda urf-odatlarini o‘rganishning ahamiyati. Ma’lumki, mamlakatimiz yosolarining sog‘lom, barkamol avlod, ijodiy va intellektual salohiyatga ega, har tomonlama rivojlangan shaxs, huquqiy savodxon, ma’nan va jismonan sog‘lom,

¹⁹ Qarang: Қаюмов А., Исҳоков М., Отахужаев А. ва бошقا. Қадимги ёзма ёдгорликлар. –Т.: 2000: Авесто Йашт китоби, Т.: 2001

ziyoli, madaniyatli va XXI asrga mos kadrlar qilib tarbiyalash – davlat siyosatida ustivor vazifalardan biri etib belgilandi.

Azaldan ota-bobolarimiz yoshlarga “kamol topgin”, deb duo qilishgan. Komillikka erishish – bu murakkab jarayondir. Ilm va ma’rifat orqaligina bunga erishish mumkin. Shu ma’noda Imom Buxoriy, at-Termiziyy, al-Farg‘oniy kabi buyuk allomalarni komillik darajasiga erishgan shaxslar deb aytish mumkin.

Bugungi kunda yoshlardagi milliy ruhiyat, insoniy fazilatlar, ma’naviyat, jamiyatni ma’naviy yuksaltirishdagi ishtiroki albatta, ularning barkamol insonlar bo‘lib yetishishi uchun asos bo‘ladi.

Xalqimiz boy milliy tarbiya an’alariga ega, unga suyangan holda komillikka intiluvchi shaxsnı tarkib toptirish mumkin. Lekin etnomadaniyat fani umuminsoniy tarbiyaning nodir namunalari ta’sirida milliy tarbiyani boyitib borishni ham maqsad qilib qo‘ygan. Bu buyuk maqsadlar o‘z navbatida ta’lim va tarbiyaning tajribada sinalgan shakllari bilan bir qatorda, jahondagi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, yetuk mutaxassislar tayyorlash, yoshlarning qobiliyati, qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan vazifalarni hal etishga qaratilgan. Mamlakatimizda mustaqillik yillarda olib borilayotgan siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri, oilada va ta’lim tizimida yoshlarni barkamol avlod qilib va ulami milliy qadriyatlarimiz, urf -odatlarimizga saidoqat ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Milliy qadriyatlar keng ma’noda bir davlatda yashovchi barcha millatlar va elatlarning manfaatlari hamda qiziqishlarini ifodalovchi munosabatlar yig‘indisini aks ettiradi. Yosh avlodni tarbiyalashda asosan bizdan millatimizning tili, madaniyati, tarixi, udumlari, jamiki moddiy va ma’naviy hayotini har tomonlama chuqur o‘rgatish va tahlil qilish talab etiladi.

Shu bilan bir qatorda milliy qadriyatlarimizni o‘zgarmas hodisa emas, balki milliy taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotning rivojlanib borishi, yashash sharoiti va mehnat qilish sharoiti o‘zgarishi bilan milliy qadriyatlarimiz ham o‘zgarishini nazardan chetda qoldirmasligimiz kerak.

Inson dunyoga kelibdiki, u yoki bu darajada o‘z ma’naviy qiyofasiga ega bo‘lishga harakat qilgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ham ba’zi insonlarning insofli, diyonatli, o‘z qo‘liga kiritganlarini boshqalar bilan bo‘lishadigan, ba’zilari esa faqatgina o‘zini o‘ylaydigan xudbin ekanligini tarixiy faktlarda ko‘plab eshitganmiz.

Demak, ma'naviyat tushunchasi tarixan mavjud bo'lib, hozirgacha ham dunyoning barcha mamlakatlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib kelmoqda.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda amalga oshirilgan olamshumul voqealardan biri – bu milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi bo'ldi. Binobarin, milliy qadriyatlar millat vakillari tomonidan o'zlikning anglanishi, ularning milliy g'urur va iftixorga ega bo'lishlarida muhim omil sanaladi.

Bugungi kunda "Qur'oni Karim" va "Hadis" asarlarining tarjimalari yoshlar, jumladan, talabalarga muqaddas manbalarda ilgari surilgan ezgu g'oyalar (tinchlikni ulug'lash, insonni inson tomonidan qadrlanishi, iymonli, e'tiqodli, bilimli bo'lishning ahamiyati, kibr, boylikka berilmaslik, harom va halolning farqiga borish, mavjud moddiy ne'matlarni asrash, ularni isrof, uvol qilmaslik, beva-bechora, yetim-yesirlarning haqqiga xiyonat qilmaslik va boshqalar)ning asl mohiyati bilan tanishish, ularning mazmunini o'rganish imkonini yaratadi.

Manbalaming asl mohiyati bilan tanishishning pedagogik ahamiyati shundan iboratki, ular buzg'unchi g'oya tarafdarlarining tashviqotlariga ishonish, ularning ko'rsatmalariga so'zsiz qulq solishdan avval mulohaza yuritish, ularning fikrlarini tahlil qilish layoqatiga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Ota-bobolarimizdan qolgan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviyat bizning ma'naviy merosimizni, ularning madaniyati esa madaniy merosimizni tashkil etadi. Yosh avlod ma'naviyat va madaniyatni har gal yangidan yaratmaydi, balki ajdodlari tomonidan yaratilgan ma'naviy va madaniy boyliklarni qabul qilib olib, ularni davom ettiradi. Ana shunday merosning qadri abadiy tushmaydigan qismiga milliy qadriyatlar va urf-odatlar deb ataladi.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonimizda milliy qadriyatlar va urf- odatlar qayta tiklanib bormoqda. Milliy qadriyatlarimiz va urf- odatlarimiz yosh avlod ongida istiqlol madaniyatini yaratishimizga negiz bo'lib xizmat qilmoqda va jamiyatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqda.

Jamiyatimizdagи yangilanish doimo madaniy merosimizning gullab-yashnashiga olib keladi. Bu esa yosh avlodni birlashuvida, milliy o'zlikni anglashning shakllanishi va rivojlanishida muhim g'oyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Farzandlarimizning kelajakda komil inson bo'lib yetishishlarida oila va jamiyatda yaxshi tarbiya olishning o'rni beqiyosdir. Ota-on, ustoz-murabbiylar,

rahbar va yoshi kattalar qancha madaniyatli, odobli bo'lsa, shu jamiyat va muhitda o'sayotgan shaxslar ham shunchalik odobli bo'lib yetishadi.

Bunday sermas'uliyat ijtimoiy ishni amalga oshirish, ya'ni yoshlарimizning odobli, xushxulqli, vijdoni pok kishilar bo'lib yetishishlari uchun o'z xulq-atvorimiz bilan ularga yaxshi ibrat va namuna bo'lishimiz bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Barkamol yoshlar tarbiyasi tarixiy ahamiyatga ega. Ulug' mutafakkirlarimizning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya sohasidagi benazir fikrlaridan foydalanish bugungi taraqqiyot uchun, yosh avlodni kamoloti uchun muhim ekanligini inkor qilib bo'lmaydi. Shu bois ham Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarning komil inson tarbiyasi haqidagi qarashlaridan turmushda keng foydalanish maqsadga muvofiq. Buyuk siymolar merosidan ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda hamda yoshlarning ijtimoiy yetukligini shakllantirish, komil insonni voyaga yetkazish kabi masalalarga qaratish ijobiy natijalar beradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, buyuk allomalarimiz yangitdan dunyoga keldilar, desak mubolag'a bo'lmaydi. O'tmishda yashab ijod qilgan, o'z davrida butun dunyoga tanilgan, ammo sobiq sho'rolar davrida o'z zulmini o'tkazib, o'zbek xalqining tarixini yo'qotishga intilganlar ta'sirida tarix sahifalaridan o'chib ketgan ulug' ajdodlarimiz nomlari qaytadan tiklandi. Ular tug'ilib o'sgan va ijod qilgan muqaddas joylar obod bo'lib, allomalarimiz ruhlari shod bo'lmoqda.

Yosh avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz bilan bir qatorda urf-odatlarimizga hurmat tushunchasi ham muhim o'rinn tutadi. O'zbek oilalarida farzand dunyoga kelishi bilan bog'liq urf-odatlar mavjud bo'lib, ularning har biri yaxshi niyatlar bilan amalga oshiriladi. Jumladan, chaqaloqqa ism qo'yish, beshikka belash, birinchi qadam, o'g'il bolalarni xatna qilish, nikoh va hokazolar. Bunday rasm-rusmlar va urf-odatlar bolaning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Masalan, birgina onalaming mehr va muhabbat bilan o'z bolalariga aytadigan allalari o'zbek xalqining qadimiyligi, muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega qo'shiq turlaridan biri hisoblanadi. Ona allasini tinglab ulg'aygan go'dak qalbida ota-onaga, Vatanga nisbatan hurmat-ehtirom tuyg'ulari, ular qalbida mehr-muhabbat, ezgulik hissi uyg'onadi.

Beshik o'zbek xalqining muhim qadriyatlaridan biri bo'lib, u bola tarbiyasida mo'jizaviy qudratga ega. Ammo hozirda ayrim yoshlарimizning yuqorida aytib

o'tilgan rasm-rusm va urf-odatlarimizga eskilik sarqitlari sifatida qarashlari ularning ma'naviy qashshoq ekanliliklaridan dalolat beradi. Chunki ularda bolalikdan tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilmagan, milliy madaniyat va milliy meros tushunchasi sayoz.

Bugungi kunda eng sara urf-odatlarimizning jamiyatni birlashtiruvchi, yoshlarimizni jipslashtiruvchi, ular o'rtaosida mehr-oqibatni kuchaytiruvchi, ularni safarbar etuvchi xususiyatlaridan yanada samaraliroq foydalanish ya'ni odat va udumlarni ixchamlashtirish, dabdababozlikka yo'l qo'ymaslik lozim.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq ta'limni isloh qilish, yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy madaniy-tarixiy an'analari, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlaridan foydalanishga alohida ahamiyat berildi. Bu jihatdan ta'lim-tarbiyaning yangi davrga va zamonga mos va xos shakl va vositalari ishlab chiqildi, amaliyotga joriy etildi. Ayniqsa, davlat va jamiyat, uzlusiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabilarning birligi, o'zaro hamkorligi natijasida qishloq yoshlarining ma'naviyatni shakllantirishga alohida e'tibor berildi. Bu borada qishloqdagagi umumiyoq o'rta ta'lim maktabi bitiruvchilarining ijtimoiy yetukligini shakllantirish, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalash, o'z Vataniga va xalqiga sodiq fuqaroni voyaga yetkazish masalasi asosiy o'rinni egalladi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Markaziy Osiyo, kishilik jamiyatining eng qadimiy markazi, Zardo'sht, "Avesto", Yasna, Videvdat, Visparat, Yashta, marosimlar, "Hosil bayrami", "Mehnat bayrami", madaniyat, ma'naviyat, Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy-madaniy hayoti, Buyuk ipak yo'li, ikki daryo oralig'i, ikki daryo oralig'ida davlat birlashmalari, O'rta Osiyodagi qadimgi davlatchilik evolyutsiyasi, "saka tigraxauda", "saka tiay darayya", "saka-xaumovarka", "Shoxnoma" va hk.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qanday tekshiruvlar natijalariga asoslanib Markaziy Osiyo kishilik jamiyatining eng qadimiy markazlaridan biri deya e'tirof etiladi?
2. Mamlakatimizdagi tarixiy jarayonlar haqida hikoya qiluvchi qanday manbalarni bilasiz?
3. O'tmishdagi ajdodlarimiz madaniyatining rivojlanish kurtaklariga to'xtalib o'ting...
4. Ma'lumki, qadimgi davrda O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'ida davlat

birlashmalarining har xil shakllari mavjud bo‘lgan. Ulardan qaysilarini bilasiz?

5. O‘rta Osiyodagi qadimgi davlatchilik evolyutsiyasini (taraqqiyotini) necha davrlarga ajratib ko‘rsatish mumkin?
6. Qadimgi rim va yunon tarixchilarining yozishlaricha, saklar uch ijtimoiy guruhgaga bo‘lingan. Bu ijtimoiy guruhlar qanday nomlangan?
7. Zardusht ta’limoti haqida nimalarni bilasiz?
8. Bizgacha *qaysi* qismlari yetib kelgan?
9. Muqaddas “*Avesto*”ning 2700 yillik yubileyi shodiyonalari qachon, qayerda nishonlandi?
10. Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy-madaniy hayotida zardo’shtiylik qanday ahamiyat kasb etadi?

3-§.O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga

oid eng muhim manbalar

Tarixiy manbalarning umumiy tavsifi. Tarixiy manba – deganda biz o‘tmishdan qolgan hamda jamiyat hayotining ayrim bosqichi yoki tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan moddiy va ma’naviy yodgorliklarni tushunamiz. Boshqacha aytganda, **tarixiy manba** deb, uzoq o‘tmishdan qolgan, insoniyatni tabiat va jamiyatning ma’lum taraqqiyot bosqichidagi kechmishini o‘zida aks ettirgan moddiy (ashyoviy) va ma’naviy yodgorliklarga aytildi.

Tarixiy manbalar – o‘tmishda odamzod qo‘li bilan buniyod etilgan tarixiy jarayon izlarini o‘zida aks ettiruvchi va kishilik jamiyatni tarixini o‘rganish imkonini beruvchi hozirgi kungacha saqlangan har qanday osori atiqqa, yozma manba, ma’naviy (til, e’tiqod, urf-odat) qadriyatlar. Tarixiy manbalar qatoriga qadimgi odamlarning manzilgohlari, qadimgi shaharlar, qal’alar va ularning xarobalari, sug‘orish inshootlari qoldiqlari, ajdodlarimizning mehnat qurollari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, zeb-ziynatlar, tangalar, qoyatosh sur’atlari, petrogliflar, yozma hujjatlar va boshqalar kiradi.

Eng avvalo, tarixiy manbalarni moddiy manbalar va ma’naviy yodgorliklarga bo‘lish mumkin.

Moddiy manbalar turkumiga ko‘xna manzilgoh va mozorlar, shaharlar, qasrlar hamda qal’alarning xarobalari, o’sha joylardan topilgan ishlab chiqarish va urush qurollari, uy-ro‘zg‘or hamda zeb-ziynat buyumlari, qadimiy sug‘orish inshootlarining qoldiqlari, oltin, kumush va mis tangalar, shuningdek ibtidoiy va hayvonlarning qoyatoshlarga o‘yib ishlangan sur’talari, umuman tosh va boshqa qattiq buyumlardagi yozuvlar kiradi.

Ma’naviy yodgorliklar turkumiga esa uzoq o‘tmishdan qolgan qo‘lyozma asarlar hamda odamlarning turmushi va urf-odatlarini o‘zida aks ettiruvchi materiallar, shuningdek, kishilar ongida saqlanib qolgan urf-odat va an‘analar kiradi.

Tarixiy manbalar turli tarixiy davrlar haqida bizga ma’lumot beradi. Shu bois biz tarixiy manbalarni tarixiy davrlar kesimida o‘rganamiz. Masalan:

- Qadimgi zamон tarixiy manbalari
- 6-8-asrlar tarixiy manbalari
- 9-15-asrlar tarixiga oid manbalar
- 16-19-asrlar davri tarixi manbalari.


Tarixshunoslar, qadimgi zamon tarixiy manbalari(miloddan avvalgi 6-asrlar va milodning 5-asrlari)ga quyidagi manbalarni kiritadilar:

1. Qadimgi eron manbalari: “Avesto”, “Xvaday namak” (“Podshoxnoma”), “Matakdani xazar datastan” (“Bir ming nafar huquqiy ajrim”), “Shoxnoma”
2. Qadimgi hind manbalari “Maxabxarata”
3. Qadimgi yunon va Rim manbalari: (Xeradot, Diodor, Pompey Trog, Arrian Flaviy, K.K.Ruf, G.P.Sekund, Polibiy, Strabon, Ptolomey Klavdiy)

Yodgorliklar orasida eng muhimlaridan biri mashxur Behistun yozuvidir. Bu yozuvlar (uzunligi 22m, umumiyligi 7,8 m) shimaliy Eronda, Kirmonshoxdan 30 km masofada, dara bo‘ylab o‘tgan qadimgi karvon yo‘li yoqasida, uning chap tarafida, zagros nomli tik qoyaga 9 taxminan 105 metrbandlilikda) Doro 1 ning amri bilan yozdirilgan g‘alaba yodgorligidir.(1-rasm).

Shuningdek, “Avesto” ham eng qadimgi tarixiy manbalar sirasiga kiradi. Bir guruh olimlar “Avesto” Midiyada yozilgan desalar, ko‘pchilik Amudaryo bo‘yida joylashgan viloyatlarda, Balx bilan Xorazm oralig‘ida yaratilgan, deb hisoblaydilar.

“Avesto”ning Kopengagenda saqlanayotgan yagona nusxasi asosida tayyorlangan quyidagi fotomatr 1937-1944-yillari oltin jild qilib nashr qilingan (1-rasm).



1-rasm: “Avesto”ning Kopengagenda saqlanayotgan yagona nusxasi asosida tayyorlangan fotomatr

Qadimgi Eron manbalaridan yana biri “Xvaday namak” – qadimgi Eronning 627-yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid tarixiy asar bo‘lib, paxlaviy tilida yozilgan. Asar ayniqsa ahamoniylar, Ashkoniyalar va Sosoniylar tarixi bo‘yicha muhim manbalardandir.

“Matakdani hazar datastan” (“Bir ming nafar huquqiy ajrim”) asari esa paxlaviy tilida yozilgan(8-asr) bo‘lib, asarda Eronning Sosoniyalar davridagi davlat tuzulishi va uning ijtimoiy hayoti haqida qimmatli ma’lumot bor.

“Shoxnoma” – Abulqosim Firdavsiy (taxm.940-1030yy.) qalamiga mansub, 3 qism va 65 ming baytdan iborat epik asar. U 976-1011-yillar orasida yozilgan manba hisoblanadi.

Saklar, massagetlar, toharlar va qadimgi Qanha xalqi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi qimmatli ma’lumotlarni hindlarning epik dostoni “Mahabharata”da ham uchratamiz.

“Mahabharata” (“Bharata avlodlari jangnomasi”) sanskrit tilida yozilgan bo‘lib, 100 ming baytni o‘z ichiga olgan 18 kitobdan iborat. Afsonaviy shoh Bharataning ikki toifa avlodlari kavravlar va nandavlarning o‘zaro adovatlari va urushlari bayon etiladi. U miloddan avvalgi X-VIII -aslarda yaratilgan.

Asarda masalan, uzoq Hindistonga, fikrimizcha savdo-sotiq ishlari bilan borgan saklar, toharlar va qanhalar haqida mana bu muhim ma’lumot keltirilgan: “Uning (podshoh Yudhishtiran) eshigi oldida boshqa xalqlar bilan birga saklar, toharlar va qanhaliklar ham navbat kutib turardilar. Paxmoq soqol, peshonalari shohlar bilan bezatilgan, qo‘llarida turli-tuman sovg‘alar, jun, rangu, ipak va patta (oq qayinning bir turi) daraxti tolasidan, shuningdek, kamyob matolardan, paxtadan to‘qilgan gazlamalar, mayin, nafis terilar, uzun va o‘tkir qilichlar, shamshirlar, temir nayzalar, har xil boltalar, ichimliklar, xushbo‘y narsalar, turli-tuman qimmatbaho toshlar”²⁰.

Qadimgi Yunon va rim manbalari turkumiga Xeradot, Diodor, Pompey Trog, Arrian Flaviy, K.K.Ruf, G.P.Sekund, Polibiy, Strabon, Ptolomey Klavdiy kabi tarixchilar asarlari va ular orqali bizgacha yetib kelgan manbalarni kiritish mumkin:

Xeradot(m.a.490-480-y o‘rtasi-425 y.) U Ellada,va Sharq mamlakatlarining qadim zamonlardidan to miloddan avvalgi 479-yilgacha bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan hikoya qiluvchi 9 kitobdan iborat “Tarix” asari bilan shuhrat topgan.

Diodor.(m.a.90-21-yy.) U “Tarixiy kutubxona” nomli 40 kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Bu asar Yunoniston va Rimning qadim zamonlardan to milodning 1-asr o‘rtalarigacha bo‘lgan tarixini o‘z ichiga oladi.

²⁰ Аҳмадов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Т.: Ўқитувчи, 2001 йил, 33-34 бетлар.

Pompey Trog (milodgacha 1-milodning 1 asrlari) – “Filipp tarixi” asari bilan mashhur bo‘lgan rim tarixchisi. 44 kitobdan iborat bu asar afsonaviy Assuriya podsholari zamonidan to rim imperatori Avgust (miloddan oldingi 63 –milodning 14-yili) davrigacha dunyoda bo‘lib o‘tgan voqealarni bayon qiladi, lekin asosiy e’tibor Yunonistonning makedoniyalik Filipp 2 va Iskandar Zulqarnayn davrini bayon etishga qaratilgan.

Arrian Flaviy “Iskandar haqida”, “Parfiyaliklar haqida”, “Hindiston” va 7 jildlik “Iskandarning yurushlari” nomli kitoblar muallifi.

K.K.Ruf (milodning 1-asri) Iskandar Zulqarnaynning Eron, Markaziy Osiyo va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurushlari haqida 10 kitobdan iborat “Buyuk Iskandarning tarixi” nomli asar yozib qoldirgan.

Gay Pliniy Sekundning (24-79-y.) 20 kitobdan iborat “Germanlarning urushlari”, ikki jılddan iborat “Pompony sekundning hayoti” va 37 kitobdan iborat “Oddiy tarix” nomli kitoblar yozib qoldirganligi ma’lum. “Oddiy tarix” Gay Pliniy Sekundning shox asari hisoblanib unda antik dunyo tarixi, iqtisodiy ahvoli hamda madaniyati bayon etilgan.

Polibiy (m.a.201-120-yy.) – 40 kitobdan iborat “Umumiy tarix” asari bilan mashxur. Bu asar Yunoniston, Makedoniya, Karfagen, Misr, Suriya va Rimning 220-146-yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi.

Shuningdek, tarixiy manbalar orasida Strabon (miloddan oldingi 63 – milodning 23-yili)ning 17 kitobdan iborat “Geografiya” asari ham juda mashhur.

Ptolomey Klavdiy(taxminan 90-160 yy.) Uning “Almagest”, “Optika”, “Germanlar haqida tushuncha”, “Geografiya” asarlari mashhur.

VI-VIII-asrlar tarixiy manbalari turkumiga quyidagi manbalar kiradi:

1. Qadimgi turk manbalari;
2. Xitoy manbalari;
3. Sug‘d tilidagi manbalar.

Tosh va yozma badiiy bitiglarning topilishi turkiy adabiyot tarixida yangi davmi boshlab berdi. Markaziy Osiyoga arablarning kelishiga qadar yaratilgan yozma adabiyotni o‘rganishda O‘rxun va Enasoy daryolari yoqasidan topilgan tosh bitiglar alohida ahamiyatga ega. Turkiy xalqlarning bu adabiy-tarixiy yodgorliklari VI-VIII asrlarga oid bo‘lib, ular turk runiy yozuvlari deb yuritiladi. Turkiylarda tosh bitiglar tarixi uzoq tarixga ega. 1970 yilda Olmaotadan 50 kilometr uzoqligidagi Esik

shaharchasidan topilgan qabrdan Urxun alifbosidagi harflar bitilgan runiy yozuvdagisi tosh bitig qo'liga kiritilgan edi: "Xonning o'g'li 23 yoshida o'ldi. Issiq elining boshi omon bo'lsin!".

Qabr qaysi xonga tegishli ekanligi aniqlanmagan bo'lsa-da, yozuv bundan 2500 yil muqaddam yaratilgani isbotlangan. Demak, runiy yozuvlarning tarixi uzoq, bu yozuvda yaratilgan yozma adabiyot ham shunday qadimiylikka egadir.

Tosh bitiklar, qadimgi turk manbalaridan bo'lib, ular turkiy xalqlar tarixida favquloddagi yozma adabiyot emas. Ular qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining mantiqan davomi, o'zidan avvalgi adabiyotning mazmuni, ruhi, g'oyasini rivojlantirgan yangi shaklidir. Tosh bitiklardagi arxaik tasvirlar shundan dalolat beradi. I.V.Stebleva, N.Rahmonov va boshqa olimlar tosh bitiklarning bunday xususiyatlarni asoslab bergenlar.

Yodnomalarda bayon qilish usuli va bu usulning uch qat'iy unsurlari-asarda boshlanma, voqeа rivoji, tugallanmaning mavjudligi turkiy, umuman, barcha xalqlar og'zaki ijodiga xos arxaik xususiyatlardir. Tosh bitiklar qadimgi turkiy xalqlar og'zaki ijodining davomi sifatida yuzaga kelganligining asoslari mavjud. Ungin yodnomasi shunday boshlanadi:

Achumiz, apamiz Yamы qag'an

Tort bulungug' qismish, yig'mish, yamuish, basmish,

Ol qan yoq boltuqta kasra

Al yitmish, ыичхинмish

(Achamiz, otamiz Bumin qog'an

To'rt bo'lakni qismish, yig'mish, yoymish, bosmish

Ul xon yo'q bo'lgandan so'ngra

El yo'q bo'lmish, qochishmish).

VI-VIII-asrlarga oid Xitoy manbaları haqida so'z boshlashdan oldin shuni alohida qayd etib o'tish kerakki, ular ham xitoy hukmdorlarining maqsad va manfaatlarini ko'zlab yozilgan, boshqa xalqlarning tarixi ko'p hollarda bir taraflama yoritilgan. Lekin Xitoy manbalarida bo'lib o'tgan voqealarining vaqtini va o'mi aniq ko'rsatiladi, bir-biriga qarshi turgan qo'shinlarning umumiy soni aniq ko'rsatiladi.

Qadimiy O'zbekistonning uzoq o'tmishdagи ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda quyidagi Xitoy manbaları muhim rol o'yaydi.

“Shi Tszi” (“Tarixiy esdaliklar”) Xitoy tarixshunoslarining otasi hisoblanadigan Sima Tsyanning 130 bobdan iborat asaridir.

Sima Tsyan –(taxminan miloddan avvalgi 145 yoki 135-86-yillar) Lunmin (hozirgi Shensi viloyati) shahrida saroy tarixchisi Sima Txan oilasida tug‘ilgan, mamlakat bo‘ylab ko‘p sayohat qilgan, otasi vafot etgandan (miloddan avvalgi 108 yili) keyin uning o‘rniga saroy tarixchisi sifatida qabul qilingan. Miloddan avvalgi 98 yili imperatorga qarshi chiqib, sarkarda Li Linni himoya qilgani uchun qattiq jazoga tortilib (bichilgan) saroydan quvib yuborilgan. Lekin u ruhiy tushkinlikka tushib qolmadi va bo‘lajak tarixiy kitobi ustidagi ishni davom ettirdi. Ko‘p vaqt o‘tmay Sima Tsyan yana saroyga taklif etildi va imperator Bosh mahkamasi boshlig‘i etib tayinlanadi, kitobini yozib tamomlashga sharoit yaratib berildi.

Uning “Shi Tszi” nomli asarida Xitoyning qadimiy zamonlardan to miloddan avvalgi 1-asr boshlariga qadar o‘tgan tarix bayon etilgan. Asarda O‘zbekiston haqida, xususan, uning 123-bobida Farg‘ona va uning qadimiy xalqi, hayoti haqidagi qimmatli ma’lumotlar mavjud.

“Shi Tszi”ning to‘la matni olti jild qilib 1959 yili Pekinda chop etilgan, rus tiliga tarjima etilib (I.Ya.Bichurin, L.S.Vasilev, L.S.Perelomov, Yu.L.Krol va boshqalar) 1972, 1975, 1984, 1986 yillari chop etilgan. E.Shavann (1865-1905) tomonidan frantsuz tiliga tarjima qilinib, 1895-1918 yillari 5 jidda bosmadan chiqqan.

“Tsyang Xan shu” (“Avvalgi Xan sulolasining tarixi”) yirik tarixchi olim Byan Gu (39-92) asaridir. Tarixchi Anlin (Shensi viloyati) shahrida G‘arbiy Xan sulolasi (miloddan avvalgi 206 – milodning 220 y.) xizmatida turgan yirik mansabdor va tarixshunos oilasida tug‘ilgan, 47-55 yillari Loyanda oliv ta’lim olgan, 58-82 yillari o‘z asarini yozgan.

“Tsyang Xan shu” ning 95-bobida O‘zbekiston (ayniqsa, kangli, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, xalqi va uning hayoti haqida ko‘p muhim ma’lumotlarni uchratamiz.

“Tsyang Xan shu” 1962 yili Pekinda 12 jidda nashr qilingan. Inglizcha tarjimasi (G.Dubs, Baltimor, 1938-1944-yy.) ham bor.

“Xou Xan shu” (“Keyingi Xan sulolasi tarixi”) tarixchi Fan Xua (398-445 yy.) asari. Olim avvalgi Xan sulolasi (25-220-yy.)ga xizmat qilgan. Kichik davlat

lavozimida turgan va 424 yili viloyat hokimligiga ko'tarilgan. Davlatga qarshi isyonda qatnashganlikda ayblanib qatl etilgan.

“Xou Xan shu” Xitoyning avvalgi Xan sulolasi davridagi tarixni o‘z ichiga olgan katta asar (130 bobdan iborat) bo‘lib, unda O‘zbekiston, Sharqiy Turkiston va Jung‘oriyaning 25-221- yillar orasidagi tarixi haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar bor.

“Bey shu” (“Shimoliy sulolalar tarixi”) 100 bobli asar bo‘lib, Tan sulolasi (618-907 yy.) davrida yashagan yirik tarixchi Li Yan-shou (taxm.595-678-yy.) qalamiga mansub. Unda Shimoliy Xitoyda hukmronlik Vey (386-535-yy.), TSi (550-577-yy.), Chjou (557-581-yy.) sulolasi hukmronligi, ya’ni 386-581 yillar tarixi bayon etilgan.

Asarda O‘zbekiston, xususan Xorazm hamda Sharqiy Turkiston haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratamiz.

“Bey shu”ning matni 1958 yili Shanxayda chop etilgan.

“Suy shu” (“Suy xonadonining tarixi”) Xitoy tarixchilarini jamoasi tarafidan yozilgan asar. Uni yozishda Vey Chjen (580-643 yy.) –Tan sulolasi davrida o‘tgan tarixchi, imperator Chjen-Guan (626-650) davrida uning o‘g‘li va toju taxt vorisiga tarbiyachi bo‘lgan, Yan Shi-Gu hamda Kxun In-da bilan birgalikda ishtirot etib, asarda Xitoyning Suy sulolasi davrida, V-VI asrlardagi ijtimoiy-siyosiy tarixi 85 bobda bayon etilgan. Kitobning 55 bobi 637 yili yozib tamomlangan. Qolgan 30 bobiga esa 20 yil vaqt ketgan.

Asarda imperatorning iqtisodiy siyosati, qo‘sining tuzilishi, mamlakatning ahvoli, xalqning urf-odatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Uning 83-bobida O‘zbekiston va Sharqiy Turkiston haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlarni uchratamiz. Ko‘p jiddli “Sulolalar tarixi” tarkibida 9 jild sifatida 1958 yili Shanxayda bosilgan²¹.

VI-VIII-asrlarga oid tarixiy manbalar orasida sug‘d tilidagi manbalarning alohida o‘mi bor. So‘g‘d tilidagi manbalar asosan IV-X asrlarga oid bo‘lib, turli mazmundagi huquqiy hujjatlar – ahdnomalar, nikoh haqidagi shartnomalar, oldi-sotti hujjatlar, tilxatlar, So‘g‘d, Shosh, Turk va Farg‘ona hukmdorlari o‘rtasidagi

²¹ Qarang: Сайдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Т.:Ўқитувчи, 1996, 21-56 бетлар; Ахмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.:Ўқитувчи, 2001, 15-48 бетлар.

yozishmalar, xo'jalikning kundalik faoliyatiga oid hujjatlar, masalan, xarajatlar yozilgan hujjat hamda farmonlardan iborat.

Bu hujjatlar So'g'diyonaning o'zidan, Mug' qal'adan, Samarqandda Afrosiyobdan, Qirg'iziston va Sharqiy Turkistondan topilgan.

Bular orasida Mug' qal'a xarobalaridan 1932 yili topilgan hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Hujjatlar bahorda Tojikistonning Varziminor (hozirgi Zahmatobod) tumaniga qarashli Xayrobod qishlog'ida shu tumanning sobiq birinchi rahbari A.Po'lotiy tomonidan ochilgan. Hujjatlar jami 79 ta bo'lib, bulardan 74 tasi qadimgi so'g'd, 1 dona arab, 3 tasi xitoy va yana biri turk tilidadir. Ular har xil materialga – charmga, taxtaga va qog'ozga yozilgan. Hujjatlar so'g'd dehqoni, katta yer egasi, podshohi Devashtich (708-722-yy.) va yirik mansabdorlar-framandarning, shuningdek, Xoxsar hamda Kshtut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bo'lib, So'g'dning VIII asrning birinchi choragidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim manba rolini o'ynaydi.

Mug' qal'asidan topilgan hujjatlar A.A.Freyman, A.V.Vasilev, I.Yu.Krachkovskiy, M.N.Bogolyubov, V.A.Livshits, M.Ishoqov, O'.N.Mansurov hamda O.I.Smirnovalar tarafidan chuqur o'rganilgan.

Mug' qal'asi hujjatlarining topilishi tarixi va ular haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1934 yili maxsus to'plam shaklida ("Cogdiyskiy sbornik", Leningrad, 1934) e'lon qilindi. Ayrim hujjatlarning tarjimasi I.Yu.Krachkovskiy va A.A.Freyman tomonidan XX asrning 30-yillarida e'lon qilindi. Huquqiy hujjatlar va maktublar tarjimasi, zarur izoh va tadqiqotlar bilan V.A.Lifshits tarafidan chop qilindi²².

1961 va 1965 yillari O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti xodimlari ilmiy safar chog'ida Samarqandning Afrosiyobida V-VI asrlarga oid saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo'lib, ular orasida oq kiyim kiygan Chag'oniyon elchisining surati ham bor. Uning etagiga so'g'd tilida o'n olti satrdan iborat ishonch yorlig'i yozib qo'yilgan edi. Bu yozuvlar VII asr o'rtalaridagi xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

IX-XV – asr tarixiga oid manbalarga quyidagi manbalar kiradi:

1. 9-12-asr boshlarida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining madaniy manbalari;

²² Qarang: Согдиjsкие документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. 1962, стр. 58-79.

2. 9-12-asrlarda Yozma adabiyotga oid manbalar;
3. 13-14-asr boshlarida madaniy manbalar;
4. 13-14-asr boshlarida tarixiy manbalar.

Jumladan: 9-12-asr boshlarida Markaziy Osiyo mutafakkirlarining madaniy manbalari:

- ♦ al-Xorazmiy(“al-jabr val muqobala” asari)
- ♦ Axmad al-Farg‘oniy(“Astronomiya asoslari” asari)
- ♦ Imom al-Buxoriy(“Al-Jomi’ as-saxix” asari)
- ♦ al-Moturidiy (“Kitob at- tavxid”asari)
- ♦ Al-Marg‘inoniy(“Hidoya” asari)
- ♦ Abu nasr Forobiy(“Fozil odamlar sharhi”asari)
- ♦ Ibn Sino(“Al-qonun fit-tib”asari)
- ♦ Beruniy(“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”asari)
- ♦ Maxmud Zamashariy(“Al-mufassal”asari)

XIII-XIV – asr boshlarida madaniy manbalarga – Jaloliddin “Masnaviyi ma’naviy” asarini, Sa’diy Sherziyning “Guliston” va “Bo’ston” asarlarini, Dexlaviy va Ganjaviylarning “Xamsa” dostonlarini kiritamiz.

- XIV-XIX – asrlar davri tarixiga oid manbalarga quyidagi manbalar kiradi:
1. Eski O’zbek tilidagi manbalar;
 2. Fors-tojik tildagi manbalar;
 3. Biografik asarlar;
 4. Memuar asarlar.

O’tmishni o’rganishda tarixiy manbalarning ahamiyati. Tarixiy manbalar insonlarning ijtimoiy faoliyati davomida yaratiladi va o’tish hodisalarini o’zida aks ettiradi. Tarixiy manbalarning mavjudligi tarix fani rivojlanishining asosiy shartidir. Tarixiy manbalarsiz tarixni o’rganish mumkin emas.

Bizgacha etib kelgan tarixiy manbalarning asosiy qismi milodiy X-XX asrlarga mansubdir. Ularni quyidagi tasniflash mumkin:

Qadimgi odamlarning manzilgohlari:

➤ Ilk paeolit, ya’ni ashel’ davrining oxirlarida yashagan odamlarning manzilgohlari. Qoraqalpog’istonning Ustyurt tekisligidagi Borsakelmas degan yerdan ham topib o’rganilgan.

- O'rtal paleolit davri makonlari Toshkent vohasidagi Obirahmat, Ho'jakent, Samarqanddagi Omonqo'ton, Boysun tog'laridagi Teshiktosh makonlaridan topilgan.
- So'nggi paleolit davriga oid makonlar Ohongarondagi Kulbulloq, Toshkentning g'arbidagi Buzsuv hamda Samarqand shahridan topilgan.
- Mezolit davri yodgorliklari Surxondaryodagi Machoy g'or-makonidan, Markaziy Farg'onanining ko'pgina yodgorliklaridan topib o'rganilgan.

Qadimgi shaharlar

Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatmoqdaki, miloddan avvalgi 2-ming yillik o'rtalarida O'zbekiston (Surxon vohasi)da qadimgi dehqonchilik madaniyatini rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o'tish jarayoni boshlanadi. O'zbekistonning turli viloyatlarida arxeologlar qadimgi shahar xarobalarini topib tekshirdilar.

Ko'plab arxeologik topilmalarning dalolat berishicha, bu shaharning ba'zilarning yoshi 2700 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob (Samarqand), Qiziltepa (Surxon vohasi), Uzunqir, Erqo'rg'on (Qashqadaryo vohasi) va boshqalar kiramdi. Bu qadimiy shaharlar tarixi hozirgi Samarqand (Afrosiyob, Marokanda), Kitob-Shahrisabz (Uzunqir) yoki Qarshi (Erqo'rg'on) hududlarida davom etdi.

Qal'alar va ularning xarobalari

Amudaryoning o'ng sohili hududidagi qal'alar:

Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Ayozqal'a 1, 2, 3, Katta va Kichik Qirqqizqal'a, Qulqal'a, Qumbosganqal'a, Dumanqal'a, Akshaxon, Tuproqql'a, Qizilqal'a, Qo'rg'oshinqal'a, Aqchungul, Kuyukqal'a, Gaurqal'a (Sulton Uvays tog'i), Tukqal'a, Jildikqal'a, Burgutqal'a, Ellikqal'a, Uyqal'a, Katta Guldursun, Bozorqal'a, Angkaqal'a, Pilqal'a, Odamliqal'a, Doshqal'a-2, Tuproqql'a, Eresqal'a

Amudaryoning so'l sohili hududidagi qal'alar:

Gurganch, Davkasgan, Shoxsanam, Shexrlik, Yarbekirqal'a, Zamaxshar, Ichanalqal'a, Bo'ldimsoz, Gaurqal'a (Xo'jayli), Ketmenchi, Tuproqql'a (Xiva), Tuproqql'a (Yangiariq), Tuproqql'a (Kushko'pir), Kunaqal'a, Voyangan, Tuproqql'a (Shovot), Katqal'a (Shovot) Kalajik, Xazorasp, Chingiztepa 1, 2, 3, Kumbuztepa, Tuproqql'a (Qo'ng'iroq), Sadvar, Jig'arband, Elxaros, Dargon, Gaur 1, 2 (Sariqamish havzasini) va boshqalar.

Sug‘orish inshoatlari qoldiqlari

Qiziltepa tumanidagi qadimgi sug‘orish inshootlariga Zarafshon daryosini kiritish mumkin. U Buxoro vohasining tarixiy toponomikasi bilan bog‘lash lozim. Bu borada dastlabki ma‘lumotlarni XVII asrda yashagan balxlik olim Majmud ibn Valining “Sirlar dengizi” kitobidan olish mumkin. Muallifning ta’kidlashicha, o’sha davrlarda Buhoro vohasi 10 ta tuman yoki rustoqqa (qishloq ho‘jaligi hududlariga) bo‘lingan va tumanlarning nomlari asosan ulardan o‘tgan shohariqlar nomlari bilan atalgan. Bu tumanlar (rustoqlar) orasida Komi Abu Muslim va Rudi SHahar (Rudi shahr) nomli rustoqlar ham bo‘lgan. Komi Abu Muslim rustoqi Burg‘ozi, Rudi Shahar rustoqi Poyi Rud nomlari bilan ham atalgan.

Ajdodlarimizning mehnat qurollari

Ilk paleolit davri odamlari toshlardan qo‘pol qurollar (chopperlar) yasab, termachilik va jamaa bo‘lib ov qilish bilan shug‘ullanishgan. Qurollar turlari: ov, mehnat va jangovar qurollari. Metallarni bolg‘alash uchun ishlatilgan tosh va 24 dona yarim yemirilgan mis tangalar nusxalarini tashkil etadi. Kulolchilik buyumlari.

Uy-ro‘zg‘or buyumlari

Toshkent vohasida antik davrdayoq shahar madaniyati shakllanib, Qanqa, Shohruxiya, Kindiktepa, Qulota, Dalvarzintepa, Qovunchitepa va boshqa o‘ndan ortiq shaharlar o‘z davrida madaniy-iqtisodiy markazlar hisoblangan. Ulardan sopol idishlarning parchalari, simob ko‘zachalar, tutatqidonlar topilgan. Qadimda mahalliy uylarda turar joylarni chiroli qilib bezash va jihozlash qadimdan odat bo‘lib kelgan juda keng tarqalgan ikki qatorli sinch uylarning devorlari bo‘ylab to‘g‘riburchakli yoki peshtoq (gumbaz) shaklidagi bir necha taqmon (tokcha)lar o‘rnatilgan bo‘lib, ularda har xil uy-ro‘zg‘or buyumlari, idish-tovoq va ko‘rpa-to‘saklar joylashtirilgan.

Zeb-ziynatlar

Arxeologik topilmalar Qadimiy Xorazmda asosan, miloddan avvalgi 1-ming yillik o‘rtalaridan miloddan 8-asrgacha zargarlik rivojlanganligi ko‘rsatadi. Avvalgi o‘zbek qizlarining zeb - ziynatlari juda xil bo‘lgan. Ko‘krakka murg‘ak, nozigardon, bo‘yinga - tumor marjon bozband, boshga- oltin tumor, sochga - sochpopuklar taqib yurilgan. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, zeb-ziynatlar orqali ularning ijtimoiy o‘rnii hamda mavqeい qay darajada ekanligini aniqlasa bo‘lgan. Masalan: marvarid va noyob toshlar bilan bezatilgan zeb-ziynatlar asosan aslzodalar, xon va amirlar saroyi a‘yonlari uchun ishlangan. O‘rtaxollar uchun ko‘proq kumush suvi yuritilgan, rango - rang tosh va shishachalar bilan bezatiladigan taqinchoqlar rasm bo‘lgan. Kambag‘allar kumush, mis, birinj va shishalardan ishlangan zargarlik

buyumlarini taqishgan. Eng ommaviy ravishda tarqalgan ziynatlar asosan kumushdan yasalgan.

Tangalar

Surxondaryo viloyatidagi Kampirtepa qo'rg'onida o'tkazilgan arxeologik qazilmalar natijasida E.V. Rtveladze va S.A. Savchuk tomonidan anchagina tangalar topilgan. Quyida shu tangalarga ta'rif berib o'tamiz:

1. Diodot (mil.av. 250-230) tangasi. Aversda hukmdorning o'ng tomonidan olingan tasviri. Sochlari diadema bilan o'ralgan hukmdor qiyofasi tasvirlangan, sal do'ng peshona, to'g'ri burun, kichik lab, iyagi sal turtib chiqqan. Reversda ilonning suvratni. Misdan yasalgan, 4 g og'irlikda.

2. Yevtidem (miloddan avvalgi 235-200) tangasi. Aversda soqolli Geraklitasviri, uning peshonasi to'g'ri, qisqa bo'rtib chiqqan burun, to'la yonoqlar, sochlari to'g'ri chiziqlar bilan berilgan. Reversda yugurib ketayotgan ot tasvirlangan. 8 g og'irlikda. Yana bir tanganing aversda hukmdorining o'zi tasvirlangan, sochlari jingalak, burni bukrisimon, boshida nuqtali obodok tasvirlangan.

3. Demetriy (mil.av. 200-185) tangasi. Aversda filning boshiga o'xshash bosh kiyim kiygan shoh tasvirlangan. Mis, og'irligi 7,8 g, diametri –2,7 sm.

4. Yevkratid (mil.av. 171-155) tangasi. Aversda shohning jingalak sochlari diadema bilan o'rab olingan, hukmdorlarning peshonasi kichik, burni to'g'ri va bo'yni juda qisqa. Reversda otliqlar tasvirlangan.

5. Geliokl (mil.av. 155-140) tangasi. Aversda qo'sh diadema bilan sochlari o'rab olingan. Hukmdor kichkina turtib chiqqan peshonali, bukrisimon burun, kichkina lablar va iyakga ega bo'lgan. Ko'zlarini kichkina, ustida uzun ingichka qoshlar tasvirlangan. Reversda xiton kiyib olgan Zevs, bir qo'lida perun (hokimyat ramzi), yana bir qo'lida nayza tasvirlangan.

Qoyatosh sur'atlari

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Birinsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilalar bo'lib, ular yuzdan ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ulardan ibtidoiy buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayron kabilardir.

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilalar bo'lib, ular yuzdan

ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O'zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular ibridoiy buqalar, sherlar va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayron kabilardir. Rasmlar orasida o'qyoy, uzun qilich, xanjar, dubulg'a, qopqon kabi narsalar ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Petrogliflar

Dunyo tarixida ibridoiy tasviri san'at, xususan, g'orlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so'nggi paleolit davriga oiddir (Ispaniya, Altamir g'ori). O'rta Osiyoda ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo'ladi. Neolit davriga kelib esa rivojlangan bosqichga ko'tariladi. Kaltaminor, Hisor, ayniqsa Joytun madaniyatiga mansub yodgorliklardan ibridoiy san'atning turli namunalari topilgan. O'rta Osiyoning tog'lik hududlarida keng tarqalgan qoyatosh rasmlari ishlanish usuliga ko'ra ikki xil. Bir xillari bo'yoq (oxra) bilan, ikkinchi xillari esa urib-o'yib ishqalash, chizish usuli bilan ishlangan (petrogliflar) rasmlardir.

Yozma hujjatlar

O'zbekistonda yozma hujjatlarning yuzaga kelishi va rivoji, agarda arxeologik topilmalarga asoslanilsa, bir necha ming yillik tarix bilan uzviy bog'lanadi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoning charmga bitilgan ilk nusxalarini hamda qadimiy Niso va Tuproqqal'a shahar xarobalaridan topilgan charm, yog'och va sopol bo'laklariga yozilgan xo'jalik hujjatlarining guvohlik berishicha, qadimiy Turon hududlarida ilk qo'lyozma manbalar miloddan avvalgi

1-ming yillikda yuzaga kelgan. Ular shahar ibodatxonalari va poytaxtlarda qad ko'targan podshoh qarorgohlarida saqlangan. Masalan, Ko'hna Niso xarobalarida o'tkazilgan arxeologik qazishmalar vaqtida 2 mingdan ortiqroq sopol bo'laklariga parfiya yozuvi bilan bitilgan xo'jalik hujjatlari topilgan. Ularda Nisoning 17 bog'dorchilik tumani va 10 ta qishlog'idan qaysi yilda qancha miqdorda musallas keltirilib topshirilgani qayd etiladi. Xorazmshoxlarning qadimiy poytaxti Tuproqqal'a xarobalaridan qazib ochilgan podsholik arxividan esa teri va yog'ochga yozilgan 100 dan ortiq kirim hujjatlari topilgan. Ularda podsho xazinasiga tushgan soliqlarning nomi, miqdori va qayerdan keltirilgani belgilangan. Yog'ochga bitilgan hujjatlarda esa, ozod, qul, xizmatkor, malika cho'rilar, shahzoda xizmatkorlari, qullari kabi

qadimiy Xorazmda hukm surgan ijtimoiy hayot bilan bog'liq tabaqalarni belgilovchi atama va iboralar tilga olingan²³.

XIX asrning oxiri - XX asrning boshlaridan yozma manbalarning miqdori keskin oshib bordi. Hozirgi kunga kelib yozma hujjatlar shu darajada ko'payib ketdiki, ularni unifikatsiya qilish, axborotni kodlashtirish, hujjatlarni saralash va saqlash yo'llarini takomillashtirish ehtiyoji tug'ildi.

Manbalarni o'rganishdan maqsad yosh avlodni o'zbek xalqi etnomadaniyati tarixini manbalar asosida mustaqil o'rganishga harakat qildirishdan iborat.

Tarixiy manbalar yurtimiz tarixi to'g'risida xolis va ob'ektiv bilim olishga, o'zligimizni anglashga, boy va qadimiy madaniyatimizni bilishga xizmat qiladi.

Zero, O'zbekiston xalqlari ma'naviy merosi, etnomadaniyati qadimiy va boy tarixga ega bo'lib, uni birlamchi manbalarga tayangan holda ilmiy tadqiq qilib borish bugungi kunning dolzarb vazifalari qatorida turadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgach, ma'naviy merosga e'tiborni kuchaytirish muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etildi. Bu haqda O'zbekstonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimizda saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir"²⁴, – deb alohida ta'kidlab o'tgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 22 dekabrdagi "Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, "hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o'rtaq qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish mumkin". "Lekin biz ana shunday noyob meros vorislari, shunday boylik egalari bo'laturib, ularni har tomonlama o'qish-o'rganish, xalqimiz, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yoshlарimizga,

²³Qarang: Саъдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. - Т.:Ўқитувчи, 1996; Ахмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари.-Т.: Ўқитувчи, 2001.

²⁴ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т : Маънавият, 2008 йил. 30-31 бетлар.

jahon hamjamiyatiga yetkazish bo'yicha, yetarli ish qilmaganimizni ham ochiq tan olish kerak”²⁵.

Hozirgi vaqtida mavjud Sharq yozma manbalari orasida Temuriylar davrida yaratilganlari salmoqli o'rinni egallaydi. Bu holat mazkur sulola vakillari va o'sha davming yetuk qalam sohiblari ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shganlarini anglatadi. Darhaqiqat, Temuriylar davri iqtisodiyot, madaniyat va ma'naviyat nisbatan yuksak darajada taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi. Agar XV asrning birinchi yarmida Mavarounnahrda xukmronlik qilgan Mirzo Ulug'bek (812/1409–853/1449) ilm-fanning ko'pgina sohalarini, ayniqsa, aniq fanlarni rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan bo'lsa, XV asrning oxirgi choragida Husayn Boyqaro (873/1469–912/1506) sultanatida Xurosonda, xususan, Hirotda madaniy rivojiga alohida e'tibor qaratilganini ko'ramiz. Bunda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy samarali ishlar qildi, natijada ilm-fanning turli sohalari bo'yicha sermazmun ilmiy meros yaratildi.

Bu davrda dunyoviy fanlar bilan bir qatorda islom dini bilan bog'liq ilmlar ham rivojlandi. Jumladan, Qur'oni Karimni har tomonlama o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Chunonchi, Hirotda Alisher Navoiy homiyligida Qur'oni Karim oyatlarining ma'nolariga bag'ishlab Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy Sabzavoriy Hiraviy (vaf. 910/1505) tomonidan “Javohir at-tafsir li tuhfat al-Amir”, “Muxtaras al-javohir”, “Jome' as-sittiyn yo tafsiri surai Yusuf” va “Mavohibi Aliyya” nomli tafsirlar yozilgani ma'lum. Ular orasida “Javohir at-tafsir” va “Mavohibi Aliyya” asarlari Mavarounnahr va Xurosondagi ma'naviy hayotni Qur'on ilmlari rivoji misolida o'rganish bo'yicha alohida ahamiyat kasb etadi.

O'tmishni o'rganishda manbalarning ahamiyati beqiyos bo'lib, tariximizning eng qadimgi, ya'ni yozuvsiz zamonalarga oid davrini o'rganishda arxeologik, antropologik va etnografik manbalar yordamga keladi. Bu manbalar turli-tuman bo'lib, ularga – qadimgi manzilgohlar va shaharlar xarobalari, mozor-qo'rg'onlar qoldiqlari, turmush va xo'jalikda ishlatalidigan buyumlar, mehnat va jangovar qurollar, turlig'tuman ashyolar kiradi. Yozma manbalar esa, eng qadimgi yozuvlar, bitiklar va kitoblardan iboratdir. Moddiy va yozma manbalar ma'lumotlarini solishtirib, qiyoslab tarixni talqin etish muhim ahamiyat kasb etadi.

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь. –Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

Tarixiy manbalarning guruhlarga bo‘linishi. Yozma tarixiy manbalar, shubhasiz, kishilik jamiyatining ijtimoiy va shaxsiy faoliyati natijasida yuzaga kelgan. Manbalarni shartli ravishda quyidagi 8 ta guruhgaga bo‘lish shartli xarakterga ega: yozma manbalar, ashayoviy manbalar, etnografik manbalar, lingvistik manbalar, toponimik manbalar, og‘zaki (folklor) manbalar, kino, fono va fotomateriallar. Bundan tashqari, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tarixiy manbalar guruhi o‘z navbatida yana kichikroq guruhlarga bo‘linishi mumkin. Manbalarni turkumlarga bo‘lish, ularning yuzaga kelishi, tadqiqot qilish, mualliflarini aniqlash, haqqoniyligi va to‘liqligini belgilash kabi masalalar bilan manbashunoslik fani shug‘ullanadi.

1.Yozma manbalar. Yozma manbalar tarixiy manbalarning muhim va asosiy qismi hisoblanadi. O‘rta Osiyoda miloddan avvalgi 1-ming yillikda dastlab oromiy yozuvlari, so‘ngra asoslangan so‘g‘d, xorazm va baqtriya yozuvlari tarqaldi. Keyinchalik bu mintaqada yunon, kushon, turk va arab yozuvlari yoyildi. Qadimgi Fors, So‘g‘d, Korazm, Qadimgi turk, fors-tojik, eski o‘zbek, rus va boshqa tillarda bitilgan yozma manbalar ko‘p asrlik tariximizni o‘rganishda ulkan rol’ o‘ynaydi. Yozma manbalar qoyalarga, taxta va matolarga, pergament qog‘ozlarga yozilgan bitiklardan iborat. Yozma manbalar davrlar bo‘yicha nihoyatda notejis bo‘lingandir. Eng qadimgi davrlar bo‘yicha yozma manbalar nixoyatda oz bo‘lib, keyingi asrlarga oid manbalar esa tobora ko‘payib boradi. Yozma manbalarning katta qismi son-sanoqsiz jangu jadallar va tabiiy ofatlar natijasida nobud bo‘ldi.

2.Ashyoviy manbalar. Ashyoviy manbalarga qadimgi odamlarning manzilgohlari, binolar, turli inshoatlar, mehnat qurollari va turli buyumlar kiradi. Ashyoviy manbalarni qidirib topish va o‘rganish bilan asosan arxeologiya fani shug‘ullanadi.

3.Etnografik manbalar. Xalqlarning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan material va ma‘lumotlar etnografik manba hisoblanadi. Masalan, xalq, qabila va urug‘ nomlari, inson qo‘li va aql –zakovati bilan yaratilgan qurol va buyumlarning naqsh va bezaklari, kishilar ongida, shuningdek, og‘zaki va yozma adabiyotda saqlanib qolgan o‘tmish urf-odat va an‘analari, kishilarning turmush tarzi etnografik manba hisoblanadi. Bularning barchasini etnografiya (yunon, etnos – xalq, graxo – yozaman, xalq haqida ma‘lumotlar; xalqshunoslik) ilmi tekshiradi va o‘rganadi Bu manbalarni ko‘makchi tarix fanlari - etnologiya fani o‘rganadi. Etnografik manbalar ayrim hollarda uzoq o‘tmishini qayta tiklashda g‘oyat muhim rol’ o‘ynaydi. Masalan,

XIX asrda amerikalik etnograf olim L. Morgan Shimoliy Amerikada yashagan xindularning irokezlar qabilasi hayotini o'rganib, o'zining "Qadimgi jamiyat nomli asarini yozdi. Uning bu asarini insoniyat tarixining ilk davri –I idoiy jamiyat tarixini tadqiq etishga yaqindan yordam berdi. Hozirgi kunda turli o'zbek urug'lariaga mansub bo'lgan aholi guruhlarining jamlovi. Ularning etnik xususiyatlarini o'rganish tariximizning etnik saxifalarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Lingvistik manba. O'zbek tili va boshqa tillarning leksik tarkibida mavjud bo'lgan va hozir ham mavjud atamalar va toponimlar (joy nomlari)ni tadqiq etish jarayonida qimmatli tarixiy materiallar qo'lga kiritilishi mumkin. Atamalar va topilmalarning kelib chiqishi va mazmunini aniqash bilan lingvistika (tilshunoslik) fani shug'ullanadi. Bunday ma'lumotlar lingvistik manbalar deb ataladi. Masalan, "Buxoro" toponimi sanskrit tilidagi "vihara" so'zining o'zgargan varianti bo'lib, "ibodatgoh" degan ma'noni bildirilishi aniqlangan. Qadimda Buxoro shahrida buddaviylarning ibodatxonasi mavjud bo'lganligi sababli keyinchalik bu so'z mazkur shaharga nisbatan ishlatila boshlagan. Shunga o'xshab "vag'nze", "dax'yu", "suyurg'ol", "tanxo" singari yuzlab atamalarning kelib chiqishini o'rganish qiziqarli tarixiy ma'lumotlar beradi. Iqtisodiy, ma'muriy va yuridik atamalar, masalan, xiroj - o'rta asrlarda aholidan, asosan dehqonlardan olinadigan asosiy soliq; daromad solig'i; ushr - daromadning o'ndan bir qismini tashkil etgan soliq; zakot - chorva va mulkdan kambag'allar uchun yiliga bir marta olinadigan soliq; cuyurg'ol - shahzodalar va amirlarga toju taxt oldida ko'rsatgan katta xizmatlari uchun beriladigan yer-suv; tansuqot - kamyob, e'tiborga molik buyum, mato; podshohlar, xonlar va nufuzli kishilarga qilinadigan tortiq; cherik - qo'shin; qorovul - qo'shining oldi va yon tomonlarida boradigan maxsus harbiy bo'linma; xalifa - Muhammad payg'ambarning o'rribbosari, o'rta asrlarda arab musulmon feodal davlatining boshlig'i; mirishkor - to'g'risi - miri shikor, podshoh va xonlarning ov qushlari va ov hayvonlarini tasarruf etkuvchi mansabdar; mirob - suv taqsimoti bilan shug'ullanuvchi mansabdar; qozi -shariat asosida ish yurituvchi sudya; yorlig' -o'rta asrlarda hukmdor tarafidan beriladigan rasmiy hujjat; vaqfnoma -masjid, madrasa, xonaqoh va mozorlarga in'om e'tilgan yer - suv haqidagi tuzilgan maxsus hujjat va boshqa atamalar juda ko'p uchraydi. Bu va shunga o'xshash atamalar shubhasiz qimmatli tarixiy material bo'lib, ajdodlarimizning ijtimoiy - siyosiy hayotini

o'rganishga yordam beradi. Ularning kelib chiqishi va etimologiyasini lingvistika (lotin, lingua – til) fani o'rganadi.

5.Fol'klor manbalar. Xalq uzoq asrlar davomida o'zi ortig'an tarixiy bilimlarni og'zaki ijod orqali avloddan-avlodga yetkazib keldi. Turli rivoyatlar, asotirlar, xalq dostonlari va maqollarda tarixning u yoki bu tomonlari o'z aksini to'di. Taniqli rus tarixchisi B. D. Grekov yozganidek, rivoyat va asotirlar – "Bu xalqning o'zi so'zlab bergan tarixidir". Markaziy Osiyo eng qadimgi xalqlarining ogzaki ijodiyoti namunalari bizgacha "Avesto" kitobi orqali, shuningdek antik tarixchilar hamda Tabariy, Narshaxiy, Beruniy va boshqalar asarlari orqali etib keldi. O'rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi qabila va elatlarning rivoyatu asotirlarları ularning turmush tarzi va ma'naviy dunyosi haqida ma'lumot beradi. Qadimgi ajdodlarimizning ajnabi bosqinchilarga qarshi olib borgan kurashlari to'grisida hikoya qiladi. Bu rivoyat va ertaklarda malika To'maris, cho'pon Shiroq, baxodirlar Rustam va Siyovushlar obrazini yaratdi. Ulaming Vatan ozodligi yo'lidagi fidokorona kurashlarini tarannum etdi. Xalq afsonalari Abulqosim Firdavsiyning mashhur "Shoxnoma" asarining syujetini tashkil etdi.

O'rta asrlarda o'zbek xalqi ijod qilgan epik dostonlar, ertaklar va qo'shiqlar, maqol va topishmoqlar xalq tarixini, uning ruhiyatini va ma'naviyati tadqiq etishda muhim ahamiyatga egadir. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, fol'klor manbalari aniq tarixiy manba sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Buning asosiy sababi shuki, rivoyatlarda ko'p xronologik chalkashliklar mayjud hamda tarixiy shaxslarning faoliyat ko'rsatgan davri o'zgarib turadi. Fol'klor shunday janrki, unda so'zlovchi voqealar syujetini o'zi hohlagan tarzda o'zgartirishi mumkin. Shuning uchun fol'klor materiallaridan faqat qo'shimcha tarixiy manba sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

6.Toponimik manbalar. Joy nomlari (geografik atoqli nomlar), ularning paydo bo'lishi yoki yaratilish qonuniyatları, rivojlanish va o'zgarishi, tarixiy etimologik manbalari va grammatic xususiyatlari, ularning tuzilishi, tarqalish hududlari hamda atalish sabablari aks etgan manbalar toponomik manbalar hisoblanadi. Toponimlar ham, til leksikasining bir qismi sifatida boshqa hamma so'zlar singari til qonuniyatlariga bo'y sunadi, lekin o'zining paydo bo'lishi va ba'zi ichki xususiyatlari jihatidan jamiyatning kundalik moddiy va ma'naviy holati, iqtisodiy turmushi, orzu va intilishlariga aloqador bo'lib, ma'lum darajada boshqa

guruh so‘zlardan farq qiladi. Shu bilan birga, toponimlarda milliy tilimizga xos bo‘lgan qadimiy fonetik, leksik va morfologik elementlar ko‘proq shakllangan bo‘ladi. Joyning tabiiy geografik sharoiti (relyef), aholining etnik tarkibi, kishilarning kasbi va mashg‘uloti, qazilma, boyliklar, tarixiy shaxslar va voqealar toponimlar vujudga kelishining asosiy manbalari hisoblanadi.

7. Fotokinohujjatlar. Fotograf hamda kino san`ati paydo bo‘lgandan so‘ng tarixiy manbalarning yangi bir guruhi vujudga keldi. Bunday manbalar fotohujjatlar deb ataladi. Toshkentdagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy kinofotofonohujjatlar Davlat arxivida XIX asrning oxiridan hozirgi kunga qadar bo‘lgan muddatda o‘lkamizda sodir bo‘lgan voqealarni aks ettiruvchi boy fotohujjatlar kolleksiysi saqlanadi. Kinohujjatlar esa asosan Oktyabr’ to‘ntarishidan keyingi davrni aks ettiradi. Fotokinohujjatlarning muhim tomoni shundan iboratki, ular tariximizning turli lahzalarini jonli tarzda gavdalantiradi. Hujjatlarning bu guruhini o‘rganish va ulardan foydalanish bizning tarixiy tasavvurimizni yana kengaytiradi va chuqurlashtiradi.

8. Fonohujjatlar. Fonohujjatlar deganda biz grammafon plastinkalari hamda magnit tasmalarga yozib olingen nutqlar, suhbatlar, adabiyot va san`at asarlarini tushunamiz. O‘zbekiston Markaziy kinofotofonohujjatlar Davlat arxivida qator shunday hujjatlar saqlanmoqda. SSSR va O‘zbekiston SSR davlat va jamoat arboblari, fan adabiyot va san`at namoyondalari, ishlab chiqarish ijodkorlarining nutq va intervyulari, eski bol’sheviklar, grajdalar urushi va ikkinchi jahon urushi faxriylarining esdaliklari alohida o‘rin tutadi. Lekin bu hujjatlarning ko‘pchiligi o‘sha davrda hukmron bo‘lgan kommunistik mafkura ruhi bilan yo‘g‘irilganligini ta‘kidlab o‘tish zarur. Arxivda shoir va yozuvchilarining o‘z asarlaridan o‘qigan parchalari matni, san`at ustalarining kontserflari ham yozib olingen. Fonohujjatlar ham tarixning jonli manzaralarini yaratishga, adabiyot va san`at tarixini teran o‘rganishda muhim o‘rin tutadi.

Etnomadaniyat va milliy mentalitetni rivojlantirish masalalari. Etnomadaniyat va milliy mentalitetni rivojlantirish masalalari O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida har tomonlama ochib berilgan. Ammo, mazkur mavzuni mustaqil tadqiqot sifatida fundamental tarzida Respublikamiz olimlari kam o‘rganganlar.

Ayni paytda etnomadaniyat va milliy mentalitet uyg‘un holatda emas balki har biri alohida malum darajada o‘rganilib kelinmoqda.

Chu o‘rinda etnomadaniyatning turli tarmoqlarini ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik jihatdan o‘rganib kelayotgan, F.R.Abduraxmonov, A.Ashirov, Q.B.Bo‘ronov, M.B. Bekmurodov, Sh.Valiev, Sh.Gayupova, U.X.Qoraboev, I.Karimov, V.Qo‘chqorov, N.Mamanazarov, A.S.Ochildev, S.Otamuratov, I.S.Saifnazarov, J.T.To‘lanov, F.Turg‘unov, Q.X.Xanazarov va boshqalarni kiritish alohida qayd etish mumkin.

Jumladan, F.R.Abdurahmonov mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin millatimiz ongida milliy manfaatlarning shakllanish jarayonlari, milliy ma’naviy tiklanishda sodir bo‘layotgan ijobiy o‘zgarishlarni va shu jarayon bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni ko‘rsatib bergen²⁶

A.Ashirov oilaviy marosimlarining bazi falsafiy-axloqiy jihatlarini ohib berishga harakat qilgan²⁷. U asosiy e’tiborni o‘zbeklarning an’anaviy oilaviy marosimlaridan bola tug‘ilishi va tarbiyasiga oid masalalarni etnografik jihatdan tahlil qilishga qaratgan.

Uning fikricha, oilaviy marosimlarga kiruvchi-tug‘ilish, nikoh va o‘lim bilan bog‘liq marosimlarda zanjiriy tarzdagи bog‘lanish aks etganligini kuzatish mumkin.

Sh.Gayupova “Mentalitet”ni falsafa sohasida o‘rganilishining umumnazariy asoslарини tahlil qilishga harakat qilgan²⁸. Prof.Q.B.Bo‘ronov o‘z monografiyasida keng mahnoda o‘zbek milliy ma’naviyatining ildizlarini ohib bergen. Uning fikricha, “ma’naviyat doimo harakatda, o‘sish o‘zgarishda rivojlanishda bo‘ladi...”²⁹.

Mamlakatimizda mentalitet va o‘zbek milliy mentalitetining o‘ziga xos jihatlari, uning takomillashuv jarayonlarini birinchilardan bo‘lib sotsiolog olim professor M.B. Bekmurodov ohib bergen. U asosiy etiborini o‘zbek mentalitetidagi jamoviylilik xususiyatiga qaratgan³⁰. Shuning bilan birga u bozor munosabatlari shakllanayotgan bir paytda yuzaga kelayotgan ayrim salbiy xatti-harakatlarni ham

²⁶ Qarang: Абдурахмонов Ф.Р. Мустақилик ва миллий манбаатлар. – Т.: Фан, 1994.

²⁷ Ashirov A. Oilaviy marosimlarning ba’zi falsafiy-ahloqiy masalalari // Falsafa va huquq. – Т.: 2006. - № 3. B. 49-5.

²⁸ Гаюпова Ш. Менталитетнинг ижтимоий-фалсафа соҳасида ўрганилишининг назарий асослари.- Фалсафа соҳасида ўрганилишининг назарий асослари // Фалсафа ва хукуқ. – Т.: 2005, №3. Б. 15-19.

²⁹ Бўронов К.Б. Халқимиз маънавигти ва маърифатининг теран илдизлари. – Т.: Фан, 2003;

³⁰ Бекмуродов М.Б. Ўзбек менталитети. – Т.: 2004.; Маманазаров Н. Мустақилик ва миллий-этник жihatлари. – Т.: 2004; Каримов И. Мислат шаъни. – Т.: Янги аср авлоди, 2005; Кўчкоров В. Миллий ўзлиник англаш ва ижтимоий-сиёсий жараёнлар. – Т.: Академия, 2007;

aniq misollarda ko'rsatib bergen. U.O'tanova o'z maqolasida etnomadaniyatni an'anaviy xalq madaniyati tarzida tahlil qilgan va uning asosiy xususiyati sifatida "muqimligi va innovatsiyaga (yangilikka) moyilligidir"³¹, - degan fikri ilgari surgan.

Mavzuyimizga yaqin bo'lgan etnomadaniyat masalalarining yirik mutaxassisi, prof. U.H.Qoraboev, o'zining o'quv qo'llanmasida etnomadaniyatning nazariy asoslari, etnik madaniyatning sohalari va uning negizlarini ko'rsatib bergen. U o'zining "O'zbek xalqi bayramlari" asarida fundamental tarzda milliy bayramlarimizning shakllanishi, uning evolyutsiyasi va shakllarini ilmiy asoslab bergen³².

Mavzuyimizga yaqin tadqiqotlardan yana biri F.Turg'unovning monografiyasи hisoblanadi. U o'zining kitobida "mentalitet" tushunchasini tahlil qilgan va mehnat mentalitetining -mohiyatini oshib bergen³³. Prof.Q.X.Xonazarov o'z maqolasida "mentalitet" tushunchasining mohiyatini mustaqillik yillarda o'zbek milliy mentaliteti va boshqa xalqlar mentalitetiga xos xususiyatlarini ko'rsatib bergen³⁴.

Keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, respublikamizda etnomadaniyatimizning turli qirralari olimlarimiz tomonidan o'rganilib kelimoqda.

Ammo, hali masalani tarix, etnografiya, etnosotsiologiya, arxeologiya va sanatshunoslik yo'nalishida chuqur o'rganish borasida fundamental tadqiqotlar olib borilishi, ularning natijalarini nafaqat mamlakatimizda, shuningdek, jahon fani miqyosida o'rganib targ'ibot qilishga ehtiyoj oshib bormoqda. Ayniqsa, etnomadaniyatni ijtimoiy-falsafiy jihatdan jiddiy o'rganish, unda sodir bo'ladigan evolyutsion jarayonlarning milliy mentalitetda namoyon bo'lish xususiyatlarini va ulardan ijtimoiy taraqqiyotimizda samarali foydalanish imkoniyatlarini oshib berish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bugun yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarimiz tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar esa mavzuyimizni o'rganishda zarur metodologik va uslubiy material hisoblanadi.

³¹ Ўтанова У. Этномаданиятнинг япчанлик сири // Тафаккур. – Т.: 2006, №3. – Б. 122-123;

³² Корабоев У.Х. Ўзбек халқи байрамлари. – Т.: Шарқ, 2002 11-38 бетлар;; III Корабоев У.Х.. Этнокультура. (традиционная народная культура). – Т.: Шарқ, 2005, стр.31-48.

³³ Тургунов Ф. Мехнат менталитети: Янгиланиши ва тараққиёт диалектикаси. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари милий жамияти, 2004, 31-39бетлар.

³⁴ Хоназаров К. Миллий менталитет-тараққиёт омили. // Мулокот. – Т.: 2000. – № 3. –Б. 2-4.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Tarixiy manba, Amudaryoning o'ng sohili hududidagi qal'alar, Qadimgi shaharlar, Qadimgi odamlarning manzilgohlari, sug'orish inshootlari qoldiqlari, Amudaryoning so'l sohili hududidagi qal'alar, uy-ro'zg'or buyumlari, ajdodlarimizning mehnat qurollari, zeb-ziynatlar, yozma hujjatlar, qoyatosh sur'atlari, petrogliflar, tangalar, ashyoviy manbalar, etnografik manbalar, fol'klor manbalar, lingvistik manba, fotokinohujjatlar, milliy mentalitet va h.k.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarixiy manbalarga umumiy tavsif bering...
2. Nima uchun tarixiy manbalarning mavjudligi tarix fani rivojlanishining asosiy sharti deymiz?
3. Qadimgi zamon tarixiy manbalari(m.a.6 milodning 5-asrlari)ga qaysi manbalar kiradi?
4. XIII-XIV – asr boshlaridagi madaniy manbalarga misol keltiring...
5. XIV-XIX – asrlar davri tarixiga oid manbalarga qaysi manbalar kiradi?
6. Ma'lumki, bizgacha etib kelgan tarixiy manbalarning asosiy qismi milodiy X-XX asrlarga mansubdir. Ularni quyidagi qanday tasniflash mumkin?
7. Hozirgi zamon tarix fanida tarixiy manbalar nechta asosiy guruhga bo'linadi?
8. Atamalar va topilmalarning kelib chiqishi va mazmuniga doir manbalar qaysi guruhga kiradi?
9. Fonohujjatlar guruhiga qanday manbalar kiradi?
10. Mamlakatimizda mentalitet va o'zbek milliy mentalitetining o'ziga xos jihatlari, uning takomillashuv jarayonlarini birinchilardan bo'lib qaysi olim ochib bergen?

II BOB

QADIMGI DAVR O'ZBEK FOLKLORLARI, XALQ OG'ZAKI IJODI, XALQ DOSTONLARI, MAQOLLAR, MILLIY RAQSLARNING ETNOMADANIYATNI BOYITISHDAGI ROLI VA O'RNI

4-§. Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni

Urf-odatlar, an'analar va marosimlar hamda xalqimiz hayotiga marosim-bayramlarning kirib kelishi. Xalq turmush tarzi va ma'naviyatining tarkibiy qismini uning azaliy udumlari, urf-odatlari, marosimu-an'analarini tashkil qiladi. Bu esa shu xalqning ma'naviyati nechog'lik shakllanganligini, uzoq o'tmishga ega ekanligini bildiradi. O'zbek xalqi ana shunday boy ma'naviyatli xalqlardan hisoblanadi.

Urf-odat – kishilarning turmushiga singib ketgan. Ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikmasidir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida keksa, qariyalar, kasal, ojiz, qiyngan kishilar holidan xabar olish qo'nishnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilalar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi. "Odat" degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo'lib, u ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, kishining fe'l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o'z-o'zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma'nosini bildiradi.

An'ana – ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Muayyan bir jamoaning turmush tarzi, xatti-harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Marosim – inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatda o'tadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir sanaladi.

Masalan, ism qo'yish, chaqaloqni beshikka belash, nikohdan o'tish, dafn qilish, xotirlash, ekishga kirishish (urug' qardash), o'rishga kirishish, Navruz ayyomi kunlari ko'pchilik bo'lib sumalak taomini tayyorlash marosimlaridir.

Odat kundalik hayotda doimo kuzatilsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganida vujudga keladi. Marosim kishilar hayotidagi eng muhim voqealarni tug'ilish, uylanish, o'lim kabilarini qayd etadi, rasmiylashtiradi.

Marosimlarni o'tkazishda avloddan-avlodga o'tadigan, ramziy va rasmiy an'analar, qoidalarga amal qilinadi.

Marosimga, bo'layotgan voqeaga "guvoh" sifatida odamlar chaqiriladi. Odamlar kimningdir g'ami yoki quvonchiga sherik bo'lishadi, kelajak uchun yaxshi niyatlar qilishadi. Har bir marosimning o'ziga xos umum qabul qilingan tuzilishi (boshanishi, o'rtasi, oxiri) bo'ladi. Inson hayotida bo'lib o'tayotgan muhim voqeani nishonlash jrayonida an'ana ham, odat ham marosim ham mujassamlashadi.

"An'ana", "odat", "marosim" bir-biri bilan bevosita bog'liq hodisa hisoblanadi. Shu bois an'analarning tarkibiy qismi odat, odatning tarkibiy qismi esa marosim ham bo'lishi mumkin.

Masalan, bilim yurtini bitirgan yosh mutaxassislarining ishlab chiqarishga borib ish boshlashi odat tusiga kirib qolgan. Bu muhim voqealarning munosabati bilan an'anaviy tadbirlar tashkil qilish mumkin. Bu odatning tarkibiy qismi – yoshlarni tantanali ravishda mehnat jamoasiga qabul qilish o'z-o'zidan marosimga aylanadi.

Ba'zi holatlarda "an'ana", "odat" va "marosim" tushunchalari alohida ishlatsa, ular mavhum ma'noni anglatishi ham mumkin. Bunday paytda ularga aniqlovchi so'zlar qo'shib, masalan, "an'anaviy bayram", "an'anaviy festival", "an'anaviy kecha" yoki "mukofotlash marosimi", "to'y marosimi", "nafaqaga kuzatish marosimi" tarzida qo'llaniladi. "Marosim" so'zi jamoatchilik ishtirokida o'tkaziladigan katta tadbir ma'nosini bildiradi. Oilaviy urf-odatlar oila paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Shu bilan birga o'zgargan, rivoj topgan. Taraqqiyot, zamon talabiga javob bergen urf-odat yanada kuchayib zamonga qarab rivojlanib bormoqda.

O'zbek xalqining oilaviy marosimlari ham tarixiy zaruriyat asosida vujudga kelgan va zamon chig'iriqlaridan o'tib, muhim ma'naviy qadriyat sifatida ravnaq topgan.

Urf-odatlarimizga aylanib qolgan chaqaloqni beshikka solish kabi marosimlarimiz mavjud. Urflarimizga aylanib qolgan beshik to'yini yoritar ekanmiz, beshik to'yi qadim zamonlardan har bir oilada o'tkazilib kelingani tufayli, bu marosim xalq madaniy hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan.

Urf-odatlar, marosimlar, an'analar o'zining betakror tabiatini bilan yoshlarning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir etadi, ularning badiiy va axloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy

mahorat, nafosat va badiiy didini o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Har bir davming, har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy –geografik sharoitiga xos bo'lgan va uni o'zida aks ettiradigan urf-odat va an'analari bo'ladi. Odamzod ongli hayot kechira boshlagandan buyon vujudga kelgan urf-odatu marosimlar, udum va an'analarni hisoblab chiqish qiyin. Ular xalq hayotining ma'naviy qiyofasida muhim o'rinni tutadi.

Milliy urf-odat va an'analarda butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o'ziga xos ravishda mujassamlangan bo'ladi. Ular xalqning faoliyati jarayonida tug'iladi, har bir xalq butun tarixi davomida yashash sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kishilar o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum normada yo'l-yo'riqlarini yaratadi. Bu norma va yo'l-yo'riqlar avloddan-avlodga o'tish bilan takrorlanib, urf-odatlar va an'analarga aylanib qoladi³⁵.

Shakllangan urf-odat va an'analalar shaxsnинг ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida shaxsnинг xulq-atvori ijtimoiy jihatdan belgilovchi, boshqarib turuvchi va shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Qaysi bir urf-odat va an'anan, udum yoki marosimni kelib chiqish sabablarini o'rganmasdan turib qaraydigan bo'lsak, ular bir qarashda, be'mani, behuda bo'lib ko'rindi. Aslida esa ularni barchasi kelib chiqishi bo'yicha xalqning ijtimoiy-iqdisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma'lum ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilganligini ko'ramiz. Chunki ular xalqning ma'naviy-ruhiy hayotining ajralmas qismi sifatida o'ziga xoslikni ifodalaydi.

An'analar esa ijtimoiy hayotning hamma sohalarida mavjud bo'lish bilan birgalikda, yana kelib chiqish jarayonini ham qamrab oladi. An'anada kishilarning narsa va buyumlarga, tabiatga bo'lgan munosabatlari ifodalanadi. Ma'lumki, san'at va adabiyotda, armiya va oliy o'quv yurtlarida, sport va ishlab chiqarish jamoalarida urf-odat bo'lmaydi, balki an'analar mavjud bo'ladi. Masalan, armiyaga yangi borgan soldatning qasamyod qabul qilish, oliy o'quv yurtiga kirgan yoshlarni talabalar safiga qabul qilinishi, yirik sport musobaqalarida g'olib sportchi sha'niga mamlakat bayrog'ini ko'tarilishi va madhiyani yangrashi bular an'analarni hisoblanadi.

³⁵ Йўлдошева С. Xalq urf-odatlari va an'analari. – Т.: Ижод дунёси, 2003 йил. 46 бет.

Bundan tashqari an'analarning ta'sir doirasi nisbatan keng bo'lib, bitta an'ana bir necha urf-odat, udum va marosimlarni o'zida qamrab olgan bo'lishi mumkin. Masalan, xalqimizda mavjud bo'lgan mehmondo'stlikni olib qaraydigan bo'lsak, mehmondo'stlik u yoki bu darajada har bir xalq va millatga xos bo'lgan xususiyatdir. Lekin bu narsa yuqorida ko'rib o'tganimizdek, o'ziga xos ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ta'siri ostida, oilaviy-maishiy hayotdagi munosabatlar natijasida o'zbek xalqida o'ziga xos bir yo'sinda namoyon bo'ladiki, bu o'zbek xalqining milliy xususiyatiga, milliy an'anasiga aylanib qolgan. Mana shu mehmondo'stlik an'anasi bir necha urf-odatlar, udumlar orqali to'la namoyon bo'ladi. Masalan: o'zbek qoidalarida mehmon har doim ochiq chehra va shirin kalom bilan kutib olinadi. Xonadondagi eng noyob narsalar mehmon oldiga qo'yiladi. Mehmonni qadr-qiymati o'ta yuqori qadrlanadi.

Endi udum va marosimlarga kelsak, ular kuchli psixologik va hissiy ta'sir etish kuchiga ega bo'lib, shular yordamida urf-odat va an'analar bevosita yuzaga chiqadi. Urum u yoki bu urf-odat va an'ananing bajarish vaqtida amal qilinadigan tartib va qoidalar. Marosim esa, udumni ko'z-ko'z qilib turadigan tashqi bezagi tasviri, ya'ni bajarilishi jarayonidir.

O'zbek oilalarida o'tadigan biron-bir yig'ilish, marosim, tantali tuy-tumoshalar, hashar va obodonlashtirish ishlari kattalarsiz, keksalarsiz, ularning maslahatisiz o'tmaydi. Uzoq safarga ketayotgan har bir kishi, qaytayotgan har bir kishi albatta, mahalla va qishloqning hamma keksalarini va xasta bo'lib yotgan kishilarni borib ziyorat qilishi zarur. Agar safardalik davrida mahalladagi biror kishi vafot etgan bo'lsa, birinchi navbatda uning oilasiga borib ta'ziya bildiriladi. Millatimizning asriy an'ana va urf-odatlarisiz, milliy mafkurani shakllantirish mumkin emas. Bunda G'arb xalqlari uchun notanish, ammo milliy tabiatimizga xos bo'lgan o'z-o'zini bosharuv usuli mahallani rivojlantirish hamda uning mavqeini oshirish muhimdir. Jamiyat hayotida totuvlik va ijtimoiy tarbiyani tashkil qilishda mahallaning ahamiyati beqiyosdir. Bu haqda taniqli olim Abduqahhor Ibrohimov "Odam-odamlarga suyanib, orqa qilib yashaydi. Odam-odamlardan odamiylikni o'rganadi. Bu xalqimizning falsafiy mushohadalaridandir. Bir so'z bilan aytganda, biz asta yig'lab, baralla kuladigan xalqmiz. O'zbek mahallalarida inson shunday ta'lim-tarbiya oladi"³⁶ deydi.

³⁶ Ibrohimov A. O'zbek mahallasi. –T.: Ma'naviyat, 2007 yil, 24 b.

Urf-odatlar va an'analar har bir xalqqa abadul-abad berilgan va hech o'zgarmaydigan narsa emas. Hayot ularni g'alvirdan o'tkazib, puchini-puchakka, sarasini-sarakka ajratib boradi. Yangi davrga moslasha olgani saqlanib qoladi. Shuning bilan birga har bir davr o'zining udum va marosimlarini, urf-odatlar va an'analarini yaratadi. Yangi vujudga kelayotgan urf-odatlar o'z-o'zidan, quruq yerda paydo bo'lmasdan, asosan ilgari mavjud bo'lgan ilg'or an'analar o'zgartiriladi va yangilari paydo bo'ladi.

Dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi bilan bog'liq qadimiylar, an'analar va marosimlar. Dunyodagi barcha xalqlarning, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining an'ana va bayramlari ularning kundalik mehnati, turmush sharoiti, madaniyati va shuningdek, yashayotgan iqlim sharoitiga xos xususiyatlar asosida shakllanib hamda rivojlanib borgan. Deyarli barcha xalqlarda mehnat mavsumi va har bir faslga mos, ya'ni erta bahorda - mehnat mavsumiga kirishdan oldin, yozda - hosilni yiqishtirishdan oldin, kuzda - hosil to'plangandan so'ng va qishda, ayniqsa, dalalar uyguga ketgan vaqtida uyushtiriladigan mavsumiy marosim va bayramlar mavjud bo'lgan va ular zamonga mos o'zgarib borgan. Bu hodisaning o'rta asrlarda hozirgi O'zbekiston territoriyasida yashovchi aholining yil fasllari va mehnat jarayoni bilan bog'liq bo'lgan mavsumiy ("kalendor") bayramlari misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Bahor bayramlari yangi mehnat mavsumi boshlanishidan darak beruvchi bo'lib, u mehnatkash xalq hayotida muhim o'rin tutgan. Bahor kirib kelishini kutib olish bayramlari qadimdan barcha xalqlarda mavjud bo'lgan. Bahor bayramlari insoniyat vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan bayramlardan bo'lib, odamlarning dunyo boylab tarqalishi natijasida ular ham barcha yerlarga yoyilgan va keyinchalik bu an'analar barcha xalqlarda turli nomlar va har xil shaklda uyushtirilgan.

O'rta asrlarda "Navro'z" bayrami yanada rivojlanib, ommaviy tus olgan, bu bayram haqida deyarli barcha o'sha davrning allomalari so'z yuritadi. O'rta asr va keyingi davrlarda "Navro'z"ning xalq turmushi va ma'naviy hayotidagi mavqeい, fayzu tarovati, fazilat va xosiyati haqida qomusiy bilim egalari Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Mahmud Qoshg'ariy, Umar Xayyom, Alisher Navoiy, Fayziy-Fayyoziy, Muhammadali Soib, Mirzo Bedil, Kalim Koshoniy, Furqat, Muqimiy, Sadriddin Ayniy va Hamza kabilar ajoyib fikr-mulohazalar bildirganlar, go'zal she'rlar bitganlar. "Navro'z"ni Beruniy "Navro'z – olamning boshlanishi" desa, Firdavsiy

“Navro‘z” – bayramlar shohi” deydi. Navoiy odamlarga istak bildirib: “Har tuning qadr o‘lubon, har kuning o‘lsun Navro‘z” desa, Sadreddin Ayniy: “Navro‘z”da, tabiat jonlanibgina qolmay inson tabiatini ham uyg‘onar edi” deydi.

Bahorning boshlarda bu faslning “shohona” taomi – sumalakka bag‘ishlangan sayl o‘zbek xalqining eng yaxshi an‘analaridan sanalgan. Bahorda dehqonlar hayotidagi eng muhim voqeа – bu yangi mehnat mavsumiga kirishishdir. Shu boisdan dehqonlarning yerga urug‘ qardashlari munosabati bilan o‘tkaziladigan maxsus marosimi – tantanalari mavjud bo‘lgan. Ular turli joylarda turlicha “Dalaga qo‘sh chiqarish”, “Shox moy”, “Ekin sayli”, “Qo‘sh oshi” kabi nomlar bilan uyushtirilgan. Bahor bayramidan so‘ng dehqonlar yangi mehnat mavsumiga kirishishgan. Lekin tog‘li tumanlarda bahor boshqa yerlarga qaraganda birmuncha kech boshlangani sababli bu joylarda yangi mehnat mavsumini sabrsizlik bilan kutishgan. Shu sababli urug‘ qardash payti yetib kelganda bu haqiqa o‘ziga xos bayram holatini vujudga keltirgan.

Markaziy Osiyo xalqlari orasida bahor fasli o‘tkaziladigan yana bir tadbir “darvishona” deb nomlangan. Har yili bahor faslida qishloqlarda va shahar mahallalarida 2-3 kishi uyma-uy yurib, pul yoki oziq-ovqat to‘plagan, so‘ngra biror kishining hovlisida yoki masjidda ovqat (halim) pishirib, butun mahalla baham ko‘rishgan. Bu marosim yurtda biror ofat bo‘lganda undan xalos bo‘lish yoki dehqonchilikda mo‘l hosil tilash va boshqa niyatlarda xudoga sig‘inish, undan go‘yo madad so‘rash mazmunida o‘tkazilgan. Mazkur marosim darvishlar odatiga o‘xshab uyma-uy yurib, oziq-ovqat yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgani uchun Darvishona (darvishlarga o‘xshab) deb nom olgan.

Markaziy Osioning boshqa xalqlari qatori vodiy o‘zbeklarining ham an‘anaviy dehqonchiligi sharq xalqlari taqvimi asosida olib borilgan bo‘lib, bahorgi dala ishlari, mahalliy taqvimga ko‘ra, yangi yil – quyoshning Baliq (Hut) burjidan Qo‘y (Hamal) burjiga o‘tgan vaqtidan boshlangan. Hozir amaldagi oy kalendari bo‘yicha bu 21 martdan boshlanib 21 aprelgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan. Boshqacha qilib aytganda, dastlabki dehqonchilik yumushlari Navro‘z tantanalari bilan bir vaqtida boshlangan.

Dehqonlar, bog‘bonlar va chorvadorlar ayozli kunlardan omon-eson chiqib, bahorning issiq kunlarini intiqlik bilan kutib, katta dehqonchilik ishlariiga jiddiy tayyorgarlik ko‘rganlar, omoch-bo‘yinturuqlarni, molalarni sozlab, taxt qilganlar,

otlar sovutilgan, aravalar tuzatilib ishga yaroqli holga keltirib qo'yilgan. Shu bois ham o'rta asrlarda Buxoroda bu dehqonchilik bayrami "*Navro'zi kishavorzon*" – "*dehqonlar bayrami*" deyilgan.

Zahmatkash dehqonlar aynan shu kuni dalaga qo'sh chiqarib dastlabki urug'ni yerga qadaganlar. Andijon o'zbeklarida bahorgi yer haydashni shanba kuni boshlash lozim deyilgan bo'lsa, Xorazm o'zbeklari orasida hosil barakali bo'lishi uchun dushanba va chorshanba kunlari yer haydab ekin ekish xayrli amal hisoblangan. Boshqa kunlarda yer haydash xaysiz deb hisoblangan va shu bois haftaning boshqa kunlari yer haydash ta'qiqlangan. Agar yer haydash kunduz kuni bo'lsa shimolga, kechasi bo'lsa janubga qarab haydalgan.

O'zbeklarning Movarounnahr va Xorazm hududida hamda ularga tutash mintaqalardagi o'troq dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatiga ega xalq ekanligiga xalqimizning ona tabiatga, yerga, suvgga, havoga, olovga bo'lgan cheksiz hurmati va ularni e'zozlash bilan bog'liq turfa xil urchodat va marosimlari, an'anaviy dehqonchilik va hunarmandchilik udumlari, ko'p asrlik islom sharoitidan qat'iy nazar, o'zbek xalqining turmush-tarzida, urchodatlarida saqlanib kelayotgan son-sanoqsiz zardushtiylik elementlarida ayniqsa yaqqol ifodalangan.

"Urug' (chigit) qardash", "Birinchi gul", "Qizil karvon" bayramlari ham o'ziga xos muayyan mehnat jarayonlarining boshlanishi, ya'ni chigit ekishning birinchi kuni, ilk bor g'o'za gullashi va yetishtirilgan hosilning birinchi mahsulini olish munosabati bilan uysushtirilgan. "Urug' qardash" va "Birinchi gul" tantanalarini xalqda qadimdan dalalarda ish boshlanishi, ilk bor yerga uruq qardash munosabati bilan maxsus marosimlar uysushtirish odati shakllanib, davrlar o'tishi bilan keng ommalashgan edi. Bizning davrimizga kelib, bu xalq odatlari hayotdagisi o'zgarishlar bilan ma'lum ma'noda o'z mavqeini, tantanavorligini yo'qotgan bo'lsada, uning zaminida paxta yetishtiriladigan regionlarning ba'zi joylarida "urug' qardash" nomli zamonaviy marosim vujudga kelgan. Yerga cqigit qardash paxtakorlar hayotida eng muhim yumush bo'lib, shu kompaniyadan keyin haqiqiy mehnat mavsumi boshlanadi. Shuning uchun ham, chigit qardash ishlarining boshlanishi paxtakorlarda ko'tarinki ruh, yaxshi kayfiyat va xursandchilikni vujudga keltiradi.

Eng qadimiy davrdan boshlab shakllana boshlagan xalq o'yinlari-etnomadaniyatning tarkibiy qismi. Buyuk ajodolarimizning bizga meros qilib qoldirgan madaniy boyliklari xazinasiga xalq o'yinlari ham kiradi. Xalq o'yinlari

o'zining vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra g'ayri oddiy hodisa emas, balki xalqning hayotini muayyan aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyotining qonunlari bilan belgilanadigan maqsadli faoliyatdir. Xalq o'yinlari xalq ijodiyotining xos janri bo'lib, ko'p asrlik tarixga ega. Qadimdan o'yinlar xalq tomonidan yaratilgan va kishilarning kundalik hayotidagi voqealar hamda hodisalarni o'z ichida aks ettirgan. Shuningdek, taassurotlarni, kuzatishlami tajriba va hissiyotlarni gavdalantirib, o'zida so'z, musiqa, raqs shakllarini mujassamlashtirgan. Masalan, ibtidoiy tuzumda bolalarni tarbiyalashning xarakterli jihat - ularni urf - odati, an'analarini tarixi bilan, shuningdek, xalq og'zaki ijodi: rivoyatlar, qo'shiqlar raqslar bilan ifoda etgan. O'zbek xalq o'yinlari xalq ijodiy faoliyatining bir turidir. Ularni xalq yaratgan va keng xalq ommasiga tarqatgan. Hozirga qadar o'zbek xalqining tantanalari katta tomoshalar - sayillar bilan nishonlanadi. Masalan, ommaviy tomoshalar, sayillar, Navro'z ayyomida, Hosil bayramlarida xalq o'yinlaridan keng foydalanilgan. Sayillar vaqtida "Olomon poyga", "Qiz quvish", "Kurash", "Ag'darish", "Ko'pkari", "Do'ppi yashir" kabi musobaqa o'yinlari, sport o'yinlari sifatida o'tkazilib kelinmoqda. O'zbek xalq o'yinlarining ko'vida milliy musiqa asboblaridan karnay, surnay, nog'ora, childirma asboblaridan foydalaniadi. Hozirgi vaqtida o'zbek xalq o'yinlarining asosiy vazifasi o'z mazmuni hamda metodikasi bilan bolalarni jamiyatimiz talablariga muvofiq tarbiyalashni ta'minlash, ularda axloqiy, irodaviy sifatlarini rivojlantirish, ijodkorlikka xos bilim, ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishdan iborat.

O'zbek xalq o'yinlarini o'rganish tarbiya jarayonini uzlusiz yangilaydi, o'quvchilarda hayotiy vaziyatlarni yaxshi anglash qobiliyatlarini rivojlantiradi, bilihga juda qiziqish uyg'otadi, shuningdek, ularga o'z xalqining tarixi va hayotining turli sohalariga, moddiy va ma'naviy madaniyatiga, ijtimoiy turmush tarzi, odatlari va an'analariga taalluqli ma'lumotlarni beradi. Ularning kuchli, chaqqon, serharakat, ziyrak, topqir, o'zaro hamkor bo'lishiga yordam beradi. Quyidagi rasmlarda ana shunday o'yinlan aks etgan. (2 va 3-rasmlar).



2-rasm.To‘p o‘yini



3-rasm.Ko‘pkari o‘yini.

Quyida bobo-buvilardan, xalq orasidan yozma va og‘zaki tarzda terib olingen ayrim milliy xalq o‘yinlarining keltirib o‘tiladi:

Xo‘rozlar jangi

O‘yinning maqsadi: Bolalarmi chaqqon va epchil harakat qilishga, dovyurak va jasur bo‘lishiga odatlantiradi.

O‘yinning tartibi: Yerda diametri 2 metr aylana chiziladi. Hamma ishtirokchilar 2 ta guruhga bo‘linadilar va doira ichida bir – biriga yuzma yuz ikki qator bo‘lib turadilar. Har bir guruhdan bittadan ishtirokchi tayinlanadi. Ishtirokchilar o‘z guruhlardan bittadan ishtirokchi ajratadilar va ular aylana ichiga kirib qo‘llarini orqaga qilib bir oyoqlab turadilar. Har bir guruhdan bittadan ishtirokchi tayinlanadi.O‘yin boshlanishga darak berilishi bilan bir -birlarini yelkalari va gavdalari bilan turtib, itarib aylanadan chiqarishga harakat qiladilar. O‘z raqibini tashqariga chiqara olgan o‘yinchi g‘olib hisoblanadi. Shundan keyin doira o‘rtasiga navbatdagi tayinlangan xo‘roz juftini qidiradi. O‘yin hamma bolalar xo‘roz rolini bajarib bo‘lgunicha davom ettiriladi. O‘yin davomida g‘oliblikni qo‘lga kiritgan guruh sovrin egasi bo‘ladi.

Dor o‘yini

O‘yinning maqsadi: Bolalarmi chaqqon va epchil, shuningdek, ehtiyyotkorlik bilan harakat qilishga odatlantiradi.

O‘yinning tartibi: Tashkilotchi arqondan ikkita “dor” yasaydi, ya’ni ikkita arqonni yerga to‘g‘ri chiziq bo‘ylab qo‘yadi, har ikkala guruh qatnashchilaridan ikkita ishtirokchi “dor”dan qo‘llarini ikki yonga uzatib, oyoq kaftlarini to‘g‘ri tashlagan holda yurib o‘tadilar. Qolgan bolalar esa quyidagi she’rni aytib turadilar:

Baka-baka- bang, dor o‘ynang,

Dordan yiqilib, yig‘lab yurmang.

Agar dordan yurayotgan bolaning oyoq harakatlari o'zgarsa (arqondan chetga chiqsa, qo'llari tebransa) yutqazgan hisoblanadi.

G'ozlar

O'yining maqsadi: Bolalarni sezgir va hushyor bo'lishga odatlantiradi.

O'yining tartibi: Bir tomonda bir guruuh qizlar qo'lni - qo'lga berib, qator tizilishib turadilar. Ikkinci tomonda ularga ro'baro' bo'lib yoshi kattaroq bir qiz turadi. Bu qiz o'yinda ona g'oz hisoblanadi. Qator tizilishib turganlari esa g'ozlar bo'ladi. Ona g'oz va g'ozlar orasidagi masofa o'n, o'n besh metr chamasida bo'lib, shu masofa o'rtalig'ida ikki yonbosh tarafda ikki o'g'il bola poylab turadi. Bu bolalar "Bo'rilar" hisoblanadilar. O'yin boshlanadi. Ona g'oz g'ozlariga qarab shunday deydi:

-G'ozlarim! G'a ,g'a, g'a! Uyga qaytinglar.

-Yo'lida qo'rquamiz.

Nedan qo'rqasiz?

Yo'lida bo'ridan.

-Bo'ri qaydadir?

-Ola tog'dadir.

-Uchib, uchib kelinglar, tezroq qaytinglar!

Shundan keyin g'ozlar "g'a, g'a, g'a" degan ovoz chiqarishib, ona g'oz tomon qulochclarini keng yozib uchib kela boshlaydi. Yo'lida g'ozlarga bo'rilar hujum qilishadi. Bo'rilarning qo'liga tushgan "g'ozlar" o'yindan chiqib turadilar. Bo'rilar qutqich bermay ona g'ozning oldiga "eson omon" uchib borishgan g'ozlar esa yana o'z joylariga borishib, o'yini shu tarzda davom ettiraveradilar. Qachonki oxirgi g'oz ham bo'rilarning qo'liga tushsa, g'ozlar o'yiniga yakun yasaladi. Xohish bo'yicha o'yinni qaytadan boshlash mumkin. Bunda bo'ri, ona g'oz va g'ozlar o'rni almashadi.

To'siqlar orasidan tez o'tish

O'yining maqsadi: Bolalarda hushyorlikni oshirish va to'siqlar orasidan tezlik bilan o'tishga o'rgatish.

O'yining tartibi: Bu o'yin qiyaliklardagi qor ustida o'tkaziladi. Chang'ida bir yoki ikki ishtirokchi o'tirishi mumkin. Har 10- 2- 15 metrga ilon izi qilib belgilarni qadaladi. Shu bayroqlar orasida tezlik bilan chanani boshqarib o'tiladi.

Kurash

O'yining maqsadi: Epchil va chaqqonlik xislatlarni shakllantirish. **O'yining tartibi:** Maydonchaga 2 – 2 kvadrat metrli aylana chiziladi. U teng ikkiga bo'linadi, hosil bo'lgan ikki to'g'ri burchakli uchburchakda ikki ishtirokchi joylashadi. Ishtirokchilar ya'ni jangchilar belbog'da bo'lishadi. Ishora bo'lishi bilan raqiblar bir -birlarining belbog'idan ushlab, o'z tomonlariga tortib olishga harakat qiladilar. G'olib uch urinishda aniqlanadi.

Chillik o'yini

O'yining maqsadi: Bolalarda chaqqonlik epchillik va hushyorlik xislatlarini shakllantirish.

O'yining tartibi: Chillik o'ymi bolalarga xos bo'lib, u qadimdan meros bo'lib kelmoqda. Asosan, o'yinda ikki o'yinchi ishtirok etadi. Birinchi ishtirokchining qo'lidagi uzunligi bir metr (dasta), ikkinchisining qo'lida esa uzunligi 20 -25 sm keladigan tayoqcha "Chillik" bo'ladi. O'yin ishtirokchilari tekis joyda diametri yarim yoki bir metrcha keladigan doira shaklida aylana chizib olishadi. Bu aylana o'yini "yalov" deyiladi. O'yinni birinchi boshlash uchun quyidagicha shart qo'yiladi, ya'ni tayoqchali bola tayoqchasing bir uchidan mahkam ushlab turadi, ikkinchi bola esa qo'lidagi o'z tayog'i bilan uning ushlab turgan tayoqchasiga uch marta uradi. Agar uch zarba ichida qo'lidagi tayoqchani chiqarib yuborsa, shartga binoan yutqazgan bo'ladi. Uch zarbada ham tayoqchani qo'lidan chiqarib yubormay saqlab qola olsa, g'olib hisoblanadi. Shartga ko'ra g'olib bo'lgan bola o'yinni birinchi bo'lib boshlaydi. O'yin ishtirokchilari tayoqchaning bir uchidan 3- 4 sm keladigan joyini yarim kesib olishadi. Kesib olishlaridan maqsad tayoqcha tekis yerda yotgan paytda kesilgan tomonga tayoq bilan ursa, tayoqchaning yuqoriga ko'tarilishi oson bo'ladi. Ayrim joylarda bolalar tayoqchaning bir uchidan yarim kesib olmay o'ynaydilar. Ular chizishgan "Yalov" markazida uzunchoq shaklida chuqurcha yasashadi. Shu yasalgan chuqurchaning ustiga tayoqchani ko'ndalang qilib qo'yishadi. Keyin tayoqcha yuqoriga ko'tarilgach, qo'lidagi tayoq bilan bir zarbada uradi. Tayoqcha "yalov" dan ancha nariroqqa uchib borib tushadi. Ikkinchi ishtirokchi tayoqchani tushgan joydan "yalov"ga qarab irg'itadi. Agar tayoqcha "yalov" ichiga yoki "yalov" chizig'idan o'lchanganda ham tayoq etadigan joyga borib tushsa, o'yinni tayoqchani irg'itgan bola boshidan boshlaydi. Tayoqcha "yalov" chizig'idan ancha o'tib yoki "yalov" chizig'idan tayoq bilan o'lchanganda ham tayoq

yetmaydigan joyga borib tushsa, unda o'yinni boshlagan bolaning o'zi davom ettiradi.

Demak, o'yin davom etayapti, ishtirokchilar marraning uzoqlik masofasini kelishib olishadi. Masalan, marra masofasi yuz qadam deb olishsa, o'yinni davom ettirayotgan bola tayoq bilan "yalov" markazidan tayoqchani zarb bilan uradi. Tayoqcha borib tushgan joyida yana uradi va yana tayoqcha borib tushgan joyidan uchinchi marta ham zerb bilan uradi. Shundan keyin "yalov" chizig'idan to tayoqcha borib tushgan joyigacha qadar qadamlab o'lchab chiziladi. O'lchov yuz qadam chiqmasa, tayoqchani yana bir marta uradi. Agar o'Ichaganlarida masofa yuz qadam yoki undan ortiq chiqqandagina tayoqcha boshqa urilmaydi. O'yin qoidasiga binoan ikkinchi bola tayoqchani borib tushgan joyidan tishlab olib to "yalov" gacha nafas olmasdan "zu -u- u -uv" tovush chiqarib yetib borishi shart. Agar yetib kelsa, o'yinni u endi o'zi boshidan boshlaydi.

Oq terakmi – ko'k terak

O'yinning maqsadi: Bolalarni chaqqon harakat qilishga odatlantiradi.

O'yining tartibi: Bu o'yinda ishtirokchilar ikki guruuhga bo'linishadi. Har bir guruhdagi bolalar soni beshtadan kam bo'lmasligi kerak.

O'yin tashkilotchisi o'yin boshlanishidan oldin qur'a tashlaydi. Ikkala guruhdan bittadan ishtirokchi chiqib, qur'ani oladi. Bolalardan qaysi birining qo'liga "Oq terakmi - ko'k terak" deb yozilgan yozuv tushsa, o'sha guruuh o'yinni boshlab beradi.

Guruhlar ikki tarafdan bir -birlariga ro'baro', saf tortib qo'llarini qo'llariga bergen holda zanjir hosil qilib turishadi. Guruhlar orasidagi masofa 10- 12 metrdan oshmasligi kerak. O'yinni boshlayotgan guruuh a'zolarining biri ikkinchi guruhdagi bolalarga qarata:

"Oq terakmi - ko'k terak?" - deya xitob qilishadi. Ikkinchisi guruuh a'zolari esa: Bizdan sizga kim kerak? -deya savolga savol bilan javob qaytarishadi. Bizga Avazbek (yoki masalan, Muhiddin, Gulchehra, Gulnora) kerak deb javob qaytarishadi birinchi guruuh a'zolari. Shunda nomi aytilgan bola, safdan chiqadi-da, yugurib ikkinchi guruuhda zanjirdek qo'l ushlashib turgan bolalar safiga o'zini uradi. Safni yorib o'ta olsa, ushbu guruhdagi istalgan bir bolani o'z guruuhiga olib ketadi. Agar zanjirni uzib o'ta olmasa, u holda shu guruhdagi bolalar safida qolishga majbur bo'ladi. So'ngra xuddi shu yo'sinda ikkinchi guruuh a'zolari o'yinni davom ettiradilar.

O‘yin davomida qaysi bir guruhda birorta ham bola qolmasa, o‘yin nihoyasiga etgan hisoblanadi. Barcha bolalarni o‘z safiga olgan guruh o‘yin g‘olibi bo‘lib, o‘yin tashkilotchisi tomonidan rag‘batlantiriladi.

Quidagi 4 va 5-rasmlarda xalqimizning azaliy o‘yinlaridan “Oq terakmi – ko‘k terak” va “Arqon tortish” o‘yinlari ifodalangan.



4-rasm. “Oq terakmi, ko‘k terak” o‘yini



5-rasm. Arqon tortish

o‘yini. Quvlashmachoq

O‘yining maqsadi: Bolalarni topqirlikka, zukkolikka odatlantirish.

O‘yin tartibi: O‘yinda 15- 20 ta bola ishtirok etishi mumkin. O‘yin tashkilotchisi o‘zidan boshlab shu o‘yin uchun to‘qilgan so‘zlar bilan davrada turgan bolalarni sanay boshlaydi.

Onam bergen olmalar,
ishonmasang sanab ko‘r:
Bir, ikki, o‘n olti,
o‘n olti deb kim aytди.

Dono Salimjon aytди.

Salimjon mudom bor bo‘lsin,
Doim “besh” baho olsin.
Bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti - ketdi.

Oxirgi “ketdi” so‘zi davradagi qaysi bolaga to‘g‘ri kelsa, o‘sha bola safdan chiqib turadi. Ushbu o‘yinda yana boshqa so‘zlar ham qo‘llaniladi. Masalan,

Bir, ikki, Olma dikki.

Safar oyi Sariq chumchuq Bog‘da turmay Tez uchib chiq. Bunda “chiq” so‘zi to‘g‘ri kelgan bola safdan chiqib turadi.

O‘yin qoidasiga binoan quvalayotgan bola o‘tirgan bolani ushlashi mumkin emas. Shuning uchun quvalayotgan bola yaqinlashishi bilan qochayotgan bola darhol

yerga o'tirib oladi. O'tirgan bolaning turishini kutib, o'midan turgandan so'ng ushlashi ham mumkin. "Quvalash" o'yinini shu tarzda davom ettiraverish mumkin.

"Olomon" o'yini

O'yinda istalgancha bola qatnashish mumkin. O'yinda boshqaruvchi tanlanadi. Qolganlar uning atrofida aylana hosil qilib turadilar. Boshqaruvchining ishorasi bilan bolalar chapak chalib, xakkalab yuguradilar. Ular yugurayotganda boshqaruvchi belbog'ni tashlaydi. Bolalar belbog'ni ilib oladilar. Jihozlar: milliy kiyimlar, belbog'. O'yin vaqt: 20 daqiqa.

"Uloq" o'yini

O'quvchilar ikki jamoaga bo'linib, diametri 6-8 metrli aylana chizig'ini tashqarisida turadilar. Aylana o'rtasida turgan boshqaruvchi aylanaga to'pni tashlaydi. O'quvchilar to'pga yugurishib, uni tutib olishga va aylanadan tashqariga qo'chishga intiladilar. Bunda bolalar bir-birlarining qo'llaridan to'pni yulqib olishlari ham mumkin. Jihozlar: milliy kiyimlar, jamoalar uchun belgilar, latta koptok. O'yin vaqt: 15-20 daqiqa. "Darvozalar" o'yini. O'yinda o'quvchilar soni cheklanmaydi. Arqon tortiladi yoki yo'g'onligi 10 sm, uzunligi 4-5 metr chiziq o'tkaziladi. O'quvchi shu chiziqdan arqonda yurgandek yuradi, uning ustida raqs harakatlarini bajaradi hamda ko'zini boylab yuradi. Arqondan yiqilmay o'tgan o'quvchi g'olib hisoblanadi. O'yin paytida musiqa yangraydi. Jihozlar: bolalar karnay va surnaylari. O'yin vaqt: 10-15 daqiqa.

Xalq o'yinlarida hazil-mutoiba, qiziqarli bellashuvlar, aniq harakatlar, kutilmagan quvnoq jarayonlar ko'p uchraydi.

Bunday o'yinlar aslida oddiy hol bo'lib ko'rinsada, aslida ular bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, jismonan epchil va baquvvat bo'lishlariga, jumboqlarni to'g'ri va aniq yechishga odatlantiradi.

Bolalarning jismoniy hamda aqliy faoliyatlarini kengaytirishda o'yinning turli usullaridan foydalanish lozim. Bular harakatli, didaktik – ya'ni, bilim doiralarini kengaytirishga xizmat qiluvchi o'yinlar hamda sahnalashtirilgan kichik hajmdagi o'yinlardir.

Harakatli o'yinlar yurish, yugurish, sakrash, biron narsani irg'itish, uloqtirish kabi bolalarni jismoniy jihatdan sog'lom rivojlanishlariga, ish qobiliyatlarining yanada mustahkamlanishiga yordam beruvchi usullardan tarkib topadi. Shuning uchun bolalarga harakat faoliyatining turli sharoitlarida erkin harakat qila olish imkoniyatini

beradigan zarur bilimlarni berish va ularda kerakli harakat malakalarini hosil qilish lozim.

Bundan tashqari, bolalarda turli o'yinlarga, jismoniy mashqlarga, shuningdek, kun tartibiga rioya qilishga odatlantirish, mustaqil ravishda harakatli o'yinlar tashkil qilish va o'tkazish mahoratini egallashlariga yordam beradi. O'yindagi qoidalarga rioya qilish – bu bolalardagi o'z – o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini boshqarish, o'z fikrini aniq bayon etish kabi ijobjiy hislatlarni tarbiyalashda muhim mакtab vazifasini o'taydi. Chunki, o'yin davomida bolalarda - shakllangan tashkilotchilik, izlanuvchanlik, tashabbuskorlik, yaratuvchanlik, ijodkorlik kabi olivjanob xislatlar ularning mustaqil hayotga kirib borishlarida yaqindan yordam beradi.

Quyida yigitlarni chaqqonlikka, epchillikka o'rgatuvchi o'yinlar keltirilgan(6-7 -rasmlar):



6-rasm. Do'ppi tishlar o'yini.



7-rasm. Belbog'li kurash o'yini

Afsuski, milliy qadriyatlarimizga sovet tuzumi davrida eskilik sarqitlari deb qaralgan va o'zlaricha xalq bilan hisoblashmay, yangicha ko'rinishdagi marosim va bayramlar tashkil qilishgan. Masalan, Navro'z bayramini navbahor bayramiga aylantirishga intilishgan. Chor Rossiyaning general gubernatori shunday yozgan ekan: "Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uni madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi".³⁷

Mustaqillik tufayli milliy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Bu haqida O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov alohida to'xtalib o'tgan edi: "Xalqni ma'naviy yuksaltirish insonning axloqiy va jismoniy takomilidir. Bu masalalar alohida qunt va sabotni, kishilarga nisbatan alohida e'tibor va g'amxo'rlikni talab qiladi. Inson hayotining bu nozik va murakkab tomonlari bilan

³⁷Барқамол авлод орзуси. –Т.: Шарқ, 1999- йил. 10-бет.

qadriyatlarga to‘la milliy tarixiy an’analar bilan umuminsoniy, ma’naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltirdi. Binobarin bu kamchiliklarni tuzatish uchun juda katta mehnat qilish kerak.

Madomiki, o‘z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni eng ib bo‘lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur”.³⁸

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar

Urf odatlar, an’analar, marosimlar, milliy qadriyatlarimiz, “Navro‘zi kishavorzon”, “dehqonlar bayrami”, “Dalaga qo‘sh chiqarish”, “Shox moy”, “Ekin sayli”, “qo‘sh oshi”, “darvishona”, “Urug‘ (chigit) qadash”, “Birinchi gul”, “Qizil karvon”, xalq o‘yinlari, “Olomon poyga”, “Qiz quvish”, “Kurash”, “Ag‘darish”, “Ko‘pkari”, “Do‘ppi yashir” dor o‘yini, g‘ozlar, xo‘rozlar jangi, to‘sıqlar orasidan tez o‘tish, kurash, chillik o‘yini, oq terakmi — ko‘k terak, quvlashmachoq, “olomon” o‘yini va hk.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Urf olat, an’ana va marosimlarning mohiyatini izohlab bering. Ular bir biridan nimasi bilan farq qiladi?
2. Qadimda dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi qanday marosim-bayramlarni yuzaga keltirgan?
3. Dastlab shakllana boshlagan qanday o‘yin o‘yin-raqslarni bilib oldingiz?
4. Marosim, san’at, ijod kabi madaniyat turlarining vujudga kelishi va rivojlanishida o‘yinlar qanday rol o‘ynagan?
5. Nima uchun xalq o‘yinlarini etnomadaniyatning tarkibiy qismi deymiz?
6. Yil fasllari, shahar va qishloqlarga xos qanday o‘yinlar tizim mavjud?
7. Nima uchun sho‘rolar davrida xalq o‘yinlari hayotdan siqib chiqarila boshlangan?
8. Mustaqillik davrida xalq o‘yinlarini tiklash borasida qanday ishlar amalga oshirishmoqda?
9. Bobo-buvilardan, xalq orasidan yozma va og‘zaki terib olingan ayrim milliy xalq o‘yinlariga misollar keltiring...

³⁸ Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чукурлаптириши йўлида.-Т :Ўзбекистон, 1995 йил, 152-бет.

10. Harakatli o‘yinlarga qaysi o‘yinlar kiradi va ularning tarbiyaviy ahamiyati nimada namoyon bo‘ladi?

5-§. Qadimgi davr o‘zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba

O‘zbek folklori tarixi va qadimgi davr folklori. O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi o‘zbek xalqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy merosidir. Bu meros maqollar, matallar, latifalar, qo‘shiqlar, ertaklar, dostonlar va boshqa janrlardagi asarlardan iborat.

Xalqimiz og‘zaki ijodining tarixiy ildizlari Markaziy Osiyoda yashab o‘tgan turkiy xalqlarning mifik dunyoqarashiga borib taqaladi. Mazkur mifik qarashlar O‘rxun - Enasoy tosh bitiklari, “O‘g‘uznama”, Qoshg‘ariy tuzgan “Devonu lug‘atit-turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u biling” kabi adabiy asarlardida ham o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng xalq og‘zaki ijodiga milliy qadriyatlarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida munosabatda bo‘la boshlandi.

Mustaqillik zudlik bilan milliy mafkura asoslarni yaratish vazifasini kun tartibiga qo‘ydi. Ayniqsa, O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1997 yil 31 avgust kuni Oliy majlis I-chaqiriq IX sessiyasida so‘zlangan “Barkamol avlod – O‘zbekiston kelajagining poydevori” mavzuidagi nutqida xalq og‘zaki ijodi namunalariga, ayniqsa, folklor janridagi asarlarga milliy mafkura tamoyillari singdirilgan ma‘naviy qadriyatlar sifatida munosabatda bo‘lish masalasiga alohida e’tibor berildi.

“Folklor” atamasi inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “xalq donoligi”, “xalq donishmandligi” ma`nolarini anglatadi. Bu atama birinchi marotaba 1846 yilda inglez olimi Vil’yam Toms tomonidan qo‘llangan va bugungi kunda jahon ilmu fanida xalq ijodi tushunchasini bildiradi.

Masalan, biz “folklor” so‘zini qo‘llaganda xalq og‘zaki ijodini nazarda tutamiz. Shu bilan birga “folklore” so‘zi xalq amaliy san`ati, xalq me`morchiligi va boshqa sohalarni ifodalaydigan atamadir. Faqat har bir soha mutaxassis folklor deganda o‘z sohasini, masalan, biz xalq og‘zaki ijodini, xoreograf xalq raqsini, musiqashunos esa xalq kuylarini nazarda tutadi.

Folklor asarlarda xalq hayoti badiiy aks etadi. Shuning uchun xalq og‘zaki ijodi so‘z san`ating - badiiy adabiyotning og‘zaki shakli sifatida o‘rganiladi. Xalq

og‘zaki ijodining maqol, topishmoq, ertak, doston, tez aytish, sanamachoq, qo‘shiq, askiya kabi janrlari bor. Xalqimiz tomonidan ming yillar davomida yaratilgan og‘zaki ijod namunalari o‘zbek xalqining tarixiy va qimmatli madaniy merosidir. Ayni kunlarda o‘rganish va asrab avaylash qayta-qayta ta’kidlanayotgan xalq qadriyatlar tarkibida xalq og‘zaki ijodi ham mavjuddir. Xususan, “To‘maris”, “Shiroq” kabi afsonalar, “Algomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Ravshan”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam” kabi dostonlar, “Bulbuligo‘yo”, “Malikai Husnobod”, “Uch og‘a-ini botirlar” kabi ertaklar, lirik qo‘shiqlar, marosim va mehnat qo‘shiqlari hamda boshqa og‘zaki ijod namunalari xalqimiz qadriyatlарining ajralmas qismi hisoblanadi.

Qadimgi davr folklori deganda qadim zamonlardan to X asrga qadar yaratilgan va ijro etilgan folklor asarlarini nazarda tutamiz. Tabiiyki, bu davrda yaratilgan folklor asarlarini qaysi manba orqali o‘rganamiz yoki boshqalardan qanday ajratamiz degan savol tug‘iladi. Qadimgi davr folklori haqidagi ma‘lumotlarni bizga qadar yetib kelgan ayrim yozma manbalardan, arxeologik topilmalardan o‘rganamiz.

Qadim zamonlarda bugungi kunda qozoq, qirg‘iz, turkman, tatar, boshqird, ozarbayjon, o‘zbek, turk va h.k. deb atalayotgan turkiy xalqlar bir qavm hisoblanganlar. Shuning uchun XVII asrgacha “turkey” deb nomlangan atama ilmiy adabiyotlarda ko‘p uchraydi. “Avesto”, “O‘g‘uznama” kabi asarlar qadimgi turkiy xalqlar og‘zaki ijodining yodgorliklaridir. To‘g‘ri, “Avesto”da forsiy xalqlar hayoti ham o‘z ifodasini topgan. Ammo bu kitobda qadimga ajdodlarimiz ijodi ham aks etgan. “Avesto”ning muallifi esa Xorazmlik yurtdoshimiz Zardusht bo‘lganligi diqqatga sazovordir. “Avesto” yubileyining YUNESKO miyosida nishonlanishi munosabati bilan bu haqdagi bilimlarimizga yanada aniqlik kiritildi va uning o‘zbekchaga o‘girilishi katta yutuq bo‘ldi.

XI asrdan boshlab “Qutadg‘u bilig”, “Hibat - ul haqoyi”, “Devonu lug‘atit-turk” kabi yozma yodgorliklar ham vujudga kela boshladi. Bu asarlarga o‘scha davr folklori ta’siri juda kuchli bo‘lganligi yaqqol bilinib turadi. Ayniqsa, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asari, qadimgi davr turkiy xalqlar folklorini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Qadimgi mif va afsonalar. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan manbalar asosida qadimgi davr folklorida quyidagi janrlar mavjudligi aniqlanadi: mif, afsona, rivoyat, qo‘shiq, maqol va marosim qo‘shiqlari.

Mif - ibtidoiy jamaa a'zolari tomonidan olam va odamning paydo bo'lishi haqida to'qilgan eng qadimgi hikoyalari hisoblanadi. Islom dinidan avval ajdodlarimiz tasavvurida ezzulik va yovuzlik ruhlari, shuningdek, quyosh, hosil, urush va boshqa narsalarning ma'bud hamda ma'budalarini bo'lgan. Natijada miflarda insonning inson sifatida shakllanish jarayoni o'z ifodasini topadi. Sharq ilmiy adabiyotlarida miflar arabcha asotir, forscha afsonasi, turkiy tilda sav atamalari bilan ham yuritiladi. Ammo jahon folklorshunosligida «mif» atamasini qo'lllash an'ana bo'lganligi uchun ham biz qadimgi hikoyalarni ana shu nom bilan ataymiz. Miflar qadimgi ajdodlarimizning quyidagi qarashlari natijasida paydo bo'lgan:

1. Totem.
2. Fetish.
3. Anim.

1. Totem – ajdodlarimiz qadim zamonlardan topinib kelgan hayvonlar, qushlar, o'simliklar.

Totemizm - ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan dinning alohida shakli bo'lib, odamning ko'pincha bir hayvon yoki o'simlik bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch - e'tiqodini anglatadi. Turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek urug'larining ota-bobolari burgut, ilon, ot, tuya, aylig', bo'ri, yo'lbars, arhar, qaldirg'och, g'oz, chinor, tut kabi jonli va jonsiz predmetlarga e'tiqod qo'yganlar. Ular bo'rini balo-ofatlardan saqllovchi, himoya qiluvchi va ezzulik yaratuvchi jonzod deb bilganlar.

Qadimgi manbalarda keltirilgan turk afsonalarida bo'ri turk urug'inining ajdodi sifatida namoyon bo'ladi. Afsonada tasvirlanishicha, qadimgi turklar ona bo'ridan va dushman tomonidan qirilgan urug' ichida tirik qolgan 10 yoshli o'g'il boladan tarqalgan. Hatto Ashina ismli turk urug'larining birida bo'ri kallasi tasvirlangan bayroq ham bo'lgan.

Bo'ri bilan bog'liq bo'lgan e'tiqodning asosida yangi tug'ilgan bolani salomat saqlash, yaxshi hayot kechirish, chorvani ehtiyyotlash, ekinlarni yovuz kuchlar ta'siridan saqlash kabi ishonchlardan iborat bo'lgan. Bo'ri totemiga aloqador "Bo'ri qiz", "Cho'loq bo'ri" kabi ba'zi ertaklar hozirgi kunga qadar xalq orasida aytib kelinadi.

Ot totemi ham qadimgi kishilarning turmushi - tirikchiligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, otlarni xonakilashtirish, ulardan ish hayvoni sifatida foydalanish davomida yuzaga kelgan. Arxeologik qazishmalarda topilgan yarim ot, yarim odam

ko‘rinishidagi maxluqlar rasmi, hozirgacha ekin maydonlarining chetida otning kalla suyagini qo‘riqchi sifatida qo‘yilishi va boshqalar ibtidoiy kishilar ongida saqlanib qolgan ot totemi haqidagi e‘tiqodning timsolidir. O‘zbek xalq dostonlarida G‘irot, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko‘k, Ko‘kdo‘nan kabi epik ot timsollarining g‘oyat katta o‘rin tutishi ham Shundan.

2. Fetish – qadimgi ajdodlarimiz topingan jonsiz narsa - predmetlardan iborat bo‘lib, quyosh, oy, tog‘, suv, non, tandir, supra, o‘t (olov), yoy, qilich, raqam, rangtus, so‘z, kitob kabilar turkiy xalqlarda fetish hisoblangan. Binobarin, xalq doston va ertaklarida bu narsalarni uchrashi bejiz emas.

Xalqimiz qadimdan o‘t, suv, tuproq va havoni muqaddas deb bilgan: o‘t va suvgaga axlat, umuman, iflos narsalarni tashlamaslik, emi urmaslik, tepmaslik, maboda bu narsalarni qilsa yomon bo‘lishi haqidagi o‘gitlar fikrimizning dalilidir.

3. Animizm – insonning tabiatdagi g‘ayri tabiiy voqeа-hodisalarga ishonch bildirish xususiyati bilan bog‘liq e‘tiqoddir. Masalan, qadimgi paytlarda safarga chiqqan yo‘lovchi oq tuyali karvonga duch kelsa, o‘z safarining muvaffaqiyatli tugashiga ishongan bo‘lsa, tushida egarlangan oq ot minib sayr qilib yurganini ko‘rgan kishi hayot tashvishlaridan ozod bo‘lishiga ishongan.

“Oq bilakxon” ertagida yigitning toshga aylanib qolishi, “Ochil, ochil, qamishlar”da qizning qamish orasiga kirib ketishi, “Yoriltosh”da toshning yorilishi va qizning bag‘riga olib yana yopilishi, “Yalmog‘iz kampir” ertagida odamlarning toshga aylanib yotishi, “Qilich botir”da qahramonning joni qilichida ekanligi kabilar bevosita animistik tushunchalardir.

“Yoriltosh”, “Ochil, ochil qamishlar”, “Sim-sim, och eshicingni” kabi iltijoli yolvorishlar o‘sha narsada jon bor degan tushunchaning obrazli ifodasidir. Bunday tushunchalar va qarashlar qadimda boshqa xalqlarda ham mavjud bo‘lgan. Masalan, hindlarda va Sharqning boshqa xalqlarida hozir ham sigir, ilon, ot kabi hayvonlarga, olov, tog‘, o‘rmon va suvgaga sig‘inish mavjud.

Mifologiyada totem, fetish, anem tushunchalar ko‘pincha bir-birini to‘ldirgan holda uyg‘un ifodalananadi.

Qadimgi kishilar dunyoni ikki qismiga: yaxshilik va yomonlik kuchlariga ajratib tasavvur qilganlar.

“Avesto”da ikki yaratuvchi kuch - yaxshilik va yomonlik Axuramazda (Xurmuzd) va Ahriaman (Angra Manyu) qiyofasida namoyon bo‘ladi. Mazkur kitob

g'oyasiga ko'ra, tabiat va jamiyatdagi hodisalar ikki yaratuvchining o'zaro kurashidan kelib chiqqan.

Axuramazda yaxshilik, yorug'lik, obodonchilik va ezgulik kuchlarining ma'buditdir. Unga qarashli narsalar inson turmushini yaxshilashga xizmat qiladi. U o'z yordamchilari orqali olov, chorva, metall, er - suv va o'simliklar dunyosini boshqaradi.

Ahriman (Angra Manyu) barcha yozuvlik va yomonlikning rahnamosidir. U Axuramazdaga qarshi kurashadi va o'ziga qarashli devlar yordamida odamlarga azob-uqubat mashaqqat, kulfat keltiradi. Ahriman zo'r kuch va qudratga ega bo'lsada, biroq Axuramazda kabi har narsaga qodir va qobil emas, shu sababli yomonlik kuchlari yaxshilik oldida doim mag'lubiyatga uchraydi.

"Avesto"da yorug'lik manbai quyosh deb ko'rsatiladi. Quyosh nuri insonga hayot bag'ishlaydi. Olov quyoshning bir parchasi bo'lganligi uchun ham inson olovni muqaddas hisoblaydi.

Mitra - quyosh va yorug'lik ma'budi, Noxit (Noxid) obodonchilik va farovonlik ma'budi, Humo - baxt, to'le va davlat ma'budi, Anaxita va Xubbi (Er Xubbi) - suv ma'budi, Mirrix-urush va g'alaba ma'budi, ezgulik esa Qayumars (Gavomard), Yima (Jamshid), Gershasp kabi mifologik obrazlarda mujassamlashgan.

"Avesto"da Anaxita zabardast, xushqomat, kamarini mahkam bog'lagan, to'g'ri so'z, marhamatli go'zal qiz sifatida tasvirlangan. U - kishilarga kuch-qudrat baxsh etuvchi, suvning mo'l bo'lishini ta'minlovchi ma'buda. Anaxita haqidagi ma'lumotlarni ko'zdan kechirish shuni ko'rsatadiki, u suv va hosildorlik homiysi bo'lib, o'zbeklar orasida Anbar otin shaklida saqlanib qolgan. Farg'ona vodiysisidagi xushmanzara joylardan biri Shohimardondagi Qubbon ko'li (ko'li Qubbon) bo'lib, u aslida "Xubbilar ko'li" degan ma'noni anglatadi. Xubbi yoki erxubbi qadimgi adoddarimizning tushunchalariga ko'ra suv va suv havzalari bilan bog'liq narsalarning homiysi bo'lgan.

Xalqimiz orasida mavjud bo'lgan Kayumars (Gayya Martan, Gavomard), Yima (Jamshid) haqidagi afsonalr ham "Avesto" orqali bizga qadar yetib kelgan.

Turkiy xalqlar folklorida afsona va rivoyatlar juda ko'p. Olimlarning ta'kidlashicha, real hayotda ro'y berishi mumkin bo'lmagan voqealar haqidagi hikoyalar afsonalar deb yuritiladi, lekin hamisha ham bu mezonga amal qilingan emas. Hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan hayratli voqealar rivoyat nomi bilan

yuritilgan. Ma'lum bo'ladiki, afsona va rivoyatlar o'rtasida aniq chegarani belgilash mushkuldir.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotelning ta'biri bilan aytganda, “Afsonalar haqiqatdan xabar beruvchi yolg'on hikoyalardir”.

Xalqimiz orasida bugungi kunda ham fazoviy jismlar, hudud nomlari, rasm - rusumlar, tarixiy voqeа - hodisalar bilan bog'liq afsona, rivoyatlar yashab kelmoqda. Hatto ular orasida hajviy ruhdagilari ham uchraydi.

Tariximizda avloddan-avlodga meros bo'lib kelayotgan To'maris, Shiroq, Rustam, Zariadr va Odatida, Guldursun, Dalvarzin, Qonqus, Kuyganyor, Chuli-chuli kabi afsona va rivoyatlar madaniy merosimizning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Vatanimiz mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimiz tarixi bilan bog'liq qadriyatlarning qayta tiklanishi yo'lida bir qator ezgu ishlар amalga oshirildi.

Navro'z bayramining omnaviy nishonlanishi, O'zbekiston televideniyasida xalqimiz qadimdan afsona va rivoyatlar to'qib kelayotgan Burgut, Ot, Tuya, Ilon, Qaldirg'och, G'oz, Laylak kabi jonivorlar hamda parrandalar haqida uyuştilrilgan bir qator ko'rsatuvalar, vaqtli matbuotda e'lon qilingan maqolalar fikrimizning dalilidir. Mif va afsonalar mohiyatini his qilish ularda ifodalangan voqeа - hodisalarning asosini belgilash imkonini yaratadi.

Etnomadaniy jarayonlarning shakllanishida qadimgi davr folklorining o'rni va ahamiyati. Qadimgi adabiy merosimiz juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki har bir mif va afsona xalqimiz orzu-armonlarini ifodalash bilan birga biror bir tarbiyaviy g'oyani ham ilgari suradi.

Masalan, “Shiroq”, “To'maris”, “Rustami Doston” afsonlarida vatanparvarlik, chet elliq bosqinchilarga nisbatan nafrat ruhi bo'rtib turadi. “Avesto”dagi miflarda esa ezgulikning jaholat, zulm va zo'rlik ustidan g'alabasi muqarrar ekanligi ta'kidlanadi.

Qadimgi davr folklori manbai bo'lmish “Avesto”, “O'g'uznama”, O'rxun-Enasoy toshbitiklari, Mahmud Koshg'ariyning “Devoni lug'atit – turk” asari kabi yodgorliklar ayni paytda o'zbek adabiyoti tarixining ham o'rganish manbaidir. Shuni ham ta'kidlash zarurki, folklor namunalari tilshunoslikning ham o'rganish manbai hisoblanadi. Folklor asarlarida tilga olingan ko'plab ma'lumotlar arxeologik topilmalar orqali isbotlanmoqda. Xalqimizning uzoq yillik boy tarixi, urch – odatlari, ezgu fazilatlari folklor asarlarida badiiy in'ikosini topganligi vatanimiz tarixini

o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Vatanimizda Istiqlol yillarida folklor bilan bog'liq bir qancha qarorlar qabul qilindi va xayrli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1991 yildan buyon Navro'z bayrami umumxalq bayrami sifatida nishonlanmoqda. Keyingi yillarda o'zbek folklori namunalarining ko'plab nashr etilayotgani ham og'zaki ijodimizga Davlat siyosati darajasida baho berilayotganini ko'rsatuvchi dalildir.

1998 yilning 13 yanvar kuni O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov "Alpomish" dostonining 1000 yilligini nishonlash haqidagi farmonga imzo chekdi. Yubiley tantanalari 1999 yil noyabr oyida Surxondaryoda keng nishonlandi.

YUNESKOning 1999 yil noyabrdagi 30-sessiyasida "Avesto" kitobining 2700 yillik yubileyini nishonlash haqidagi qarori qabul qilingan edi. 2000 yil 23 martda esa bu ezgu tashabbusni qo'llab - quvvatlovchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Avesto"ning 2700 yilligini nishonlash to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Shundan so'ng bu qadimiy kitob haqida o'nlab maqolalar, tadqiqotlar e'lon qilindi. Shoir Asqar Mahkam asarning kattagina qismini o'zbek tiliga sheriyl usulda, atoqli olim Mirsodiq Ishoqov esa nasriy yo'lida tarjima qilib nashr ettirdilar.

"Avesto" yubileyi tantanalari 2000 yil 3 noyabrda Zardusht va uning ulug' kitobi vatani hisoblanmish Xorazmda bo'lib o'tdi. "Avesto" eng qadimgi folklor namunalarini o'zida mujassamlashtirgan va keyingi davrda yaratilgan folklor hamda yozma adabiyotga juda ko'plab mavzular bergen tarixiy va o'lmas kitobdir.

Xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimiy turi hisoblanadi. O'zbek folklori jahondagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bo'lgani kabi bir qator o'ziga xos belgilari ega. Bu belgi-xususiyatlar asosan og'zaki shakldagi so'z san'ati namunalarining yozma adabiyot asarlaridan farqlovchi xususiyatlar hisoblanadi. Ularning tartibi haqida folklorshunos olimlarning fikrlari turlicha. Biz quyidagi tartib tarafdarining fikriga qo'shilamiz:

1. Og'zakilik va badihago'ylik.
2. Jamoaviylik va ommaviylik.
3. An'anaviylik.
4. Anonimlik.
5. Ko'p nusxalilik va tarmoqlilik.

Og'zakilik va badihago'ylik og'zaki ijod asarlarining shakliy ko'rinishi bilan bog'liqdir. Asrlar davomida bizgacha etib kelgan doston, ertak, qo'shiq, maqol va

boshqa asarlar og'zaki tarzda yaratilgan, og'zaki tarzda avloddan-avlodga o'tgan va xalq madaniyatining og'zaki merosiga aylangan. Ko'p yillardan buyon og'zaki ijod namunalarini o'rghanish bo'yicha olib borilgan kuzatuvlar og'zakilikning ijobiy va salbiy jihatlari borligini tasdiqlamoqda. Bizningcha, og'zakilik xalq ijodining omma orasiga tarqalishida va keng tus olishida ijobiy ahamiyatga ega. Chunki asarlarning bu shaklda ijro etilishi ijrochi zimmasiga ortiqcha mas'uliyat yuklamaydi. Ammo masalaning ikkinchi tomonini ham qayd etmoq lozim, xususan, ayrim ijod namunalari aynan og'zaki tarzda ijro etilganligi uchun ijrochining vafoti bilan asarning hayoti ham to'xtaydi, unutiladi. Ayrim ijod namunalarining shogirdlar tomonidan o'zlashtirilmaganligi yoki olimlar tomonidan yozib olinmaganligi oqibatida vaqt o'tish bilan esdan chiqadi, asar yo'qolib ketadi. Badihago'ylik xalq og'zaki ijodidagi bevosita og'zakilik xususiyatidan kelib chiqadigan belgidir. Badihago'ylik yozma ijodda yo'q, chunki yozma jarayon individual ijod bilan bog'langandir. Badihago'ylik esa tinglovchi auditoriyasi bilan bog'langan holda namoyon bo'ladi. Xalq og'zaki ijodidagi askiya janrini badihago'yliksiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Shuningdek, doston, ertak va boshqa folklor namunalarining ijrosi jarayonida ijrochi asar matniga yo'l-yo'lakay o'zgarish kiritishi, ba'zan yangi lavhalarni o'ylab topishi, ayrimlaridan voz kechishi mumkin.

Jamoaviylik va ommaviylik tushunchasi ham xalq og'zaki ijodida muhim belgi hisoblanadi. Bu o'rinda asarning yaratilishi jamoa bilan, uning tarqalishi xalq orasida yashashi ommaviylik bilan bog'liqligini ta'kidlab o'tish zarur. Xalq og'zaki ijodidagi har bir asarning vujudga kelishi, janr sifatida takomillashuvi, so'z san'atining namunasi sifatida xalqqa ta'sir etishi unda jamoaviyning ishtiroti bilan belgilanadi. Folklordagi jamoaviylik tushunchasi bilan biron jismoniy mehnatni amalga oshirishdagi jamoaviylik tushunchasi o'rtasida farq bor. Folklorshunos olimlarning ta'kidlashlariga ko'ra jamoa bo'lib paxta terish mumkin, imorat qurish mumkin, lekin bevosita jamoa bo'lib asar yaratish mumkin emas. Doston, ertaklarning, shakllanishida jamoaviylik tushunchasi nisbiy ma'noga ega bo'ladi. Chunki folklor asarining yaratilishida birinchi vazifani ijod qilish iqtidoriga ega bo'lgan shaxs bajaradi. Ammo shaxs yaratgan dastlabki asar ko'rinishi yillar davomida og'zaki usulda ijro etilishi natijasida, xalqning boshqa iqtidorli farzandlari tomonidan unga qayta-qayta o'zgarishlar kiritiladi, natijada jamoa ijodi sifatida

shakllanadi. Olimlarning kuzatishlari shuni tasdiqlayaptiki, hatto tinglovchilar ijro davomida asardagi tasvirlanayotgan voqealarga nişbatan o'zlarining qiziqishlarini bildirishlari orqali ham mazkur asar nusxasiga o'zgarishlar kiritar ekanlar. O'yaymizki, ana shu jarayonni ham folklordagi jamoaviylik belgisi bilan bog'lash mumkin bo'ladi. Binobarin, xalq og'zaki ijodida jamoaviylik va individual ijod tushunchasi bir-birini inkor etmaydi. Ommaviylik esa yaratilgan folklor namunasining xalq vakillari istiqomat qiluvchi hamma hududlarda tarqalishi bilan bog'liqdir. To'g'ri, bu hududlar ba'zan tarixiy - etnografik jihatdan chegaralangan bo'lishi mumkin. Masalan, doston, ertak, askiya va boshqa janrlardagi asarlar O'zbekistonning hamma viloyatlarida bir xil ijro etilmaydi. Ammo shunga qaramay, asarlar tarqalishidagi ommaviylik har bir namunaning o'zbek xalqi madaniy merosiga taalluqli ekanini tasdiqlayveradi.

An'anaviylik xalq og'zaki badiiy ijodining asarlar davomida hayot tajribasida sinalgan asosiy xususiyatlaridan biridir.

Anonimlik. Anonimlik asar muallifi nomining ma'lum emasligi demakdir. Xalqimiz og'zaki ijodidagi yuzlab ertak va dostonlarni birinchi bo'lib aytgan ijodkor nomi anonimdir. Xalq qo'shiqlari, maqollari, topishmoqlari ham bizga ma'lum bo'lmagan bobo-momolarimiz tomonidan yaratilgan. Ammo ular, biz avval aytganimizdek, o'z ismlarining saqlanib qolishini xohlamaganlar. Keyinchalik esa asarni birinchi yaratgan va aytgan shaxs nomining yoddan ko'tarilishi ham an'anaga aylangan. Ammo xalq og'zaki ijodidagi anonimlik bilan yozma adabiyotdagi asar muallifi nomining ma'lum emasligi mutlaqo boshqa-boshqa tushunchalardir. Og'zaki ijodda anonimlik oddiy holat bo'lsa, yozma adabiyotda adib nomining yo'qligi tasodif hisoblanadi. Masalan, "Yusuf va Zulayxo", "Gul va Navro'z" dostonlarini yozgan shoirlar nomi ma'lum bo'lmagan taqdirda ham, bu asarlar og'zaki ijod namunasi hisoblanmaydi.

Chunki ularning matni og'zaki adabiyot an'anasiaga mos kelmaydi.

Folklorshunos olim Omonilla Madayev an'anaviylikni folkloarning asosiy va birinchi xususiyati, deb hisoblaydi. Gap shundaki, xalqning hordiq chiqarishida, madaniy dam olishida asosiy vosita hisoblangan doston, ertak, qo'shiq, askiya, topishmoq ijrolari qadim zamonlardan buyon ma'lum an'anaga bo'ysunadi. Bu holatni bir necha yo'nalishda qayd etish mumkin:

1. Folklor asarlarining og'zaki usulda yaratilishida.

2. Og‘zaki ijod asarlarining matnida.

3. Ijroning shaklida.

Folklorshunos olimlar B. Karimov, H. Zarifov, M. Afzalov, M. Alaviya, Z. Husainovalarning ma'lumot berishicha, og‘zaki ijod asarlarini ijro etishda ijrochilar qat’iy odatlarga amal qilganlar. Xususan, ertak aytuvchilar tinglovchilari yig‘ilganidan so‘ng o‘z oldiga suv, kul, tuproq, isiriq, supurgi, taroq, cho‘p va boshqalarni ma'lum tartibda qo'yib ertak aytishni boshlaganlar. Topishmoq aytishda esa g‘olib va mag‘lub taraflarni belgilovchi shartlar e’lon qilingan. Doston ijrosida Samarqand, Xorazm, Farg‘ona, (Namangan) an‘analari mashhur bo‘lgan. Demak, turli janrlarga oid asarlar ijrosi davomida doimiy ravishda takrorlanuvchi an‘analalar muhim ro‘l o‘ynagan. Shubhasiz, folklorshunoslikda matniy an‘analarga e’tibor berish muhimroq hisoblanadi. Biz bu o‘rinda doston, ertak janrlariga mansub asarlarning nasriy va nazmiy shakllarini, asar boshlanmasidagi an‘anaviy o‘rinlarni nazarda tutamiz. Adabiyotshunoslikda obraz yaratish, konflikt badiiy tasvir vositalari kabi tushunchalar yetakchi xususiyatlar sanaladi. Xalq qo’shiqlaridan tortib dostonlarigacha, maqollardan tortib ertaklargacha obraz yaratish, voqeani bayon qilish, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish kabilar o‘ziga xos ko‘rinishlarga egadir. Shuning uchun xalq orasidan yetishib chiqqan va alohida iqtidorga ega bo‘lgan ijodkor - ijrochilar o‘zları yaratgan asarlarini har bir janr an‘anasi hisobga olgan holda ijod qilganlar. Natijada, ular yaratgan yangi asar an‘ana jihatdan original bo‘lmagan. Shuning uchun ham yangi ertak yoki doston yaratuvchi shaxs o‘z nomini muallif sifatida eslashga jur’at etmagan. Shunday qilib, an‘anaviylikni xalq og‘zaki ijodning o‘ziga xos muhim belgilaridan biri sifatida ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

Variantlilik (ko‘p nusxalilik) va versiyalilik (tarmoqlilik) yozma ijodda deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Chunki bir asarning bir muallif tomonidan turli o‘zgarishlar bilan o‘quvchiga taqdim etilishi son va sifat jihatidan variantlilikning vujudga kelishiga imkon bermaydi. Ba’zi hollardagina yozma adabiyotdagagi variantlilik haqidagi fikr yuritish mumkin. Jumladan, adabiyotshunoslarning ma'lumot berishicha, Said Ahmadning “Ufq” romani “Sharq Yulduzi” jurnali va alohida nashr variantiga ega. Vaholanki, og‘zaki ijodda bir asarning baxshilar tomonidan ijro etilishi o‘nlab variantlarni vujudga keltiradi. Folklorshunoslikka “Alpomish” dostonining 100 ga yaqin varianti ma'lum bo‘lib, shulardan 30 dan ortig‘i yozib olingan.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

O'zbek folklori, o'zbek folklori tarixi, qadimgi davr folklori, xalq og'zaki badiiy ijodi, mif, afsona, rivotlar, xalqimiz og'zaki ijodining tarixiy ildizlari, mifologik dunyoqarash, totem, fetish, anim, "Qutadg'u bilig", "Hibat - ul haqoyi", "Devonu lug "atit-turk", Ot totemi, "Oq bilakxon", "Yoriltosh", "Yalmog'iz kampir", "Qilich botir", Ahriman (Angra Manyu), Mitra, Qayumars (Gavomard), Yima (Jamshid), og'zakilik va badihago'ylik, jamoaviylik va ommaviylik, an'anaviylik, ko'p nusxalilik va tarmoqlilik, anonimlik va bsh.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Folklor so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Qadimgi davr folkloriga misollar keltiring...
3. Mif deganda nimani tushunasiz?
4. Miflar qadimgi ajdodlarimizning qanday qarashlari natijasida paydo bo'lgan?
5. Afsonalar haqida olimlarning qanday fikrlari mavjud?
6. Rivoyatlar afsonalardan nimasi bilan farq qiladi?
7. Qadimgi mif va afsonalardan qaysilarini bilasiz?
8. Turkiy xalqlarning qaysi manbalari orqali qadimgi davr folklori haqida ma'lumotga ega bo'lamiz?
9. O'zbek folklorining o'ziga xos belgilarini sanab bering...
10. Qadimgi davr folklorining bugungi kunda qanday ahamiyati bor?

6-§. O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari va xalq dostonlari

O'zbek xalq og'zaki ijodi. O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari – o'lan, lapar, aytishuvlar xalqimizning necha ming yillik boy hayotiy tajribasi, ibrat saboqlari, samimiy ko'ngil kechinmalari mahsuli, desak adashmaymiz.

Bu ibrat durdonalarida donishmand xalqimizning beqiyos tafakkuri, bebaho qalbi, yorug' kelajakka, ertangi kunga ishonchi, yorqin orzu-istiklari mujassam.

Birgina eng qadqli, eng suyumli o'lan – ona allasini olaylik. Rivoyat qilishlaricha, istilochi shoh qo'shni mamlakatga hujum qilib, kentu qishloqlarni vayron, fuqarolarni qatl eta boshlaydi. Navbatdag'i urushdan so'ng, zabit etilgan shahar ko'chalaridan qo'shini bilan g'olibona o'tib borayotgan shoh shahar chetidagi bir kulba yonida to'xtabdi. Uydan ona allasi eshitilayotgan edi. Sekin kulba derazasidan mo'ralagan shoh jangda yaralangan jangchi o'g'lini quchib, alla

aytayotgan onani ko'ribdi. Shoh va sipohlar bir dam ilohiy qo'shiq sehriga asir bo'lishibdi... "Men beshigim tepasida aytilgan onam allasini unutolmayman", – debdi shoh va qo'shinini olib yurtdan chiqib ketibdi. Urush to'xtabdi. Mamlakatda tinchlik qaror topibdi.

Bu qadimiy afsonada qanchalik haqiqat bor, bilmadim. Biroq umrboqiy va hayotbaxsh o'lan – ona allasining ilohiy sehri, beqiyos kuchi asrlar sinovida sinalgan. Axir, yig'layotgan go'dakning ona allasini eshitib, orom olib, uyguga ketishi, bu xushdil navoni tinglaganda vujudga kuch, dilga mehr quyilishi ayni haqiqat-ku.

Mutaxassislarning fikricha, ona allasi chaqaloqning orom olishi uchungina emas, uning qalbiga milliy ruhni singdirishga ham xizmat qiladi. Ona tilidan yangragan alla go'dakning diliga eng ezgu xislatlarni singdiradi...

Onalarni bejizga mehr bulog'i demaymiz. Onaning ko'krak suti va mehrga jo allasi omuxta bo'lib farzand qalbiga bashariyatga, yurtga, butun borliqqa mehr-muhabbatni joylaydi.

Xalqona o'lan va laparlarning umrboqiyligi, sehr kuchi ham shundadir, ehtimol.

Nafaqat alla, shuningdek, lapar, aytishuv, yor-yor kabi xalq qo'shiqlari ham tinglovchiga jo'shqinlik, zavq, ruhiy quvvat bag'ishlaydi. Yurtimizda xalqimizning boy madaniy merosini asrab-avaylash, uni kelgusi avlodlarga yetkazish borasida amalga oshirilayotgan xayrli intilishlar uning ajralmas qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodiga bo'lgan e'tibor misolida ko'rindi.

Bugungi kunda ma'lum bo'lyaptiki, shaxsni tarbiyalashda uning ruhiy holatiga ta'sir qilmasdan samaraga erishib bo'lmaydi. Xalq og'zaki ijodida avlod tarbiyasi aynan ana shu usuldan foydalangan holda amalga oshiriladi. Jumladan, "Alpomish" dostonida Alpomishning soddaligi va ishonuvchanligidan foydalangan dushman uni va sheriklarini tuzoqqa tushiradi. Qahramonning bir kun may ichib hushyorligining yo'qotishi 7 yil zindonda yotishiga sabab bo'ladi. Yoki dostonda aka-uka Boybo'ri va Boysarining murosasizligi tufayli o'n minglab qo'ng'iroqliarning boshiga mislsiz ko'rgiliklar tushadi.

Bundan ma'lum bo'ladiki, dono xalqimiz psixologiya fanining zamonaviy yutuqlaridan bexabar holda yoshlarni tarbiyalashda eng ma'qul yo'lni tanlagan ekan. Pedagogikada yosh avlodni vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo'ylik ruvida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari, xalq o'z

farzandlarining ziyrak, irodali, insonparvar bo'lib yetishishini orzu qilgan. Xalq og'zaki badiiy ijodidagi asarlarda tanqid ostiga olingan qahramon o'z fe'lidagi kamchiliklarni tuzatadi va murod-maqsadiga etadi. Bu misollar ham xalqimiz og'zaki ijodining muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Xalq og'zaki ijodi bilan yaqindan tanishish bu asarlarda inson tarbiyasiga oid hech qanday bo'sh o'rin qolmaganligini ko'rsatadi. Xususan, ba'zi ertaklarda asar qahramonining ziyrakligini tekshiruvchi topishmoqlar mavjud. Bir qator epik asarlarda esa hayotda yomonlik qilgan shaxsning jazosiz qolmasligi ta'kidlanadi. Bevosita yosh bolalarning tarbiyasiga oid masalalar ham xalq og'zaki ijodi namunalaridan sezilarli o'rin olgan. Bu o'rinda topishmoqlarda majoziy fikr yuritilishini, tez aytishlarda nutq organlari shakllanishiga e'tibor berilganini, bolalar qo'shiqlarida estetik tarbiya bilan jismoniy tarbiyaning uyg'un ekanligini nazarda tutamiz.

Xalq og'zaki ijodida katta o'rin tutuvchi doston va ertaklar orqali yosh avlodga qadim zamonlarda quyosh, yer, suv, ot, tuya, yo'lbars, baliq, qaldirg'och, behi, chinor kabi tushunchalarning muqaddasligi uqtirilgan. Shuningdek, bunday asarlarda to'y, aza kabi marosimlar qanday o'tkazilishi haqida aniq ma'lumotlar berilgan. Natijada doston va ertaklarni tinglovchilar bir tomonidan, hayot, ikkinchi tomonidan, badiiy ijod namunalari orqali milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalanganlar. Bu esa bugungi kunda davlatimiz tomonidan alohida e'tibor berilayotgan umuminsoniylikni va milliylikni, mustaqillik mafkurasi asoslarini o'zlashtirish omili hisoblangan.

Shu bois ham "Dostonchilik va baxshichilik — milliy g'ururimiz. Uning zamiridagi ezgu qadriyatlarni xalqimizga yetkazish lozim. Baxshichilik maktabi xalq og'zaki ijodining noyob durdonalarini asrashga, uni rivojlantirishga, baxshilarining obro'sini ko'tarishga xizmat qilishi kerak. Joriy yil Navro'z bayrami arafasida yurtimiz baxshilarining respublika seminarini o'tkazishni yo'lga qo'ysak, ularni qo'llab-quvvatlagan bo'lamiz, — dedi mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2018 yilning yanvar oyida Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida.

Har bir fan, sohaning muhim nazariy masalalari bo'ladi. Badiiy adabiyotni o'rganuvchi fan adabiyotshunoslik deb ataladi. Xalq og'zaki poetik ijodini o'rganish sohasini fol'klorshunoslik deymiz. Fol'klorshunoslikda xalq og'zaki adabiyotidagi maqol, qo'shiq, ertak, doston kabi janrlarning o'ziga xoslik tomonlari tadqiq etiladi. Ammo qaysi shaklda yaratilgan adabiyot ekanidan qat'i nazar har bir yo'nalishdagi

yutuqlar va kashfiyotlar adabiyotshunoslik va ma'naviyatshunoslik, etnomadaniyat fanlari taraqqiyotiga qo'shilgan hissa sifatida baholanaveradi. Avvalo, badiiy asarlar yaratilish jinsi yoki turiga ko'ra uch xil bo'lishini esga olaylik. Badiiy adabiyot – so'z san'ati ekani haqida ma'lumot berganimizda jins va turlarni aytib o'tgan edik. Endi ana shu tushunchalarni mustahkamlaymiz. Urmuman olganda, jahon adabiyotida uchta jinsnning mavjudligi (epos, lirika, drama) qayd etilgan, tan olingen. Janr deganda, ana shu uchta jinsdagi asarlar tarkibini tashkil qiluvchi kichik turlar tushuniladi. Masalan, yozma adabiyotda epik asarlar turini roman, qissa, hikoya janrlari, og'zaki adabiyotda ertak, doston, latifalar tashkil etadi. Ya'ni jins nomi saqlanishi, tarkibi esa asar yaratilish usuliga ko'ra (og'zaki yoki yozma) boshqa-boshqa janrlardan iborat bo'lishi mumkin.

Epos – yunoncha "epos" – rivoyat, hikoya, qo'shiq so'zidan iborat bo'lib, badiiy adabiyotda voqeа, hodisani bayon qilish, hayotiy lavhaning tafsilotlarini ifodalash ma'nosini anglatadi. Ta'rifdagи "qo'shiq" so'ziga ajablanish kerak emas, chunki qadimgi yunonlar nazarda tutgan qo'shiqlar so'zning hozirgi paytda tushunilishidan farqli ravishda voqeа-hodisani bayon qilish xususiyatiga ega edi. Badiiy adabiyotdagi epik jinsda biron voqeа badiiy so'z vositasida hikoya qilinadi. Xalq og'zaki ijodida bunday jinsga mansub janrlar afsona, naql, rivoyat, ertak, doston, ayrim termalar, latifa, loflardan iboratdir.

Maqollar va ularning yuzaga kelishi. Ana shu janrlarning orasida xalq maqollari, topishmoqlar, xalq qo'shiqlari va xalq dostonlarining alohida o'mi bor.

Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytildi. Maqol o'zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so'zlashuvda) naql, turklarda ata so'zi atamasi bilan yuritiladi. Maqol atamasi arabcha [لُقْ] – qavlun – gapirmoq, aytmoq so'zidan olingen.

Maqollarda so'z qimmati alohida yorqin ifodalanadi. Chunki maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biron so'z qo'shish mumkin emas. Ular milliy til tarkibida qolipashgan holda namoyon bo'ladi. Bu janr dunyodagi hamma xalqlar og'zaki ijodida bor bo'lib, hajm, shakl, yaratilishi maqsadiga ko'ra mushtarak hisoblanadi. Hatto nomlanishida ham yaqinlik aniq seziladi. Jumladan, arablarda "qavlun" – gap, so'z ma'nosini ifodalasa, tojiklarning "zarbulmasal" atamalarida misol keltirish, ruslar "poslovitsa" sida so'zlar bilan fikrni ifodalash, turklardagi "ota

so‘zi”da esa ajdodlar fikrini eslash ma’nosи yetakchi. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham “sav” atamasi otalar so‘zini eslash tarzida keltirilgan.

Xullas, maqol atamasi umumiy mazmun jihatdan “so‘z” tushunchasi bilan bog‘lanadi. Dunyodagi hamma xalqlar og‘zaki ijodida maqollarchalik shaklan va mazmunan o‘zaro yaqin janr deyarli yo‘q. Masalan, ruscha “Shilo v meshke ne utaish” (bigizni qopda yashirib bo‘lmas) – o‘zbekcha “Oyni yetak bilan yopib bo‘lmas”; inglizlarda “East and West, home is best” (Sharqmi, G‘arbmi, uying eng yaxshisi) – o‘zbekcha “O‘z uying, o‘lan to‘shaging”; Vietnamda “Risoval drakona, poluchilsya chervyak” (Ajdar suratini ishlagandim, chuvalchang bo‘lib chiqdi) – o‘zbekcha “Men dedim o‘ttiz – Alloh dedi to‘qqiz”, ossetinlarda “Ego v seni ne puskayut, a on lezet v komnatu” – o‘zbekcha “O‘ziga eng bo‘lмаган, o‘zgaga yen bo‘лarmi”; tatarlarda “Tovuq tuxum qo‘ymasdan, egasi jo‘ja sotmoqchi” – o‘zbekcha “Jo‘jani kuzda sana”; ruslarda “Na chujoy strane i vesna ne krasna” (o‘zga yurtda bahor go‘zal emas) – o‘zbekcha “O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l” ma’nolarini ifodalaydi.

Folklorshunos olimlar maqollar va matallarni o‘rganuvchi sohani paremiologiya deb atashadi. Paremiya – yunoncha chuqur ma’noli gap, hikmatli so‘z, ibora, maqol, matal ma’nosini beradi.

Maqollarning janr xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Maqollarning hajmi qisqa va cheklangan.
2. Maqollar mazmunan serko‘lam va chuqur ma’noni ifodalaydi.
3. Xalq maqollari shaklan she’riy va nasriy bo‘ladi. Ammo nasriy maqollar ham she’riy misralarni eslatadi. Masalan: Ko‘za kunda emas, kunida sinadi.
4. Maqollarda hayotiy voqeа-hodisa haqida qat’iy hukm ifolanadi. Bu hukm musbat yoki manfiy mazmunda aks etadi.
5. Maqol shaxs hayotidagi xususiy vaziyatni xalq, omma, hayot nuqtai nazardan umumlashtiradi.
6. Maqol matni tilshunoslikda shaxsi umumlashgan gap hisoblanadi.

Xalq maqollari tarixi o‘nlab asrlar bilan o‘lchanadi. O‘rxun-Enasoy bitiklarida “Oriq va semiz buqani (birov) tezagidan bilsa, birov oriq va semiz buqani ajrata

olmaydi”, “Yupqa qalin bo’lsa, tor-mor qiladigan bahodir yemish, ingichka yo‘g‘on bo’lsa, uzadigan bahodir yemish” kabi maqolni eslatuvchi parchalarni o‘qiyamiz.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida o‘nlab hikmatli so‘zlarni uchratamiz:

“Yesa, ichsa oxir bari och to‘yar,
Ko‘zi och ochligin o‘lganda qo‘yar”.
“Kishiga chiroydir uyat-andisha,
U asrar nojo‘ya ishdan hamisha”.

Aynan shunga o‘xshash fikr Ahmad Yassaviy she’rida shunday keladi: “Al hayoyu minal iymon” – Rasul aytdi”, ya’ni Hadisdan olingen parcha: “Hayo iymondan nishonadur”, - deyiladi. Ahmad Yugnakiy “Hibat-ul-haqoyiq” dostonida “Vale kiysang atlas, unutma bo‘zing” misrasini yozadi. Bu misra “Boy bo‘lsang, chorig‘ingni unutma” hikmatli so‘ziga mos keladi.

Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘oti-t-turk” tadqiqotida dala safarlarida yozib olgan 268 maqol matnni keltirgan. Bu namunalar qatorida biroz o‘zgarish bilan yashayotgan quyidagilarni uchratamiz: “Otug‘ uzguch birla o‘churmas” – O‘t alanga bilan o‘chirilmas; “Tog‘ toqqa qavushmas, kishi kishiga qavushar” – “Tog‘ tog‘ bilan uchrashmas, odam odam bilan uchrashar”. Ayni paytda “Öt tesa, ag‘iz kuymas” – o‘t degan bilan og‘iz kuymaydi; “Tulki o‘z iniga ursa, uzuz o‘lur” – tulki o‘z iniga qarab hursa, qo‘tir bo‘ladi kabilar bugungi kunda unutilgan. Ular o‘rniga “Holva degan bilan og‘iz chuchimas”, “Vataniga tosh otgan vatangado bo‘ladi” degan maqollar qo‘llanmoqda.

Maqollarni tasnif qilishning bir turida mazmun yetakchi hisoblanadi. Unga ko‘ra Vatan, mehnat, xalq, ilm-hunar, mardlik, mehmon, tadbirkorlik, muhabbat va vafo, yaxshi so‘z – jami 30 ga yaqin mavzular qayd etilgan. Ammo bu mavzularni yana ko‘paytirish ham, kamaytirish ham mumkin. Muhimi, mazmun yetakchi bo‘lgan tasnifda masalani har tomonlama ifodalashga urinish aniq seziladi.

“Bulbul chamanni sevar,
Odam – vatanni”.

Mazkur maqolda inson ruhiy olamida Vatan tushunchasining ahamiyati qayd etilgan. Maqoldagi Vatan so‘zida faqfat muayyan hudud, manzil, o‘rin-joy, tabiat aks etgan, desak yanglish bo‘ladi. Bu so‘z ma’no jihatdan ajodolar ruhi, ma’naviy meros obidalari, qadriyatlar, millat birligi, mentalitet xususiyatlari bilan uyg‘unlashadi. Bulbul chamanda qanchalar yayrasa, inson o‘z vatanida shunchalar erkin his qiladi.

Bulbulni bog'larsiz, gulzorsiz, chamansiz tasavvur yetib bo'lmaganidek, odamni o'z ona diyorisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu maqolni aytganimiz zahoti Zokirjon Furqatning chet ellardagi azobini ta'riflab o'z vatanini sog'ingani yodga tushadi:

"G'amingda kecha – tong otquncha yig'lar,

Tong otg'och, dag'i kun botquncha yig'lar".

Vatan haqidagi maqollarda qiyoslash, taqqos yetakchidir:

Kishi yurtida shoh bo'lguncha,

O'z yurtingda gado bo'l.

Ma'lum bo'ladiki, bu maqol avvalgi namunadagi mazmunni chuqurlashtiradi. Moddiy ta'minotdan ko'ra ma'naviy ehtiyoj muhimroq ekani ifodalanadi. Tajribasiz odam hayotdagи hamma muammoni iqtisod bilan o'lchaydi. Uning uchun turmush to'kinligi har qanday tushunchadan afzaldek tuyiladi. Lekin Boburdek shoh o'z diyorini eslab azoblanganidan xulosa chiqarsak, maqoldagi fikrning qanchalar aniq va ibratli tarzda berilgani ma'lum bo'ladi.

Yendi boshqa bir maqolga murojaat qilaylik:

Ona yurting omon bo'lsa,

Rangi-ro'ying somon bo'lmas.

Bu maqolda shaxsnинг ona yurtida yashashi va istiqomat qilishi undan ma'lum burchni ham talab qilishi ifodalangan. Inson o'z yurtida bermalol yashashi mumkin. Ammo bu yurt omon bo'lsa, ya'ni tinch bo'lsa, erkin -ozod bo'lsa. Yurt tinchligi, erkin ligi, ozodligi esa xalqning o'z yurtiga bo'lgan imyonli munosabati oqibatida vujudga keladi. Agar xalq og'zaki ijodi asarlarini tahlil qilsak, Vatan mavzuiga alohida e'tibor berilganiga guvoh bo'lamiz. Tarixiy ma'lumot va hujjatlar bevosita xalq farzandlarining ajdodlar vasiyatiga sodiq ekanliklarini tasdiqlamoqda. Qayta-qayta ko'p namunalarda vatan ozodligi, erkin ligi haqidagi ta'kidning kuchayishi bejiz emas. Ko'pincha, bu maqollarda vatan va el tushunchasi uyg'unlashadi:

Eling omon bo'lsa – sen omon.

Eling, yurting bo'lmasa,

Xullas, xalq maqollarida qaysi mavzu, hayotning qaysi sohasi haqida fikr yuritilmasisin, tanlangan muammo har tomonlama, atroflicha yoritiladi. Bularning hammasi o'zbek xalqining asrlar davomida naqadar dono va aqlli ijodkor farzandlarga ega ekanini dalillaydi.

Xalq maqollarining uzoq o'tmish mahsuli ekanligi ayrim namunalarni bugungi kunda tushunish oson emasligini ham izohlaydi. Ba'zan maqollar qatorida shundaylari ham uchraydiki, hatto umumiy fikr nima bilan bog'liq ekanligini anglash qiyin bo'lib qoladi. Masalan: "Bir pul berib yig'latdim, ming pul berib yupatdim" maqolini olaylik. Bu maqolning mohiyatini maqoldagi fikr yo'nalishi va qarshilantirish usulidan taxmin qilish mumkin, xolos. Ya'ni umumiy mazmunda nojo'ya qilingan harakat yoki tadbir oxir oqibatda insonga qo'shimcha tashvish keltirishi mumkinligi haqida ogohlantirilmoqda. Sen shunday harakat qilginki, bu harakating yomon oqibatlarga olib kelmasin, deyilmoqda. Ammo nima uchun bir pul berib yig'latsa, ming pul berib ovutadi yoki yupatadi. Bu muammoni hal qilish uchun tarixga murojaat qilamiz. Qadim zamonlarda aza paytida yig'lab beradigan maxsus odamlar bo'lgan ekan. Ularni "giyrandi" deb atashgan. Aslida "giyrandi" "giryandi"dan olingen bo'lib, "yig'lamoq" fe'li bilan ma'nodoshdir. Uyida biror yaqin odami o'lsa, mayit egasi giyrandini chaqirgan. U aza davomida ma'lum haq yevaziga yig'lab berishni bo'yniga olgan. Lekin giyrandi o'z san'atini shunday egallashi ham mumkin yediki, mayit egasi bu aytuvlarga, bu dod-fiq'onga, bu nolalarga chidamasdi. Shunda u giyrandidan yig'lamaslikni iltimos qilgan. Giyrandi esa atayin avjga chiqqan. Natijada uni yig'idan to'xtatish uchun ko'proq haq berilgan. Maqolda arzimagan haq yevaziga yig'lovchini chaqirish, ammo uning jum bo'lishi uchun katta pul berish voqeasi aks etgan. Shunday qilib, maqollar mazmuni ularning o'zi va tabiatini kabi sirli olamga egadir.

Xalq og'zaki ijodidagi maqollar janri tarixiy hayot davomida son va mazmun jihatdan boyish xususiyatiga ega. Ya'ni maqollar zamon o'tishi bilan iste'moldan chiqishi va ayni paytda yangi-yangi namunalari vujudga kelishi mumkin.

Xalq maqollari shakl va mazmun jihatdan matallarga yaqin janr hisoblanadi. Matallar ham ixcham matnga ega ekanligi bilan maqolga o'xshaydi. Matal, odatda, notiq nutqi tarkibiy qismini tashkil etadi, ammo mustaqil qo'llanganda tugal fikr anglatmaydi. Masalan, xalqimizda "Yaxshi gap bilan ilon inidan, yomon gap bilan qilich qinidan chiqar" degan maqol bor. Agar maqolning yarim matnini "Falonchi ilon inidan chiqadigan qilib gapirdi" tarzida qo'llasak, biz matal aytgan bo'lamiz va "Falonchi yaxshi gapirdi" ma'nosini bildiramiz. Chunki "ilon inidan chiqadigan" so'z birikmasi alohida aytilsa, mustaqil ma'no anglatmaydi. Ma'lum bo'ladiki, matal

shaxs nutqini go'zallashtirish uchun xizmat qilar ekan, xolos. Maqol esa mataldan mustaqil ma'no ifodalay olish xususiyati bilan farqlanadi.

Topishmoqlar – xalq zukkoligi va topqirligi mahsuli. Xalq og'zaki ijodining yana bir turi topishmoqlar bo'lib, topishmoqlar hajmi va shakliga ko'ra maqollarga o'xshaydi. Ba'zan mazmuniga ko'ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Janning nomlanishiga e'tibor bering. "Top" so'zining talaffuz etilishidanoq o'yla, axtar, solishtir, izla ma'nolari yetakchilik qiladi. Unga "ish" qo'shimchasi qo'shilganda, vazifa aniqlashadi: "-moq" harakat nomi qo'shimchasidan keyin "qo'lingdan kelsa", "eplasang", "uddalay olsang" tushunchalari ifodalanadi. Topishmoqlarning quyidagi janr xususiyatlari bor:

1. Hajm jihatdan qisqa va ixcham.
2. Shaklan she'riy, nasriy ko'rinishga ega.
3. Yaratilish maqsadida matnda yashiringan narsani topish vazifasi qo'yiladi.
4. Mazmunida hayvonot, o'simlik, koinot, maishiy hayotdagi narsalarning xususiyatlari yashirin tarzda ifodalanadi, uni topishga da'vat etiladi.
5. Topilishi lozim bo'lgan narsa, ko'pincha, bitta, ba'zan ikki va undan ortiq miqdorga ega bo'ladi.
6. Topishmoqlarda qo'llangan asosiy badiiy san'at istiora (metafora) hisoblanadi.

Topishmoqlarda topilishi lozim bo'lgan narsaning shakli, hajmi, rangi, vazifasi va shu kabi xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi, ammo bu belgilarni istiora san'atidan foydalilanigan holda boshqa narsa bilan bog'lanadi. Masalan:

Qopcha, Qopcha ichida uncha,

Uncha ichida ustuncha.

Bu mantda yashiringan narsaning uchta belgisi uchta istiora vositasida berilgan. Demak, uning shakli qopga, ichidagi qismi unga o'xshatilmoqda. Faqat un o'rtaida ustuni ham bor ekan. Topishmoqni topayotgan odam matnda jiyda haqida gap ketayotganini topsa, fikriy musobaqada eng gan bo'ladi. Ko'pincha, yashiringan narsaning faqat ko'rinishi, xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi, lekin hech narsaning nomi qayd etilmaydi. Bunday vaziyatlarda izlovchi shaxs faqat o'zi bilgan narsalarga xos belgilarni eslab yechimni topishi mumkin.

Og'zi ola alomat,

Ichi qizil qiyomat,

Suv sepsam, quruq chiqar,

Yo alhazar, salomat:

Bu topishmoqda “alomat”, “qiyomat”, “salomat” so‘zлari asosan qofiya hosil qilish uchun keltirilganini bilishimiz kerak. Endi yashiringan narsaning og‘zi borligiga, bu og‘izning ko‘rinishi ola ekaniga, ichi qizilligiga, uning ichida suv sepiladigan narsa bo‘lishiga diqqat qilamiz. Suv sepsag-u u narsa quruq chiqsa, demak “qizil qiyomat” olov bo‘lishi mumkin. Shundan so‘ng nimaning ichida olov bo‘lishini esga olamiz. Va yashiringan narsa tandir ekanini topamiz. Ammo baribir topishmoqning javobini topish oson emas. Topishmoqni topish uchun uning yaratilishida muallif bo‘lgan noma’lum shaxsdek fikr yuritish usulini izlash kerak. Agar har bir topishmoqning zaminida muayyan fikriy kashfiyat yotishini nazarda tutsak, uni topadigan shaxs ham aynan shu yangilikni boshqa yo‘l bilan kashf qilishi kerak bo‘ladi. Binobarin, u ham muallif hayot tajribasiga, kuzatish nuqtai nazariga, fikr yuritish yo‘nalishiga ega bo‘lishi lozimligi sabab juda murakkab tarzda mulohaza yuritish jarayonini boshidan kechiradi.

Topishmoqlardagi savollar tizimi xususiyatlarni sanash tarzda amalga oshirilar ekan, hayratomuz qarama-qarshi mulohazalarga duch kelamiz. Masalan: “Qo‘lsiz, oyoqsiz eshik ochar”, “U yoqqa o‘tdim – bildingmi, Bu yoqqa o‘tdim – bildingmi, Oq quvrayning boshini, chertib o‘tdim – bildingmi?” topishmoqlarida hayron qolishga majbur qiladigan muammolar juda ko‘pga o‘xshaydi. Xususan, bizni qanday qilib qo‘l bo‘lmasa, oyoq bo‘lmasa eshik ochish mumkin, axir eshik o‘zi nima bilan ochiladi? – degan savol o‘ylantiradi. Ikkinci namunada esa nahotki u yoqdan bu yoqqa o‘tgan narsani men sezmasligim mumkin? U narsaga oq quvray – cho‘l-dashtda o‘sadigan yovvoyi o‘tning nima aloqasi bor? Yoki nega chertadi, uzmaydi yoki boshqa narsa qilmaydi, - degan savollar qiyinaydi. Bu savollarga javob topish uchun biz savol bergen odamning fikr yuritish usulidan foydalanishimiz lozim bo‘ladi. Shundagina har ikki savolning javobi shamol ekanini topamiz. Ammo masalaning og‘irligi shundaki, ba’zi topishmoqlarda bayon qilingan ta‘rifdan foydalanib qanday yo‘nalishda mulohaza yuritish lozimligini aniqlay olmaymiz. Quyidagi matnga diqqat qiling:

Bir yarim quyon,

Uch tulki,

To‘qqiz sigir,

Besh echki,
O'n ikki tuya,
O'n yilqi.

Bu topishmoqda odamning hayolini raqamlar egallaydi. Nega quyon bir yarim yoki tuya o'n ikki bo'lishi kerak, deb o'ylaymiz. Keyin raqamlarni qo'shib biror natijaga erishmoqchi bo'lamiz. Aslini olganda esa , muammo oyni aniqlash bilan yechiladi. Ya'ni quyon bir yarim, tulki uch, sigir to'qqiz, echki besh, tuya o'n ikki, yilqi o'n oyda tug'adi. Biz chorva, mol boqish bilan shug'ullangan bo'lsak, topishmoqni topish osonroq kechadi. Juda bo'limganda qayd qilingan hayvonlarning necha oyda tug'ishini bilib olamiz.

Topishmoqning paydo bo'lishi haqida folklorshunoslikda aniq daliliy ma'lumotlar yo'q. Ayrim olimlar uning qadimiy ekanini qayd qiladilar. Ammo maqollar namunalari ko'plab keltirilgan "Devonu lug'otit turk" asarida topishmoq matni uchramaydi. "Tabzug" so'zi topishmoq ma'nosini ifodalashi aytildi xolos. Topishmoq hajman, shaklan maqolga o'xshaganligi uchun bu ikki janrning vujudga kelish vaqt ham bir xil bo'lishi kerak, degan taxmin bildirilgan. Shu o'rinda quyidagi ikki holatga diqqatni qaratish maqsadga muvofiq:

1. Ayoz ertagida Ayoz bir cholni yo'lida uchratib: Ota, uzoq yo'lni yaqin qilib ketaylik, - deydi. Bir ozdan keyin:

- Ota, ot bo'lmasa ham toy minib ketaylik, - deydi. Ammo bu safar ham chol indamaydi. Cholning qizi keyinroq otasiga Ayozning avval gaplashib ketaylik deganini, keyingi murojaatida cholga hassa yasab bermoqchi bo'lganini tushuntiradi.

Qiz otasiga ikki pul berib uch xil yeydigan narsa olib kelishini iltimos qiladi. Arzimagan pulga uch xil yeydigan ovqatni yana Ayoz topib beradi. Bu narsa handalak bo'lib chiqadi. Handalakning etini qiz bilan chol, po'chog'ini echki, urug'ini tovuq yeydi.

Qiz qo'shni kampirdan chuchvarani zikh joylab, ustiga yog' quyib, patir bilan yopib Ayozga olib borib berishni iltimos qiladi. Shunda kampir Ayozga: "Havo qorong'i, yulduz zikh, oy butun", - deyishi kerak edi. Ammo kampir yo'lida chuchvara va patirdan yeydi, yog'dan ichadi, ammo qiz buyurgan gapni aniq aytadi. Yuborilgan narsalarni egan Ayoz kampirga: "Havo yorug', yulduzlar siyrak, oy yarimta", - ekan deng, - deydi. Ayozning javobidan qiz yo'lida kampirning dasturxonagini narsalardan yeganini anglaydi.

2.“Oychinor” dostonida yosh Oychinorga uylanmoqchi bo‘lgan Nazarboydan qiz qalin evaziga “O’nta qo‘zi, yigirmata bo‘ri, o‘ttizta arslon, qirqa qoplon, ellikta ayg‘ir, oltmis beshta axta, saksonta sarka, to‘qsonta taxta...” talab qiladi. Bo‘ri, arslon, qoplonni topishga qurbi yetmagan boy doston qahramonlaridan biri – Boburdan yordam so‘raydi. Nazarboy Boburga bir beva xotinga uylanmoqchi ekanini aytadi. Shunda Bobur boyning gaplarini mulohaza qilib, unga yolg‘on gapirganini, uylanmoqchi bo‘lgan ayoli beva emas, qiz ekanini aytadi. O‘z fikrini isbotlash uchun yigit o‘n yoshida qo‘ziday, yigirmada bo‘riday, o‘ttizida arslonday, qirqa qoplonday, elliqida ayg‘irday, oltmis beshda axtaday, saksonida sarkaday, to‘qsonida taxtaday bo‘lishini misollar bilan isbotlaydi. Shundan keyin Nazarboy cholligini ham, qiz bola Oychinorga uylanmoqchi bo‘lganini ham tan oladi.

Yuqoridagi ikki misol topishmoqlarning paydo bo‘lishi haqidagi taxminlarga ma’lum darajada aniqlik kiritadi. Ya’ni, topishmoqlar dastlab ertak, doston yoki yana qaysidir janrlar tarkibida vujudga kelgan. Keyinroq ana shu janr tarkibidan ajralib chiqib, alohida – mustaqil asarlar sifatida xalq og‘zaki ijodidan o‘rin olgan.

Matnlardagi istiora san’ati qo‘llangan toy, oy, yulduz, qo‘zi, bo‘ri, qoplon kabilar jumboqli muammoni yechuvchi vosita sifatida foydalanilgan. Muhimi shundaki, ertak va dostondagi topishmoqnamo fikrlar keyinchalik topishmoqlar alohida janr bo‘lib yashay boshlaganda ham ularning yaratilishida asos vazifasini bajargan. Xususan, biron topishmoqning yaratilishi uchun topilishi lozim bo‘lgan narsa – predmetlarning xususiyatlari yetakchi ma’lumot beruvchi omil bo‘lgan.

Topishmoqlarning yaratilishida topilishi lozim bo‘lgan narsa bir qator xususiyatlari bilan boshqa narsaga o‘xshatiladi. Bu xususiyatlarni quyidagicha belgilash mumkin bo‘ladi:

1.Yashiringan narsaning tashqi qiyofasi. Uning hajmi, shakli, ko‘rinishi asos qilib olinadi.

Uzun terak yiqildi,
Uchi mening qo‘limda.
Zag‘izg‘oni sayradi,
Sochi mening qo‘limda.

Demak, topilishi lozim bo‘lgan narsa daraxtdan yasalar ekan. Uning bo‘yi ham balandgina terakni eslatadi. “Zag‘izg‘oni sayradi”, ma’lum bo‘ldiki, undan ovoz chiqadi. “Sochi mening qo‘limda” deyilgandan sochni eslatuvchi narsa ham uning

tarkibiy qismini tashkil etadi. Natijada, topishmoqni topish uchun uning yog‘ochdan yasalganini, bo‘yi-basti borligini, ovoz chiqishini, uning simi borligini bilib oldik. Ozgina fikr yuritsak, narsaning musiqa asbobi ekanini, xususan, tanbur, dutor, rubob, g‘ijjak haqida gap ketayotganini anglaymiz.

2. Topishmoq matnida rang haqida ma’lumot beriladi. “Ko‘k kosani to‘ntardim”, “Ko‘k sandig‘im ochildi, ichidan zar sochildi” topishmoqlarida osmon, quyosh haqida flirk yuritilmoxda.

“Qora uyda ming chiroq, uyni yoritmas” (Tunda osmondagi yulduzlar). “Qora tuyam qochyapti, qumolog‘in sochyapti” (Qora bulut va do‘l).

3. Topmoqchi bo‘lgan narsamizning tuzilishi, tarkibi yuzasidan ma’lumot beriladi:

“Oltindir,

Bu tolning o‘n ikki shoxi bor.

Har shoxida to‘rttadan uya bor,

Har uyada yettitadan tuxum bor.

Har tuxumning yarmi qoradir, ko‘rsang,

Yarmi oppoqdir topgan bo‘lsang” (Yil, o‘n ikki oy, hafta, kun, kecha, kunduz).

“Tom ustida bir palak,

Unda o‘n ikki handalak,

O‘n birini yesa bo‘lar,

Birini yemay, bo‘lar halak” (Yil, o‘n ikki oy, bir oy ro‘za).

4. Narsaning bajaradigan vazifasi ta’riflanadi. Hayotdagи asosiy belgisi harakat misolida bayon etiladi:

“Lip etadi kirib ketadi,

Chiqazolmay esing ketadi” (Tikan).

“Kunga qarab tolmaydi,

Kundan ko‘zin olmaydi” (Kungaboqar).

5. Yashiringan narsaning qiyofasi, alohida belgisi qiyoslanadi:

“Ustidagi kuylagi,

Xuddi qog‘ozga o‘xshar.

To‘g‘rasang, jahli chiqib,

Ko‘zingni darrov yoshlар” (Piyoz).

Topishmoqlarda bir narsaning bir emas, bir nechta belgilari, ikkinchi narsaga taqqoslanishi ham mumkin. Masalan: “Yer ostida oltin qoziq” topishmog‘ida sabzining shaklan qoziqqa o‘xshashi, uning rangi oltinni eslatishi va yer ostida o‘sishi uyg‘un tarzda qayd etilgan. Bunday topishmoqlami topish nisbatan osonroq amalga oshadi. Yana bir xil topishmoqlarda inkor qiluvchi ma’no yetakchi bo‘ladi:

Xo‘ppa semiz, tuki yo‘q.

Terisi qalin, tuki yo‘q”

yoki “Qoni bor, joni yo‘q” (Tarvuz).

Odatda, topishmoqlar xalq hayotining hamma sohalarini egallagani bilan ham diqqatga sazovor. Maishiy hayotdagi, ijtimoiy muhitdagi munosabatlar topishmoq mavzularida o‘z ifodasini topadi. Ko‘rpa, qulf, qozondan tortib qozi, sudxo‘rlarning kirdikorlarigacha topishmoqlarda aks yetishi mumkin. Xalq topishmoqlarini mukammal o‘rgangan Zubayda Husainova 1981 yilda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti tomonidan e’lon qilingan “Topishmoqlar” kitobidagi matnlarni tartiblashtirishda ularni yirik ikki guruhga ajratadi: “An’anaviy topishmoqlar” va “Yangi topishmoqlar”. Birinchi guruhda Osmon, yer, suv; tabiat hodisalari, yil fasli va mavsum; odam, uning a’zolari va xislatlari – jami 21 mavzu jamlanadi. Yangi topishmoqlarda elekrotexnika, radiotexnika, maktab va o‘quv qurollari – jami 9 mavzu jamlangan. Ma’lum bo‘ladiki, topishmoqlarda aks etmagan mavzuning o‘zi yo‘q ekan.

Topishmoqlar shaklan nasriy va she’riy bo‘lishi haqida aytgan edik. “Daraxt ustida langar” (anjir), “Soy ichida saksonboy” (burga), “Tog‘ ustida o‘rmon bor” (soch) kabi namunalarni nasriy topishmoqlar qatoriga qo‘shamiz.

“Uzun-uzun o‘z keldi,

Uzun bo‘yli qiz keldi.

Qoshi qaltirab keldi,

Ko‘zi yaltirab keldi” (yomg‘ir).

yoki

“Uzun-uzun iz ketdi,

Uzun bo‘yli qiz ketdi.

Toshga tegdi tarq yetdi,

Sirg‘alari yarq yetdi” (suv)

kabi namunalarni she’riy topishmoqlar deymiz.

Ma'lumki, hayotda biz munosabatda bo'lgan har bir narsa-predmet juda ko'p xususiyatlarga ega bo'ladi. Ularning rangi, ko'rinishi, vazifasi, vazni turlichadir. Shuning uchun har bir narsa haqida bir nechta topishmoq to'qish mumkin. Ayni paytda bir narsa haqidagi topishmoqda ifodalangan belgilar boshqa narsada ham mavjudligi uchun javob ham bir xil bo'lmashligi mumkin. Masalan, oddiy bir tomchi haqida topishmoqlar to'plamida 14 ta namuna keltirilgan. Agar bittasida "Tumshuqsiz chumchuq muz teshar" deyilsa, ikkinchisida "Jingila sichqon yer qazir" deyiladi, uchinchisida esa "O'tmas pichoq yer kavlari" tarzida yaratilgan. Lekin ularning hammasida bir tomchi sur'haqida fikr yuritiladi. Sur'haqida esa 19 ta topishmoq keltirilgan. Ba'zan bir narsaning xususiyatlari birma-bir sanab o'tiladi va jumboqning oson topilishi ta'minlanadi:

"Ko'l emas, daryo emas,
Ichida muzlaydi suv.
Jazirama yozda ham,
Issiq o'tkazmaydi u.
Usti boshi temirdan,
Shundan joyi to'rden" (muzlatgich).

Bunday topishmoqlarni narsa haqida to'qilgan hikoya deyishimiz mumkin. Chunki ta'rifda har bir belgi va xususiyat yerinmay bayon etiladi. Yuqorida qayd qilganimizdek, bitta topishmoqning bir nechta javobi bo'lishi ham mumkin. Masalan, "Uzun terak, ichi g'ovak". Bu topishmoqqa qamish, mo'ri, miltiq javoblarini berish xato bo'lmaydi. Yoki: "Tepdim, tepdim, terakka chiqdim"ning javobi narvon va egarlangan otga chiqish bilan izohlanadi.

Xalq qo'shiqlarining paydo bo'lishi. Xalq og'zaki ijodi janrlaridan yana biri, xalq qo'shiqlari bo'lib, bu og'zaki ijodimizdagi lirika jinsiga mansub janrdir. Bu janrning boshqa turdag'i asarlardan farq qiluvchi bosh xususiyati unda ijodkorning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari, ruhiy holatini ifodalashdan iborat. Bu o'rinda tabiiy savol tug'iladi. Boshqa janrdagi asarlarda qahramonning ruhiy holatini aks ettirish belgisi yo'qmi? Boshqa janrlardagi asarlarda asosiy yo'naliш voqeani bayon qilishdan iborat bo'ladi. Faqat ayrim o'rinnlardagina his-hayajon tasviri bilan bog'liq parchalarni uchratamiz. Bu o'rinnlarda lirik tasvir qahramon qiyofasini ochishda usul bo'lib xizmat qiladi. Xorazm dostonlari bundan istisno. Chunki xorazmlik baxshilar ijro etgan dostonlarning she'riy parchalari qo'shiq qilib aytildi va ular ham lirik jins

namunasi hisoblanadi. Xalq qo'shiqlari esa to'liq ravishda lirik ijod sifatida belgilangan. Taniqli olma, xalq qo'shiqlarining yirik tadqiqotchisi, butun umrini xalq qo'shiqlarini yozib olish, o'rghanish, nashr qilishga bag'ishlagan fidoyi inson Muzayyana Alaviya mazkur asarlarga: "...oddiy hayot hodisalari tug'dirgan hissiyotni ifodalagan, kuyga solishga qulay, qisqa, yesda qoladigan qofiya, vaznga ega bo'lgan she'r qo'shiq bo'la oladi", - deb ta'rif beradi.

Haqiqatan ham, qo'shiqning paydo bo'lishiga bosh sabab inson kayfiyatidagi chuqur iztirob yoki to'satdan paydo bo'lgan ko'tarinki ruhdir. Inson noxush damlarda ko'proq sukut saqlaydi, hayolda vaziyat yechimini topishga urinadi. Bunday daqiqalarda mungli kuy tasalli beradi, ko'ngilni bir oz bo'lsa-da yozadi. Kursandchilik onlarida esa sho'x qo'shiq, raqs hamroh bo'ladi. Ayni ana shunday manfiy va musbat holatlar shaxs qalbida lirik kechinmalarning paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi: oqibatda qo'shiqning yaratilishiga sabab bo'ladi. Xalqimizda "Kuygan – qo'shiqchi, suygan – baxshi" hikmati bejiz aytildi.

Qo'shiq haqida nazariy ma'lumot berilgan deyarli hamma adabiyotlarda uning "qo'shmoq" fe'lidan hosil bo'lgani aytildi. Qo'shiq atamasining tarixi qanchayin sodda tuyilmasini, og'zaki ijodimizdag'i bu janr juda murakkab ruhiy kechinmalarni ifodalashga xizmat qiladi. O'qilganda, yeshitilganda tushunish oson sezilgan to'rtliklar zaminida olam-olam ma'no, murakkab qismat yotadi. Shu bois har qanday qo'shiq bilan tanishganimizda tezlik bilan shoshib xulosa chiqarish to'g'ri bo'lmaydi.

Xalq og'zaki ijodidagi lirik tur hisoblangan qo'shiq quyidagi janr xususiyatlariiga ega:

1.Qo'shiqlarda inson kechinmalari, qalb izhorlari aks etadi. Shuning uchun ular lirik jinsga mansub janr deb hisoblanadi.

2.Qo'shiq shaklan she'riy ko'rinishda bo'ladi. O'zbek xalq qo'shiqlari, asosan, barmoq vaznda, ba'zan aruzda yaratiladi.

3.Ko'pincha, xalq qo'shiqlari to'rt misradan iboratdir. Go'zal ruhiy holatni ifodalash xususiyatiga ega. Ayni paytda bir necha bandlardan iborat muayyan mavzuni yorituvchi qo'shiqlar ham bor. Ba'zan 6, 8 misrali namunalar ham uchraydi. 4 misralilari a b a b; a a b b; v v g g; a a a b; a a a a tarzda qofiyalanadi.

Qo'shiqning kuyi bo'ladi. Biror asbob jo'rligida aytildi. Aksari xalq qo'shiqlari ijrosida asbob jo'rligi shart emas. Ijrochi xonish usulida qo'shiq aytishi mumkin.

Qo'shiq tarixiga bir nazar. Turkiy xalqlar tarixi avval sak, massaget, so'g'd, keyinchalik turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'iz qabilalaridan tashkil topgan mahalliy aholi o'tmishidan iborat. Bugungi kunda mazkur qabilalardan 20 dan ortiq millat vakillari ajralib chiqqan. XIV-XV asrgacha turkiylar tarkibida yashagan har bir xalq bu davrgacha yaratilgan ilmiy, madaniy xazinaga merosxo'r hisoblanadi. O'zbeklar ham ana shu bebaho ma'naviy boylikni yaratgan iqtidorli ajdodlarning avlodidir. Bu jihatdan qaraganda, xalq yaratgan qo'shiqlar tarixi ming-ming yillar bilan o'lchanadi desak, xato bo'lmaydi.

Taniqli uyg'ur olimi Turg'un Olmos 1986 yil "Qashqar-uyg'ur" nashriyotida chop etilgan "Hundlarning qisqacha tarixi" asarida miloddan oldingi 119 yil yurtning ijtimoiy vaziyati yomonlashishi oqibatida quyidagi qo'shiq to'qilganini ma'lum qiladi:

Ayrilib qolg'onda Tilav tog'idan
Avumas bo'p qoldi chorva molimiz.
Ayrilib qolg'onda Alchi tog'idan
Munglanib sarg'aydi qiz, ayolimiz .

Shubhasiz, qo'shiq matnidagi so'zlarning olim tomonidan o'quvchi qulayligi uchun o'zgartirilgan bo'lishi mumkinligini qayd qilgan holda, ajdodlar ikki ming yil avval ham hayotdagi xoh ijobjiy, xoh salbiy vaziyatlarga o'z munosabatlarini bildirishganiga ishonch hosil qilamiz. Qolaversa, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asaridagi o'nlab qo'shiqlarni olim XI asrda yozib olgan. Ammo bu namunalar olim qalamiga tushguniga qadar qadimdan xalq orasida aytilganini hech kim inkor qilolmaydi. "Devonu lug'oti-t-turk"da esa biz qahramonlik, mehnat, mavsum-marosim, lirik qo'shiqlar bilan tanishamiz va XI asr turkiy xalqlar og'zaki ijodida bu janr namunalari boy va mavzuga ko'ra xilma-xil ekanini ko'ramiz.

Filologiya fanlari doktori, professor B.Sarimsoqov "Alpomish" dostonining xalqimiz o'tmishidagi ahamiyatini ta'kidlab shunday deydi: "...o'zbek xalqi eposi ham ko'pgina xalqlar eposlari bosib o'tgan uchta taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tib, bizgacha yetib keldi. Birinchi bosqichda – qahramonlik, ikkinchi bosqichda – romantik, uchinchi bosqichda esa tarixiy epos tiplari vujudga keldi. Qahramonlik eposi patriarxal – urug'chilik munosabatlarining yemirilishi natijasida muayyan elat va xalqning vujudga kelishini badiiy tafakkur nuqtai nazardan asoslab, o'zining suyjeti asosidagi voqealarni real etnik birliklar hayotidagi ulkan voqealardan oladi".

E'tibor bering. Olim qahramonlik eposini elat va xalqning vujudga kelishini badiiy tafakkur nuqtai nazardan asoslovchi omil ekaniga diqqatni qaratmoqda. Ikkinchisi masala epos syujetidagi asosiy voqealar real etnik birliklar hayotidagi ulkan voqelardan olinishini qayd etishdir. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, mazkur "ulkan voqealar" eposga asos bo'lguniga qadar xalq qo'shiqlarining yaratilishini taqozo etgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida bugungi kunda xalq repertuaridan mutlaqo o'chib ketgan o'nlab qahramonlik qo'shiqlaridan namunalar keltirilgan. Abdurauf Fitrat o'zining "Eng eski turk adabiyoti namunalari" kitobida bu qo'shiqlarni mavzu jihatdan ajratib tasnif qiladi. Namunalar qatorida shunday to'rtlik bor:

Qo'zi qiyqirib o'g'ush tirdim.

Yog'i qaru kirish qo'rdim.

To'qush ichra urush berdim.

Aran ko'rib bashi tig'di.

Mazmuni:

Tog' tepasidan tubanga qarab qichqirdim,

Qabilamni to'pladim.

Yov tomon sakrab yugurdim-da yoyimni

Kirishladim (otishga tayyorladim. – muallif.)

Maydong'a kirib urush ochdim.

Yov botirlari meni ko'rgach, boshlarining

O'tkurligi ketdi (boshlarini ko'tarolmay qoldilar).

Yuqorida keltirilgan to'rtlik mazmunini to'ldiruvchi o'nlab misollar Fitrat kitobidan o'rinni olgan. Agar qadimgi qo'shiqlarda lirik yo'nalish bilan bir qatorda yepik mazmun ham ifodalanishi mumkinligini nazarda tutsak, "Devon" dagi ko'plab parchalarni ma'lum syujet chizig'iga joylashtirish mumkin bo'ladi. Ularda dushman ustidan g'alaba qozonishning sirlari, raqibni avval do'q-po'pisa bilan ruhan yengib olish usullari, uni g'aflat uyqusida ekanida to'satdan mag'lub qilish taktikasi, g'alaba osonlikcha qo'lga kiritilmasligi, kiritilganda esa butun xalq yayrashi hikoya qilinadi.

Xalqimizning mehnat qilishi, chorvachilik, dehqonchilik, turli kasb-hunar bilan shug'ullanishi qanchalar qadimiy bo'lsa, qo'shiqning yaratilishi ham shunchalar tarixiyidir.

Hayotning barcha sohalarida faoliyat bilan shug'ullangan ajdodlarimiz mashaqqatli va zerikarli mehnat jarayonining samarasini oshirish maqsadida maxsus kasb-hunarlari bilan bog'liq qo'shiqlar ijod qilganlar, kuylaganlar.

Xalqimizda mavsum, marosim, bayram so'zлari bilan ifodalangan tushunchalar bor. Ular haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun bu so'zlarning ma'no ifodalash chegarasini belgilash zarur. "Mavsum" deganda, asosan, yil fasllari nazarda tutiladi. Binobarin, mavsum qo'shiqlari qish, bahor, yoz, kuz fasllari bilan bog'liq bo'ladi. Marosim esa diniy yoki an'anaviy urf-odatlar munosabati bilan o'tkaziladigan tadbir, yig'in demakdir. U bayram umumxalq shodiyonasi, tantana kun ma'nosini ifodalaydi. Ma'lum bo'ladiki, «marosim» tushunchasi "bayram" so'zi ifodalagan ma'nodan kengligi bilan farq qilar ekan. Chunki marosim bir shaxs hayotidagi muhim voqeа bilan bog'lanishi mumkin. Bu tadbir oila chegarasi bilan cheklanadi. Bayramda esa umumxalq ishtiroki bo'lishi lozim. To'g'ri, biz, ko'pincha, "bayram marosimi" birikmasini qo'llashimiz mumkin, ammo bu holatda gap oilaviy marosim haqida emasligi ta'kidlanadi.

Dunyoda bironta xalq yo'qliki, turli munosabatlар bilan ommaviy bayramlarni nishonlamasin. Bayramlar butun xalq tayyorgarligi bilan o'tkaziladi. Katta shodiyonalar rejalashtiriladi. Maxsus taomlar pishiriladi, bayram liboslari tikiladi, o'yin-kulgilar, sayillar, tomoshalar, musobaqalar uyushtiriladi. Shuning uchun milliy bayramlar tizimida xalq tarixi, milliy xususiyatlar haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bu tasavvurlarni oilaviy, muayyan hudud aholisi o'rtaqidagi marosimlar, qolaversa, milliy urf-odatlar to'ldiradi, mukammallashtiradi.

Olimlarning ma'lumot berishlaricha, mavsum-marosimga oid tadbirlar, xalq ommaviy bayramlarining tarixi minglab yillar bilan o'chanar ekan. Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" kitobida "Navro'z", "Ramush og'am", "Boboxvora" kabi o'ndan ortiq bayramlar xususida ma'lumot beriladi. Xalqimiz bugungi kunda mavsum-marosim, bayram va udumlarni o'tkazishning uzoq qadimiyalarini qayta tiklamoqda, ularni tashkil qilishda mukammal rejalar bilan ish olib bormoqda.

O'zbek xalq marosim qo'shiqlari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, fol'klorshunos olima Muzayyana Alaviyaning "O'zbek xalq marosim qo'shiqlari", filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqovning "O'zbek marosim fol'klori", filologiya fanlari doktori, professor Mamatqul Jo'raevning

“O’zbek mavsumiy marosim fol’klor”, olim Nasriddin Nazarovning “Laqaylar: etnografiya, lingvistika va fol’klor” asarlarida chuqur ilmiy asosda tahlil etilgan.

Xalqimiz har bir faslning o’ziga xos fazilatlarini ta’rif etgan, qish, bahor, yoz, kuz fasllarida tabiatda ro’y beradigan o’zgarishlarni qo’shiqlarda lirik tarzda ifodalagan. Xususan, qish faslida “Sherda” nomi bilan atalgan gap-gashtak, ulfatchilikda:

Qor yog’mayin ola bo’lgan tog’lar-a,
G’unchasidan xazon bo’lgan bog’lar-a,
Kuyistonda kuyib o’tgan bedilxon,
Ustida qag’illab o’tgan g’ozlar-a,
Begim allayor, allayor

qo’shig’i ulfatlarning jo’raboshisini saylashda aytilgan. Bahorda turna, boychechak, sumalak, shox moylash qo’shiqlarini aytish odat bo’lgan:

Adirlar to’la chechak,
Biz keldik ucha-ucha,
Boychechagim, boychechak,
Kutib oling, hoy chechak.

Xalq odatlariga ko’ra o’tkaziladigan shamol to’xtatish, shamol chaqirish, oblo baraka kabi yozgi marosimlarda o’ziga xos qo’shiqlar aytilgan:

Choy momo, choy, choy, choy,
Chayilib qolsin quv shamol,
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin quv shamol.

O’zbekistonda kuzning fayzi alohida qayd qilinadi. Hosil yig’ish, qovun sayli, to’kinlik xalqqa mammuniyat bag’ishlaydi. Bu faslning ham o’z qo’shiqlari mashhur:

Qovun-qovunlar dedim,
Mazali qovunlar dedim,
Yey shirinnovvot dedim,
Gurvak qovunlar dedim.

Xalqimizda marosimlar juda ko’p. Yil quruq kelib, bahorda yomg’ir yog’masa, “Yomg’ir chaqirish” marosimi (“Sust xotin”); bug’doy, sholi boshoqlari etilgan paytda shamol ularni payxon qilsa, “Shamol to’xtatish” (Choy momo); don mahsulotlarini shopirish vaqtida shamol bo’lmasa, “Shamol chaqirish” («Yo,

Haydar»); yil sovuq kelsa, omad yuz o'girsa, qurbanlik keltirish marosimlari o'tkazilgan. Ayniqsa, oilaviy marosimlarda: to'y va azalarda qo'shiqlar mehmon va mezbonlarning, mayit egasining doimiy hamrohiga aylangan. To'ylardagi yor-yorlar, o'lan aytishlar, kelin salomlar xalq poetik ijodining mumtoz namunalari bo'lib qolgan. Hayot tajribasi oilaviy turmush totuvlikdan boshlansa, mehr yetakchi bo'lsa, keyingi hayot ham inoqlikda o'tishini tasdiqlagan. Shuning uchun kuyov-kelin ko'nglini bir-biriga yaqin qilish orzusi qayta-qayta tilga olinadi:

Shoyi ko'yak eng iga
Tut qoqaylik yor-yor,
Kelin-kuyov ko'ngliga
O't yoqaylik yor-yor.

Xalq qo'shiqlarini yozib olish tajribasi shuni ko'rsatadi, yor-yorlar xalq orasida boshqa mazmundagi qo'shiqlardan kengroq ommalashgandir. Yaqin ellik yil atrofida o'tkazgan fol'klor yekspeditsiyalari davomida O'zbekistonning ko'p viloyatlarida bo'ldik. Janubiy Qozog'istondagi Chimkent, Turkiston hududlari, Tojikistonning Xo'jand, Isfara, Konibodom atrofi, Turkmanistondagi Ko'hna Urganch manzillarida yashayotgan o'zbeklar hamisha fol'klor amaliyotchilarini yor-yorlar bilan siylashgan. Ma'lumki, og'zaki ijoddagi qo'shiq o'zining tez fursatda, ba'zan badihago'ylik – improvizatsiya usulida yaratilishi bilan boshqa janrlardan farq qiladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, shoirlik iste'dodiga ega bo'lgan yor-yor ijrochisi to'y vaziyatiga qarab yangi-yangi to'rtliklarni to'qib ketavergan. Natijada, aynan to'y o'tkazilayotgan payt qo'shiq matnida foto tasvirdek aks yetib qolgan:

Qish kunida sovuq yeb,
Horib keldik yor-yor,
Achchiq-tirsiq kerakmas,
Koyib keldik yor-yor.

Albatta, hayot ijtimoiy tuzum, siyosiy sharoitlar taqozosi bilan doimiy ravishda o'zgarib borgan. Turmushga chiqayotgan qiz o'z turmush o'rtog'ini faqat go'shangadagina ko'rishi mumkin bo'lgan zamonlar o'tdi. Ba'zan davlatmand odamlarning ikkinchi, uchinchi, hatto to'rtinchi xotini bo'lish taqdirda yozilgan qizlar ham bo'lgan. Bunday qismat ifodasi yor-yorda aks yetmasligi mumkin emasdi:

Uzoqqa borgan qizning
Rangi sariq yor-yor,

Ko'zidan oqqan yoshi
Misli ariq yor-yor.
Tokchadagi qaychini
Zang bosibdi yor-yor,
Yangi tushgan kelinni
G'am bosibdi yor-yor.

Turmushga chiqqan kelinning dardi, alami bilan g'am bosgani tokchada ishlatilmay qolgan qaychining zang bosishiga qiyoslanmoqda. Bunday tasvir vositasi fol'klorshunoslikda parallelizm deb nomlangan bo'lib, ikki yonma-yon narsaning o'xshashligini taqozo etadi.

Yor-yor matnlari mehnat va mavsum qo'shiqlaridan qofiyalanishidagi mukammallik bilan ajralib turadi. Jumladan, yor-yorlarda "baxt", "taxt"; "omon", "sonom", "alvon", "polvon" kabi chiroqli qofiyali misollarni uchratamiz. Bu qo'shiq turlari ba'zan olti, ko'pincha yetti bo'g'indan iborat bo'ladi. Turoq tizimi 4+3; 5+2 tarzida belgilanadi. Qofiyalanish shakli a b, b a yoki a b, v b tarzida shakllangan. Masalan:

Qat-qat ko'rpa ustida,
Piyolaman yor-yor.
Yorga salom bergani,
Uyolaman yor-yor.

Kelin salomlar ham to'y qo'shiqlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. An'anaviy kelin salomlar matnida Allohg'a, Muhammad payg'ambarimiz (s.a.v)ga, chahoryorlarga, avliyo va anbiyolarga murojaat qilish alohida o'ringa ega. Agar xalq qo'shiqlarining boshqa turlarini ko'pchilik bo'lib ijro qilish mumkin bo'lsa, kelin salomlar, asosan, bitta chechan qo'shiqchi, ba'zan ikkita ayol tomonidan ijro qilingan. Odatda, kelin salom aytuvchi ijrochi mazkur marosimga fayz kiritishi yoki, aksincha, qizita olmasdan uyatga qolishi kuzatiladi. Shuning uchun ijrochi butun tajribasini, mahoratini, xonandalik san'atini to'liq namoyish qilishga urinadi. Atrofdagi qatnashchilar ruhiyatini ko'tarish uchun yumor unsurlaridan foydalanadi. Kelin salomlar aksari uch misradan iboratdir. Shundan ikkitasi fikr ifodalash maqsadini nazarda tutsa, uchinchisi naqarot sifatida takrorlanadi:

Ko'yylaklari yamoqli,
Yopgan noni sanoqli,

Qaynonasiga salom.

Muhimi, bunday kulgili mazmundagi misralar marosim ishtirokchilari tomonidan hazil ma'nosida tushunilgan.

Ma'lumki, inson hayoti faqat bayramlardan, xursandchilik, sayillar, to'y-tomoshalardan iborat emas. Hayotda ko'ngilsiz voqealar ham ro'y berib turadi. Ularning eng musibatlisi o'limdir. O'zbek xalqi o'lim marosimida ham qo'shiq aytgan. Qadimda maxsus giryandi (giyrandi)lar yig'lash marosimlarini qo'shiq aytib o'tkazganlar. Bunday qo'shiqlarni marsiyalar deb atashgan.

Marsiyalarning asosiy vazifasi hayotdan ko'z yumgan shaxsning fazilatlarini esga olish, ro'y bergan musibatga munosabat bildirishdir. Shuning uchun ota, ona, aka, uka, opa, singil, bola kabi qarindosh-urug'lik belgilari marsiyalarda alohida tilga olinadi. Marsiya matnlarida o'kinch, hasrat ifodasi alohida o'rinn tutadi. Aytib yig'layotgan shaxs marhumga "suyangan tog", "ishongan bog", "osmondag'i yulduz", "hayotdagi yorug' yulduz" istioralarini qo'llaydi. Farzandning ota-onasiga xizmat qila olmagani, aka va ukaning qadriga yetmagani, ayniqsa, farzandining orzu-havasini, uylanganini yoki kelin bo'lganini ko'ra olmagani o'ta ta'sirli so'zlar bilan bildiriladi:

Aytmay desam bo'lmaydi,
Dog'ingiz oti qo'ymaydi,
Ishongan bog'im, voy otam,
Suyangan tog'im, voy otam.

Yoki:

Hovlimdag'i giyoh bo'ling, voy onam,
Har kun sizni iskayin, voy onam,
Yana qaytib bino bo'ling, voy onam,
Doim sizni eslayin, voy onam.

Marsiya matnlarini o'rganish ularning she'riy texnika jihatdan u qadar mukammal emasligini ko'rsatmoqda. Bo'g'inlar sonining mos emasligi, turoq tizimiga yetarli e'tibor berilmasligi, qofiya qoidasiga rioya qilmaslik odatiy holat ekanini aytish mumkin. Bizningcha, bu turdag'i qo'shiqlarda ko'proq aytilayotgan to'rtlikning ma'nosini, kuydag'i mung yetakchi ahamiyat kasb etadi.

Xullas, lirik qo'shiqlar mohiyat nuqtai nazardan inson qalbining izhori darajasida e'zozlangan asarlar turkumini tashkil qildi.

Doston – o‘zbek folklorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biri. “Doston” so‘zi fors tilidan olingen bo‘lib, “qissa”, “hikoya”, “tarix” ma’nolarini ifodalaydi. O‘zbek badiiy adabiyotida dostonlar yaratilish usuliga ko‘ra ikki xil bo‘ladi. Birinchi turi yozma adabiyot vakillari tomonidan har bir bandi masnaviy – ikki misradan iborat, faqat she’riy shaklda yaratiladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Navoiyning “Hamsa” asaridagi beshta doston va hokazolar. Yozma adabiyotdagi dostonlar aruz vaznida yoziladi. Individual ijod mahsuli hisoblanadi. Binobarin, yozma adabiyotdagi dostonlar yakka shaxs ijodi an’analari asosida vujudga keladi.

Ikkinchisi tur dostonlar og‘zaki ijod mahsuli sifatida fol’klor an’analarga bo‘ysungan holda yaratiladi. Filologiya fanlari doktori, professor M.Saidov ta’rificha, og‘zaki ijoddagi dostonlarda she’riy va nasriy parchalardan iborat badiiy manba – matn bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, dostonning muzikasi bo‘lishi lozim (Bu o‘rinda shuni aniqlab olish kerakki, har bir alohida olingen doston uchun alohida yirik muzika asari bo‘lishi shart emas). Uchinchidan, dostonni bir kishi ijro etganligi tufayli kuylovchi do‘mbira cherta bilishi yoki qo‘biz chala bilishi zarur. To‘rtinchidan, dostonni kuylayotgan baxshi yaxshi ovozga ega bo‘lishi va qo‘shiq aytish mahoratini egallagan bo‘lishi zarur.

Xalq og‘zaki ijodidagi doston fol’klorshunos olimlarning diqqatini alohida o‘ziga jalb etgan, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi tarkibida eng ko‘p o‘rganilgan, katta munozaralarga sabab bo‘lgan, qolaversa, o‘zbek xalq og‘zaki ijodi merosini butun dunyoga ma’lum va mashhur qilgan janrdir.

Dostonni olimlar sinkretik janr deb biladilar. “Sinkretik” so‘zi yunoncha birlashgan; qism, bo‘laklarga ajralgan ma’nosini beradi . Doston haqida gap borganda, sinkretik so‘zi bu janrdagi asarlarda so‘z, musiqa, xonandalik, hofizlik, badiiy o‘qish, notiqlik, aktyorlik san’atlarining uyg‘un namoyon bo‘lishini izohlaydi. Haqiqatan ham, Bola baxshi (Qurbanazar Abdullaev), Chori baxshi Xo‘jamberdiev, Shomurod baxshi Tog‘aev, Qahhor baxshi Qodir baxshi o‘g‘li Rahimov ijrolarini bevosita ko‘rish va yeshitish jarayonida yuqorida qayd etilgan san’atlarning to‘liq go‘zallikda uyg‘unlashuvini, qo‘shimcha ravishda bu ijrochi va ijodkorlarda badiha san’ati mahorati to‘liq namoyon bo‘lganini ko‘rganmiz. Ustoz Muhammadnodir Saidovning yuqorida qo‘ygan to‘rt talabiga ko‘ra doston haqida to‘liq tasavvur hosil qilish uchun baxshining bevosita tinglovchilar doirasida tabiiy vaziyatda ijro

mahoratidan bahramand bo'lish shartini ham qo'shimcha ravishda qayd qilmoqchimiz. Bu shartning zarur ekanligi televidenie, radio, fonogrammalar orqali doston ijrosi bilan tanishish natijasida aniq seziladi. Baxshi texnik vositalar (kamera, mikrofon) guvohligidan ko'ra bevosita tinglovchilar uchun tabiiy sharoitda doston ijro etganida o'zini erkin his qiladi, badihago'lyik qobiliyatini yaxshiroq ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Baxshi doston kuylayotganida o'zining ijrosidan o'zi zavqlanadigan payt bo'ladi. Tinglovchilar baxshi mahoratidan bahra olib ehtirosli ovozlar chiqarishadi. Ana shunday holatda baxshining qaynashi ro'y beradi. Tabiiy sharoitda qaynash tezroq amalga oshadi. Undan tashqari do'mbira to'ntarish odati ham bor. Ijrochi bir oz dam olish bahonasi bilan do'mbira to'ntaradi va xonadan havo olish uchun tashqariga chiqadi. Bu vaqtida tinglovchilar o'z atagan hadyalarini to'plab do'mbira yoniga qiyiqchaga solib qo'yishadi. Bu odat ham tabiiy ijro paytida oson va qulay bajariladi. Xullas, baxshi uchun ham, tinglovchi uchun ham oddiy, samimiy, tabiiy sharoitda doston aytish ma'qul hisoblanadi.

"Doston" so'zining yana bir ma'nosini ham bilib olish kerak. Bu – el orasida gapirilmoq, kuyylanmoq, og'izga tushmoq demakdir. Demak, dostonlarda ishtirok etgan qahramonlar, bir tomondan, asardagi obraz sifatida qayd etilsa, ikkinchi tomondan, el og'ziga tushuvchi, shuhrat topuvchi inson tushunchasini ham o'zida singdirgan bo'ladi. Natijada, ayniqsa, ijobiq qahramonlarning og'izga tushishi yoki muhabbat topishi xalq pedagogikasi talablariga ham javob beradigan inson bo'lib tanilishi bilan bog'lanadi.

Shunday qilib, "Alpomish", Go'ro'g'li turkumidagi "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Malika Ayyor", "Ravshan" kabi o'nlab asarlar, "Kuntug'mish", "Rustamxon", "Oshiq G'arib va Shohsanam" kabilar xalq og'zaki ijodidagi doston janriga mansub namunalar bo'lib, asrlar davomida el qalbidan samimiy hurmatga sazovor, shuhratga erishgan durdonalardir.

Dostonni baxshilar kuylaydilar. Baxshilar esa o'z ustozlaridan maxsus dostonchilik sirlarini o'rgangan san'atkorlardir. Agar maqollarni, topishmoqlarni millatimizning istagan vakili aytishi, qo'shiqlarni har bir oshiq yoki ma'shuqa ijro yetishi mumkin bo'lsa, doston ijrosi alohida shogirdlik faoliyatini boshidan kechirgan, maxsus ta'lim ko'rghan va muayyan iqtidorga ega shaxsgagina nasib qiladi.

“Baxshi” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da to‘rt xil ma’no berishi ko‘rsatilgan: 1 – donishmand, 2 – dostonlarni kuylovchi, 3 – dam solib davolovchi tabib, 4 – Buxoro xonligida qurilish mablag‘ini nazorat qiluvchi.

Yuqoridagi to‘rt ma’nodan uchtaşı bevosita doston aytuvchi baxshilarga tegishli, desak xato bo‘lmaydi. Chunki xalq orasida baxshi bo‘lish uchun inson donishmand, aqli bo‘lishi kerak, degan fikr qayta-qayta ta’kidlanadi. Ikkinchidan, “baxshi” lug‘atda izoh berilishicha, xalq dostonlarini ijro etadi. Uchinchidan, qadim zamonlardan xalq tasavvuridagi baxshilar so‘zning mo‘jizaviy fazilatidan foydalanib kishilarni turli xastaliklardan forig‘ qiluvchi odamlar hisoblangan. Hozir va o‘tgan asrlarda baxshi davrasida ishtirok etgan odamlar doston yeshitish bilan birga dardlaridan ham qutulganlar, turmush tashvishlaridan ozod bo‘lganlar, o‘zlarini yengil sezganlar. O‘zbek fol’klorshunosligi asoschisi H.T.Zarifovning ma’lumot berishicha, baxshi mo‘g‘ulcha va buryatcha “baxsha”, “bag‘sha” so‘zlaridan olingan bo‘lib, “ustod”, “ma’rifatchi” ma’nolarida qo‘llangan. Ma’lum bo‘ladiki, baxshi xalq tomonidan cheksiz hurmatga ega, e’zoz topgan hunar egalari ekan.

Fol’klorshunoslikda baxshilarning turli nomlar bilan atalgani ham ma’lum. Xususan, yuzboshi, soqi, jirov, jirchi, oqin shular jumlasidandir. Ba’zan usta so‘zi ham qo‘llangan. Baxshilarning ustoz izidan chiqib, o‘ziga xos uslubda, badihago‘ylikdan keng foydalanuvchilari, ko‘pincha, shoir deb ham atalgan. Shuningdek, Xorazmda doston aytuvchi ayollar xalfa nomi bilan mashhurlar.

Dostonchilik maktablari. O‘zbek dostonchiligidida doston kuylash an’ansi qadimda uch yo‘nalishda rivojlangan. **Birinchidan**, Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shahrisabz, Qamay, Narpay, Sherobod, Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek-laqay dostonchilik maktablarida do‘mbira chertib yakka holda, bo‘g‘iz ovoz bilan ijro etilgan. **Ikkinchidan**, Xorazmda tor, dutor, g‘ijjak, garmon, bulamon, qo‘schnay, doira jo‘rligida ba’zan yakka, ba’zan juft holda, ochiq ovoz bilan ijro etilgan. **Uchinchidan**, Farg‘ona vodisida dutor jo‘rligida ochiq ovozda aytilgan.

Shubhasiz, o‘zbek dostonchiligidida keng tarqalgan ijro usuli do‘mbira jo‘rligida bo‘g‘izda doston aytish hisoblanadi. Baxshining bo‘g‘izda ichdan kuch bilan ovoz chiqarishi juda qadim zamonlarda shimal xalqlari afsungarları – shamanlarda mavjud edi. Demak, o‘zbek baxshilarini uzoq o‘tmish zamonlar bilan qandaydir janr yoki san’at ijrosi bog‘laydi. Ehtimol, keyinchalik bu ijro usuli baxshilar uchun an’ana bo‘lib qolgan. O‘zbek dostonchiligi mif – afsona – rivoyat – naql – ertak – doston

bosqichlaridan iborat diffuziya harakatining so'nggi bosqichida vujudga kelgan deb taxmin qilamiz. Mana shu jarayonning muayyan bosqichida ijro usuli hozirgi baxshilarimizning doston aytishlarini eslatishi mumkin bo'lgandir. Har holda bunday baxshichilik san'ati bir necha asrlik tajribaga ega ekanligi bilan boshqa ijrolardan ajralib turadi.

Filologiya fanlari doktori, professor To'ra Mirzaev ma'lumotiga ko'ra, Bulung'ur dostonchiligidagi qahramonlik dostonlarini ijro etish ko'proq amalga oshgan. Bu maktabning so'nggi vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) hisoblanadi. Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosidagi "Algomish", "Yodgor", "Yusuf bilan Ahmad", "Malikai ayyor kabi dostonlar yozib olingen. Fozil Yo'ldosh o'g'li Yo'ldosh, Qo'ldosh, Suyar shoirlarning tarbiyasini olgan. Ayniqsa, u ijro etgan "Algomish" dostoni xalq ijodidagi eng mukammal asar sifatida butun dunyo fol'klorshunos olimlari tomonidan tan olingen.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining nomi hamisha Fozil shoir qatorida juft keladi. Ergash shoir (1868-1937) Qo'rg'on maktabi vakili edi. Nurota hududining shuhrati aynan ana shu baxshi va Po'ikan shoir (1874-1941) ijodi bilan bog'liq. Bu yerda "Algomish", "Yakka Ahmad", "Kuntug'mish", "Ravshan" dostonlarini ijro qilish an'anasi keng rivojlangan edi. Fol'klorshunoslikda ayol baxshilar: Sulton kampir, Tilla kampir, shuningdek, Yodgor, Jumanbulbul, Jossoq baxshilar ijodi o'rganilgan.

Shahrisabz dostonchiligidagi Abdulla Nurali o'g'li (1874-1957), Narpay dostonchiligidagi Islom shoir Nazar o'g'li (1874-1953) ijodi alohida qayd etilgan. "Orzigel", "Sohibqiron", "Erali va Sherali" kabi dostonlar ijrosini bu maktab vakillari yuqori san'at darajasiga yetkazib kuylaganlar.

Bir baxshining ijodi butun tuman baxshichilik an'anasiaga sezilarli ta'sir o'tkazishi hayot tajribasida tasdiqlangan holdir. Masalan, bir paytalar baxshilar sulolasi bilan g'ururlangan maktablar bugungi kunda inqirozga yuz tutgan bo'lishi mumkin. Xususan, hozirgi paytda Bulung'ur, Nurota tumanlaridagi mashhur baxshilar o'z faoliyatlarini to'xtatganlar. Shu bilan birga Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi Qodir baxshi Rahimov an'anasi to'la quvvat bilan farzandlari Qahhor, Abdumurod, Bahrom timsolida davom etmoqda.

Doston ijrosida Xorazm usuli Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi an'anadan tamomila farq qiladi. Bu yerda doston ijrosi professional xonandalik yo'lida amalga oshiriladi. Baxshi doston matnini yoddan ijro etadi, shu bilan birga

do'mbira chertuvchi baxshilardan farqli ravishda dostonga yo'l-yo'lakay o'zgartirish kiritishdan o'zlarini saqlaydilar. Chunki Xorazm dostonchiligidagi doston matn, ko'pincha, xalq kitoblari turkumidagi XIX asrda chop etilgan kitoblarga asoslanadi. Matnga o'zgartish kiritish bu an'ana qoidalari bo'yicha ma'qullanmaydi. Tabiiy savol tug'iladi: u holda Xorazm baxshilarining doston aytish mahoratini qaysi mezon belgilashi mumkin? Xorazm baxshilari o'z mahoratlarini dostonni aytishda mumtoz musiqaga, dostondagagi she'riy parchalarni alohida qahramonning ariyasi darajasida kuylash bilan ko'rsatadilar. Xorazm baxshilarining ovozi mumtoz ashula aytuvchilar ovozidan deyarli farq qilmaydi. Doston musiqasi ham mumtoz san'at usuliga asoslangan. Ahmad baxshi, Bola baxshi, Qodir sozchi, Boltavoy baxshi kabi san'atkorlar ijodi Xorazmda shuhrat topgan edi.

XX asr Xorazm dostonchiligi rivoji, shubhasiz, Bola baxshi - Qurbanazar Abdullaev ijodi bilan bog'liqdir.

Xorazmda ayollarning doston aytishi ham keng tus olgan edi. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova Xorazm dostonlarini kuylashda yetuk baxshilar qatoridan munosib o'ringa ega bo'ldilar. Bu an'ana bugungi kunda ham to'liq davom etmoqda. Qalandar baxshi Normatov, Norbek Abdullaev, Zulfiya Ortikova, Nodira Bekova, Rohat Xo'janiyozovalar ustoz baxshilar va xalfalar san'atini davom ettirmoqdalar. Ayniqsa, "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Oydin", "Bozirgon" kabi dostonlar mahorat bilan ijro etilmoqda. Xalfalar esa dostondan parchalar, to'y qo'shiqlarini, lapar, yallalarini kuylashda xalqqa rohat bag'ishlamoqdalar.

Xorazm dostonlarini ijro etishda mahallyi sharotida tajribadan o'tgan tarixiy odatlar haqida baxshilardan ma'lumot olganimiz. Unga ko'ra XIX-XX asrlarda Xorazmda katta to'y bergen odam marosimga uch-to'rt guruh baxshilarni chaqirgan. Guruhlar bir-birlariga xalaqit bermaydigan masofada davra qurishgan. Tinglevchi bir guruhdan ikkinchi guruhgaga o'tib yurgan. Qaysi baxshi ma'qul bo'lsa, o'sha davrani ma'qul ko'rigan. Natijada, to'y oxirida mohir va no'noq baxshi atrofidagi tinglovchilar soniga ko'ra ajralib qolgan. E'lon qilinmagan musobaqada mag'lubiyatga uchragan baxshi o'z ustida ishlashga majbur bo'lgan. Shuningdek, Bola baxshining eslashicha, Muhammad Rahimxon Feruz xonlik paytida har yili hofiz, sozanda, baxshilarning ko'rigini o'tkazar ekan. Ko'rikdan o'ta olmagan san'atkor tinglovchilar oldida soz chalish, ashula aytish, doston kuylash huquqidani

bosqichlaridan iborat diffuziya harakatining so'nggi bosqichida vujudga kelgan deb taxmin qilamiz. Mana shu jarayonning muayyan bosqichida ijro usuli hozirgi baxshilarimizning doston aytishlarini eslatishi mumkin bo'lgandir. Har holda bunday baxshichilik san'ati bir necha asrlik tajribaga ega ekanligi bilan boshqa ijrolardan ajralib turadi.

Filologiya fanlari doktori, professor To'ra Mirzaev ma'lumotiga ko'ra, Bulung'ur dostonchiligidagi qahramonlik dostonlarini ijro etish ko'proq amalga oshgan. Bu muktabning so'nggi vakili Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) hisoblanadi. Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosidagi "Alpomish", "Yodgor", "Yusuf bilan Ahmad", "Malikai ayyor kabi dostonlar yozib olingen. Fozil Yo'ldosh o'g'li Yo'ldosh, Qo'ldosh, Suyar shoirlarning tarbiyasini olgan. Ayniqsa, u ijro etgan "Alpomish" dostoni xalq ijodidagi eng mukammal asar sifatida butun dunyo fol'klorshunos olimlari tomonidan tan olingen.

Ergash Jumanbulbul o'g'lining nomi hamisha Fozil shoir qatorida juft keladi. Ergash shoir (1868-1937) Qo'rg'on maktabi vakili edi. Nurota hududining shuhrati aynan ana shu baxshi va Po'lkan shoir (1874-1941) ijodi bilan bog'liq. Bu yerda "Alpomish", "Yakka Ahmad", "Kuntug'mish", "Ravshan" dostonlarini ijro qilish an'anasi keng rivojlangan edi. Fol'klorshunoslikda ayol baxshilar: Sulton kampir, Tilla kampir, shuningdek, Yodgor, Jumanbulbul, Jossoq baxshilar ijodi o'r ganilgan.

Shahrisabz dostonchiligidagi Abdulla Nurali o'g'li (1874-1957), Narpay dostonchiligidagi Islom shoir Nazar o'g'li (1874-1953) ijodi alohida qayd etilgan. "Orzigul", "Sohibqiron", "Erali va Sherali" kabi dostonlar ijrosini bu maktab vakillari yuqori san'at darajasiga yetkazib kuylaganlar.

Bir baxshining ijodi butun tuman baxshichilik an'anasi sezilarli ta'sir o'tkazishi hayot tajribasida tasdiqlangan holdir. Masalan, bir paytlar baxshilar sulolasi bilan g'ururlangan mакtablar bugungi kunda inqirozga yuz tutgan bo'lishi mumkin. Xususan, hozirgi paytda Bulung'ur, Nurota tumanlaridagi mashhur baxshilar o'z faoliyatlarini to'xtatganlar. Shu bilan birga Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi Qodir baxshi Rahimov an'anasi to'la quvvat bilan farzandlari Qahhor, Abdumurod, Bahrom timsolida davom etmoqda.

Doston ijrosida Xorazm usuli Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi an'anadan tamomila farq qiladi. Bu yerda doston ijrosi professional xonandalik yo'lida amalga oshiriladi. Baxshi doston matnini yoddan ijro etadi, shu bilan birga

do'mbira chertuvchi baxshilardan farqli ravishda dostonga yo'l-yo'lakay o'zgartirish kiritishdan o'zlarini saqlaydilar. Chunki Xorazm dostonchiligidagi doston matn, ko'pincha, xalq kitoblari turkumidagi XIX asrda chop etilgan kitoblarga asoslanadi. Matnga o'zgartish kiritish bu an'ana qoidalari bo'yicha ma'qullanmaydi. Tabiiy savol tug'iladi: u holda Xorazm baxshilarining doston aytish mahoratini qaysi mezon belgilashi mumkin? Xorazm baxshilar o'z mahoratlarini dostonni aytishda mumtoz musiqaga, dostondag'i she'riy parchalarni alohida qahramonning ariyasi darajasida kuylash bilan ko'rsatadilar. Xorazm baxshilarining ovozi mumtoz ashula aytuvchilar ovozidan deyarli farq qilmaydi. Doston musiqasi ham mumtoz san'at usuliga asoslangan. Ahmad baxshi, Bola baxshi, Qodir sozchi, Boltavoy baxshi kabi san'atkorlar ijodi Xorazmda shuhrat topgan edi.

XX asr Xorazm dostonchiligi rivoji, shubhasiz, Bola baxshi - Qurbanazar Abdullaev ijodi bilan bog'liqidir.

Xorazmda ayollarning doston aytishi ham keng tus olgan edi. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova Xorazm dostonlarini kuylashda yetuk baxshilar qatoridan munosib o'ringa ega bo'ldilar. Bu an'ana bugungi kunda ham to'liq davom etmoqda. Qalandar baxshi Normatov, Norbek Abdullaev, Zulfiya Ortikova, Nodira Bekova, Rohat Xo'janiyozovalar ustoz baxshilar va xalfalar san'atini davom ettirmoqdalar. Ayniqsa, "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Oshiq Oydin", "Bozirgon" kabi dostonlar mahorat bilan ijro etilmoqda. Xalfalar esa dostondan parchalar, to'y qo'shiqlarini, lapar, yallalarni kuylashda xalqqa rohat bag'ishlamoqdalar.

Xorazm dostonlarini ijro etishda mahalliy sharoitda tajribadan o'tgan tarixiy odatlar haqida baxshilardan ma'lumot olganimiz. Unga ko'ra XIX-XX asrlarda Xorazmda katta to'y bergen odam marosimga uch-to'rt guruh baxshilarni chaqirgan. Guruhlar bir-birlariga xalaqit bermaydigan masofada davra qurishgan. Tinglovchi bir guruhdan ikkinchi guruhga o'tib yurgan. Qaysi baxshi ma'qul bo'lsa, o'sha davrani ma'qul ko'rgan. Natijada, to'y oxirida mohir va no'noq baxshi atrofidagi tinglovchilar soniga ko'ra ajralib qolgan. E'lon qilinmagan musobaqada mag'lubiyatga uchragan baxshi o'z ustida ishlashga majbur bo'lgan. Shuningdek, Bola baxshining eslashicha, Muhammad Rahimxon Feruz xonlik paytida har yili hofiz, sozanda, baxshilarning ko'rigin o'tkazar ekan. Ko'rikdan o'ta olmagan san'atkor tinglovchilar oldida soz chalish, ashula aytish, doston kuylash huquqidani

mahrum qilinar ekan. Bu san'atkor keyingi ko'rikkacha muttasil mashq qilib o'zini oqlashga uringan.

1909 yilda 9-10 yashar Qurbannazarni xon huzurida doston aytishga chaqirishadi. Feruz yosh baxshidan uning ismini so'raydi. Bola ismi Qurbanazar ekanini aytganida, xon tabassum bilan: - Sening isming Qurbanazar emas, Bola baxshi, - deb unga oq fotiha bergen ekan. Shu-shu Qurbanazar Abdullaev Xorazm va Turkmanda "Bola baxshi" nomi bilan mashhur bo'lgan.

Xorazm dostonchiligin chuqur ilmiy asosda o'rgangan filologiya fanlari doktori, professor Safarboy Ro'zimboev Xorazm dostonchiligi, o'z navbatida, Shimoliy va Janubiy an'analarga bo'linishi, ularning o'zaro farqlari va baxshilar, sozchi (garmon bilan doston aytuvchi ijrochi)lar haqida qimmatli ma'lumotlarni bayon etgan .

O'zbek dostonchilik an'anasining yana bir turi Farg'ona vodiysida shakllangan. Namangan viloyatining shimoli Uychi, Yangiqo'rg'on, Chortoq atroflarida Dehqonboy Bahromov, Ikrom Rizaev, Omon baxshi Razzoqovlar ijod qilishgan. Mahalliy xalq og'zaki ijodini o'rgangan olim Abdushukur Sobirov taniqli fol'klorshunos olim Tojiboy G'oziboev bilan hamkorlikda mazkur dostonchilik an'anasini o'rganib, Qo'lbuqon, Sayram, Arikbo'y (Arikmo'yin) maktablari mavjudligini qayd etadi.

Ahmadjon Meliboev "Safed Bulon hikoyalari" kitobida Peshqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qilgan Olim baxshidan "Yozi bilan Zebo" dostonini o'n ikki varaqli o'quv daftaridan o'ntasiga yozib olib, Muzayyana Alaviyaga yuborganini ma'lum qilgan. Ammo bugungi kunda Farg'ona vodiysidagi dostonchilik an'anasida doston ijro etadigan baxshilar ijod faoliyatlarini to'xtatganlar.

Hamma o'zbek dostonchiligi an'analarida hajman cheklanish kuzatilmaydi. Madaniy merosimiz xazinasida "Bozirgon", "Sohibqironning tug'ilishi" kabi kichik asarlar va ayni paytda, "Alpomish", "Malika Ayyor"dek yirik dostonlar bor. Dostonlar hajmidagi nisbiy o'Ichov inobatga olinsa, do'mbira chertib ijro etiladigan Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryoda aytildigan dostonlar hajmi Xorazm dostonlaridan ham, Farg'ona vodiysi dostonlaridan ham kengligi bilan ajralib turadi. Hajman Farg'ona vodiysidagilar ancha kichik hisoblanadi. Doston matni she'riy va nasriy parchalardan iborat bo'ladi. Fozil Yo'ldosh o'g'li Bulung'ur tumanidan bo'lgani uchun do'mbira chertib ijro etiladigan dostonlarni

shartli ravishda Samarqand dostonchiligi deb ataymiz. Bu an' ana asarlarida she'riy va nasriy parchalar badiiy jihatdan, voqealar bayonini ifodalash, qahramonlar ruhiy holatini tasvirlash jihatdan teng hisoblanadi. Fikrimizni dalillash uchun Ergash Jumanbulbul kuylagan "Ravshan" dostonidan nasriy parcha keltiramiz: "Oq qiz shunday qiz edi: oti Oqqiz, Zulkumorga naq qiz. Oqqiz o'zi oq qiz, o'zi to'lgan sog' qiz, o'rtal bo'yli chog' qiz, o'ynagani bog' qiz, uyquchi emas, sog' qiz, eri yo'q o'zi – toq qiz, yaxshi – tekis bo'z bolani ko'rsa, esi yo'q – axmoq qiz, qora ko'z, bodomqovoq qiz, sinli – siyoq qiz, o'zi semiz – turishi yog' qiz; o'yinga qulayroq qiz, to'g'ri ishga bo'layroq qiz, o'zi anqov olayroq qiz, tanasi to'sh qo'ygan keng qiz, sag'isi do'ng qiz, urushqoq emas – jo'n qiz, a'zosi bari teng qiz..."

Bu dostondagi she'riy qismlardan biriga diqqat qiling:

Chu deb otin uradi,

Oyog'ini tiradi.

Suvsiz cho'lda G'irko'k ot

Irg'ib, sakrab boradi.

Suvsiz cho'lda mard Hasan,

Qattiq qistab boradi.

Obro' ber, deb yo'llarda,

Hasan ketib boradi.

Ba'zi o'rirlarda do'mbira chertib aytildigan dostonlarda lirik mazmundagi she'rlar ham uchraydi:

Paydo bo'ldi ikki gavhar donadan,

Parvoz qilib uchdim manzilxonadan.

O'lim uchun g'am yemayman, bo'yingdan,

Bir armonim, yolg'iz edim enamdan.

Yuqorida keltirilgan parchadan bitta maqsadni nazarda tutamiz. Mazkur an'anadagi asarlarda she'riy va nasriy parchalar badiiy jihatdan bir-biriga mutanosib turadi. Nasriy parchada qofiyalashgan nasr – ilmiy adabiyotda saj' deb ataladigan usul qo'llangan. "Oqqiz, naq qiz, sog' qiz, chog' qiz, bog' qiz" kabi qator qofiyalarning qo'llanishi, matnda kulgili lavhalarning yaratilishi baxshi mahorati darajasini ko'rsatish bilan izohlanadi. She'riy o'rirlarda voqealar rivoji, sodir bo'layotgan hodisalar bayoni bilan tanishdik. Otning, Hasanning suvsiz cho'lda shiddat bilan ketishiga guvoh bo'ldik. Keyingi to'rtlikda esa qahramon his-tug'usi

ifodalanganini ko'rdik. Ma'lum bo'ladiki, Qadimgi Bulung'ur, Nur ota hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo dostonchiligidagi she'r va nasr shaklidagi parchalar badiiy jihatdan teng turadi. Badiiy mukammallik har ikki shaklga xos fazilat sifatida belgilanaveradi.

Bu fikri Xorazm dostonlariga nisbatan ayta olmaymiz. Chunki "Oshiq G'arib", "Oshiq Alband", "Kampir", "Bozirgon" dostonlaridagi voqealar rivoji faqat nasriy parchalar zimmasiga yuklatilgan. Agar o'quvchi dostonning mazmuni bilangina tanishish maqsadini o'z oldiga qo'ysa, dostondagi nasriy parchalarni o'qish kifoyadir. She'rda esa asar qahramonlarining ruhiy holati, ichki kechinmalari ifodasini topadi. "Oshiq G'arib va Shohsanam" dostonida Shohsanam kanizlaridan uyalib o'z holini shunday bildiradi:

To dunyodan ko'z yummayin,
Qayg'udan judo bo'lurmu?
Go'zal yorning firoqinda
O'lmaklik ravo bo'lurmu.

Nasrda quyidagilarni o'qiyimiz: "Andin so'ng Shohsanamning ahvolini eshitib, Aqcha sadoqatli bo'lib, mahram libosini kiyib Shirvon, Shemoxa ketti. Necha kunlar yurib Shirvon, Shemoxa yetti". Bu an'ana hamma Xorazm dostonlariga xos hisoblanadi. She'riy parchalarda lirik ehtiros aks etadi. Nasr esa dostondagi voqeani bayon etish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun nasr badiiy mukammallik bilan ajralmaydi. Agar Xorazm dostonlaridagi she'riy parchalar alohida musiqa jo'rлигida aytılıshını nazarda tutsak, bir doston o'ziga xos qo'shiq kontsertidan iborat bo'lib qoladi. Baxshining doston voqeasi haqidagi hikoya esa kontsertring o'ziga xosligini ta'minlovchi bir belgi, xolos.

Endi Namangan dostonchiligi an'anasisiga oid "Zamonbek"dan olingan parchaga diqqat qiling: "Go'ro'g'li yigitlarining g'ayrati kelib, o'tday tutashib, Srodmom polvon degan yigit Mamaniyoz orqasidan quvib turgan joyi ekan:

Ko'ring Shodmon polvon ishini,
Uni-buni deganiga qo'y maydi.
Ko'p yigit bir aylanib kelganda,
Mamaniyoz bir ag'darib tashlaydi".

Nasr va she'rdan iborat parcha mazmunidan ko'rinib turibdiki, Farg'ona vodiysisidagi Namangan dostonchiligidagi nasr va nazmnining badiiy vazifasida farq yo'q

ekan. Har ikkala shaklda ham voqeа rivoji, doston mazmunidagi lavhalar tasviri ifodasini topaveradi.

Yuqorida misollar bilan ko'rsatilgan uch an'ana haqida tasavvur paydo bo'lganidan so'ng o'zbek dostonchiligi, uning xalq og'zaki ijodi merosida tutgan o'mi yuzasidan to'liq tushunchaga ega bo'lamiz. Eng muhimi, do'mbirka ijob etiladigan va Xorazm, Farg'ona vodiysidagi an'alarini birlashtirib turgan umumiylig, dostonchilikda she'riy va nasriy parchalar birikuvidan epik asarlar paydo bo'lgani bilan izohlanadi.

Xorazm dostonlarini o'rganish tajribasi har bir baxshi ijodiga alohida-alohida yondashish lozimligini tasdiqlamoqda. Doston ijrosi qaysi an'ana, qaysi maktabga taalluqli ekanidan qat'i nazar doston ijrosiga bo'lgan munosabatni baxshining mahorati, sozandalik darajasi, aktyorligi, ovozi belgilaydi. 1970 yilda Xorazm televideniesi taklifi bilan Bola baxshi ijodiga bag'ishlangan ko'rsatuv taskil etdik. Stsenariy loyihasi bo'yicha Qurbanazar ota Abdullaev yoshligidan doston aytib xalq orasida shuhrat topgani ko'rsatilishi lozim edi. Biz Bola baxshining o'miga uning farzandlarini "yosh Bola baxshi" deb ekranda ko'rsatdik. Ammo "Mani yorim bog' saylina galarmish" qo'shig'i ijrosi rejissyorga ma'qul bo'lmadi. Uch-to'rt marta takrorlangandan so'ng o'g'lidan ko'ngli to'lmagan Bola baxshining o'zi: "Men aytib beraymi?" – deb doston ijrosini namoyish qildi.

Avvalo, tor ovozi tamornan jarangdor edi. Baxshining yuzi to'liq harakatda edi, ko'zları o'ynardi, qoshları bir balandda, bir pastda qoqlardı. Burun, mo'ylov, lab shunchalar jozibali ko'rinish kasb etdiki, butun studiya bu tomoshani ko'rgani yig'ildi. Ustiga ustak, bir payt baxshi qo'lidagi soz tepaga uchib ketdi. Soz usuli buzilmagan holda yana qo'lga qaytdi. 70 yoshdan o'tgan Qurbanazar ota: "Mening yorim bog' saylina galarmish" – deganida, studiyadagilarning hammasi o'zini Oshiq G'arib deb his qildi. Dekabr oyining oxirgi kuntari bo'lishiga qaramay shu zahoti tashqariga chiqib, gul terish havasida yondilar. Baxshilar bilan bunday muloqot umr bo'yi esda turishi tabiiydir.

2009 yil yanvar oyida O'zbekiston Milliy universitetining Jurnalistika, O'zbek filologiyasi fakulteti talabalari O'zbekiston Xalq baxshisi Qahhor baxshi Rahimov, 2010 yilda O'zbekiston Xalq baxshisi Shomurod baxshi Tog'aev bilan amaliy mashg'ulot – uchrashuv o'tkazdi. Baxshilarning sahnadagi chiqishlari butun

tinglovchilarni lol qoldirdi. Soz, ovoz, badiha, mahorat, baxshining o‘zi doston degan mo‘jizaviy san‘atning sehri ekaniga hamma ishonch hosil qildi.

Dostonlar tasnifi. O‘zbek dostonchiligi ijro usuliga ko‘ra xilma-xil ko‘rinishga ega ekanini ko‘rib chiqdik. Taniqli olimlar V.M.Jirmunskiy, H.T.Zarifov, M.Saidov, T.Mirzaev, B.Sarimsoqovning o‘rganish natijalariga ko‘ra dostonlar mazmunan ham maqol, ertak , qo‘sishq singari turlarga bo‘linadi. Olimlarimiz tasniflarda farqlar borligini qayd qilgan holda, umuman, dostonlarni mazmunan quyidagi turlarga bo‘lishni ma’qul hisoblaymiz:

1. Qahramonlik dostonlari (“Alpomish”).
2. Ishqiy-romanik dostonlar (“Ravshan”, “Kuntug‘mish”).
3. Jangnomma dostonlari (“Yakka Ahmad”).
4. Kitobiy dostonlar (“Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Sayyod va Hamro”).
5. Tarixiy dostonlar (“Oysuluv”).

Yuqoridaagi tasnifning asosini dostonlarda tasvirlangan voqealarning mohiyati belgilaydi. Avvalo, sevgi-muhabbat, qahramonlik, sarguzasht, jang lavhalari aks etmagan dostonlarning o‘zi yo‘q. Qaysi dostonni eshitmang yoki o‘qimang, albatta, asar qahramoni mardligi, jasorati bilan bizda hurmat qozonadi. Albatta, u kimnidir sevadi va uzoq safarga otlanadi. Ammo shunga qaramay, asarning umumiy mazmuni zaminida muayyan mavzu yetakchi hisoblanadi. Masalan, “Alpomish” dostonini olaylik. Doston farzandsizlik motivi bilan boshlanadi. Lekin aynan shu motiv “Kuntug‘mish”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Tohir va Zuhra” dostonlarida ham bor. “Alpomish”da Hakimbek Qalmoq yurtiga ko‘chib ketgan Barchinni olish uchun safarga otlanadi. Safar motivi “Ravshan”, “Kuntug‘mish” dostonida ham bor. “Nigor va Zamon” dostonidagi safar ma’shuqani olib kelishga bag‘ishlanmasa ham, Hasan podshohning Nigor qizini uzatishga roziligidagi G‘irotni olib kelish sharti bilan bog‘lanadi. Demak, safar ham dostonlarda ko‘p uchraydi. Ammo “Alpomish” dostonida Barchinga uylanish maqsadi Hakimbek safarida yetakchidek tuyilgani bilan asosiy masala Boysari bosh bo‘lgan va Qo‘ng‘irotdan ko‘chgan aholini o‘z yurtiga qaytarishdan iborat edi. Bu esa xalqni birlashtirish, yurt mustaqilligini ta’minlashdan iborat qahramonlik eposining asosiy belgilardan hisoblanadi. Shuning uchun olimlar dostondagи muhabbat, jang, safar motivlarini inkor qilmagan holda “Alpomish”ni qahramonlik asari sifatida e’tirof etishgan. Keyingi paytlarda “Malika

Ayyor”, “Chambil qamali” kabi dostonlarda ham qaharamonlik motivi yetakchi ekanligi ko’rsatilayotgan ilmiy asarlar ham borligini ta’kidlash joiz.

Shuningdek, “Ravshan” dostonida ham jang lavhalari bor. Ravshan bir lavhada sevgi deb vatanidan kechadigan nomard emasligini aytadi va mardligini dalillaydi. Ammo dostondagи yetakchi masala baribir uning Zulkumor ishqidagi sarguzashtlari bilan bog’liq. Shu bois bu asarni ishqiy-romanik turga mansub berish ma’qul.

Qahramonlik eposi xalq og’zaki ijodi tarixida fol’klorshunoslik nuqtai nazaridan alohida bosqich sifatida baholanadi. Yunonlardagi “Odisseya” va “Iliada” asarları bu jihatdan qayta-qayta ta’kidlangan. Qirg’iz xalq ijodidagi “Manas”ga ham shunday baho berish mumkin. Bunday asarlarda qahramonlik va favqulodda mardlik ko’rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarları, son va kuch jihatdan ustun turgan dushman bilan olishuvlari aks etadi. O’zbeklarda qahramonlik eposiga “Algomish” dostoni misol bo’ladi. Unda yurtimizdagи milliy an’analarning shakllanishi, tashqi dushmanqa qarshi kurash, xalq birligini saqlash, mustaqil hayotni muhofaza qilish g’oyalari o’z ifodasini topgan.

Xalqimiz baxshilari repertuaridagi dostonlarning salmoqli qismi sevgi-romanik turga mansubdir. “Roman” so’zi frantsuz tilidan olingen bo’lib, eposning bir turi ma’nosini bildiradi. Keyinchalik badiiy adabiyotda roman janr sifatida ajralib rivojlandi. Yendi sevgi-sarguzasht voqealari, yetakchi asarlar bu nom bilan ataldi. Xalq ijodida sevgi-romanik atamasi bilan atalgan doston deganda, asosan, muhabbat bilan aloqador sarguzashtlar aks etgan asarlar nazarda tutiladi. Ularda voqeа tuguni oshiqning ma’shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Keyinchalik qahramon ishqiy sarguzashtlariga boy safarga otlanadi. Bu yo’lda baxshi kashfiyotlariga boy lavhalar o’ylab topiladi. Masalan, Islom shoir ijrosidagi “Nigor va Zamon” dostonida yigit va qiz bir-biriga ko’ngil qo’yadi. Ammo qizning otasi Zamondan Go’ro’g’lining G’irotni olib kelib berishni talab qiladi. Baxshi Zamon sarguzashtida devlar bilan olishuv, palakqush, Go’ro’g’lining jang qilish san’atlarini mahorat bilan doston syujetiga singdirib yuboradi. Tur jihatdan dostonni sevgi-romanik deb atashdan boshqa iloj yo’q. Ammo asosiy yo’nalish ko’proq safar sarguzashtlaridan iboratdir. “Ravshan”, “Kuntug’mish” esa mazkur dostonlar turining go’zal namunalari sifatida tan olingen.

Jangnomal dostonlarida jang lavhalari tasviriga e’tibor qaratiladi.

Baxshilar bunday dostonlarni nisbatan kam ijro etganlar. Hayratli janglar tasviri, asar qahramonlarining botirliklari baxshi tomonidan fantastik talqinda ifodalanadi. "Yusuf bilan Ahmad", "Alibek bilan Bolibek", "Qirq ming" kabi epos namunalari shular jumlasidandir.

Xalq kitoblari. XVIII asr oxiri XIX asrda yozma va og'zaki adabiyotlar ijodiy hamkorligi mahsuli sifatida yangi bir yo'nalishdagi dostonlar paydo bo'la boshladи. Ularda xalq og'zaki ijodidagi cheklanmagan fantastik tasvirlar va yozma adabiyotdagi individual tasvir uyg'unlashgan edi. Adabiyotshunoslikda badiiy ijodning bu namunalari xalq kitoblari nomi bilan o'rghanildi. Yozma adabiyot vakillari tomonidan yaratilgan dostonlardagi qiziqarli va ibratli voqealar bilan tanishgan baxshilar ularga suyangan holda o'z nusxa (variant)larini yaratdilar. Shu bois xalq kitoblari ko'proq fol'klorshunoslik tomonidan tahlil etildi. "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Sayyod va Hamro", "Vomiq va Uzro" dostonlari shu tarzda vujudga keldi va o'rghanildi. Xorazm dostonchiligi, asosan, xalq kitoblarini yoddan ijro qilish zaminida shakllandi.

Tarixiy dostonlar. Xalq og'zaki ijodidagi qo'shiq, ertak janrlarida tarixiy voqealar o'z ifodasini topgani kabi dostonlarda ham o'tmish muhrlangan asarlar bor. Bunday asarlar fol'klorshunoslikda tarixiy dostonlar deb yuritiladi. Qizig'i shundaki, tarixiy dostonlarning mumtoz namunasi "Oysuluv" yurtimizda ikki yarim ming yil oldin ro'y bergen mustaqillik uchun olib borilgan kurashning badiiy ifodasi bo'lib chiqdi.

Gerodotning "Tarix" kitobidagi To'maris voqeasi "Oysuluv" dostonidagiga juda o'xshaydi. To'g'risini aytsak, agar "To'maris" haqidagi rivoyat matni saqlanmaganida "Oysuluv"ning yaratilishida tarixiy voqeas asos bo'lganini aniqlash juda mushkul kechardi. Taniqli olimlar T.Mirzaev va B.Sarimsoqov "Oysuluv" dostonining vujudga kelishida To'maris nomi bilan mashhur tarix asos bo'lganini ilmiy dalillab bergenlar Tarixiy dostonlar repertuari keyinchalik yaratilgan "Tulumbiy", "Shayboniyxon", "Oychinor" kabi asarlar bilan boyidi. XX asr boshlarida esa "Namoz", "Mamatkarim polvon", "Jizzax qo'zg'aloni" kabi dostonlar paydo bo'ldi.

Shunday qilib, dostonlar og'zaki ijod merosidagi murakkab janr hisoblanadi. Ularda xalqning xalq sifatida shakllanish jarayonidan tortib, tarixiy hayoti, rasm-rusumlari, odatlari, ijtimoiy hayot haqidagi falsafiy qarashlari keng ko'lama aks

etgan. Baxshilar o‘z ijrolari bilan bevosita xalq ommasining estetik saviyasini oshirishga hissa qo‘shdilar. Xalq pedagogikasining talabalarini keng ommaga ma’lum qilib bordilar. O‘zbek dostonlari ijro an’anasiga ko‘ra xilma-xilligi, mavzulari rang-barangligi bilan shuhrat topdi.

Xalq epik ijodining shoh asarları dostonlar misolida o‘zbek millatining jahon xalqlari ma’naviy va madaniy xazinasiga qo’shgan munosib hissasi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Mazkur merosni o‘rganishda H.Zarifov, M.Alaviya, M.Afzalov, T.G’oziboev, O.Sobirov, Z.Husainova, M.Saidov, J.Qobulniyozov, M.Murodov, B.Sarimsoqov, A.Qahhorov kabi marhum olimlar va T.Mirzaev boshchiligidagi bugungi kunda tinimsiz izlanish olib borayotgan S.Ro‘zimboev, O.Safarov, A.Musaqulov, M.Jo‘raev, U.Jumanazarov, Sh.Turdimov, J.Eshonqul, A.Ergashev kabi tadqiqotchilar xalq oldidagi burchlarini ado etish yo‘lida xizmat qilmoqdalar.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Xalq og‘zaki ijodi, xalq maqollari, xalq topishmoqlari, fol’klor, xalq qo‘shiqlari, xalq dostonlari, eposlar.

Mavzuni o‘zlashtirish yuzasidan savollar:

1. Xalq maqollarining janr xususiyatlarini sanang, ularning har birini izohlab, misollar bilan dalillang.
2. Xalq maqollarining boyish manbalariga izoh bering.
3. Maqollarning badiiy mukammalligi haqida qanday mulohazalarga egasiz.
4. Topishmoqlarning maqollarga o‘xhash va farqli jihatlarini aniqlang.
5. Topishmoqlarning janr xususiyatlarini sanang va izohlang.
6. Topishmoqlarning hayot bilan munosabati haqida so‘zlang, ularning tarbiyaviy ahamiyatini toping.
7. Topishmoqlarda qanday badiiy tasvir vositalari qo‘llanadi?
8. Xalq qo‘shiqlari shu muddatgacha o‘rganilgan boshqa janrlardan qaysi xususiyati bilan ajralib turadi?
9. Xalq qo‘shiqlarining tasnifi qanday asoslanadi?
10. Mehnat qo‘shiqlari haqida so‘zlang.
11. Mavsum-marosim qo‘shiqlarining xos xususiyatlarini aytинг.
12. Dostonning boshqa janr asarlaridan farqini aytинг.
13. Mustaqil ravishda doston haqidagi to‘liq tasavvur omillarini sanang.

14. Dostonchilik an'analari, maktablari, mashhur baxshilar haqida nimalar bilasiz?

7-§. Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqlarning o'rni

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixida teatrning o'rni. Qadimgi

Yunonistonda teatr rivoji. Xalq og'zaki ijodining yana bir serqirra san'at turi – xalq teatridir. Bu fol'klor turining paydo bulishi ovchilik, dehqonchilik, xalq bayram va boshqa ommaviy marosimlar bilan bog'liqdir. Bu janrlar hozirgi kunimizgacha taraqqiy etib kelib, o'zining mavqeい bilan xalq san'ati darajasiga ko'tarilgan.

Agarda biz teatrning paydo bo'lishi tarixiga bir nazar solsak, u dastlabki davrlarda so'z bilan bir qatorda qo'shiq, raqs, musiqa, akrobatika, masxarabozlik va nayrangbozlik, qo'g'irchoq o'yini va boshqa ko'rinishlar xususida aralash bo'lган. Keyinchalik jamiyat taraqqiyoti davomida ijrochi aktyorlar ma'lum sohalar bo'yicha mutaxassislasha borib, teatr mustaqil san'at sifatida ajralib chiqqan.

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixini antik teatsriz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'lumki, antik teatr mazmunan xalq hayoti, uning taqdiri bilan bog'liq ulug'vor g'oyalar teatri sifatida dunyoga kelgan yedi. Qadimgi Yunonistonda Esxil, Sofokl, Yevripid, Aristofan, Rimda Plavt va Senekalar yangi sahnaviy shakllar, umumlashgan falsafiy, teran badiiy obrazlar orqali el-yurtni jo'shqin sevish, qadrlash e'tiqodlarini tarannum etdilar. Antik dunyodan bizga badiiy ijodning tragediya, komediya janrlariga oid benihoya go'zal, badiiy yuksak adabiy namunalar yetib keldi.

Qadimgi Yunon madaniyatidagi teatr sohasida tragediya, komediya janrlari paydo bo'lishi muhim voqeа hisoblanadi. Yunon teatri qishloq xo'jaligi homisiyo bo'lган Dionis sharafiga o'tkaziladigan bayramlar vaqtida ijro etiladigan xalq qo'shiqlari va o'yinlari asosida vujudga kelgan. Dionis bayramlari toklar, daraxtlar barg chiqqargan bahorda va kuzda o'tkazilgan. "Tragediyalar otasi" Yesxil (525-458 y.) 90 dan ortiq tragediya yozgan. Yesxil o'z tragediyalarida afsonaviy voqealardan foydalangan bo'lsa, ularda o'z davrining muhim masalalari keng o'rin tutgan. Masalan, halok bo'lib borayotgan matriarxat bilan patriarxat o'rtaсидagi ziddiyatlar masalasiga bag'ishlangan "Oresteя" trilogiyasi: "Agamemnon", "Xoeforlar" va "Avmenida" asarlaridan iborat. Uning eng mashhur tragediyalari bo'lsa "Zanjirband Prometey" va "Forslar" dir. "Zanjirband Prometey" asari insonning kuch-qudrati, irodasi buyukligi timsolidir.

Yana bir buyuk tragediya shoirlaridan biri Sofokl (469-406) bo'lib, u 120 dan ortiq tragediyalar yozgan. Ulardan bizgacha yettiasi yetib kelgan, xalos. Afina teatrida dastlab qo'yilgan "Antigona", "Shoh Edip" asarlari unga shon-shuhrat keltirgan.

Tragediya janri bilan birqalikda komediya janri ham vujudga kelib, rivojlanadi. Komediya janrining otasi Aristofan (450-388) bo'lib, uning asarlarida sodda, tushunarli, xalq tilida yozilgan va hayotning muhim masalalari, jumladan, tinchlik muammosi aks ettirilgan. Jumladan, uning "Tinchlik", "Ayollar xalq yig'inida", "Suvoriyalar" asarlari o'z davrida mashhur bo'lgan.

Ma'naviy madaniyat sohasida rimliklar yunon madaniyatining vorislari hisoblanardilar. Ko'plab yunon xudolari nomlari o'zgartirilgan. Chunonchi, Zevs-Yupiterga, Kronos-Saturnga, Poseydon-Neptunga, Afrodita-Venera, Artemida-Dianaga, Afina-Minervaga aylangan manbalardir.

Yunon adabiyoti ta'sirida bir qator shoirlar va dramaturglar paydo bo'ladi. Ular ichida Plavt va Terentsiyarning komediyalari hozirga qadar yetib kelgan. Liviy Andronik Gomerning "Odisseya"sinı lotin tiliga tarjima qilgan. Bu davr shoirlaridan Lutsiliy turmush mavzulari bo'yicha she'rler yozib, o'ta boylik orqasidan quvuvchi xasislar ustidan kulgan.

Bugungi Yevropa tasviriy san'at va me'morligi, teatri va adabiyoti, falsafasi va estetikasi antik dunyoga suyanadi. Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, O'zbekiston xalqlari ham ellenlar madaniyati va san'atidan bahramand bo'lganlar. Buni O'zbekiston tuproqidan topilgan va topilayotgan grek madaniyati va sanatiga oid yoki ular ta'sirida yaratilgan madaniyat yodgorliklarida ko'rish mumkin.

O'zbek teatri tarixiga bir nazar. XX asr o'zbek teatri madaniyatimiz tarixida ro'y bergan noyob hodisadir. 1914-yili Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pe'sasi bilan o'z pardasini ochgan o'zbek teatri ikki-uch o'n yillik ichida har bir xalq g'ururlansa arzilik teatr sifatida maydonga chiqdi.

O'zbek teatri jadidchilik harakatining mevasi — ma'rifiy teatr sifatida tug'ilgan edi.

Birinchi o'zbek ijodiy jamoasi bo'lmish "Turon" gruppasining "Nizom"ida "Teatrning bosh maqsadi a) aholi o'rtasida sahna ishlari va xayriyaga jiddiy munosabatni rivojlantirish, b) xalq uchun spektakl ko'rsatish, unga sog'lom tomosha berish..." deb uqtirilgan edi. Sahna ishini tashkil etgan va uni xalq orasida keng

yoygan Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy singari atoqli ma'rifatparvarning sa'y-harakati bilan bu teatr tez orada xalq madaniy hayotining tarkibiy qismiga aylandi. Sanoqli bir necha yil davomida o'ttizga yaqin pe'sa yaratildi, aktyorlik va rejissorlik san'atining tub tamoyillariga asos solindi.

Jadid teatri va dramaturgiyasining muhim xususiyati – uning oila hayotini tasvirlash bilan inson qalbiga kirib borish, uni ma'rifiy tarbiyalash va shu orqali jamiyat hayotida avj olib borayotgan milliy uyg'onish g'oyalarini tarannum etishda ko'ringan edi.

Jadid ma'rifatparvarlari yoqqan ma'rifat mash'ali qariyb 1930-yillarga qadar yangi g'oya va intilishlar bilan teatr hamda dramaturgiyaga kirib kelgan ahli san'at yo'llarini yoritib turdi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek teatri milliy mahdudlik qobig'ida o'ralashib qolmay, balki o'z taraqqiyoti yo'lida jahon teatri tajribasini o'zlashtirib bordi. "Turon" gruppasida boshlangan o'zga xalqlar dramaturgiyasini sahnalaشتirish tajribasi keyinroq, o'zbek sahnasiga Shiller, Gogol, Shekspir singari dramaturglar asarlarining kirib kelishi bilan davom ettirildi. O'zbek aktyorlarini 1924-1927-yillari Boku teatr texnikumi va M.Uyg'ur, Cho'lpox rahbarligida Moskva teatr studiyasida tahsil ko'rganliklari ularning kasbiy darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb yetdi. Moskvadagi ta'lim davri rus teatrda turlicha uslubiy yo'nalishlar, izlanishlar avj olgan davrga to'g'ri kelgan edi. O'zbek aktyorlari bu shov-shuvli teatr hayotini astoydil kuzatadilar, o'rganadilar. Lekin shunisi e'tiborliki, ularga taqlid qilish, uslublarini ko'r-ko'rona qabul qilish yo'lidan bormaydilar. Cho'lpox "Meperxold teatri degan maqolasida, masalan, 1920-yillarda Moskva teatri hayotining yalovbardoriga aylangan bu rejissoring shon-shuhratni haqida ilhom bilan qalam tebratgan bo'lsa-da, lekin biron joyda unga ergashish, undan andoza olish fikrini olg'a surmaydi. "Bu teatrning soddaligi biz uchun kerak. Ko'pchilikka yaqin kelishi biz uchun lozim. Bizning xalq teatri unsurlaridan ba'zilari bu teatrda bor". Ya'ni ulug' shoир chet ta'sirlarga nisbatan sezgir, hushyor turishga da'vat yetib, faqat o'zbek xalq teatriga xos "ba'zi unsurlar", "soddalik", "ko'pchilikka yaqinlik" jihatlarini olish mumkinligi g'oyasini olg'a surgan.

Bu o'zbek teatrining dastlabki davrdanoq o'z milliyligini asrash yo'lida qat'iy turganligidan guvohlik beradi. Bir jihatdan, bu ajablanarli emas. Sababi, taqdirlarini teatr va dramaturgiya bilan bog'lashga ahd qilgan kishilar eski maktab, madrasa

ko'rgan, mumtoz adabiyot, musiqa, xalq teatri ta'sirida bu nafosat olamiga chinakam milliy teatr san'atini barpo etish ezgu istagi bilan kirib kelgan zotlar edi. O'zbek teatrining asoschilari, xususan, atoqli rejissor va teatr arbobi Mannon Uyg'ur o'z atrofiga eng iste'dodli dramaturg va san'atkorlarni uyuştirib, ular bilan ilhombaxsh izlanishlar olib borar ekan, xalqimizning boy ma'naviyatiga mushtarak keladigan zamonaviy teatr barpo etish yo'lidan borgan edi.

O'zbek teatrining tug'ilganiga o'n yil bo'lmayoq Abdurauf Fitratning "Chin sevish", "Abulfayzxon", Cho'lpionning "Yorqinoy", Hamza Hakimzodaning komediya va dramalarining yaratilishi, eng qimmatlisi, bu asarlarni ovrupacha drama estetikasi talablari darajasida bo'lishi shu izlanishlarning mantiqiy natijalari edi.

Musiqali dramadek murakkab sintetik san'at janrining paydo bo'lishi ham o'zbek xalqining benihoya boy badiiy merosga egaligi va shu merosni zamonaviy teatr tiliga ko'chira oluvchi sohibi talantlar borligi bilan bog'liq yedi. Dastlab kichik musiqlari sahnalar tarzida ko'ringan bu janr G'ulom Zafariyning "Halima", Xurshidning "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" asarlarining yaratilishi bilan o'zbek teatrida alohida san'at yo'nalishi tarzida taraqqiy topdi. Ta'kidlash lozimki, o'tmishda bu "folklor janr, o'tkinchi, opera san'atiga o'tishda ko'prik vositasi xolos" degan fikr-mulohazalar musiqlari drama yo'liga qanchalik to'siq bo'lmashin, u rivojlanishda davom etaverdi. Ham sof drama, ham musiqlari drama asarlarini sahnalashtirishga qaratilgan "Musiqali drama va komediya teatri" deb atalgan viloyat teatrlari drama borasida hozirgi Milliy akademik drama teatridan, musiqlari drama sohasida 1930-yillarda Respublika musiqa teatri, keyin Muqimiy nomidagi musiqa teatri tajribalariga suyandi va har biri san'atimiz xazinasiga ulush bo'lib qo'shilgan badiiy-estetik qadriyatlarni yaratdi.

Chet elliklar Shekspirning "Hamlet", "Otello" kabi asarlarining o'zbek aktyorlari tomonidan yuqori darajada mujassam etilishidan hayratga tushib so'z ochar ekanlar, buning asosiy sabablaridan biri, bu spektakllarning bilan bir boshqa teatrlar postanovkasiga o'xshamasligi, ya'ni ularda Shekspir g'oyalariga mushtarak tarzda o'zbekona dunyoqarash va badiiy qadriyatlarning ifoda etilishida deb bilish mumkin. Keng ko'lamba avj olgan shunday ijodiy jarayonlardan so'ng Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Olim Xo'jaev. Sora Yeshonto'raeva kabi o'nlab yuqori iqtidorli drama ustalari va Lutfixonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroev, Mahmudjon G'ofurov singari ko'plab musiqlari drama ustalarining yetishib chiqishi o'zbek teatrining

boshdanoq mustahkam zaminga evrilib, so'ng jahon teatri tajribalarini ijodiy o'zlashtirgan holda jadal taraqqiy topishining tabiiy mahsuli ekani o'z-o'zidan ayon bo'ladi.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov O'zbek Daviat akademik drama teatrining ochilishi marosimida (2002-yilning 30-avgustida) so'zlagan nutqida: Necha yillar davomida o'zining beqiyos san'ati va mahorati, klassik asarlarning betakror ijrosi bilan bu teatr nafaqat milliy san'atimiz muxlislarini, balki dunyodagi manaman degan teatrlarning mashhur rejissor va aktyorlarini, ularning eng nozikta'b teatrshunos va mutaxassislarini ham hayratda qoldirgani ma'lum – deganida, mutlaqo haq edi.

O'zbek teatrining rivojlanishi davomida uni o'rganish, tadqiq etishga qaratilgan alohida ilm sohasi – teatr tanqidchiligi va teatrshunoslik fani tarkib topdi. M.Uyg'ur nomidagi San'at institutidan oliv malakali teatrshunos kadrlarning yetishib chiqishi bilan, 1950-yillardan e'tiboran o'zbek teatrining o'tmishi va zamonaviy jarayonini ilmiy o'rganishda yangi davr boshlandi. O'zbek teatrining alohida davrlari, aktyorlik, rejissorlik san'ati muammolari, aktyor va rejissyorlarning ijodiy yo'llari haqida o'nlab monografiyalar, kitoblar chop etildi. Akademik M. Rahmonovning ikki jilddan iborat Hamza nomli O'zbek Davlat akademik drama teatri tarixi (2001-y.), Istiqlol va milliy teatr (2001-y.) maqolalar to'plami, M. Qodirovning "Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar" (1993-y.), Sh. Rizaevning "Jadid dramasi" (1997-y.), T.Islornovning "Tarix va sahna" (1998-y.), T.Tursunovning "O'zbek teatri tarixi" (2002-y.) dasturiy qo'llanmasi teatrshunoslik ilmining keyingi yillar mahsuli hisoblanadi.

"Milliy teatrımız tarixini chuqur anglash" haqida so'z borayotgan ekan, teatrshunoslik fani oldida uning ayrim muammolari bo'yicha ilmiy monografiyalar qatori darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Taassufki, hozirga qadar oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlardan talabalari uchun mo'ljallangan qo'llanmalar yaratilganicha yo'q.

O'zbek milliy teatr san'atining yaratilishi va rivojlanishi uzoq asrlarga kelib taqaladi. Akademik Mamajon Rahmonov o'zining ilmiy izlanishlarida O'rta Osiyoda aynan, yurtimizda teatr elementlari eramizdan oldin III-I asrlarda dunyoga kelganligini isbotlab bergan. Topilgan arxeologik ashyolar, xususan, sopol parchalari, ayollarning turli bezaklariga chizib qoldirilgan suratlarda tragediyalarning

qahramonlari va voqealari ham tasvirlanganligi isbotlangan. Lekin bu dramaturgning tragik asarlari qayerda o'ynalgan va sahnalashtirilgan? Respublikamizda Yunon amfiteatriga o'xshagan binolar mavjud edimi? Surxondaryo vohasida, Termiz shahri yonida (avvalgi Oy-xonim shahri) yeramizdan avvalgi III-II asrlarda bunyod etilgan amfiteatr qoldiqlari topilgach, bu savollar oydinlashdi. Shu bilan birga, qiziqchi – masxaraboz aktyorlarning niqoblari va ularning kichkina-kichkina haykalchalar (statuetka)ning Samarqandning Afrosiyob tumanida topilganligi mamlakatimiz hududida an'anaviy xalq tomosha san'atiga asoslangan maydon tomoshalari ham mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bu san'at turi tobora rivojiana borib, asrlar davomida asta sekin o'zbek xalqining urf-odatlari, rasm-rusumlari bilan bog'lanib ketdi.

Xalqimiz tarixida qo'g'irchoqbozlik teatri keng rivojlanib kelganligi haqida teatrshunos olimlarimiz (M. Raxmonov, M. Qodirov va boshqalar) asoslashib, xalq qo'g'irchoq teatri, qo'g'irchoqlarning ko'rinishi, ularni o'ynatish sistemasiga ko'ra xilma – xil, shu bilan birga ularda ko'proq ertak, afsona va boshqalar sahnalashtirilganligi haqida ma'lumot beradilar³⁹.

Xalq teatri keng ma'noda professional bo'lmasa-da, aktyorlari malakali, iste'dodli kishilar bo'lgan. Xalq aktyorlari yolg'iz yoki guruhlarga, to'dalarga birlashib, uyushgan holda shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, to'y, sayl va boshqa ko'rinishdagi xalq ommaviy tadbirlerda biror sahnasiz ochiq maydonlarda o'z san'atlarini namoyish etganlar. Ularning repertuaridan fol'klor ga asoslangan pe'salar keyinchalik turli adabiy asarlarning xalq teatriga moslashtirilgan turli variantlari o'rin olgan.

Shunday qilib, xalq teatr san'ati fol'klor janrining tarkibiy qismi ekanligini ko'rib chiqish bilan o'tmishdagi ajdodlarimiz, xalqimizning rivojlangan etnomadaniyati asosiy o'rnlarni egallab kelganligini ko'ramiz.

Teatr san'atining masxarabozlik va qiziqchilik hamda qo'g'irchoq o'ynilaridan iborat turlari Yevropa uslubidagi teatr rivojlanishiga ham katta turki bergen. XIX asming oxiri - XX asrning boshlarida Turkiston hududiga Yevropa shaklidagi teatr kirib kela boshtagan. Ma'rifatchilar Zokirjon Furqat, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Mannon Uyg'ur, Abdurauf Fitrat, Cho'lpion va Hamza

³⁹ Qurang: Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи. Т. :1968 йил. Кодиров М. Ўзбек театри анъаналари –Т. :1976 йил.

Hakimzoda Niyoziylar yangi shakldagi teatrning asoschilaridan bo‘ldilar.

1911 yili Mahmudxo‘ja Behbudiyning (1875-1919) „Padarkush“ nomli dramasi dunyoga keldi. 1914 yilning 15 yanvarida Samarcand shahrining „Xalq uyi»da sahna yuzini ko‘rdi, so‘ngra fevral oyida Toshkentda Abdulla Avloniyning “O‘zbek teatri tarixi” “Turon” truppasida sahnalashtiriladi. Hozirgi O‘zbek Milliy akademik drama teatri aynan shu kuni dunyoga keladi.

Ushbu teatr faoliyatini rivojlantirishda va mustahkamlashda Mannon Uyg‘ur bilan bir qatorda taniqli aktyorlar Abror Hidoyatov, Ma’suma Qorieva, Sora Eshonto‘raeva, Zamira Hidoyatova, Mariya Kuznetsova, Sa’dixon Tabibullaev, Sharif Qayumov, Olim Xo‘jaev, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov va boshqa zabardast san’atkorlarning xizmatlari katta. Ular zamonaviy o‘zbek teatr san’atining poydevorini yaratdilar.

Bugungi kunda Toshkent shahri, qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda ja’mi 37 ta davlat teatri mavjud bo‘lib, ularda har yili 120-150 tagacha yangi original sahna asarlari yaratiladi. Shu jumladan, Toshkent shahrida 10 ta teatr va 1 ta "Diydor" teatr-studiysi mavjud. Shuningdek, Respublikamizda "Ilhom", "Aladin", "Turon", "Muloqot", "Eski machit" singari ko‘plab nodavlat teatr-studiyalari hamda havaskorlik jamoalari mavjud bo‘lib, ularda teatr san’atining barcha janr va yo‘nalishlarida qizg‘in ijodiy jarayon davom etmoqda.

Raqs san’ati madaniyatning o‘ziga xos, eng go‘zal turi sifatida. San’at tizimida raqs san’ati ham muhim o‘rin tutadi. Xalqimizning qadimgi san’at turlaridan hisoblangan xalq raqsi o‘zining tarixida fol’klor ijodiyotining erkin namunasi bulib xizmat qilib kelmoqda. Raqs qadim zamonlarda vujudga kelgan bo‘lib, dastavval u maishiy turmush bilan bog‘langan ov, jang, e’tiqod timsollari edi. Raqs qadimgi odamlarni birlashtirishga, uyuştirishga hissa qo‘sghan bo‘lib, uning bu xususiyatlari hozirgi kunda ham xalq raqlarida saqlanib qolgan.

Agarda biz raqs san’atining tarixiga bir nazar tashlasak, dastlabki raqlar kishilarni hayvonot va tabiat kuzatilishini aks ettirgan. Ovchilik, chovchilik bilan shug‘ullanuvchi xalqlarning raqlari yovvoyi va uy hayvonlari, qushlarni xatti – harakati, qiliqlariga taqlidan yaratilgan. Masalan, Indoneziyada – Penchak (yo‘lbars), Yoktlarda – Ayik, Pomirlarda – Burgut, Xitoy va Xindlarda – Tovus, Ruslarda – Turna, g‘ozcha raqlarni ko‘rsatish mumkin. Qishloq xo‘jalik mehnati bilan bog‘liq

bo'lgan raqslar ichida latishlarda terimchilar, guchullarda o'tin yoruvchilar, beloruslarda esa , zig'irkorlik va hokazo.

Raqs ixtisoslashgan badiiy faoliyatning nozik va murakkab ko'rinishiga, kasb-koriga aylangan bugungi kunda u san'at turlari bilan hamkorlikda amal qiladi. Raqs musiqasiz namoyon bo'la olmaydi. Musiqa raqs to'qimasidan joy olib, uning his-tuyg'uga ta'sir yetish tizimini belgilab beradi.

Raqs san'ati teatr bilan ham chambarchas bog'liq, u tomoshali teatr san'atining muhim belgilarini o'zida mujassamlashtirgan holda badiiy qiyofalar yaratadi.

Raqs uchun inson tanasining mayin-yegiluvchanligi asosiy omildir. Raqsni inson tanasining musiqaviy ifodali harakatlari san'ati, deyish mumkin. Zero, inson tanasining raqs vositasida nafis-mayin harakatini ifodalash imkoniyati uning badiiy qiyofasi, tili asosidir. Musiqa-tovushlar ohangdorligi bo'lsa, raqs-ohangdor va qoidalashgan harakatdir. U ohangli va qoidalali harakatlar vositasi orqali inson ichki dunyosini, uning eng nozik va chuqur kechinmalarini aks ettiradi. Raqsda ifoda ustun darajada namoyon bo'ladi. Tasviriy tomon unga bo'ysunadi. Tasvir raqsda imo-ishora (pantomima) ko'rinishida aks etadi. Imo-ishora san'ati mustaqil maqomga ham ega bo'lib, raqs to'qimasiga uzviy bog'lanadi. Raqsda imo-ishoraning ortiqcha o'rinni olishi raqsning estetik imkoniyatlarini, ba'zan raqs qiyofaliligini pasaytiradi.

Hunarmandchilik sohasi bilan ham yuzaga kelgan raqslar mavjud, ular ukraincha bondarg', nemischa shishapuvlovchilar, koreyslarda esa to'quvchilar va nihoyat bizning xalqimizda esa chevarlar, kashtachilar, do'ppido'zlar va boshqalar mehnat turlariga mansub bo'lgan raqslar mavjuddir.

Xalqimizda marosim raqslari ham bo'lgan. Kishilar raqsning sehr kuchiga kelishgan, natijada Tangriga sig'inish, yomon jinlarni haydash va hokazolar. Har bir xalqda o'z raqs an'analari mavjud bo'lganligi kabi o'zbek raqlarida qahramonlikni, bahodirlarning jang maydonlaridagi kurashini, qilich va kamon, nayza bilan harakatdagi holatini ko'rsatuvchi yigitlar ijrosidagi raqsimiz mavjuddir. Bunday raqslar hozirgi kunimizda ham sahna-ekranlarda namoyish etib kelinmoqda.

Raqslar o'z mazmuni va ko'rinishi bilan harakatlar bilan bog'liqdir. Masalan, bu harakatlar G'arbiy Yevropada oyoq harakatlariga asoslansa, Sharqda va Markaziy Osiyo raqslarida esa diqqat qo'l va tana harakatlariga beriladi.

O‘zbekiston da raqs san’atining ravnaq topishi bilan birga yangicha sahnaviy shakl – xalq ansamblari paydo bo‘la boshladi.

O‘zbekiston zaminida yashagan xalqlarning taqlidiy va ommaviy raqslari qadimdan mavjud bo‘lganligi haqida ham san’atshunos olimlarimizning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan⁴⁰. Biroq xotin – qizlar orasida ko‘proq yakka raqs asosiy o‘rin egallagan.

Milliy raqs san’atimizning rivojiga katta hissa qo‘sghan ustoz san’atkorlarimiz Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Tamaraxonim, Mukarama Turg‘unboeva hamda zamonomizning buyuk artisti Muhiddin Kori Yokubov boshchiligidagi va rahnamoligida tashkil topgan O‘zbek davlat kontsert – etnografik truppasi (1926 yil), birinchi o‘zbek ashula va raqs ansamblisi (1937 yil), hozirda «Shodlik» nomidagi jamoa «Baxor» raqs ansamblisi (1957 yil), «Lazgi» (1968 yil) ansamblisi va boshqalar bugungi kunda erkin va betakror raqslari bilan o‘zbek raqs san’atini butun jahonga namoyish etib kelmoqdalar.

Hozirgi zamona raqsi bir necha ko‘rinishlarga ega; xalq va bazm raqslari, sahna raqslari, akrobatik, vaznli, imo-ishorali raqslar va boshqalar. Xalq raqslari bir vaqtning o‘zida ham san’at turi, ham faoliyat turi tarzida namoyon bo‘ladilar. Sahna raqslarida ba’zan tasviriy tomon ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ovrupo raqs san’atining oliv ko‘rinishi balet raqsi hisoblanadi. Baletda raqs teatr va dramaturgiya (libretto) bilan tarkibiy birlikni tashkil qiladi. Balet bir vaqtida ham raqs turi, ham sahna asaridir. Balet badiiy qorishmaning eng murakkab xili hisoblanadi va unda musiqa hamda raqs kuchi mujassamlashgan bo‘ladi.

Ifodaligi san’at tizimida raqs san’ati ham muhim o‘rin tutadi. Raqs qadim zamonalarda vujudga kelgan bo‘lib, dastavval u maishiy turmush bilan bog‘langan ov, jang, e’tiqod timsollari yedi. Raqs qadimgi odamlarni birlashtirishga, uyushtirishga hissa qo‘sghan bo‘lib, uning bu xususiyatlari hozirgi kunda ham xalq raqslarida saqlanib qolgan.

Raqs ixtisoslashgan badiiy faoliyatning nozik va murakkab ko‘rinishiga, kasb-koriga aylangan bugungi kunda u san’at turlari bilan hakorlikda amal qiladi. Raqs musiqasiz namoyon bo‘la olmaydi. Musiqa raqs to‘qimasidan joy olib, uning his-tuyg‘uga ta’sir etish tizimini belgilab beradi.

⁴⁰ Авдеева Л.Танцевальное искусство Узбекистана. –Т.:1960.
Каримова Р. Хоразмча рақс. –Т.:1975; Бухорочча рақс. – Т.:1977.

Raqs san'ati teatr bilan ham chambarchas bog'liq, u tomoshali teatr san'atining muhim belgilarini o'zida mujassamlashirgan holda badiiy qiyofalar yaratadi.

Raqs uchun inson tanasining mayin-egiluvchanligi asosiy omildir. Raqsni inson tanasining musiqaviy ifodalari harakatlari san'ati, deyish mumkin. Zero, inson tanasining raqs vositasida nafis-mayin harakatini ifodalash imkoniyati uning badiiy qiyofasi, „tili“ asosidir. Musiqa-tovushlar ohangdorligi bo'lsa, raqs-ohangdor va qoidalashgan harakatdir. U ohangli va qoidalari harakatlar vositasi orqali inson ichki dunyosini, uning eng nozik va chuqur kechinmalarini aks ettiradi. Raqsda ifoda ustun darajada namoyon bo'ladi. Tasviriy tomon unga bo'ysunadi. Tasvir raqsda imo-ishora (pantomima) ko'rinishida aks etadi. Imo-ishora san'ati mustaqil maqomga ham ega bo'lib, raqs to'qimasiga uzviy bog'lanadi. Raqsda imo-ishoraning ortiqcha o'rin olishi raqsning estetik imkoniyatlarini, ba'zan raqs qiyofaliligini pasaytiradi.

Hozirgi zamon raqsi bir necha ko'rinishlarga ega; xalq va bazm raqlari, sahna raqlari, akrobatik, vaznli, imo-ishorali raqlar va boshqalar. Xalq raqlari bir vaqtning o'zida ham san'at turi, ham faoliyat turi tarzida namoyon bo'ladilar. Sahna raqlarida ba'zan tasviriy tomon ham alohida ahamiyat kasb etadi. Yevropa raqs san'atining oliv ko'rinishi balet raqsi hisoblanadi. Baletda raqs teatr va dramaturgiya (libretto) bilan tarkibiy birlikni tashkil qiladi. Balet bir vaqtida ham raqs turi, ham sahna asaridir. Balet badiiy qorishmaning eng murakkab xili hisoblanadi va unda musiqa hamda raqs kuchi mujassamlashgan bo'ladi.

Xalq madaniyatining takomillashib borishida teatr va raqs san'atining o'rni. Xalq madaniyatining takomillashib borishida, yosh avlodni ezgu g'oyalar asosida tarbiyalash, ularni ona Vatan va el manfaati yo'lida fidoyilik va insoniylik fazilatlari ruhida kamol toptirishda, tabiiyki, san'atning ta'sirchan vositalari – teatr va raqs san'atining ahamiyati beqiyos.

Xususan, raqs san'ati o'zbek milliy etnomadaniyatining tarkibiy qismi bo'lib o'tmishdan hozirgi kunimizgacha an'anaviy milliy xususiyatlarini saqlagan holda, ma'lum bir sifatlarda bu san'at qirralarini yanada yangicha uslub va ko'rinishlarda namoyish etib, yanada boyitib xalqimizning ma'naviy hamda madaniy merosini kelajak avlod uchun yetkazishga xizmat qilmoqda. Bizningcha, bu san'atdan bahramand bo'lмаган, umrida biror bir marotaba raqsga qo'l cho'zmagan, qomatini go'zal bir sifatga keltirishga intilmagan ixlosmand, yosh iste'dod bo'lmasa kerak.

Albatta bu niyat barchamizga mansubdir. Chunki xalqimizning biror ommaviy tadbiri, bayrami, kechasi raqs nafosatisiz o'tkazilmagan.

Shuningdek, teatr ham azal-azaldan insonlarga ma'naviy ozuqa berib kelayotgan ma'naviyat maskanidir. Chunki, dramadagi ko'tarilgan g'oya, hayotdan olingan turfa xil fe'l-atvorlar, davrning yutuq va kamchiliklari, haqiqat va e兹gulik uchun kurash, sevgi va sadoqat... Bularning hamma-hammasi, ya'ni dramaturg, rejissyor, aktyorlar mehnati bir yerga jam bo'lib, odamga ma'lum bir ma'noda ma'naviy ozuqa beradi. Teatr hech qachon o'lmaydigan soha. To'g'ri, hozir texnika va rivojlanish asri deymiz. Hoxlagan odam xohlagan kinosini istagan vaqtida ko'rish imkoniga ega. Bugungi kunda, internet orqali dunyoning xohlagan burchagi bilan bog'lanib, ma'lumot olishi, vaqtini mazmunli o'tkazishi mumkin. Ammo har narsaning o'z o'mi bor. Televizoming ham, videoning ham, internetning ham. Hech biri teatr, ya'ni aktyorlar ijrosida namoyish etiladigan sahna asarining o'mini bosa olmaydi.

Teatr davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlar haqida hikoya qiluvchi asarlarni sahnaga olib chiqishi zarur. Bunday asarlar yoshlarda nafosat tarbiyasini shakllantiradi. Shu o'rinda savol tug'iladi: Nafosat tarbiyasi o'zi nima?

Nafosat tarbiyasi- borliqdagi va san'atdagi go'zallikni tushunish, ulardan zavqlanish va uni yaratishga intilishni tarkib toptirish.

Inson har doim go'zallikka intiladi, undan ma'naviy ozuqa oladi. O'z hayotini, faoliyatini, turmush sharoitini, o'zini o'rab turgan atrof-muhitni go'zalroq bo'lishiga harakat qiladi. Bu hol o'z navbatida uning didini, nozik his-tuyg'ularini shakllantiradi.

Odamlarni o'ziga rom etuvchi go'zallik namunalari hayotning turli jahbalarida namoyon bo'lib, ularni idrok eta bilishga nafosat tarbiyasi katta xissa qo'shamdi. Shuning uchun bolaga juda yoshligidan oilada, maktabgacha tarbiya muassasalarida, ayniqla maktabdan nafosat tarbiyasi alohida e'tibor bilan beriladi.

Nafosat tarbiyasi har bir davrda, har bir xalqda turlicha bo'lsada, uni amalgalashirishning asosiy vositalari, tabiat go'zalligi, badiy ijod namunalari hamda inson shaxsiyatidagi go'zallikni sanab o'tadi. Bu vositalar bir-birini to'ldirib, boyitib beradi.

Barchasidan to'la bahramand bo'lgan kishining ma'naviy boy, yuksak didli bo'lsagina zavqli hayot kechirishi mumkin.

Tabiat o'ziga xos go'zalliklarga ega bo'lib, ma'lum qonuniyatlar asosida o'zgarib, jilolanib turadi. Yil fasllarining almashinuvi tabiatning ranglarini, shakllantirishining, xushbo'y hidlar-u, turli jonzotlarning yoqimli tovushini, inson shuuriga tortiq etadi. Ular har bir kishini beixtiyor poklik, beg'uborlik olamiga olib kiradi.

Bu san'at turlarining yoshlarga nafosat tarbiyasi berishdag'i imkoniyatlari cheksizdir. Ayrim san'at asarlarining qiymati dunyoviy boyliklarda nihoyat darajada ustun turganidek, teatr va raqs san'ati ham ham odamlarning ma'naviy boyishlarida tengi yo'q ta'sir kuchiga egadir.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar

Teatr, raqs san'ati, tragediya, komediya janrlari, yunon teatri, antik teatr, qo'shiq, raqs, musiqa, akrobatika, masxarabozlik va nayrangbozlik, qo'g'irchoq teatri, drama, ma'rifiy teatr, jadid teatri va dramaturgiyasi, musiqali drama, nafosat tarbiyasi, xalq va bazm raqlari, sahna raqlari, vaznli, imo-ishorali raqlar.

Mavzuni o'zlashtirish yuzasidan savollar:

1. Insoniyatning madaniy taraqqiyoti tarixida teatrning qanday o'mi bor?
2. Antik teatr haqida nimalarни bilasiz?
3. Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim teatrlari haqida gapirib bering...
4. Birinchi o'zbek teatri qachon paydo bo'lgan?
5. Teatr janrlari haqida nimalarни bilasiz?
6. Raqs san'atinining o'ziga xosligi nimada?
7. Xalq madaniyatining takomillashib borishida teatr va raqs san'atining o'mi qanday?
8. Nafosat tarbiyasi deganda nimani tushunasitz?

III BOB

ETNOPEDAGOGIKA VA MILLIY MA'NAVIYAT – ETNOMADANIYAT FANINING TARKIBIY QISMI

8-§. Etnopedagogika va milliy ma'naviyat

Millatning shakllanishida milliy tarbiyaning o'rni. "Millat" tushunchasi haqida fikr yuritilganda birinchi navbatda uning o'ziga xos urf-odat, an'ana, qadriyat, udum, marosimlari, kiyinish madaniyatidagi o'ziga xosliklari nazarda tutiladi. Ularning o'z zaminlariga tayangan holda boyib borishi etnomadaniyatning mustahkamlanishiga, uning ta'sirida esa millatning barqaror taraqqiy qilishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ammo, bu o'z-o'zidan sodir bo'ladigan jarayon emas, balki u ikkita omilga bog'liq bo'ladi:

Birinchisi, milliy zamindarining chuqurligi, uning ildizlarining mustahkamligi, ulardan millat vakillarining foydalanishga moyilligining kuchliligi; **Ikkinchisi**, millatning mustaqil bo'lishi, o'z etnomadaniyatni o'z ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirish imkoniyati va uni amalga oshirishda millat vakillarining aksariyat ko'pchilik qismining fidoiylik ko'rsatishi bilan bog'liq. Albatta, ular o'z-o'zidan amalga oshadigan jarayon emas, balki buning uchun milliy tarbiyani olib borish talab etiladi.

Abdulla Avloniyning millatimiz taraqqiyoti uchun vazifa qilib qo'yilgan "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" – degan fikrlari bugungi kunimiz uchun ham ahamiyati katta, uni nazariy va amaliy faoliyatimizda hisobga olishimiz lozim bo'ladi.

Milliy tarbiya bilan etnomadaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik shu darajada mustahkamki, ularni birini ikkinchisisiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Etnomadaniyat vositasida milliy tarbiyani olib borish yo'li bilan milliy o'ziga xoslikni asrash, yoshlarni tashqaridan kirib keladigan turli zararli g'oyalardan, axloqsizliklardan, "ommaviy madaniyat"dan himoya qilish mumkin, ularga milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish va milliy taraqqiyot uchun fidoiylik ruhiyatini shakllantirish mumkin bo'ladi. Bunday sharoitda, albatta etnomadaniyat vositasida milliy tarbiyani olib borishni va uni kuchaytirishni taqozo etadi.

Demak, etnomadaniyat nafaqat milliy-ma'naviy taraqqiyotning muhim omili, xuddi shuningdek, millatni tashqaridan bo'ladigan turli zararli g'oyaviy, ma'naviy va

axloqiy ta'sirlardan himoyalash omili hisoblanadi. Buning uchun esa etnomadaniyatni aholi, ayniqsa yoshlar ongi va qalbiga singdirishga yordam beradigan milliy tarbiyani izchillik bilan olib borish zarur bo'ladi.

Etnomadaniyat milliy tarbiyaning asosiy resursi hisoblanadi, uning ana shu imkoniyatlaridan qay darajada foydalanish milliy taraqqiyot istiqbolini ham belgilab beradi. Shu ma'noda ham uni asrash, rivojlantirish va keyingi avlodga yetkazish milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil qiladi. Qaramlikdan qutulib, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan millat uchun etnomadaniyatni tiklashga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda milliy-ma'naviyatni tiklash borasida olib borilgan tarbiyaviy ishlar va amaliy faoliyat namoyon bo'ldi. Ularni amalga oshirish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifasi darajasiga ko'tarildi.

Mustaqillik yillarda bu borada qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz qancha ko'p bo'lmasin, baribir mustaqilligimizni mustahkamlashning hozirgi bosqichida milliy tarbiyani yanada kuchaytirishimizga ehtiyoj oshib bormoqda.

Bu bir tomondan, avlod-ajdodlarimizdan qoldirilgan meroslarimizni yoshlarimiz ongi va qalbiga singdirish, ilg'or urf-odat, an'ana, qadriyat, marosimlarni rivojlantirish, milliy o'zlikni anglashni o'stirish kabi vazifalarni amalga oshirish zaruriyatining kuchayib borayotganligi bilan bog'liq. Bu vazifani qaysi darajada amalga oshirishimiz esa etnomadaniyatning o'ziga xosligini saqlab qolishimizni va uning umumiunsoniy madaniyatlar tizimida qanday mavqeimizni namoyon qila bilishimizni ham belgilab bersa, ikkinchi tomondan esa, globallashuvning ta'siri natijasida taraqqiy qilgan mamlakatlar xalqlarining "ommaviy madaniyatlarni" turli vositalar yordamida endi taraqqiyot yo'liga kirayotgan mamlakatlar xalqlari, ayniqsa yoshlari ongiga singdirishga qaratilgan xurujlarning oshib borayotgan sharoitida, unga qarshi tura oladigan omillardan samarali foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ham o'sib bormoqda. Ana shu har ikkala jarayonga e'tibor bilan qaraladigan bo'lsa, ularni amalga oshirishning eng muhim vositasi sifatida milliy tarbiya muhim rol o'ynashini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Chunki, tarbiya vositasi bilan, dunyoqarashni o'zgartirish, shaxsni, shakllantirish va uni ko'zlangan maqsadga yo'naltirish mumkin.

Ma'lumki, tarbiyaning turli shakllari mavjud bo'lib ular ko'zlangan maqsad va manfaatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Milliy tarbiya ana shu shakllardan birini tashkil qiladi va u o'z faoliyati jihatidan tarbiya tizimida alohida

ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki, u o'zida millat manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan barcha vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi. Millat manfaatlari esa bepoyondir. U milliy o'zlikni saqlab qolishdan boshlab millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan, millatning jahon tamaddunidan munosib o'rinni egallashigacha bo'lgan juda katta marralarni qamrab oladi.

Bunday vazifalarni amalga oshirishda tarbiyaning barcha shakllari va vositalardan samarali foydalanish amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Ana shunday vositalardan biri yuqorida ta'kidlaganimizdek **etnomadaniyat** hisoblanadi. Uning milliy ongga, o'zlikni anglashga, tarixiy xotirani tiklash, milliy manfaatlarni himoya qilish ruhiyatining shakllanishiga o'tkazadigan ta'sirchanlik imkoniyatlari nihoyatda katta. Uning ana shunday imkoniyatlaridan foydalanish esa uning o'ziga xosligini ifoda ettiruvchi milliy tarbiyani amalga oshirish orqali erishish mumkin.

"Milliy tarbiya"ning falsifiysi o'zbek ilmiy adabiyotlarimizda deyarlik uchramaydi. Ammo, oila, ta'lim tizimi va jamoa faoliyatining asosiyo yo'nalishini tarbiya tashkil qiladi. Uni oddiy ta'sir o'tkazish nuqtai nazardan qarash barcha u masala bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlarda uchratish mumkin. Jumladan, "tarbiya" tushunchasiga "O'zbekiston entsiklopediyasi"da adabiyotshunos Q.Yo'ldoshev quyidagicha ta'rif bergan: "Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon: insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora-tadbirlar yig'indisi". Lekin "milliy tarbiya" tushunchasiga unda ham, shuningdek, "Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at", "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiyo tushunchalar, tamoyillar va atamalar" (qisqa izohli tajribaviy lug'at), "Falsafa" qisqacha izohli lug'at, "Falsafa qomusiy lug'at" kabilarda bu tushunchaga ta'rif berilmagan. Ayni paytda Rossiya olimlari tomonidan tayyorlanib bosmadan chiqarilgan "Falsafa lug'ati"da ham bu tushunchaga tasnif berilmagan. Bundan tashqari, mustaqillik yillarida e'lon qilingan tarbiyaga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda ham bu tushunchaga to'laqonli tasnif yo'q.

Ammo, uning ahamiyati haqida ko'p yozilgan va yozilmoqda. Keyingi paytlarda e'lon qilingan ilmiy adabiyotlardan ayrimlarida "milliy tarbiya tizimi" va "milliy tarbiya" tushunchalari to'g'risida fikrlar uchramoqda. Jumladan, "milliy tarbiya tizimlarini, an'analarini tiklash va ularga amal qilish milliy uyg'onish jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda", – degan fikr ilgari surilgan

bo'lsa, yana bir kitobda "Milliy tarbiya u yoki bu millat ma'naviyati, merosi, urfatdlatlari, an'analari va qadriyatlarini o'z millatdoshlari tomonidan o'zlashtirishiga milliy manfaatlarni himoya qilishiga, millat oldida mas'ulligini anglash tuyg'ularini shakllantirishiga qaratilgan faoliyat hisoblanadi", – degan ta'rif berilgan. Lekin ularning har ikkalasida ham bir qator noaniqliklar mavjud. Jumladan, birinchisida "milliy tarbiya tizimi" o'zi nima, u o'z ichiga nimalarni oladi, unga kiruvchi elementlar o'rtasida munosabatlar qanday kechadi va milliy tiklanishga qanday ta'sir o'tkazadi kabi savollarni tahlil qilish maqsad qilinmagan. Ikkinchisida esa, "milliy tarbiya"ni faoliyati sifatida qaralgan. Akademik E.Yusupov "tarbiya" tushunchasini tahlil qilib shunday yozadi: "Tarbiya so'zi asli arabcha so'z bo'lib, "parvarish qilish, ta'lim berish, o'rgatish" degan ma'noni anglatadi". Tarbiyachi esa yuqoridagi maqsadlarni amalga oshiruvchi shaxsdir. Mukammal tarbiya berish ma'naviy kamolatning barcha jabhalarini rivojlantirish uchun zarur ob'ektiv va sub'ektiv omillar yaratishdir. Milliy tarbiya tushunchasi haqida to'xtalib "Milliy tarbiya inson shaxsini shakllantirishda milliy madaniy meros va qadriyatlardan foydalanish, har bir xalq ma'naviyatiga o'ziga xos yo'nalish berishga harakat qilishdir", – deb yozadi.

"Tarbiya" va "Milliy tarbiya" haqida bildirilgan yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda, hali bu borada yana ham chuqurroq va kompleks, ya'ni boshqa ijtimoiy fanlar bilan birga tadqiqot ishlarni olib borish lozim bo'ladi. Jumladan, hali tarbiya "kimning faoliyati"- degan masalaga ham aniqlik kiritib uning ma'no, mazmunini ochib berish zarur. "Tarbiya" tushunchasi o'zining keng qamrovli falsafiy tahliliga muhtojdir.

Fikrimizcha, "tarbiya" tushunchasi haqida gap ketganda, haqiqatan ham amaliy faoliyat orqali "ta'sir" o'tkazish nazarda tutiladi. Ya'ni, ma'lum maqsad va manfaatlarni amalga oshirish uchun shaxs, millat, ijtimoiy guruhlar, sinflar va hokazolarga turli vositalar orqali "ta'sir" o'tkazish tushuniladi. Bu "ta'sir"ni davlat, siyosiy kuchlar, jamoat tashkilotlari, turar joy va ishlab chiqarish jamoalari, ayniqsa zamonaviy ommaviy axborot vositalari va boshqa bir qator vositalar orqali o'tkazish mumkin.

Bundan ko'rinish turibdiki, "tarbiya" maqsad va manfaatni amalga oshirish uchun tegishli siyosiy va ijtimoiy institutlar va jamoatchilik tomonidan turli vositalar orqali "ta'sir" o'tkazishning amaliy faoliyati hisoblanadi. Agar bu tasnidan kelib chiqadigan bo'lsak, maqsad va manfaatlarning keng qamrovli ekanligini hisobga

olishimiz lozim bo‘ladi. Unga muvofiq “tarbiya”ning shakllari va yo‘nalishlari ham turli tumandir. Jumladan, oila tarbiyasi, maktabgacha tarbiya, maktab tarbiyasi, oly o‘quv yurtlari tarbiyasi, jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, diniy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, axloqiy tarbiya, g‘oyaviy va estetik tarbiya, millatparvarlik va insonparvarlik tarbiya, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi, milliy etnopedagogik tarbiya va ko‘plab boshqa bir qator shakllarini keltirish mumkin. Ularning har birining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, turli yo‘nalishlar va vositalar orqali amalga oshiriladi. Ular haqida batafsil to‘xtalmasdan mavzuyimizdan kelib chiqqan holda “Tarbiya” tizimiga kiruvchi “Milliy tarbiya” va undan “etnomadaniyat”ni aholi va ayniqsa yoshlar ongi va qalbiga singdirish imkoniyatlari haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Ma’lumki, “milliy tarbiya” negizi millat manfaatlari, uning taraqqiy qilishiga, ijobji “ta’sir” o‘tkazishni tashkil qiladi. U millat vakillari bo‘lgan ota, ona, jamoatchilik, jamoat va davlat tashkilotlarining faoliyati orqali amalga oshiriladi. Milliy tarbiyaning “tarbiya” tizimida alohida o‘rin egallaydi. U yuqorida keltirilgan “tarbiya” shakllarini ham o‘ziga qamrab oladi. Chunki, to‘laqonli millat vakillarining barchasida ana shu shakllar mujassam bo‘lmog‘i lozim bo‘ladi. Milliy tarbiya millat vakillarida etnomadaniy birlikni mustahkamlash, milliy madaniy merosni o‘zlashtirish, uni ko‘z qorachig‘iday asrash, milliy g‘urur, iftixor va vatanparvarlik ruhiyatini shakllantirish millatning o‘zligini anglashini rivojlantirish uning jahoning yuksak taraqqiy qilgan millatlari darajasiga ko‘tarilishda fidoyilik hamda mas’ullik hissini shakllantirish borasida oila, ta’lim tizimi, jamoat va siyosiy tashkilotlar tomonidan olib boriladigan amaliy faoliyatdir.

Xalq ijodi va xalq pedagogikasining uyg‘unlashuvi. Hozirgi mustaqillik davrining dastlabki bosqichlarida yoshlar tarbiyasi hamda milliy kadrlar tayyorlash ishida xalq pedagogikasining ilmiy-tarixiy manbaalaridan unumli foydalanish, uning jamiyatimiz hayotida tutgan o‘rnii, uning umummilliylik va milliylik kasb etishi dolzarb muammolardan biri ekanligini to‘la tushunib yetish vaqtি keldi, desak hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Xalq pedagogikasining ijodkori va shu asosda avlod-ajdodlarimizni barkamol kishilar qilib tarbiyalab kelgan birinchi va to‘ng‘ich pedagog-o‘qituvchi - xalqdir.

Ma’lumki, millat o‘z tarixini unutsa, uning milliy pedagogikasi ham o‘z zaminidan ajrab qoladi. Agarda biz xalq pedagogikasi asoslardan bahramand

bo'lmasak, natijada, yoshlarimiz o'rtasida turli ko'rinishdagi axloqsizlik, jinoyat, ma'naviy qashshoqliklar avj olishi, jamiyatimiz uchun ma'naviy tahdidlar kuchayishi mumkin bo'lib keladi. Shunday ekan bu mumtoz xalq ijodini chuqur o'rganish birlamchi bo'libgina qolmay, balki uni insoniy burch deb tushunishimiz kerak.

Xalq pedagogikasining asoslanish davrlari shu xalq paydo bo'lgan davrlardan boshlangan bo'lib uning qamrovi nihoyatda keng, bag'oyat serqirra va shu bilan birga juda ham serjilodir.

Xalq pedagogikasi xalqimizning ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotining barcha tomonlarini – xalq donishmandligi va odobnomasini, xalq og'zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo'naliishlarini, shu bilan birga diniy-axloqiy ta'lilotni ham qamrab oladi. Bu pedagogika xalqimizning asrlar davomida to'plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, yestetik, ma'naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba-xulosalarini bag'oyat teran va lo'nda qilib donishmandnoma tarzida ifodalab kelgan. Ma'lumki, xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida yozma shaklda yetib kelmay, balki asosan xalq og'zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlar, elshunoslik, qadrshunoslik, udumshunosliklar qatida saqlab qolning hamda Qur'onu Karim va payg'ambarimizning Hadislarida o'z ifodasini topgan. Demak, xalq pedagogikasi hozirgacha yashovchanligi asosan og'zaki tarzda bo'lib, u har bir avlod unga o'z tajribasini, qarashlarini, fazilatlarini qo'shgan holda bizgacha yetib kelgan. Bugungi kunda esa bizning oldimizda shu uzoq asrlar davomida ta'lim-tarbiya qo'llanmasi, vositasi bo'lib kelgan xalqimizning pedagogik qarashlarini to'plash, o'rganish, uni rivojlantirish shu bilan birga yo'qolish arafasida turgan milliy qadriyatlarimiz, axloqimiz, urf-odat, rasm-rusumlarimizni, udumlarimizni, an'alalarimizni asrab qolish va yanada tiklash vazifasi turibdi.

Shuningdek, xalqimizning oilaviy-maishiy hayoti, ta'lim-tarbiyaviy axloq-odobga oid hayotiy yo'l-yo'riqlari, usullari, ibratli tajribalariga oid turfa dostonlar, ertaklar, mehnat-mavsum marosim qo'shiqlari, asotirlar, naqlar, rivoyatlar, afsonalar, maqollar, matallar, xikmatlar, qiziq gaplar, qayroqi so'zlar, aforizmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar o'yinlari, allalar, to'y va aza qo'shiqlari-marsiya, sadr aytimlar, olqish va qarg'ishlar, suyush-erkalash qo'shiqlari, yerkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, yalinchoqlar, hukmlagichlar, chorlamalar, cheklashmachoqlar, guldur-guplar, sanamalar, o'yin-kulgilar bilan bog'liq laparlar, aytishuv, o'lan,

termalar, bolalar tarqalish, chorlash qo'shiqlari, ramazon, boychechak, yomg'ir, kунyulduz, suv atimlari, chandishlar, tegishmachoqlar, masxaralamalar, "Navro'z", "Mehrjon", bahor, kuz, qish, yoz aytim-qo'shiqlari, milliy etnomadaniyatimizning asosiy tarkibini tashkil etadigan dehqonchilik, chorvadorlik, kasb-hunarmandchilik bilan bog'liq nasriy va nazmiy asarlar, inson, tabiat va hayvonlar dunyosi bilan hamda mifologik qahramonlar obrazlari bilan aks etgan asarlarni mo'tadil o'rganib borishimiz maqsadga muvofiqdir.

Xalqimizning mumtoz naqlida azaliy haqiqat yotadi. Inson ona qornidan yaxshi yo yomon bo'lib tug'ilmaydi – u birday tug'iladi. Yaxshi-yomonga aylanishi tarbiyadan, ota-onas, oila, mahalla-ko'y, qishloq-ovul va nihoyat jamiyat – tuzumdandir. Bunda ajdodlar qoldirgan meros, ota meros – oilaviy pedagogika, xalq pedagogikasi, shuningdek udurmshunoslik, qadrshunoslik, elshunoslik an'analari, jamiyatning bu sohadagi sa'y-harakatlari hal qiluvchi o'rinn tutadi. Xalqimiz aytadiki, bola boshidan to'g'ri tarbiyalansa – u xaqqoniy inson bo'lib yetishadi, egor yo'lida tarbiyalansa – yomon kishiga aylanadi. Shunga xos bo'lgan "ko'chat boshdan, bola yoshdan" maqoli o'rinnli ijod mahsuli bo'lsa kerak. Bola tarbiyasining ilmiy-nazariy qarashlarida bola tarbiyasining mayda-chuydasi bo'lmaydi, ya'ni birlamchi-ikkilamchisi bo'lmaydi; hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chetda qolmasligi, ayni choqda tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e'tiborga olingan holda, yetti o'lchab bir kesishga amal qilinadi. Xalqimiz tarbiyani amalga oshirish jarayonida kecha, bugun va ertani o'ylab ish tutishni talab qiladi, ya'ni tarbiyani o'tmishni unutmaslik, bugunni qadriga yetishlik, kelajakka umid asnosida olib boradi. Bu uning xarakterli xususiyatidir. Xalq pedagogikasi bamisoli jonli, kuch-qudratga ega bo'lgan bir birikmadir. U bamisoli jonli vujud, qaynar buloq, o'lmas va o'chmas, doimo rivojlanib, mustahkamlanib, ko'payib boruvchi ilohiy, mo'jizaviy tarbiya sohasidir. U o'zida xalqning orzu-umidi, quvonch-tashvishlari, g'am-g'ussa-yu armonlari, shodlik, baxtiyorlik onlari-yu – qadr-qimmatlari, maonaviy-maorifiy, badiiy-yestetik qarashlari, dunyoqarashi, falsafiy-axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim-tarbiyaviy xulosalari va boshqa sifatlarini namoyon etadi. Bu tarixiy meros boshqa xar qanday millat, yelat havas qilsa arziydigan oltin merosdir.

Xalq pedagogikasining yana bir jihatlaridan ko'zga tashlanadigan xususiyati – hayot guli va sarvari sanalmish insonni yuksak fazilatlar ruhida tarbiyalashdir.

Sharqona va turkona an' analarga tayangan holda xalq pedagogikasi o'z aksini oilaviy-maishiy sharoitlarda, xalqimizning milliy o'ziga xos bo'lgan to'ylarida, ommaviy bayram-sayllari hamda xalq tantanalarida, marosimlar, urchodatlar va udumlarda yaqqol aks etib kelmoqda, xalqimizning sport musobaqalari tantanalarida, kurash, otchoparlik, nayzabozlik, tosh ko'tarar, arqon tortish va hk. K. tadbirdorda barchamizning hayotiy normalarimizga kirib qolgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, xalq pedagogikasi serqirra va sermazmundir. Albatta bu qirralarning asosi xalq ijodiga mansub bo'lgan qadriyatlardir. Bular: xalq og'zaki ijodida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va tarbiya usullari, insoniy qadriyatlar va yurtsevarlik tarbiysi; do'st-birodarlik, ahillik, mehnatsevarlik, kasbxunarga muhabbat, yaxshilik va yomonlikning, yaxshi va yomon so'zning oqibati, halollik, to'g'rilik, olijanoblik tarbiyasi,adolat, insof va insofsizlik, do'st-birodarlik, og'a-inichilik va qon-qarindoshchilikning ahamiyati, botirlik va qo'rqaqlik, odobodobsizlik, muhabbat, vafo va bevafolik, mehmon va mehmondo'stlik, saxiylik, baxillik va kamtarlik, sabr-qanoatni va sabrsizlikning oqibati, tajribakorlik, kaltabinlik va ishonchszilik, or-nomus va nomussizlik, samimiylilik va nosamimiylilik, andisha va andishasizlik, farosat va farosatsizlik, tejamkorlik va isrofgarchilik, reja va rejasiszlik, me'yor va me'yorsizlik, mas'uliyat va mas'uliyatsizlik, vaqt va fursat, foyda va zarar, sog'lom tarbiya, tozalik va ozodalik, tabiatni e'zozlash, dehqonchilik va chorvachilik qadriyatları, hayvonlar, qushlar, yer-suvni ye'zozlash, kattaga kurmat, yoshga mexr-shafqat, yo'l va yo'ldosh, sevinch va g'am, to'y va motam, farzand va farzandsizlik, kiyinish, so'zlashish, yurish-turish, salomlashish, ko'cha odobi, ovqatlanish madaniyati, muomala, sayohat qoidalari, uxlash, yuvinish, jamoat va kattalar oldida o'zini tuta bilish, kitob o'qish madaniyati, kattalarga qarashish, uy yumushlarini bajarish, dars tayyorlash, o'zbek to'ylari axloqiy, aqliy va jismoniy maktab ekanligi kabi qadriyatlardir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xalq pedagogikasi va uning asosiy manbai hisoblanmish og'zaki ijod-folklorning inson ma'naviy ustivorligi, iymon-e'tiqodining butunligi, vatanparvarlik, do'st-birodarlik, yaxshilik, ezgulik, ahillik, qadr-qimmati va sha'nini ulug'lovchi sahifalari rang-barangdir va u bebaho durdonadir. Bu sahifalarning har biri Odobnoma, Ibratnoma deb baholanib kelmoqda.

Bayramlar – inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismi. Dunyodagi barcha xalqlar hayotida bayramlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bayramlarning

ko'pchiligi bizga eng qadimgi davrlardan yetib kelgan. Bayramlarni nishonlamaydigan inson, oila yoki jamoani topish qiyin. Har bir millat va davlatning umumiy bayramlaridan tashqari, o'z bayramlari bo'ladi.

O'zbek xalqining ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, avloddan-avlodga o'tib, takomillashib, bebaaho merosga aylangan bayramlari ko'p. Mustaqillik tufayli urf-odatlar, marosim va bayramlar ildizi, tarixi, ularning xalqimiz madaniy hayotidagi o'mi o'r ganilib, keng nishonlana boshladi. O'zbek xalqi yer yuzida bayramlarga boy xalqlardan biri desak bo'ladi.

Bayram – xalqning shodlik va xursandchilik kunidir.

Mahmud Qoshg'ariy.

Biz bayram deganda biror-bir muhim hodisa, voqeа, sanani ko'pchilik bo'lib, ko'tarinkи ruhda, kuy-qo'shiq, xursandlik bilan nishonlashni tushunamiz. Har bir millatning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an'ana, urf-odat, marosim, bayramlari mavjud.

Bayramlar insonlarning bosib o'tgan yo'llarini chuqur anglashga, g'alabalardan faxlanishga, kelajak uchun rejalar tuzishga, ertangi kunga umid bog'lashga yordam beradi. Shuning uchun ham, bayram arafasida kishilar bir-birlarini tabriklashadi, yaxshi tilaklar tilaydi.

Bayramlar moddiy va madaniy hayotda yerishilgan muvaffaqiyatlarning o'ziga xos namoyishi hisoblanadi. Chunki bayram kuniga bag'ishlab barcha muassasalar, korxonalar o'zлari erishgan muvaffaqiyatlarni namoyish qiladilar.

Bayramlarning mohiyati ular mazmuni va g'oyasiga bog'liq bo'ladi. Mazmun, g'oya har bir bayramning asosini, obrazli qilib aytganda "joni" va "qoni"ni tashkil etadi.

Tarixiy jarayonda bayramlar ma'nosi, g'oyasi xalqning o'yi, dardi, orzu-umidlari asosida paydo bo'lgan va o'zgarib, rivojlanib borgan.

Mustamlakachilar ham, mahalliy hukmdorlar ham bayramlarga o'z g'oyalarini singdirishga harakat qilgan. Masalan, Navro'z, Mehrjonga mustamlakachilar o'z mafkurasini yoki islom peshvolari diniy g'oyalarini singdirishga intilgan.

Qadimda insonlar asosan ovchilik qilib kun kechirganlar. Ovdan ko'proq o'lja bilan qaytgan ovchilar xursand bo'lib, ov jarayonlarini imo-ishora va maxsus harakatlar bilan o'yin shaklida takrorlashgan. Natijada "ov o'yinlari" bayram

tadbirlari vujudga kelgan. Ibtidoiy odamlar hayotida “ovchilik o‘yinlari” ovdan oldin va keyin o‘tkazilib borilgan.

Ovchilik asosida asta- sekin chorvachilik shakllangan. Bronza davrlaridan boshlab, o‘troq dehqonchilik vujudga kelishi va uning rivojlanishi natijasida ikki an’ana:

- 1) bahorda urug‘ qadash va
- 2) kuzda hosilni yig‘ib olish marosim bayramlariga aylangan.

Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy odat, marosim va bayramlari koinot, tabiat, falsafa va mehnat faoliyati bilan bog‘liq, Ajodolarimiz borliqdagi muhim to‘rt narsa (quyosh, havo, yer, suv)ni aniqlash bilan bir qatorda, ular bilan bog‘liq to‘rt ulug‘ kunni ham belgilab, nishonlashga odatlangan. Masalan, tabiat uyg‘onishi, kun-tun tengligi, dala ishlarining boshlanishida Navro‘z, yozda – suvgaga ehtiyoj kuchayganda - Angom (Vaxshangom) (suv bayrami), kuzda- Mehrjon (Chiri-ruj, Nim sarda), qishda eng uzoq tun va qisqa kun bo‘lganda, sovuq kunda (qishki chilla) Sada - Olov bayrami kabi bayramlarni uyushtirishgan.

Avestoshunos Meri Boysning yozishicha, qadimda zardushtiylarning quyidagi yettita bayrami mavjud bo‘lgan:

1. Maidoy – zaremaya – bahor o‘rtasi.
2. Maidoy – shem- yoz o‘rtasi.
3. Payaitshayxa – g‘alla yig‘ish bayrami.
4. Aytrima – chorvaning yozgi yaylovdan qaytishi.
5. Maiyairyva –qish o‘rtasi.
6. Xamaspatmaeda – fravash (ruhlar sharafiga ziyofer berish).
7. “Navro‘z” (Avestocha qanaqa nomlanganligi ma‘lum emas).

Yuqoridagi bayramlar diniy marosim shaklida o‘tib, ular Axuramazda sharafiga bag‘ishlangan ibodat bilan boshlangan. Ibodatdan so‘ng xursandchilik, o‘yin-kulgi bo‘ladigan ziyofer o‘tkazishgan.

O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekiston hududida yashovchi xalqlarning qadimiy bayramlari haqida X-XI asrlarda yashagan buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy “Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida yozib qoldirgan.

Beruniyning yozishicha, Xorazm hududida yashagan xalqlarning ikki turda bayramlari bo‘lgan:

1. Tabiat hodisalariga bag‘ishlanganlari: yil boshi bayrami (Navro‘z), ochilish bayram, gulkanda isinish bayrami va boshqalar.

2. Diniy marosimlar (islomgacha bo‘lgan davrda) arvoqlar uchun qabrlarga ovqat qo‘yadigan kun va boshqalar.

Ajdodlarimizning qadimgi taqvimi Navro‘zdan boshlangan. Mehnatkash xalq hayotida muhim o‘rin tutgan bahor bayramlari yangi mehnat mavsumi boshlanishidan darak bergen.

O‘zbek xalqining bayramlari. O‘zbek xalqida yirik ishlarning boshlanishi va yakunlanishi odatda bayramga aylanib ketadi. Yangi hosil mavsumining boshlanishi va ilk urug‘ qardash jarayoni ham dehqonlar hayotida muhim voqeа bo‘lganligi bois bayramona kayfiyatda o‘tadi.

O‘zbek xalqining ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, avloddan-avlodga o‘tib, takomillashib, beba ho merosga aylangan bayramlari ko‘p.

Mustaqillik tufayli urf odatlar, marosim vabayramlar ildizi, tarixi, ularning xalqimiz madaniy hayotidagi o‘rnı o‘rganilib, keng nishonlana boshladи. O‘zbek xalqi yer yuzida bayramlarga boy xalqlardan biri desak bo‘ladi.

Quyida O‘zbekiston bayramlari va muhim sanalar taqvimini keltirib o‘tishni lozim deb topdik:

1 yanvar – Yangi yil bayrami

14 yanvar – Vatan himoyachilar kuni

8 mart – Xotin-qizlar bayrami

21 mart – Navro‘z bayrami

27 mart – Xalqaro teatr kuni

1 aprel – Kulgi kuni

7 aprel – Umumjahon salomatlik kuni

12 aprel – Butunjahon aviatsiya va kosmonavtika kuni

23 aprel – Mualliflikni himoya qilish va xalqaro kitob

Aprelning oxirgi kunlari may oyining boshlanishi – Gul bayrami

9 may – Xotira va qadrlash kuni

18 may – Xalqaro muzeylar kuni

1 iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

5 iyun – Jahon atrof-muhitni muhofaza qilish kuni

23 (25) iyun – Yozgi chilla kirishi. Qadimda bu kunlarda“Suv sayli”

bayramlari nishonlangan.

27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlar kuni.

Avgust oyining uchinchi yakshanbasi – O‘zbekiston Respublikasi Harbiy Havo Floti kuni.

31 avgust – Qatag‘on qurbanlarini yod yetish kuni.

Avgust oyining oxiri – Qovun, uzum, anjir kabi meva va poliz ekinlari sayllari va mehnat bayramlari nishonlanadi.

1 oktyabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni

1 oktyabr – Xalqaro qariyalar kuni

21 oktyabr – Til bayrami

1 dekabr – Xalqaro OITSga qarshi kurash kuni

3 dekabr – Xalqaro nogironlar kuni

8 dekabr – Konstitutsiya kuni

Dekabr – Hosil bayrami

23 (25) dekabr – Qishki chillaning kirishi.

Bayramlarning mohiyati ular mazmuni va g‘oyasiga bog‘liq bo‘ladi. Mazmun, g‘oya har bir bayramning asosini, obrazli qilib aytganda “joni” va “qoni”ni tashkil etadi. Tarixiy jarayonda bayramlar ma’nosи, g‘oyasi xalqning o‘yi, dardi, orzu- umidlari asosida paydo bo‘lgan va o‘zgarib, rivojlanib borgan.

Ana shunday milliy bayramlarimizdan biri Navro‘z ayyomidir. “Navro‘z” ning paydo bo‘lishi haqida ko‘plab afsonalar mavjud. Masalan, zardushtiyalar davrida ezgulikxudosi Ahuramazda (Hurmuз) bahor, yozda, yovuzlik xudosi Anxaramaynyu (Axriman) – kuzda va qishda hukmronlik qiladi, degan qarash mavjud bo‘lgan. Bahorning birinchi kunini ezgulik xudosi yovuzlik xudosi ustidan g‘alaba qilgan muqaddas sana, deb bayram qilishgan. Bu sana “Navro‘z” kuniga aynan to‘g‘ri kelgan. Yana bir qadimiy afsonaga ko‘ra, Odam Ato va Momo Havo ilk bor uchrashgan kun “Navro‘z” bayrami deb tan olingan emish.

Firdavsiyning “Shohnoma”sida esa yangi yil (“Navro‘z”)ning paydo bo‘lishi shoh Jamshidnomi bilan bog‘lanadi. Jamshid odamlarga yaxshilik qilish maqsadida ularni kasbga o‘rgatadi, temirni yeritib qurol yasatadi, ip yigirtirib, kiyim to‘qitadi, hammom, uy, saroylar bunyod qildiradi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasatadi,

bog‘barpo qildiradi. Nihoyat, Jamshidning ishlari gurkirab, meva bergen kunda o‘ziga taxt yasatib, unda osingga ko‘tariladi.

Bu “Shohnoma”da quyidagicha ta’riflanadi:

Taxt ko‘kda charx urar misoli quyosh,
Farmondor o‘tirar, unda irg‘ab bosh.
Barcha jam, odamlar qarar taxtiga,
Jahon qoyil bo‘lib shukuh-baxtiga.
Jamshidga sochishar oltinu gavhar,
Shu kunni yangi yil – bayram deyishar.
Yil boshi Xurmuzu yedi farvardin,
Dilda na g‘am qoldi, na adovat-kin.
Ulug‘lar shodlik-la bazm qurdilar,
Yuzlarin cholg‘uga, moyga burdilar. ⁴¹

“Navro‘z”ning paydo bo‘lishi haqidagi bu kabi afsonalarni turlicha talqin qilish mumkin. Biroq “Navro‘z”ning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin. Shunday bo‘lsada, ishonch bilan aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki “Navro‘z” koinot va tabiat qonuniyatları, ya’ni quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanish yuz berishi, bahorning kelishi bilan bog‘liq tarzda ilmiy asoslanib belgilangan.

Bu esa har qanday jamiyatda “yil boshi” (qachon kelishidan qat’i nazar) “Navro‘z”ni tabiat bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo‘lgan. Aslida “Navro‘z” ibridoiy jamoa davrida odamlar dehqonchilikka yangi ish mavsumi boshlashdan oldin o‘tkazadigan bahor bayrami sifatida shakllangan.

Zamonlar o‘tishi bilan bu bayram takomillashib, unga mos kun aniqlangan. U “yil boshi” sifatida belgilanib, unga “Navro‘z” (ya’ni, “Yangi kun”) degan nomberilgan, deb taxmin qilish mumkin. Mana shu tariqa Navro‘z bayrami har yili 21 martda nishonlanib kelinadi.

Markaziy Osiyo xalqlari, ko‘pgina sharq mamlakatlari dagidek, hozirgi kunda ikki yangi yilni, ya’ni bobolar odati bo‘yicha an‘anaviy “yil boshi” – “Navro‘z”ni va Yevropaning hamma mamlakatlarda rasmiy qabul qilingan 1- yanvarni yangi yilning kirib kelishi deb bayram qiladilar.

⁴¹ Абулқосим Фирдавсий Шоҳнома – Т.: Гафур Гулом, 1975 йил, 67 бет.

Yangi yil butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham qiziqarli va mazmunli bayramga aylanmoqda. Bu bayram turli xalqlarda turli vaqtida nishonlanishidan qat'iy nazar, muntazam ravishda o'tkazilib turiladigan, muayyan astronomik ritmda yerning quyosh atrofida bir marta to'liq aylanishi, to'rt fasllik tabiat yilining yana takrorlanishi kabilar bilan bog'liq. Bir yilda yer quyosh atrofida 940 million km yo'lni bosib o'tadi (Bu sekundiga 40 km demakdir). Yer quyosh atrofini 365 kun 5 soat 48 daqiqa, 46 soniyada aylanib chiqadi. Demak, koinot va tabiat bir marta to'liq aylanib chiqishini nishonlaydigan sana bu – yangi yil bayramidir.

Rim imperatori Yuliy Sezar miloddan avvalgi 46-yilda misrliklar tajribasi asosida yangi Julian kalendarni yaratgan. Bu kalendarga quyoshning "tug'ilishi", kunning uzaya boshlashi, quyoshning qish burjidan chiqib yangi burjga kirishi asos qilib olingan. Biroq, rim konsullari joylarga borib, 1 yanvardan ish boshlashi kerakligi uchun bu sana yangi yil boshi deb qabul qilingan.

1582 yilda Rim papasi Grigoriy kalendarni isloh qiladi. Chunki Julian kalendarida har 128 yilda 1 kecha-kunduz yig'ilib, bu 10 kunni tashkil etadigan edi. Grigoriy kalendami 10 kun oldinga suradi. Shundan keyinturli mamlakatlarda astasekin Grigoryan kalendariга o'ta boshlanadi. Hozirgi davrda u dunyo bo'yicha qabul qilingan kalender hisoblanadi. Yangi yil bayrami turli xalqlarda turlicha nishonlanadi.

O'zbeklarning azal-azaldan to'ylari ko'p bo'lgan. To'ylar – orzu-umidlar ushalishi ayyomi sifatida hozir ham davom etmoqda. XX asrning so'nggi 10 yilligi boshida o'zbek to'ylari qatoriga yana bir shodiyona – respublikamizning mustaqillik bayrami kuni qo'shildi. 1991 yildan boshlab 1 sentyabr kuni eng aziz, eng ulug' milliy bayram kuni bo'lib qoldi. 1 sentyabr mustaqillik kuni sifatida mamlakatimiz miqyosida har yili katta shodiyona bilan nishonlanmoqda.

Mustaqillik o'zbek xalqiga o'z qadr-qimmatini, bo'y-bastini, tili va ma'naviyatini qayta tiklab olishga, milliy g'urur va Vatanga muhabbat tuyg'ularini kamol toptirishga to'la-to'kis asos yaratdi. Mustaqillik bayrami o'zbek xalqining eng muhim an'anasisiga aylanmoqda.

1991 yil 1 sentabrdagi ilk bor mustaqillik bayrami O'zbekistonda nishonlandi. Mustaqillik bayrami kuni xalq ommaviy sayilga chiqadi, barcha viloyatlar va tumanlarda bayram tantanalari katta shodiyona bilan nishonlanadi.

Dunyodagi har bir mamlakatda mustaqillik kuni keng miqyosda nishonlanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan bayramlardan tashqari butun dunyo musulmonlarining qadrlı diniy bayramilari Ro'za hayiti, Qurbon hayiti; O'simliklar dunyosining o'sishdan to'xtab, "uyquga ketishi" va mehnat mavsumi yakunlanishini nishonlashga bag'ishlangan Mehrjon bayrami; dehqonlarning mehnat mavsumi yakunlanib, ularning bo'sh paytlari ko'paygan vaqtida uyuştiriladigan Hosil to'yi; o'qituvchilar mehnatini qadrlash, ularga har jihatdan g'amxo'rlik ko'rsatish maqsadida an'anaviy tarzda nishonlanib kelinayotgan O'qituvchilar va murabbiylar kuni; dunyodagi eng tabarruk zot onalarimizga, hamda mehribon opa-singillarimizga hurmat va ehtiromning eng oliv namunasi ko'rsatiladigan kun – Xalqaro Xotin-qizlar kuni kabi bayramlar ham mamlakatimizda o'ziga xos tarzda keng nishonlanib, yosh avlod qalbida eng olivjanob fazilatlarni kamol toptirilishida muhim ahamiyat kasb yetmoqda.

Xulosa qilib aytganda, bayramlar insonlarning bosib o'tgan yo'llarini chuqur anglashga, g'alabalardan faxrlanishga, kelajak uchun rejalar tuzishga, ertangi kunga umid bog'lashga yordam beradi. Shuning uchun ham, bayram arafasida kishilar bir-birlarini tabriklashadi, yaxshi tilaklar tilaydi. Zero, bayramlar moddiy va madaniy hayotda erishilgan muvaffaqiyatlarning o'ziga xos namoyishi hisoblanadi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Etnopedagogika, milliy tarbiya, milliy tarbiya tizimlari, elshunoslik, qadrshunoslik, udumshunoslik, matallar, hikmatlar, qiziq gaplar, qayroqi so'zlar, aforizmlar, topishmoqlar, tez aytishlar, bolalar o'yinlari, allalar, to'y va aza qo'shiqlari-marsiya, sadr aytimlar, olqish va qarg'ishlar, suyush-erkalash qo'shiqlari, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, yalinchoqlar, hukmlagichlar, chorlamalar, cheklashmachoqlar, guldur-guplar, sanamalar, o'yin-kulgilar bilan bog'liq laparlar, aytishuv, o'lan, termalar, bolalar tarqalish, chorlash qo'shiqlari, ramazon, boychechak, yomg'ir, kun-yulduz, suv atimlari, chandishlar, tegishmachoqlar, masxaralamalar, "Navro'z", "Mehrjon", bahor, kuz, qish, yoz aytim-qo'shiqlari, xalq bayramlari, o'zbek xalq bayramlari yangi yil bayrami

Mavzuni o'zlashtirish yuzasidan savollar:

1. Etnopedagogika nima? Milliy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Millatning shakllanishida milliy tarbiyaning qanday o'mi bor?
3. Xalq ijodi va xalq pedagogikasining qanday bog'liqligi bor?
4. Bayramlar deganda nimani tushunasiz?

5. Turli xalqlarning qanday bayramlarini bilasiz?
6. O'zbek xalqi nishonlaydigan bayramlarni sanab bering...
7. Bugungi kunda xalqimiz hayotiga qanday yangi bayramlar kirib keldi?
8. Yangi yil qayerda qanday nishonlanishini bilasizmi?

9-§. An'anaviy oila – turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni

Marosimlar – xalq madaniyatining fenomeni sifatida. O'tilgan mavzularda qayd etilganidek, etnomadaniyat rivojida marosimlarning o'ziga xos o'mi bor. Zero, marosimlar xalq madaniyatining fenomeni hisoblanadi.

O'tgan XX asr so'nggi choragidan boshlab dunyo miqiyosida etnolog va sotsial antropologlar tomonidan marosimlarni xalq madaniyatining fenomeni tarzida o'rganishga alohida e'tibor qaratildi va aynan mazkur mavzu doirasida bajarilgan ilmiy tadqiqotlar fandagi dolzarb mavzulardan biri tarzida e'tirof etila boshlandi. Ayniqsa so'nggi o'n yilliklarda dunyo miqiyosida kechayotgan globalizatsion jarayonlar etnik xususiyatlarning saqlab qolish omillarini va milliy marosimlarni tadqiq yetish muammosini dolzarb muammolar tarzida kun tartibiga qo'yilishiga sabab bo'lmoqda.

Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga aylanib qolgan xatti-harakatlar "marosim"— deyiladi. Taniqli olim Bahodir Sarimsoqov marosimga xalq orasida qat'iy an'anaga aylangan tadbir deya ta'rif beradi.

Aslida marosim har bir inson hayotida ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki, inson tug'ilganidan to'g'indan ko'z yumguncha o'nlab marosimlar guvohiga aylanadi. Gohida uning markaziy qahramoni, gohida ishtirokchi, gohida oddiy kuzatuvchi bo'ladi. Ammo marosimlar hayotning ajralmas qismi sifatida hamisha hamrohlikda sodir bo'laveradi.

Marosim arab tilidan olingen bo'lib, chizilgan, rasm qilingan, odat bo'lgan ma'nolarini anglatadi. Muayyan qoidalar asosida chizilgan, millat tomonidan rasm qilingan va odat tusiga kirgan tadbirlarni esa shartli ravishda uch turga bo'lish mumkin:

1.Oilaviy marosimlar. Ular, odatda, biror shaxs yoki oila a'zosi hayotidagi muhim voqealar munosabati bilan amalga oshiriladi. Oilaviy marosimlar ishtirokchilar qarindoshlar, quda-andalar, do'stlar, tanish-bilishlar, qo'shnilar va mahalladoshlar ishtirokida o'tadi.

2.Tabiatda ro'y bergan o'zgarishlar, muayyan odat, rasm-rusum bilan aloqador va ma'lum darajada zarurat oqibatida tashkil qilinadigan marosimlar. Bunday marosimlar bahor, yoz, kuz, qish fasllarida uyuştırıldı. Ularda biror qishloq, mahalla, tuman aholisi qatnashadi. "Shox moylar", "Sust xotin", "Choy momo", "Darvishona" kabilarni shular jumlasiga kiritish mumkin.

3.Umumxalq bayramlari munosabati bilan tantanali ravishda o'tkaziladigan marosimlar. Bunday marosimlarga Mustaqillik bayrami, Navro'z bayrami, Iydi Ramazon, Iydi Qurbon, Hosil bayramlari nisbat beriladi. Umumxalq bayramlari butun mamlakat miqyosida nishonlanadi. Har bir oila bunday marosimlarga o'zining hissasini qo'shishga harakat qiladi.

Oilaviy marosimlar. Xalq tajribasidan o'tib, an'anaviy tus olgan oilaviy marosimlar, asosan, uch turdan iborat bo'ladi. Ularni to'y, motam, biror oila a'zosi hayotidagi muhim voqeя (kasaldan tuzalish, ilmiy daraja olish, haj safarini bajo keltirish va boshqalar)ning ro'y berishi munosabati bilan o'tkaziladigan yig'irlardan tashkil etadi.

Xalq marosimlari qatoridagi motamlar eng qadimiylardan hisoblanadi. Yaratilganiga qariyb 3000 yil bo'lgan "Avesto"da ham vafot etgan odamni dafn qilish bo'yicha ma'lumotlar bor. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida esa motam marosimida aytiladigan qo'shiq – marsiyalardan misollar keltirilgan.

O'zbek motam marosimlari juda ko'p turli hajmda o'tkaziladigan yig'irlardan iborat. Uch, yetti, yigirma, qirq kunliklar; qor yog'di, gul, shir oshi, qovoq kabi movliyatlar shular jumlasidandir.

Marsiyalarda hayotdan ko'z yumgan odamning hayotligidagi fazilatlari, uning mehribonligi, iymonli ekanligi yesga olinadi:

Baland tog'lar past bo'ldimi, voy otam,

O'lganiningiz rost bo'ldimi, voy otam.

Shamol kelmay o'chdi chirog'im, voy otam,

Kuz kelmay xazon bo'ldi bog'im, voy otam.

Shu tarzda ota, ona, bola, aka, uka, umuman, qarindosh nomlari tilga olinadi. Amaki, tog'a, xola, mammalar ham ota, ona nomi bilan atalaveradi. Bunday qo'shiqlar marsiya deyiladi. "Marsiya" arab tilidan olingan bo'lib (مرثية), "motam she're" ma'nosini anglatadi. Xalq orasida marsiyani "aytib yig'lash" deb ham atashgan. Zavqiqning "Yuzingni ko'rsatib" so'zları bilan boshlanadigan muxammasida: "Sani dardi firoqing aytib-aytib yig'lay o'lgnuncha" misrasida ham aytib yig'lash ma'nosı yo'q emas. Odatda, motam marosimi hayotdan ko'z yumgan shaxs vafotiga yillik ma'rakalar o'tkazish bilan yakunlangan.

O'zbek xalqi qadim zamonlardan dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik bilan shug'ullangan. Dehqonchilik ham, chorvachilik ham mutlaq tabiat muruvvati va injiqqliklari bilan bog'liqidir. Erta bahordan kech kuzgacha dehqon dalada mehnat qiladi. Qishda esa yerga iloji boricha ko'proq nam singdirish choralarini ko'radi. Chorvador esa yil davomida chorvani semirtirish, ko'paytirish bilan band bo'ladi. Binobarin, yil fasllarining qulay kelishi dehqon xirmoniga xirmon qo'shadi, chorvador mehnati samarasini ro'yobga chiqaradi. Shuning uchun otalar va momolar yomg'ir chaqirish, yomg'ir to'xtatish, shamol chaqirish va to'xtatish tajribasini ipidan ignasigacha keyingi avlodga meros qilib qoldirishga odatlangan. Natijada, o'nlab marosimlar kashf etilgan. Marosimlar esa, albatta, so'zning sirli ta'siri bilan yashagan, amalga oshirilgan.

Professor Mamatqul Jo'raevning "O'zbek mavsumiy marosim folklori" kitobini o'qigan kitobxon o'zbeklarda yilning 365 kunidagi deyarli har bir kun dehqonchilik, bog'dorchilik, chorvachilik kasbi bo'yicha o'zining maxsus nomi, marosim bilan bog'liq jihatlari borligiga ishonch hosil qiladi. O'zbek mavsumiy marosim fol'klori yil fasllarida o'tkaziladigan marosimlardan iborat. Bahorgi mavsum marosimlari loy tutish, shox moylash, Navro'z, yomg'ir chaqirish, darvishona; yozgi marosimlar choy momo; kuzgi marosimlar shamol chaqirish; qishki marosimlar yas-yusunlardan iboratdir. Yuqorida qayd etilganlardan tashqari yozgi to'qson, chilla, qishki to'qson, chilla, ayamajuz, hut-yut deb nomlanadigan o'nlab udumli muddatlar ham ma'lum darajada marosim qo'rinishlariga ega.

Masalan, loy tutish marosimida muayyan hududda yashaydigan aholi ariqlarni tozalash, dalaga suv chiqarishni osonlashtirish uchun hasharga chiqadi. Xotiralardan birida baxshi Bo'ra Ahmedov Sherobod tumanida shunday marosim

o'tkazilayotganda, hasharchilar yonidan o'tib qolgan. Unga loy tutishgan. Shunda baxshi:

Hojakam hajga ketdi,
Bilmadim kujo ketdi.
O'n ikki jumurtqadan
Qirq sakkiz jo'ja ketdi

topishmog'ini aytgan. Ishlayotganlar bir yil, o'n ikki oy, qirq sakkiz mehnat haftasi yashiringan topishmoqni topa olmaganlar va baxshi ariq tozalash ishidan ozod qolgan. Shox moylar marosimi bahorda qo'sh chiqarish bilan bog'liq bo'lган. Dehqonlar yil davomida ekin-tikin mo'l-hosil berishiga umid qilib birinchı qo'sh haydaydigan ho'kiz shoxiga zig'ir moyi surganlar. Marosimda dehqonchilik piri – bobodehqondan mo'l hosil bo'lishini tilab niyat qilishgan.

Yomg'ir chaqirish marosimi, asosan, bahorda yomg'ir yog'magan yillarda o'tkazilgan. Qadimda muqaddas Yada toshi bo'lgan ekan. Mana shu tosh yordamida yomg'ir chaqirishgan. Mahmud Qoshg'ariy "Devonu lug'otit-turk" asarida shaxsan o'zi yoz kunlarida yong'in bo'lganda, bu tosh mo'jizasi bilan yomg'ir chaqirilib, yong'in o'chirilganiga guvoh bo'lganini yozadi. Keyinchalik yomg'ir chaqiriladigan hududlarda "Sust xotin" marosimi o'tkazilgan. Bu marosim bir joyda ayollar, bir joyda erkaklar ishtirokida o'tkazilgan:

Sust xotin – sulton xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Suv xotin – suvsiz xotin,
Ko'yylaklari bo'z xotin.
Hosillar mo'l bo'lsin, suv xotin,
Dehqonning uyi to'lsin, suv xotin.
Kazzobning uyi kuysin, suv xotin,
Suv xotin – suvsiz xotin.

Yuqorida keltirilgan matnga o'xshagan qo'shiqlar yordamida kichik hududlarda yomg'ir chaqirib lalmi yerlarda yekilgan bug'doylarning unish va o'sishi uchun imkon yaratishga urinilgan.

Yozgi marosimlardan biri "Choy momo" bo'lgan. "Choy momo" bemahal ko'tarilgan shamolni to'xtatish maqsadida o'tkazilgan. B.Sarimsoqov bu marosimning Janubiy Qozog'istonda yashovchi o'zbeklar orasida o'tkazilgani haqida

yozadi. 2009 yil Qashqadaryo viloyatidagi Qozoq qishlog'ida o'tkazilgan ekspeditsiya davomida bu yerlik qariyalar "Choy momo" marosimi haqida eshitganliklari haqida ma'lumot topdik. Ammo bu yangilikni aytgan qariyalarimiz marosim tafsilotlarini eslay olmadilar. Marosimda quyidagi matnli qo'shiq kuylangan:

Choy momo, choy momo,
Choy momosi o'libdi.
O'g'li yetim qolibdi.
Bosa-bosa beringlar,
Bosilib qolsin bu shamol.
Ucha-ucha beringlar,
Uchilib qolsin quv shamol.
Oblo-hu, Oblo-hu...

B.Sarimsoqovning ma'lumotiga ko'ra, Sayram atroflarida marosimni, asosan, keksa ayollar boshlaganlar. Ikkita kampir eski ust-bosh kiyib, yuzlariga qorakuya surtib, qo'llariga hassa olib, bittadan kaltakni yog'och ot qilib minib, "Choy momo" qo'shig'ini aytishib, qishloq ko'chalari bo'ylab yurishadi. Ularning ortidan boshlariga qizil sholcha yopingan beshta bo'yi yetgan qizlar qo'shiqqa jo'r bo'lib borishadi. Ulardan keyinda esa yetti-sakkiz yoshlardagi bola eshakka minib olib, xonadonlardan berilgan xayr-sadaqalarni xurjunga solib yuradi. Eshakda o'qloq, keli soipi va supurgi qo'shib bog'langan bo'ladi. Shu tariqa ishtirokchilar qishloqdagi barcha ko'chalarni aylanib qo'shiq aytishadi.

Kuzgi marosimlarda shamol chaqirish odati bor. Agar yoz faslida yetilgan bug'doyni yerga egib qo'ymasin uchun shamol to'xtatilgan bo'lsa, kuzda donli ekinlarni shopirish uchun shamol chaqirilgan:

Haydar, ota-onang o'libdir,
Moli senga qolibdir.
Bolang suvg'a oqibdir,
Shamolingni qo'yvor.

Bu to'rtlikdag'i Haydar Hazrati Alining nomlaridan biri deb belgilangan.

Qish faslida Yas-yusun marosimlari o'tkazilgan. Unda mahalladagi yigitlar yoki ulfatlar yig'ilishib, qimizxo'rlik, bo'zaxo'rlik uyuştirganlar. Marosimda bo'za ichish, davrada o'tirish, davradan turib ketish, jo'ra boshi (marosim biyi) buyrug'ini

so'zsiz bajarish qoidalariga riosa qilingan. Marosimda qimizni yoki bo'zani kosagul kosaga quyib to'rt misrali qo'shiq aytgan:

Alyor bo'lsin-ay,
Xo'jam yor bo'lsin-ay.
Xo'jam bergen bu davlatga
Dushman zor bo'lsin-ay.
Qo'shiqqa kosa olgan ishtirokchi javob qaytargan:
Oyga o'xshaydir yuzing,
Cho'lponga o'xshaydir ko'zing.
Shuncha ham yaxshi bo'lurmi,
Xalq ichida yulduzing.

O'zbek xalqi hayoti bilan yaqindan tanishgan odam mavsumiy marosimlarning juda ko'p ko'rinishlariga ega ekaniga guvoh bo'ladi. Mavsumiy marosimlar xalq hayotining tarkibiy qismini tashkil qilib, asrlar davomida o'zbeklarda ko'ngil ochish, tabiatga umid bilan qarash, yaxshilikka intilish niyatining badiiy ifodasi bo'lib kelgan.

Etnik xususiyatlarni saqlab qolish omillari va milliy marosimlarni tadqiq yetish muammosi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharoitida milliy marosimlarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etdi. Xalq ma'naviyati, madaniyatini yuksaltirishda marosimlarning o'mi va ahamiyati katta. Ular ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar sifatida ajdodlardan avlodlarga o'tib xalq ma'naviyatini shakllantirmoqda.

Masalan, etnograf, etnolog, tarixshunos, manbashunos olimlarning yuzlab tadqiqotlariga bosh bayram marosimlarini olaylik. O'zbek xalqining bayram marosimlari juda ko'p. Ularda O'zbekistonda yashovchi butun aholi ishtirok etadi. Xusan, umumxalq bayramlarining eng azizi yuqorida ta'kidlanganidek, Mustaqillik bayramidir. 1991 yil 31 avgust kuni O'zbekiston mustaqil davlat deb e'lon qilindi. 1 sentyabr Mustaqillik kuni deb belgilandi. 1991 yil 1 sentyabrdan boshlab har yili butun O'zbekiston mustaqil yurt sifatida o'zining ozodlikka erishganini nishonlab kelmoqda. Mamlakatning poytaxti Toshkentda, Qoraqalpog'iston poytaxti Nukusda, hamma viloyatlar markazlarida, tumanlar markazlarida katta tantanalar uyushtiriladi. Katta bayram kontserti uyuştiliriladi. Bu kontsertlarda xalq qo'shiqlari, rasm-rusumlari, dostonlardan parchalar, askiyalar, xalq raqslari, amaliy san'at namunalari

namoyish etiladi. Kuzgi ekinlar sayillari o'tkaziladi. Bu tantanalar televideniya orqali butun dunyoga ma'lum qilinadi.

O'zbek xalqining eng qadimgi bayramlaridan biri Navro'z hisoblanadi. Navro'z kuni, shu kun atrofida odamlar ko'k somsa, ko'k chuchvara, ko'k varaqi somsa, sumalak va boshqa turli taomlar tayyorlaganlar. Toshkentda halim pishirish odati bo'lgan. Navro'zda maxsus xalq qo'shiqlarini aytish rasm hisoblangan. Ulardan jarchilar qo'shig'i, Navro'z keldi, yoz keldi, Navro'z o'lanlari mashhur yedi. Xususan, "Navro'z olqishi"da shunday deyilgan:

Eski yil ketdi,
Yangi yil keldi.
Doshqozonlar tizilsin,
Sumalaklar suzilsin.
Bug'doyerlar pishib chosh bo'lsin,
Eganimiz osh bo'lsin.

Sumalak pishirishda esa boshqacha qo'shiq aytilgan:

Bahorning sen elchisi
Yaxshilikning belgisi,
Navro'zning sen singlisi,
Sumalakjon, sumalak.
Sumalakjon, sumalak.
Sumalakka yig'ilar,
Katta-kichik, hamma ham,
Pishib chiqsa, totisang,
Ko'ngillar quvnar biram.
Sumalakjon, sumalak.
Sumalakjon, sumalak.

Muhammad Rizo Ogahiy o'zining lirik ijodida Navro'z bayrami haqida diqqatga loyiq ma'lumotlar beradi. Xususan, shoir Navro'z kuni taqdир og'ir sinovdan o'tkazayotgan, betob, g'arib odamlarni ziyorat qilish savobli ekanini ta'kidlagan. Navoiy va Ogahiy an'anasi keyinchalik Muqimiy, Furqat, Cho'lpon, Oybek, H.Olimjon ijodida davom ettirildi. Sobiq sho'ro tuzumida Navro'z bayramiga qayta-qayta hujumlar uyuştilirilgan. Harakatning eng og'ir payti 1986 yilga to'g'ri keldi. Bu yili Navro'z bayrami nishonlanmagan. O'zbekistonning mustaqillikka erishuviga

Navro‘zga bo‘lgan munosabatda aniq ko‘rinadi. 1990 yilda uning birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Navro‘z umumxalq bayrami sifatida keng nishonlandi. Shundan buyon Navro‘z bayrami o‘zbek xalqining orziqib kutadigan shodiyonasiga aylandi.

Umumxalq bayramlari qatoridan munosib o‘rin olganlari sifatida Ramazon hayiti va Qurbon hayiti bayramlarini ham ko‘rsatish mumkin. Yurtimiz mustaqil bo‘lganidan beri islom dini bilan bog‘liq bu ikki bayram alohida nishonlana boshlandi. Har yili ramazon oyida islom diniga e’tiqod qiluvchilar 30 kun davomida ro‘za tutishadi. Oq‘iz ochar payti bo‘lganidan so‘ng 30 kun yosh bolalar ramazon aytishadi. Qadim zamонlarda ramazon aytish o‘siprin yigitlar zimmasida bo‘lgan. Qishloq yo shahar ko‘chasining o‘rtasida yakkaxon qo‘sishchi atrofida 5-6 ta do‘stlari bilan ramazon aytgan. Davraning ikki chekkasida xurjun – xalta bilan ikki yigit eshik oldiga borib davraga qaytgan. Xonardon egalari ramazonchilarga hadya – ehsonlar chiqarib berishgan. Marg‘ilon shahridagi qariyalarning eslashicha, bu marosimlar o‘z vaqtida juda fayzli va orziqib kutilgan daqiqalardan iborat bo‘lgan ekan:

Ramazon aytib keldik eshicingizga,
Xudoyim o‘g‘il bersin beshicingizga.
Ramazon yo ramazon, may ramazon,
Muhammad ummatiga may ramazon.
Makkada bir yog‘och bor, boshi qora,
Xudoyim o‘g‘il bersin, qoshi qora.
Ramazon yo ramazon, may ramazon,
Muhammad ummatiga may ramazon.

Odatda, ramazon oyi ramazon hayiti bilan yakunlangan. Ammo yil davomida ramazon aytuvchilar ham bo‘lgan. Toshkent viloyati Angren tumanida yashagan marhum Oltivoy ota yil – o‘n ikki oy otda qishloqma-qishloq ramazon aytgan. Har xil yaxshi niyat qilgan odamlar unga sovg‘a-salomlar bergenlar. Ota ehsonchiga bitta non berib, duo qilib ketavergan, ramazonni aytavergan. Xullas, islom dinimiz bilan bog‘liq umumxalq bayrami yiliga ikki marta: Ramazon va Qurbon hayiti sifatida nishonlangan. Bu davrda qurbi yetgan odamlar iqtisodiy qiynalgan yurtdoshlariga zakot, fitr ehsonlarini berishgan.

Shunday qilib, o'zbek xalqi qadim zamonlardan o'z hayoti davomida turli marosimlar o'tkazgan va bu marosimlarda Yaratgan Tangridan yaxshi orzu-istiklarning ro'yobga chiqishini so'ragan. Marosimlar xalq hayotining tarkibiy qismi sifatida milliy urf-odatlar kabi qadrlangan.

Oila va oilaviy marosimlar. Fanda qabul qilingan o'ziga xos mezonlarga ko'ra insoniyat hayotining muhim burilish nuqtalari bilan bog'liq holda o'tkaziladigan tadbirlar **oilaviy marosimlar** deb yuritiladi. Oila va oilaviy marosimlar etnosga oid madaniy va maishiy an'analar uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi.

O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlab o'tganidek: "Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, **oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir**. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiatini va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezzulik, oljanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarining poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiyidir"⁴². Shunday ekan, oilada farzandlar tarbiyasida oilaviy marosimlarning ham alohida o'rni bor. Quyida ayrim oilaviy marosimlar keltirib o'tilgan.

Oilaviy marosimlar ichida chaqaloq bilan bog'liq marosimlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Qadimgi an'analarga ko'ra chaqaloq bilan bog'liq ba'zi urf-odatlar tug'ilajak bolani turli xavf-xatarlardan saqlash maqsadida ayol kishining homiladorlik davridanoq o'tkazilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, umuman olganda homiladorlik bilan bog'liq turli magik marosimlar va rasm-rusumlar dunyo xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lib, tadqiqotchilar tomonidan ancha yaxshi o'rganilgan.

Kishilarga ism qo'yish tarixi qadimgi e'tiqod va topinishlar hisoblanmish, totemizm, shamanlik, afsungarlik, animizm kabilalar bilan bog'liq. Ba'zi ismlar bolaga og'irlik qiladi, degan mulohazaga ham borilgan. Hatto bola bu ulug', og'ir nomni ko'tara olmay baxtsizlikka uchrashi mumkin, deya irim qilingan.

⁴² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008 yil. 52-bet.

Umuman bunda mutanosiblik-munosiblik nuqtai nazariga amal qilingan. Shu bilan birga juda qadim zamonlardan bolaning sog' bo'lishi, yashab ketishi, kelgusi baxti unga qo'yiladigan ism bilan bog'liq bo'ladi, deb hisoblashgan. Binobarin, chaqaloqqa muvafaqiyatli tanlab berilgan nom uning taqdirini o'zida mujassam qiladi, kishi o'z ismiga o'xshaydi, deb ishonilgan. Natijada odamlar "xosiyatlari" (qutli) va "xosiyatsiz" yaxshi va yomon ismlar bor, deb hisoblaganlar. Shu sababli chaqaloqning turli kasallarga chalinaverishi yoki oilada bolalarining turmasdan nobud bo'laverishi, bola badanida turli nuqsonlarning mavjud bo'lishi, qolaversa farzandning kelgusi baxti uning ismiga bog'liq deb bilganlar.

Mana shunday tasavvurlar tufayli zamonlar o'tishi bilan chaqaloqqa beriluvchi ism odamni o'zaro farqlash, atashgina emas, balki uni turli balo-qazolardan asraydigan, muhofaza qiladigan, qutqaradigan vositaga aylana borgan. Shu tufayli Farg'ona vodiysida ham kishilar qadim davrlardan bolaga ism berish ishiga mas'uliyat bilan yondashganlar.

Oilada farzand birin-ketin nobud bo'laversa o'z farzandiga Tursun, To'xtasin, O'lmas, Turdi, Turg'un, Turg'unoy, Ergash, Mahkam kabi ismlar qo'yilgan. Qadimiy diniy e'tiqodlarga asoslanib ko'kka (osmonga) Oy, Kun [Quyosh] va boshqa osmoniy jismlar qudratiga sig'inish asosida Oyxon, Oyziq, Yulduz, Hulkaroy, Cho'lponoy, Quyoshbek, Tangriberdi kabi ismlar paydo bo'lgan. Ba'zi hollarda qadimda muqaddas deb ulug'langan hamda sig'inilgan ayrim hayvon va qushlarning nomlaridan ham ismlar yasalgan. Bunday ismlar guruhiга Bo'rivoy, Arslon, Lochin, Burgut, Qo'chqor, Sherzod kabi ismlar kiradi.

Ba'zi chaqaloqlar badanidagi biror bir ortiqcha belgilar, masalan, xol, toj, qizil tamg'a, ortiqcha barmoq va boshqa belgilar bilan tug'ilgan. Bu nuqson va belgilarni bolalarga ism berishda hisobga olinmasa ular bolaning sog'ligiga, hayotiga, kelajak turmushiga xavf tug'diradi, deb tushunilgan. Bunday norasidalarini o'z nomi bilan tug'ilgan bola, deb hisoblashgan va ularga o'sha ortiqcha belgilar nomidan yasalgan ismlar qo'yilgan. Chunonchi Xolboy, Xolbibi, Anor, Anorvoy, Anorxon, Toji, Tojixon, Tojigul, Ortiqvoy, Norboy, Norjon, Ochil va boshqalar.

Farg'ona vodiysi o'zbeklarida ham boshqa mintaqalarda yashovchi o'zbeklar va tojiklarda bo'lgani kabi singari muqaddas ziyyaratgohlar va qadamjolarga nazrniyoq qilinishi natijasida tug'ilgan chaqaloqlarga ham maxsus ism qo'yilgan bo'lib, ularga qo'yilgan ism bolani kelgusidagi hayotida turli balo-qazolardan himoya qilar.

ekan. Bunday tarzda tug'ilgan chaqoloqlarga ko'pincha Hazratqul, Pirimqul, Xo'jamberdi, To'ra qul, Pirmiyoz, Ishonberdi, Xo'jamberdi kabi ismlar qo'yilgan. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, o'zbek tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli ins-jinslardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashgan.

Bu odat yovuz ruhlarni adashtirish maqsadiga qaratilgan, bolani yashirish yoki yovuz ruhlarni aldash afsungarligi bilan bog'liq.

Xalq tassavvurida chaqaloq bilan uning onasini ins-jinslar ta'siridan eson-omon saqlash ularning chilla davri tartib qoidalariga qanchalik rioxay qilishlariga bog'liq bo'lgan. Chilla inson hayotidagi xatarli, eng og'ir va eng mas'ulyatli davrni anglatuvchi so'z hisoblanadi. Odatda farzand tug'ilganda va kelin-kuyov turmushining nikohdan, marhumning vafotidan keyingi 40-kunlik davriga nisbatan chilla atamasi qo'llaniladi va bu davrda ma'lum tartib-qoidalar, magik rasm-rusumlar, cheklashlar va tabularga amal qilinadi. Umuman chilla davri va u bilan bog'liq rasm-rusumlar va urf-odatlar ham ba'zi tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Biz bu o'rinda inson hayotining uch davri bilan bog'liq chilla davri urf-odatlaridagi o'xshashliklarga e'tiborni qaratmoqchimiz. Avvalo shuni aytish kerakki, har uch davrdagi chillada ham asosiy maqsad chillali odamni va ushbu uyni yovuz kuchlar, yomon ko'zlar hamda turli ins-jinslar ta'qibidan himoya qilish bo'lgan. An'anaga ko'ra har uch chilla davrida ham chillali xonodonda qirq kun mobaynida ushbu uy chirog'i o'chirilmaydi va chillali odam yolg'iz qoldirilmaydi. Shuningdek har uch chillaning ham aynan bir xil kunlari (ko'pincha uchinchi, yettinchi, yigirmanchi, qirqinchiga)ga ko'proq e'tibor berilgan va bu davrda chillali uyga isiriq tutatib turish doimiy shartlardan biri hisoblangan. Qolaversa, aynan chilla davrida marosimiy cho'miltirish va kiyim kiydirish kabi urf-odatlar bajarilishi ham mazkur jarayonni initsiatsion xarakterga ega bo'lgan deyishimizga asos bo'ladi.

Chillali xonadonlarga kirib-chiqish qat'iy nazorat qilinadi. Begona kishilar ona-bola yotgan xonaga kirgizilmaydi. Ajdodlarimiz chaqaloq organizmining nozikligi va kasalga chalinuvchanligi tufayli chilla davrida ins-jinslar xurujidan kattalar yordamisiz o'zini himoya qila olmaydi, deb o'ylaganlar. Yovuz kuchlar yo'liqishining oldini olish, ularni chaqaloqli uy ostonasiga yaqinlashtirmsandan chalg'itib yuborish maqsadida bir qator afsungarlik harakatlari, irimlar, tabular bajarilgan. Ayniqsa, chillali uyga bolasi chala tug'ilib yoki boshqa sabablarga ko'ra nobud bo'lgan yoxud bepusht ayollar hamda noplak kishilar kiritilmagan.

Samarqandda chillali xonadonni yovuz kuchlardan himoya qilish maqsadida bola yotgan uyga mevali daraxt shoxidan qoqib qo'yilgan. Chaqalojni ko'rgani kirgan har bir kishi ushbu shoxni qo'li bilan ushlab ichkariga kirgan.

Kosonsoy tumani aholisida chaqalojni ko'rgani kelgan mehmonlar chillali ayol bilan qo'l berib ko'rismaganlar. Bizningcha, ushbu tabu zaminida qo'l berib so'rashish orqali ona va bolani ko'rgani kelgan odamlarning ziyonidan saqlanish, muloqotli afsungarlik (magiya) g'oyasi mujassamlashgan. Ona-bola yotgan joyga yomon kuchlar, yovuz ko'zlardan himoya vositasi sifatida pichoq, ko'zgu (oyna), qalampir, kulcha turli-tuman diniy kitoblar qo'yilgan. Yag'nob tojiklari esa chaqalojni yovuz ruhlar jumladan, alvasti ziyonidan asrash maqsadida xonadon ostonasiga katta pichoq qo'yishgan.

Chaqaloqning chilla davri ikkiga bo'lingan bo'lib, dastlabki yigirma kun *kichik chilla*, keyingisi esa *katta chilla* deyilgan.

Vodiy xalqlarida chaqaloq yigirma kunlik bo'lgach, uning kichkina chillasi chiqdi, bir xavf-xatardan eson-omon o'tib oldi, xudo xohlasa bundan buyog'iga yashab ketadi deyilgan va kichkina chilla chiqqan kuni ona va bolani yaqin qarindoshlarinikiga "chilla qochdi" qilib mehmondorchilikka olib borganlar.

Namangan aholisi orasida ko'z yorgan ayolning ma'lum paytgacha tevarak atrofdagilar bilan bo'ladigan o'zaro muloqoti cheklangan. Bu davrda tuqqan ayol o'z oila a'zolari bilan bir dasturxonda o'tirmagan, ovqat pishirish, non yopish, hovli supurish, sigir sog'ish kabi ro'zg'or yumushlariga aralashtirilmagan. Bu davr tuqqan ayolning nopolik muddati deb ham atalgan. Odatda bu davr farzand tug'ilgandan so'ng yetti-to-'qqiz kun, ba'zan esa kichik chillasi tugaguncha davom etgan.

Bizningcha chilla davrida o'tkaziladigan tabular zaminida quyidagi ikki xil ma'nno yotadi:

-birinchidan, bu davrda ayol kishi yomon ruhlar ta'siriga tez chalinadi;

-ikkinchidan, "ko'z yorgan" ayol bu davrda marosimiy jihatdan pokiza bo'lmaganligi sababli suv, non, o'choq olovi, taom va sigir sutini nopolashi mumkin deyilgan.

Chaqaloq chillasi chiqqunicha qorong'ulikdan qattiq muhofaza qilinadi va bu davrda vodiyya oldinlari xonadon o'chog'idagi olov, hozirda esa elektr chirog'i o'chirilmaydi. Bunday odat Toshkent o'zbeklari va Zarafshon vodiysi tojiklariada ham

uchraydi. Nazarimizda bu odat yovuz kuchlarning yorug'likdan qochib qorong'ulikda faollashadi, degan qadimiy e'tiqodga asoslanadi.

Bu irimlar va e'tiqodlar qoldig'i ajdodlarimizning yorug'lik va olovni muqaddaslashtirish bilan bog'liq mifologik tasavurlari zaminida shakllangan an'analar sirasiga kiradi. Qolaversa, chilla davri bilan bog'liq marosimlardagi turli tabular va cheklashlar ildizlari qadimgi zardushtiylik marosimlariga borib taqalishi mumkin. Zero zardushtiylar e'tiqodiga ko'ra tug'ish, kasalliklar, hattoki inson farzandining tug'ilishi ham organizmning murdor, makruh bo'lishiga, insonning barkamol jismoni holati buzilishiga olib kelgan. Poklanish marosimlariga oid zardushtiylik yozuvlarida ta'kidlanishicha, hayz ko'rgan, tuqqan va kasal bo'lgan ayollar ma'lum tabularga amal qilganlar. Ya'ni ular tashqariga chiqib oy va quyoshni ko'rishlari, bog'da ishlashlari, o'choq boshiga borib ovqat tayyorlashlari ta'qilangan. Zardushtiylarda marosimiy poklanish davri og'ir, mashaqqatli bo'lib, qirq kun davom etgan.

Demak, bundan kelib chiqib, chilla davridagi ko'plab odatlar va ta'qiqlar qadimgi zardushtiylik marosimlari bilan bog'liq, deyish mumkin.

Farg'ona vodiysida bolani birinchi marta cho'miltirishda tajribali, ko'p bolali ayollar ishtirok etganlar. Bu marosimda ona bolasi oldiga bormagan, aksincha bolani onaning oldiga ko'tarib olib kelishgan. Bunda farzand butun umri davomida otanasinga xizmat qilsin, degan magik niyat mujassamlashgan. Bolani cho'miltirishda afsungarlik maqsadida suvga ozgina tuz va bir siqim tuproq tashlangan. Xalq ishonchiga ko'ra bu solingen ashyolarning xususiyatlari suv orqali chaqaloqqa o'tib uni yovuz kuchlar ta'siridan himoya qilgan. Shu maqsadda janubiy Xorazm o'zbeklarida tuz, tuproq va tuxum po'chog'i, Toshkentda yigirma tiyinlik kumush tanga, Andijonda esa chaqaloq qiz bo'lsa, onasi va momosining barcha taqinchoqlarini suvga solib cho'miltirilgan. Bu ashyolar ichidagi sho'r suvdan insonlar antik davrdan boshlab foydalanganlklari bizga ma'lum.

Sunnat to'ylari. Farg'ona vodiysida ham bolaning toq yoshlarida, ya'ni uch, besh, yetti, to'qqiz yoshlarida katta to'y - tomoshalar bilan o'tkazilgan. Buning sababi, xatna juft yoshlarda qilinsa, bolaga baxtsizlik keltirar emish. Sunnat to'ylaridagi yoshning toq bo'lishi, birinchidan, bola umrining uzoq bo'lishini, ikkinchidan, farzandni sunnat qildirishdek baxt ota-onas uchun davomli bo'lishini

anglatadi. Chunki toq narsa juftlikka to‘lishga intiladi. Juftlikka to‘lish esa kamolot va narsaning ma’lum ma’noda intihosini anglatadi.

Sunnat to‘ylaridagi afsungarlik usullari boshqa marosim majmualardan bizga yaxshi ma’lum. Sunnat to‘ylarida ham to‘yni o‘tkazish tayyorgarliklari asosan pиру badavlat odamlarga yuklatilgan. Buning sababi ularning yaxshi fazilatlari marosimiy tarzda bolaga o‘tsin deb niyat qilingan.

Sunnat to‘yi va u bilan bog‘liq marosimlar adabiyotlarda batatsil yoritilgan. Bu mavzu bizning tadqiqotimiz asosini tashkil qilmagaligi uchun unga keng to‘xtalmasdan sunnat to‘yi munosabati bilan o‘tkaziladigan xatna marosimi va u bilan bog‘liq bajariladigan afsungarlik usullarigagina qisqacha to‘xtolib o‘tamiz.

Xatna qilish, ya’ni bola olatining uchidan ma’lum teri qismini kesib olish odatining genezisi juda qadimiy va uzoq tarixga borib taqaladi. Bu odat va u bilan bog‘liq bajariladigan rasm-rusumlar ibtidoi-yamoa tuzumi davrida yuzaga kelgan bo‘lib, ba’zi xalqlarda sinov tariqasida, boshqa xalqlarda esa bir yosh bosqichiga ikkinchi yosh chegarasiga o‘tish belgisi sifatida amalga oshirilgan. Tarixiy manbalardan ma’lum bo‘lishicha, eramizdan ikki, ikki yarim ming yil muqaddam Misr kohinlarida oddiy odamlardan ajralib turish uchun xatna qilish odati mavjud bo‘lgan.

Farg‘ona vodiysi aholisida xatna qilish daraxtlar uyg‘onmasdan burun maxsus usta-sartarosh tomonidan amalga oshirilgan. Ustalar ustoz-shogird munosabatlari orqali o‘z kasblari davom ettirganlar. Ularning ham o‘z pirlari bo‘lgan bo‘lib, vodiydagи sartarosh-ustalarining piri Salmonu pok bo‘lgan.

Usta bolaning a’zosi uchiga g‘arov (yog‘ochdan yasalgan qisqich) qistirib, a’zoning chilpinadigan qismini ustara tig‘i bilan kesib olgan. Kesish vaqtida bolaga umri uzoq, rizqi butun bo‘lsin degan niyatda non tishlatilgan. Bu udumning o‘tkazilishi og‘riq paytida bolani chalg‘itish uchun ham xizmat qilgan. Xatna jarayonida biz yana ko‘plab qadimiy udumlarni uchratamiz. Bolani xatna qilayotgan paytda onasi bolasi moyday yoqimli, dasturxonni to‘kin bo‘lsin degan niyatda bir barmog‘ini unga, ikkinchi barmog‘ini yog‘ga botirib turgan. Ona bunday afsungarlik amali bilan go‘yo farzandi og‘rig‘ining engillashishiga yordamlashgan.

Bolaning sunnati onasi tomonidan ramziy sotib olingan va juda ehtiyyotkorlik bilan yashirin ravishda mevali daraxtning, masalan, tut tagiga ko‘mib qo‘yilgan.

Bunday qilinishiga sabab, yuqorida ta'kidlaganimizdek befarzand ayollarning xurujidan himoyalanish bo'lgan.

Xalqimizning qadimiylarini, madaniyat tarixi, orzu intilishlari, hayotga munosabatini o'rganishda nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlarning ahamiyati. O'zbek xalqining qadimiylarini rasm-rusumlari, dunyoqarashi, ishonch-e'tiqodlari, turmush-tarzi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari, asrlar bo'yini jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlarimizdan biri - nikoh to'yidir. Xalqimizning qadimiylarini, madaniyat tarixi, orzu intilishlari, hayotga munosabatini o'rganishda nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlar muhim ahamiyatga egadir.

Odatda, yangi oilaning paydo bo'lishi nikoh to'ylari bilan boshlanadi. Dunyodagi ko'plab boshqa xalqlar singari o'zbek to'y marosimlari sirasida nikoh to'ylari o'zining turli xildagi marosimlarga, irim-sirimlarga boyligi, etnografik manbalarining rang-barangligi bilan alohida ajrab turadi.

Ma'lumki, qadimdan to bugungi kungacha qizni turmushga berish harakatini oilasigasovchi kelish belgilab beradi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'oti-t-turk" asarida "sav" so'zining xabar berish ma'nosi borligi qayd etilgan. Shu ma'lumotga asoslanib "sovchi" milliy tilimizdageng qadimgisozlardan emasmikan, degan fikrga borish mumkin. Chunki Sovchi bo'lajak kelin oilasiga kuyov haqida, uning shu qizga uylanish niyati borligi haqida, kuyovga esa kelinning rozi, rozi emasligi haqida xabar beruvchi elchi hisoblanadi. To'y marosimi ham to'y olib kelish, indovchi yuborish, ziyofer berish, yor-yor aytish, tortishmachoq, ayrim viloyatlarda kampir o'ldi, qo'l silatdi kabi qator kichik sahnali marosimlardan iborat bo'ladi. Aslini olganda, har bir to'y kelin va kuyov yashaydigan hudud aholisi tomonidan yillar davomida o'ylab topilgan sahna - stsenariy asosida o'tkaziladi. Uning ishtirokchisi boshqa bo'ladi, xolos. Ya'ni iqtisodiy ta'minlanish, el-yurtdagi hurmati, to'y xarajatiga munosabati to'yning uyuştilish sifatini belgilaydi. To'y marosimlarining shartlari hayotning o'tishi bilan o'zgarib turadi. Masalan, uzoq qadimgi zamonalr kuyov bo'l mish yigit uylanajak qizni jismoniy jihatdan engishi lozim bo'lgan. Keyinchalik bu shart qizga talab chiqayotgan yigitlar o'rtasidagi kurashga ko'chgan. Yana ham keyinroq bu shartlar ham o'zgargan. Har bir harakatda so'z ishtirokidagi udumlar bo'lgan. Hozir bu udumlar ko'proq sovchilarning so'zga ustaligi bilan kelin tarafni ko'ndirish, kuyov do'stlariga sarpolar berish, qiz

kuyovnikiga kelganida, yangalarning qizni kuyov tarafga topshirish lavhalarida saqlanib qolgan. Ayrim hududlarda yor-yor, kelin salom odatlaridan tashqari o‘lan aytishadi. Qizlar bir taraf, yigitlar bir taraf bo‘lib, lirik mazmundagi tortishuv o‘tadi. Masalan, Toshkent viloyatining Angren tumanida o‘lan aytish odatiga alohida e’tibor beriladi. Respublika o‘lan aytish tanlovining doimiy o‘tkazilishi esa bu janr rivojiga turki bo‘ldi, deyish mumkin.

Yigit:

O‘yna turib deganda, o‘yna turib,
O‘rtanaman – kuyaman seni ko‘rib,
O‘rtanganda – kuyganda seni ko‘rib,
Ermaklaysan – kulasan, labing burib.

Qiz:

Kiygan to‘ning yarashgan bo‘yginangga,
Men bilmadim ne so‘z bor o‘yginangda,
Ermaklasam ermaklay labim burib,
Indamasdan borib yot uyginangga.

To‘y davomida kelin gulxan atrofida aylantiriladi. Bu udum payti yor-yor aytib turiladi. Yor-yor tugagach, navbat kelin salomga keladi. Toshkent va ayrim boshqa hududlarda kelin salom to‘yning ertasiga aytildi.

Oilaviy marosimlar qatoridan o‘rin olgan yana bir to‘y bolaning tug‘ilishi bilan bog‘lanadi va beshik to‘yi deb yuritiladi. Odatda, bola tug‘ilganidan keyin 7-21 kun orasida aqiba marosimi o‘tkaziladi. Undan keyin beshik to‘yi qilinadi. Beshik to‘yi yangi tug‘ilgan farzandning birinchi beshikka belanishi bilan boshlanadi. Beshik to‘yida surnay, doira va boshqa tomoshalar ko‘rsatiladi. Quloq cho‘zdi o‘yinlari o‘tkaziladi. Hamma tomoshalar tugaganidan so‘ng ko‘p farzand ko‘rgan, piri badavlat kayvoni ona bolani maqtaydigan, unga yaxshi tilak tilaydigan qo‘sish qaytaradi. Beshik jihozlari tayyor bo‘lganida, kayvoni ona bolani “shunday belaymizmi?” deb teskari yotqizadi. Hamma xotinlar “yo‘q, yo‘q” – deb javob beradilar. Shu yo‘sinda bola bir necha marta beshikka nobop yotqiziladi va “shunday belaymizmi?” deb so‘raladi va yana “yo‘q, yo‘q” javobi olinadi. Oxiri “Ha” bilan bu marosim tugaydi. Shundan so‘ng bolaga onalik qilayotgan ayol chaqaloqni beshikka belab turib, qo‘sish qaytaradi:

Qoch-qoch babasi,

Keldi beshikning egasi.
Ota-onang gapirishsa,
Qichqirishsa, yana qo'rqma!

Qo'shiqning davomida it, mushuk, eshak va boshqa hayvonlar ovoz chiqarsa, qo'rmasligi kerakligi aytilgan. Bola belanib bo'lгandan so'ng beshik ustidan sochqi sochiladi va isiriq tutatiladi. Uning aytimi quyidagicha:

Isiriq, isiriq, usmon isiriq,
Har dardga dardmon isiriq.
So'zlaganni so'ziga,
Qaytib borsin o'ziga.
Chatnasin, isiriq,
Tutasin isiriq.
Bolamga ko'z tegmasin.
Kim qo'zimga ko'z qilsa,
Ko'zlar oqib tushsin.

Shundan keyin beshikdag'i bola maxsus xonaga olib chiqiladi, mehmonlarga osh tarqatiladi, xotinlar turli matolar, kiyimliklar bilan chorlanadi.

O'zbeklarda esda qoladigan to'ylardan biri xatna (sunnat) to'yi hisoblanadi. Bu to'y xatna, sunnat, chupron, chukron, qo'lini halollash kabi nomlar bilan atab kelangan.

To'y egasining qo'li ochiqligi, ko'pincha, shu to'yda aniqlangan. Ona taraf toy va kuyov tarafni sarpolar bilan siylagan. Ota taraf yurtga osh bergen, qarindosh-urug' va tanishlarga dasturxon yozgan. Chorva bilan shug'ullanadigan hududlarda, albatta, ko'pkari, uloq uyuşhtirilgan. Qadimgi an'analarga ko'ra, Xorazmda "Oltin qovoq", Andijon, Farg'onada "Qulqoq cho'zma", Toshkentda "Bola mast"lar o'tkazilgan. Masalan, Toshkentdag'i odatga ko'ra to'y bolaga zarar qilmaydigan turli ichimliklar berilib mast holatga keltirishgan. Shundan so'ng bola, tog'asi, amakisi yoki qo'shni yigitlardan birining yelkasiga opichilgan. Ziyofat to'yxonadan ma'lum masofada uyuşhtirilgan. Belgilangan vaqtga bolani uyg'a yetkazishdan avval xonodonma-xonodon kirib chiqilgan. Bu paytda mana shunday qo'shiq aytilgan:

Masjid bo'lsa, madrasa,
Ho yallo, yallo, yallo.
Bir odil poshsho bo'lsa,

Ho yallo, yallo, yallo.
Har kim sevganin olsa,
Ho yallo, yallo, yallo.

Professor B.Sarimsoqovning yozishicha: "Chorqarsak xatna to'yining eng qiziq va hal qiluvchi nuqtasi sanaladi. To'y ishtirokchilari katta doira shaklida turadilar. Ichki qatordagilar tiz cho'kishib turishadi. O'rtaga bir yoki ikki yigit tushib chalinayotgan qarsak ritmi asosida chorqarsakning birinchi (chaqiriq) bo'limi "Yallama yorim" qo'shig'iga o'ynashadi."

Qo'shiq matni:

Bundan bordim, yotibsiz,
Par yostiqqa botibsiz.
Par yostiqni ko'tarsam,
Gulday toza yotibsiz.

Naqarat:

Yallama yorim, yallola,
Yallolashaylik, yallolashaylik.
To'rtta-beshta bir bo'lib,
Hasratlashaylik.
Hasrat bog'ingdan,
Quralay ko'zingdan.
O'ldira bersang, kuydira ber,
Shakkor so'zingdan.

O'zbekistonimizning viloyat, tumanlari ko'p. Har bir hudud to'y marosimlarini o'tkazishda o'z udumlariga ega. Shuning uchun uylanish, qiz uzatish, beshik, xatna to'ylarida umumiyl milliy odatlar asos bo'lsa-da, ulardagi kichik, juz'iy tadbirlarda bir qator farqlarning kuzatilishi tabiiydir.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Marosimlar, xalq madaniyatining fenomeni, milliy marosimlarni tadqiq yetish, oilaviy marosimlar, xalqimizning qadimiy e'tiqodlari, Sust xotin, Choy momo, sovchilik bilan bog'liq marosimlar, mavsumiy marosimlar, bayram marosimlari, nikoh to'yi bilan bog'liq marosimlar, yor-yor, aytishuvlar, beshikka belash, beshik to'yi.

Mavzuni o'zlashtirish yuazsidan savollar:

1. Marosimlar – xalq madaniyatining fenomeni deganda nimani tushunasiz?
2. Marosimlarning xalq hayotida tutgan o‘mi haqida gapiring...
3. Marosimlarni shartli ravishda necha turga bo‘lish mumkin?
4. Oilaviy marosimlar deganda nimani tushunasiz?
5. Oilaviy marosimlarning qanday turlarini bilasiz?
6. Marosimlarning o‘tkazilish qoidalariiga izoh bering...
7. O‘zingiz bilgan va qatnashgan marosimlar haqida gapirib bering...
8. O‘zingiz bilgan marosimlarning o‘tkazilish tartibini bilasizmi?

10-§.O‘zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari

Moddiy madaniyatning etnologik yo‘nalishda tadqiq etilishi. Etnologik yo‘nalishda bajarilgan tadqiqotlarda moddiy madaniyat (turar joylar, kiyimlar, taqinchoqlar, oziq ovqatlar)ni odatda grafik tasvirlar, planlar, chertyoqlar, rasmlar, fotosuratlar yordamida batafsil tavsiflash va ilmiy tahlil qilish o‘ziga xos an'anaga aylangan. Lekin aslida ushbu ma’lumotlar etnologik tadqiqotlarning bosh maqsadi emas, balki asosiy maqsadni isbotlashga ko‘maklashuvchi tavsifiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Moddiy madaniyatning etnologik yo‘nalishda tadqiq yetilishida ko‘zlangan asosiy maqsad o‘rganilayotgan ob‘ektning xalq ijtimoiy turmush-tarzi bilan aloqadorligini yoritishdan iborat. Chunki an'anaviy moddiy madaniyat namunalari insoniyat mehnati va ehtiyoji asosida yaratilsa-da, lekin uning ongli tafakkuri natijasi o‘laroq u yoki bu ko‘rinishni oladi. Shubhasiz, bu o‘rinda moddiy madaniyat na’munalarida aks etuvchi ramz, belgi g‘oya ko‘rinishida ham qiziqarli bo‘lib, bu bevosita u bilan bog‘liq tasavvurlar, e’iqodiy qarashlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqacha tarzda aytadigan bo‘lsak, etnologlar uchun moddiy madaniyat namunalarining tavsifi emas, balki ularning inson bilan aloqadorligi qiziqarli hisoblanadi.

Tarixdan ma’lumki, turar-joylar inson uchun makon, boshpana tarzda foydalana boshlangan davrlardan boshlab u bilan bog‘liq ilk tasavvurlar ham shakllana boshlagan. Qadimgi uy-joylarning eng muhim xususiyatlaridan biri - uning o‘ziga xos xavfvsizlik xalqasiga ega ekanligidir. Insoniyatning ilk ajdoddari uy-

joylarni yovuz kuchlar xurujidan muhofaza qiladigan o'ziga xos yopiq makon deb hisoblangan va u bilan bog'liq ilohiy tushunchalar tarqalgan.

O'zbeklar orasida ham boshqa ko'plab xalqlarda bo'lgani singari uy qurish ishlari dastlab uy poydevorini qurishdan boshlangan. Xalqona tasavvurga ko'ra, poydevorni qurishga haftaning xayrli va omadli kunlarida kirishilgan. Farg'ona vodiysi o'zbeklari orasida dushanba, chorshanba, payshanba va shanba kunlari uy qurilishidagi dastlabki ishlar boshlangan. Chunki aynan mazkur kunlar xosiyatli kunlar hisoblangan.

Yangi uyni qurish jarayonida uning dastlabki yog'ochlari ko'tarilgandan so'ng uy to'sini yoki xarisini ko'tarishda ajoyib bir udum bajarilgan. Odatda, usta sinch uylarning to'sin yoki xarisini o'rnatish chog'ida uy egasidan biror bir narsa (odatda ko'yak, qiyiq va shu kabilar)ni yehson qilishni so'ragan. Bu narsa aholi orasida *keskilik* deb atalgan. Agar ustaga *keskilik* berilmasa, keyinchalik u(usta)ning ishi yurishmay, og'ir kasalga chalinar ekan. Har bir hunarmandchilik sohasining o'z asoschisi (piru murshidi) bo'lgani kabi, ustachilikning ham asoschisi - piri bo'lgan. To'sin (yoki xari) ko'tarish paytida beriladigan keskilik o'sha pirming haqqi uchun ustaga berilgan. Usta esa o'zi ishlab pul topayotgan ushbu hunar asoschisining haqqiga duoil fotiha qilib turishi lozim bo'lgan.

Farg'ona vodiysining azaliy o'troq o'zbek va tojik xalqlari orasida uyning ayrim qismlari-to'sin, ustun, eshiklarini qo'yilishida qator ramziy ma'nolarga ega bo'lgan va aynan mazkur qismlar bilan bog'liq qator diniy-semantik urf-odatlarga amal qilingan. Jumladan, vodiy o'zbeklarida ham, respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani singari, xona shiftiga qo'yiladigan to'sinlar soni doimo toq, ya'ni 5, 7, 9, 11 tadan bo'lib, xona turi va hajmini belgilovchi o'Ichov bo'lib kelgan. Xalqona qarashlarga ko'ra, ayrim joylarda to'sinlardan bittasini, ya'ni juft bo'Imagani Allohga bag'ishlangan deyilsa, boshqa joylarda bitta to'sin vazifasini xonadon erkagi o'tagan, deb tushinishgan.

Shu o'rinda uy to'sini bilan bog'liq Xorazmda o'ziga xos ramziy odatga amal qilinganligini ta'kidlab o'tish joiz. Taniqli etnograf olima M.V. Sazonovaning yozishicha, Xorazmning ayrim tumanlarida biror xonadonda ketma-ket o'lim bo'lsa, shu oila a'zolaridan qolganlarining umrini saqlab qolish uchun xonaning o'lim sodir bo'lgan qismidagi tomning ikki to'sinini yoki tomning to'g'ri kelgan joyidan ikkita to'sinni, ayrim tumanlarda esa shiftning barcha to'sinlari butunlay almashtirilgan.

Yangi qurilayotgan uyning devorini ko'tarish, tom yopish bilan bog'liq ishlar, shuningdek, ayni vaqtida ko'plab ishchi kuchini talab etadigan ishlarda mahalla erkaklari ishtirokida maxsus hashar uyuştirilgan. Yangi uyni qurilishida hashar tashkillashtirish odati ilmiy etnografik adabiyotlarda birmuncha yaxshi yoritilgan. Shu bois biz bu o'rinda ushbu odat to'g'risida bat afsil to'xtalmagan holda hasharning vodiya xos lokal xususiyatlarigagina to'xtalib o'tishga harakat qildik. Namangan viloyati Xo'jamushkent qishlog'ida yashovchi o'zbeklarda bu tadbir "hokandozon" deyilgan. Hokandozon ko'pincha uyning tomimi yopish paytida uyuştirilgan bo'lib, mahalla erkaklari va yigitlari uyning tomimi yopish jarayonida maxsus belgilangan kunda hashar o'tkaziladigan uyg'a yig'ilishgan va uyning tomiga qoplarda tuproq olib chiqqanlar. Hashardagi eng katta qop *polvon qop* deyilgan. Mazkur qopni ko'tarib tuproq olib chiqan odamga sovg'a tariqasida uy egasi tomonidan belbog' berilgan.

Uy-joylar bilan bog'liq urf-odat va rasm-rusmlarning talay qismi yangi uy tiklab bo'linganidan so'ng ham o'tkazilgan.

Xullas, yangi uyg'a ko'chib kelish bilan bog'liq yuqoridagi urf-odatlarga magik qarashlar asos bo'lgan. Uyning to'rt burchagiga do'lana qoqib qo'yishda o'xshash afsungarlik, ya'ni do'lanaga xos xususiyatlar magik yo'l bilan ushbu uy a'zolariga o'tishi hamda kapkir-cho'michni uyg'a birinchi bo'lib olib kirilishida esa ushbu xonadonni rizqli bo'lishiga qaratilgan magiq niyat asos bo'lgan bo'lsa, ikkinchisida o'xshash afsungarlik serpushtlilik afsungarligi bilan o'zaro qorishgan holda uchraydi. Keksalarning serfarzandilik xususiyati hamda tuz va sumalakning odamlar tasavvuridagi rizq-baraka ramziga oid xususiyatlari kelgusida mazkur oilaga ham doimo hamroh bo'lsin, degan niyat aynan mazkur urfn'i bajarilishiga sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas.

O'zbeklarda uyning turli joylari, ayniqsa, ostonasi, o'chog'i eng muqaddas joylardan biri hisoblangan va u bilan bog'liq qator diniy-afsungarlik urf-odatlari hamda irimlari bajarilgan. Bu o'rinda, avvalo shuni ham ta'kidlash kerakki, xalqning kundalik turmush tarzida ostona bilan bog'liq qator naqlar ham mavjud. Chunonchi "*Ostonada turmushga chiqmagan qiz o'tirsa baxtsiz bo'ladi*", "*ostonada turib bo'lmaydi, chunki biror bir kishisidan judo bo'lgan odam ostonada turadi*", "*ostonada quloch kerib turib bo'lmaydi, baraka to'siladi*", "*ostonada turgan holda salomlashilsa, o'rta ga sovuqlik tushadi*", degan naqlar bugungi kungacha xalqimizda saqlanib kelmoqda va ular hozirda ham omma orasida o'z ahamiyatini

yo'qotgan emas. Qolaversa o'zbek xalqi lirkasida ham ostona obrazi muhim ahamiyat kasb etgan va hatto bu obraz maxsus tadqiq ham qilingan.

Moddiy madaniyat namunalarida aks yetuvchi ramz, belgilar va ular bilan bog'liq tasavvurlar, e'tiqodiy qarashlar. Arxaik yoki ibtidoiy madaniyat - mayjud insoniyat madaniyatning ibtidosi va eng uzoq davom etgan davridir. Bu davr insoniyat tarixi umumiy ko'laming 99 foizini tashkil qilgan holda zamonaviy madaniyatga beqiyos ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. O'sha vaqtida vujudga kelgan arxaik madaniyatning ayrim ko'rinishlari bo'lmish fikrlesh tarzi, fe'l-atvor hozirga qadar yo'qolgan emas. Insoniyat hayotining boshlang'ich davri keyingi barcha o'zgarishlarga zamin tug'dirgani sababli bu davrni o'rganish insoniyat evolyutsiyasi asoslarini, uning madaniyati negizini tushunish va sharhlashga yordam beradi.

Ibtidoiy bosqichdagi madaniyat rivojining qiyofasini qayta tiklash o'ta qiyin vazifa. "Shaxsiy guvoxnama, tarjimai xol, qiyofadan maxrum, sukunatdagi o'tmish, hodisasiz "uzoq", (F. Brodel) "mudroq", (E. Lerua-Ladyuri) tarix uchun ideal namuna kasb etib, tabiiy-ilmiy mantiqni yaratish, uslublar miqdori yoki ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalar va dastlabki (ibtidoiy jamoa) ijtimoiy tuzum ta'lilotini izohlash uchun mo'lajallangandir".

Olimlar to'plagan ma'lumotlar 2 xil bo'lib:

1. Antropologik va arxeologik topilmalar-ibtidoiy odamning jismoniy va madaniy rivojlanishini, ovchilik jamoasining turmush tarzini yorug' olamga chiqardi. Bu ma'lumotlar o'ziga xos belgilari bilan emperik (tajriba) taxlilni yuzaga chiqardi va ibtidoiy bosqichni umum qabul qilgan tasnifiga asos soldi:

- ✓ Paleolit-qadimgi tosh asri,
- ✓ Neolit – yangi tosh asri.

Paleolit bosqichining o'zi ham ilk (quyi) va so'nggi (yuqori) davrlarga bo'linadi. Shuningdek, poleolit va neolit bosqichining o'rtasi mezolit – o'rta tosh asri davriga bo'linadi.

2. Etnografik ma'lumotlar- zamonaviy xalqlar va hozirgi vaqtida ham ovchilik va termachilik bilan kun ko'ruchilarining hayoti haqida. Bu ma'lumotlar saqlanib qolgan arxaik madaniyat ko'rinishini etnik, ijtimoiy va ruxiy o'xshashliklar bo'yicha qayta tiklashga yordam beradi.

Tosh asrining davri bundan 2,6 mln. yildan (Keniyorning Rudolf qo'li sohilidan topilgan qadimgi tosh qurollari) to eramizgacha 2 ming yilgacha (mehnat

qurollarini jezdan tayyorlay boshlagan davrgacha) bo'lgan vaqt ni o'z ichiga oladi. O'z navbatida paleolit bosqichidagi eng uzoq davr ilk poleolit bo'lib, bundan 40-35 ming yil oldin tugaydi. Ilk poleolitda antropogonez jarayonining sodir bo'lishi, qazib topilgan gominid qoldiqlarining alohida turlari yashagan davrlarda (zinjantrop, avstralopitek, pitekanthrop, sinanthrop, neandertal va boshqalar,) madaniyatning alohida ilk namunalari vujudga keldi: qo'pol tosh qurollar tayyorlash (kesgich, tosh nayza, qirg'ich), olovdan foydalanish, oddiy turar joylarning qurilishi, muomala vositalarining rivojlanishi, atrof-muhit haqida dastlabki murakkab tasavvurlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Detsentrizm farazi insoniyat paydo bo'lishini ikki o'choq-Afrika va Osiyo bilan bog'laydi, zero hozirgi vaqtida eng qadimgi odam qoldig'i ham Afrika mintaqasidan topilgan. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston hududida qazib topilgan gominidlar ham ilk paleolit davriga oiddir. Arxeolog U. Ismoilov Selung'ir g'oridan topgan "fergantrop" qoldig'ining yoshi 700 ming yilga teng.

Ilk paleolitning oxirgi davri ko'pincha alohida davrga ajralib "o'rta" yoki "muste" deb nomlanadi (200 minginch yildan 40 minginch yilgacha). Bu qonuniy hodisa bo'lib, muste davrida madaniy ijodkorlik jarayonining o'sishi seziladi, ya'ni bu davrda neandertallar paydo bo'ldi. Neandertallar keng hududlarga tarqalib murakkab va turli xil qurollar tayyorlagan, eng muhimi ulardan ma'lum marosim va madaniyatni rivojlantirish boshlandi. Neandertallar yashagan g'orlaridan ayiqning bosh suyagi topilgan, maxsus o'rnatilgan tosh supa olovdan qoraygan, unda ma'lum marosim o'tkazilgan. Neandertallar qabri ko'pincha Sharq-q'arb yo'nalishi bo'yicha joylashib, murda "yonbosh uxlayotgan holatda, tizzalari eng agiga qayirilgan, yoniga tosh qurollar qo'yilgan". Bu marosim udumi o'limdan keyingi hayot mavjudligi haqidagi tasavvurning madaniyatdag'i eng qadimgi va barqaror paydo bo'lganligidan dalolatdir. Neandertal qabri O'zbekistonning Teshiktosh g'oridan (Surxandaryo viloyatidan) ham topilgan, shuningdek, o'sha davrga oid ko'plab manzilgohlar ochib o'rganilgan (Omonqo'ton, Zirabuloq, Obiraxmat, Ko'lbuluoq, Uchtut va bosh.).

Ilk paleolitda madaniy muhitning mavjudligi alohida joylar bilangina chegaralansa so'nggi paleolitda esa madaniyat tizim sifatida shakllanadi. So'nggi paleolitning boshlarida gominid evolyutsiyasi yakunlanib zamona viy "aqli odam" turi paydo bo'ladi. So'ngi paleolitda turli-tuman tosh va boshqa qurollar notekis tarzda ko'payishi natijasida tarkibiy qurollar-tasma, uchlik, shuningdek,

to‘qimachilik paydo bo‘ladi. Nihoyat, dastlabki tartibli ijtimoiy tashkilot-urug‘ tashkil topadi. Bu inqilobning mahsuli insonlarning asosiy antropologik, ruhiy fiziologik, ruhiy ijtimoiy va ma’naviy birligi bo‘lib, insonlar uyushmasining iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, til, maishiy rivojlanishidagi tafovutlarga qaramasdan tarixda saqlanib qoldi.

Ma’naviy madaniyat dastlab juda sodda bo‘lib, o‘sha davr kishilarining mehnat faoliyati bilan uyg‘unlashib ketgan edi. Ibtidoiy odamlarning bilim darajasi ancha cheklangan bo‘lsada, biroq yashash uchun kurash jarayonida atrof-muhitni kuzatib tajriba to‘plaganlar. Natijada yangi tushuncha va tasavvurlar paydo bo‘lib, tafakkur va nutq rivojlana bordi. Bu esa jamiyat ma’naviy rivojlanishini tezlashtirdi. o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tilishi bilim va tajribaning to‘planishi natijasida yuzaga keldi.

Dastlab, ibtidoiy odamlar oziq-ovqat qidirib o‘zi yashayotgan muhitni yaxshiroq o‘rgana boshladilar. Bu esa ularning geografik bilimini oshirgan. Tabiatdagi mavjud iste’mol qilishga yaroqli o‘simglik va mevalarni qidirib topishi va kuzatishi natijasida botanika bilimlari to‘plangan. Yovvoyi hayvonlar ovlash jarayonida hayvonlarning fe’li, turi, yashash joylarini kuzatish tufayli ibtidoiy odamlarda zoologiya bilimi shakllana boshladi. Bu jarayonlarni o‘rganish ibtidoiy odamlar uchun zaruriy, hayot uchun kurash, tirikchilik manbai edi.

Kasallikni davolash uchun o‘sha zamonning o‘ziga xos sodda tabobati bo‘lib, davolashda o‘simgliklar, mevalar, hayvonlar, mineral jismalardan foydalanganlar. Shuningdek, silash, uqalash usuli bilan ba’zi kasalliklarni davolaganlar va folbinlik, sehrgarlik va jodugarlik usullaridan ham foydalanganlar.

Ibtidoiy odamlar tabiatni, iqlimi sharoitdan kelib chiqib kuzatishi asosida obxavoni oldindan aytib berish qobiliyati paydo bo‘ladi. Tarbiya ham mehnat va turmush bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, odat va udumlar asosiy ahamiyat kasb etgan.

Ma’naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biri ibtidoiy san’at ham odamning mehnat faoliyati bilan uyg‘un holda vujudga kelgan. Urug‘chilik jamoasining paydo bo‘lishi davrida ibtidoiy odamlar san’atning nimaligini to‘la anglamagan holda tirikchilik jarayonida san’at shakllana boshladi. Ibtidoiy sanoat xilma-xil bo‘lib, bir necha turlarga bo‘linadi:

1) Suyak, tosh parchasi, shox, kulolchilik buyumlariga chizilgan belgilar, odam, hayvon va xar xil narsalarning tasvirlari.

2) g'or devorlariga har xil ranglar bilan ishlangan hayvon, odam va buyumlar tasviri. Ularda ov, mehnat, jang va boshqa manzaralar tasvirilangan. Bunday tasvirlar Turon, Saxroi Kabir, Markaziy Osiyo, g'arbiy Yevropada ko'plab uchraydi.

3) qoya toshlarga o'yib, chizib, ishqalash usuli bilan ishlangan tasvirlarda hayvon, buyum, qurollar va ibtidoiy kishilarning kundalik mehnati bilan bog'liq manzaralar o'rinni olgan. qoya tosh tasvirlari Osiyo, Afrika va Yevropada ko'p uchraydi.

4) Arxaik san'at turlaridan yana biri haykaltoroshlik ham urug'chilik jamoasining rivojlangan davrida paydo bo'lib, asosan ayollar, qisman erkaklar, shuningdek, hayvonlar haykallari ishlangan. Bunday haykalchalar, suyak, tosh va boshqa narsalardan tayyorlangan. Haykal tasvirlarda ibtidoiy mehnat va e'tiqod ramzlari nomoyon bo'ladi.

5) Ishlab chiqaruvchi xo'jalik (neolit) faoliyati bilan bog'liq sopol buyumlarga chizilgan rasmlarda oddiy chiziqlar, hayvon va o'simlik tasvirlari uchraydi.

6) Ibtidoiy san'at turlaridan biri – niqoblar qadimgi odamlarning ovchilik faoliyati bilan bog'liq bo'lib, niqob tutib hayvon qiyofasiga kirgan, hayvonlarni qo'rqitib o'zlarini himoya qilgan. Niqoblardan marosim va udumlarda foydalangan.

7) Musiqa, qo'shiq, o'yin ibtidoiy san'at turlari xisoblanib, ibtidoiy odamlar urib, chertib, puflab chaladigan asboblarni kashf qilishgan.

8) Xalq og'zaki ijodi-asotir, rivoyat va afsonalar ham ibtidoiy davr mahsuloti bo'lib, ibtidoiy odamning turmushi, o'y-fikri va kayfiyatini ifodalagan, diniy tasavvurlarning shakllanishiga asos bo'lgan.

Umuman, ibtidoiy san'at kishilarning dastlabki umumiy ijodi bo'lib, u odamlarning mehnat faoliyati, ichki ruhiyati va diniy tasavvurlari bilan uyg'un bo'lgan. Aytish mumkinki, diniy tasavvur va e'tiqod shakllari madaniyatning moddiy va ma'naviy turlarining rivojiga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Gominidning uch million yillik evolyutsiyasi nihoyasidagi kuchli evrilish natijasida anglash, nutq, din, san'at vujudga keladi. Arxaik madaniyatning xususiyati haqida uni xaqli ravishda "gomo sapiens" yaratganligiga etnografik va arxeologik ma'lumotlarga asoslanib tasavvur qilish imkoniyatlariiga egamiz. Birinchi navbatda

biz, ibtidoiy odamning o‘ziga xos fikrlash xususiyati haqida hukm chiqarishimiz mumkin.

Ibtidoiy odamning fikrlashi aniqlik, ta’sirchanlik, butunlikda farqlanadi. Ibtidoiy odam asta- sekin turli tashqi hodisalarni sezalashni boshlaydi. U issiq va sovuqni, to‘q va ochlikni, yaxshi va yomonlikni xis qiladi, yorug‘lik va qorong‘ulikni ajratadi. Hodisalarning ro‘y berishini kuzata boshlaydi. O.Freydenbergning fikricha, unda kuzatish taassuroti ustun bo‘lgan. Ibtidoiy odamning ta’sirchan, aniq tasavvuri hali hodisalarni umumlashtirish qobiliyatidan yiroq edi. U tevarak-atrofdagi voqeasidan hodisalarning mohiyatini tahlil qilmasdan faqat yuzaki qayd qiladi, narsa va jarayonlarga, ularning xususiyatiga bir xil yondoshgan. Ibtidoiy tafakkur uchun sababiy bog‘lanishlar o‘ta shartli bo‘lib, qandaydir hodisaning sababi tez-tez qaytarilib turilishi natijasida vaqt o‘tishi bilan idrok qilingan.

So‘ngi paleolit davrida animistik e’tiqodlar va sexr-jodu ma’naviy madaniyatning negizi sifatida qat’iy rasmiylashdi. Qadimgi e’tiqodlarning shakllanishi manbaida tabiatning tashqi ko‘rinishi va odamlar jamoasi haqida tasavvurlarning uyg‘unlashib ketishi ibtidoiy odam uchun xos bo‘lgan inson va tabiatning sub’ekti va ob’ekti birligi ta’sirida, ehtimol jamoa nima bilan shug‘ullansa o‘shanga bog‘liq bo‘lgan hayvonlar, o‘simpliklar, toshlar, ya’ni uning faoliyati doirasida nima mavjud bo‘lsa barchasi uchraydi. Dunyoda yashayotgan aholining ko‘plab ruh va jonlar bilan munosabatda bo‘lish vositasi sifatida sehrgarlikni keltirib chiqardi. Sehrgarlikning eng qadimgi turlaridan biri ovchilik sehrgarligi bo‘lib, o‘lja yaqinlashishi bilan uni tutish mashqini o‘rganadi. Biroq, barcha harakatlар faqat mashq bilan tugamaydi. Uni amalga oshirish jarayoni asosiy masala hisoblanadi.

Dastlabki sehrgarlik harakatlari mazmunida totemizm –hayvonlar ajdodiga topinishni keltirib chiqardi. Ibtidoiy jamoa turmushi, ovi, urushi, hayvonlarni tutib yeyishi, tug‘ilish va o‘limini – umuman inson hayotini totemistik, ya’ni, totemlar kurashi va to‘qnashishi orqali tasavvur qiladi. Bu tasavvurlar oqibatda kosmogenik manzaraga asos soladi, qayerda xar bir totem-koinot borki yeydi, yo‘qoladi va tiriladi, qari koinot o‘miga yoshlari keladi. Ularning o‘rin almashishi va yosharishi yoki tirilishning borligi o‘limdadir.

Sehrgarlikka o‘xshash hayot nafaqat paydo bo‘layotgan tushunchalarni o‘zida jamladi, balki madaniyatning eng qadimgi shakli bo‘lib qoldi. Undan hozirgi vaqtgacha olamni o‘zida aks etgan din, san‘at, fan sohalari paydo bo‘ldi. Barchasi

suyakka chizish va naqsh solish, kichik haykaltoroshlik, belgi – muxr bosish, bo‘yoqli xoshiyalar chizish, g‘or devorlariga betartib chiziq shakllar solishdan boshlandi va natijada mashxur Altamir, Lasko, Montospan va boshqa g‘orlardagi tasvir galereyası vujudga keladi. g‘or tasvirlari tabiiy, aniqrog‘i hayotiy aks ettirilgan. g‘or tasvirlarining dastlabki bosqichida jonvorlar tasviri alohida o‘rin tutadi: otlar, yovvoyi qoramol, mamontlar o‘ta yorqin tasvirlangan. Paleolit kishisining tasvir faoliyatida nafosat uyg‘unligi yoki rasm yozuvlar (piktografiya) emas, balki tasvimi “fotografik” tarzda ifodalash ustun bo‘lgan. Bu tasvirlar marosim tafsilotlaridir. Mashxur san‘atshunos A. Arnxeymnning ta‘kidlashicha paleolit davrida san‘at hayotiy zarur vazifani bajargan. U kishiga mislsiz kuch baxsh yetib, tirik mayjudod va narsalardagi ma’niszlikka “sehr baxsh” etish imkonini yaratgan. Ibtidoiy odam chizilgan tasvirga jonivorlarning joni o‘tadi, shu tufayli ularga ta’sir qilish mumkin deb o‘ylagan. Arxaik san‘at insonni hayvonlar ruhiyati bilan qiziqishida alohida vosita bo‘lib, unda haqqoniyat va marosim uyg‘unlashib ketadi.

O‘zbekiston hududida so‘nggi paleolit davriga oid qoyaga solingan tasvir namunalari uchramasada, ushbu davrga tegishli 30 dan ortiq manzilgohlar o‘rganilgan, jumladan Samarqand manzilgohi, Ohangarondag‘i tosh qurollar, tayyorlangan “ustaxona”, Ko‘kbuloq va Oqtosh manzilgohları.

O‘zbekiston hududidagi ibtidoiy tasviriy san‘at namunalarini eng qadimgisi mezolit-neolit davrlariga oid bo‘lib, ular jaxon tasviriy san‘at tarixining ajralmas qismidir. Shuningdek, bu tasviriy san‘at tarixi bir qator alohida ko‘rinish, o‘ziga xoslik va farqlik jihatlarga ega bo‘lib quyidagi bosqichlardan iborat:

1.G‘orlar, qadimgi toshlar va turli qoyalarda saqlanib qolgan ibtidoiy tasvirlar yaratilgan davr.

2.Loy, ganch, tosh va yog‘ochdan ishlangan qadimgi haykallar namunalari va turli hunarmandchilik buyumlardagi tasvirlar yaratilgan davrlar.

Mamlakatimiz tog‘lik tumanlarida keng tarqalgan qoyatosh tasvirlari ishlanish usuliga ko‘ra ikki xil: bir xillari bo‘yoq (oxra) bilan; ikkinchi xillari esa o‘yib-ishqalash-chizish usuli bilan ishlangan rasmlar (petrogliflar).

O‘zbekistondagi qoyatosh tasvirlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Beronsoy, Ko‘ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabi yuzdan ziyodi topilgan. Bu qoyatosh tasvirlarda O‘zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami turlarini

kuzatish mumkin. Bular ibtidoiy sher va yo'lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug'u va jayronlardir.

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi jihatidan xilma-xil. Unda odamlar, ov, yirtqich hayvonlar to'qnashuvi manzaralari tasvirlangan. Bu tasvirlar orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat qurollarini bilib olish mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi ajdodlarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Negaki, ibtidoiy odamlar bir-birlariga fikrlarini, munosabatlarini istaklarini chiziqlar, oddiy shakllar, sodda tasvirlar orqali yetkazishga intilganlar. Masalan, ular ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o'sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar.

Ko'xitang tog'inining yuqorisida joylashgan g'orni "Oltin olov qoyasi" yoki "Oltin olov darasi" deb atashgan. Chunki zar-oltin, o't-olov ma'nosida bu yodgorlik "Zaravutsoy" deb atalgan. Zaravutsoy ov manzarasidagi turli rasmlarni kuzatish qadimgi odamlarni hayotini, turmush tarzini jonli tasavvur qilish bilan birga ibtidoiy badiiy madaniyatning o'ziga xos jihatlarini anglashga yordam beradi. Ibtidoiy odamlarning tirikchilik manbai bo'lgan ov manzarasini kuzatish orqali ovchilik ilmining ayrim qirralarini o'rganamiz.

Tasviriy san'atning ibtidoiy davrga mansub namunalardan biri Jizzax viloyatidagi Taqatosh nomli toshdag'i tasvir yozuvlardir. Bu tasvirlarda fikr, sezgi, amaly ehtiyoj kabi tuyg'ular aks ettirilgan. qadimiy tasvirlardan yana biri Zarafshon etaklaridagi "Sarmishsoy" tasvirlarida esa ibtidoiy rassomlar ijodi o'z aksini topgan. Bu ibtidoiy tasviriy san'at asarlari Sarmishsoy darasining ikki yuzida qad ko'targan qoyatoshlarning silliq yuzasiga solingenan. Sarmishsoy qoyalarida yovvoyi buqalar, shoxdor bug'i va qulonlar, yelib borayotgan tog' taqasi, oxu, to'ng'iz, bo'ri, qoplon, itlar hamda bir-biri bilan olishayotgan yovvoyi va xonaki hayvonlar, shuningdek, ovchilar va ov manzaralari ham tasvirlangan.

Qadimgi rassomlar faoliyatida ham kuzatuvchanlik, shakl va chiziqlar orqali bo'layotgan voqealarning xarakterini, mazmunini yoritib bera olish qobiliyatları ko'zga tashlanadi. Qoyatosh, daralar va g'orlardagi rasmlar mazmunan boy bo'lishi bilan birga xilma-xildir. Ularda turli manzaralar o'z aksini topgan. Umuman bu tasvirlar orqali odamlarning mushtarak tuyg'ulari yuzaga chiqqanligini ko'ramiz. Bu rasmlarda har bir belgi, qoralama yoki shakl o'ziga xos fikrni, hatto sehru jodularni

ifodalab berishi bilan qiziqarlıdır. Shulardan ko'rınadiki, ajdodlarımız hayotida, turmush tarzida tasviriy faoliyat alohida o'rın tutgan.

Ma'lumki, inson o'z mehnati tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqqach, yashash uchun kurash jarayonida qanchalik ongli mehnat qilsa, u shuncha muvaffaqiyatlarga erishgan. Kurash va mehnatda erishilgan muvaffaqiyatlar urf-odat, udum, marosim, an'ana va bayram- xursandchilikni vujudga keltirgan. Madaniyatshunoslar fikricha bayram va marosimlar eng qadimgi davrdayoq mavjud bo'lgan va ibridoiy odamlar hayotida muhim rol o'ynagan.

Yuqorida tilga olgan tasvirlarda asosan hayvonlar, ov qilish, ovchilar raqsi (ba'zan hayvonlar niqobida) kabi tasvirlar qadimiylar odamlarning o'z mehnati (ovi) natijasini tantana qilganliklaridan dalolat beradi. Ibtidoiy ovchilar hayotida ovchilik marosim -udumlari muhim o'rın tutgan. Ovchilik marosimlari ovdan oldin ham ovdan keyin ham o'tkazilgan. Shuningdek, ovchilik marosimlari-ovga tayyorgarlik, yoshlarni ovga o'rgatish va ovdan keyingi tantanalarni ifodalab, tasvirlarda aks etgan. Buni biz Zarautsov va Saymalitosh rasmlarida nafaqat totemlarga sig'inish, balki ov marosim-bayramlari ham aks etganligini ko'ramiz.

Ilk bor maxsus uyushtirila boshlangan marosim- bayramlar totemlarga bag'ishlangan. Bu marosimlarda turli joylarda totem hisoblangan turli hayvonlar-ayiq, yovvoyi echki, sigir, bug'u, ot, bo'ri kabilarga topinganlar. O'rta Osiyoda ilon, buqa, qo'y, ot, tuya, sher totemlari keng tarqalgan. Buni biz qazilma yodgorliklardan topilgan amaliy san'at buyumlari misolida kuzatishimiz mumkin.

Mehnat taqsimotining vujudga kelishi munosabati bilan qadimgi odamlarning ishlab chiqaruvchi xo'jalikka (neolitda) o'tish natijasida yangi soxalarga oid marosim va bayramlar vujudga kela boshladi. Bu «Mehnat marosimlari» bo'lib, u ham o'z o'mida madaniyat va san'at (teatr, raqs, pantamimo san'atining primitiv ko'rinishlari) ning rivojlanishiga zamin yaratdi.

Mif va mifologiya eng avvalo antropomorfizm – tabiatdagi narsalarga ham odamga xos deb qarashni va xudolarni odam qiyofasida tasavvur qilishni ifodalaydi. Mif va mifologiyani qadimgi e'tiqoddalaridan farqi, olamdagи barcha mavjud munosabat va qadriyatlarni izohlashni o'ziga oladi. Bu o'sha davrlami bilishning o'ziga xos nazariy asosi va maxsus shaklidir. Negaki bilim-yorqin rang-baranglik, ifodalilik, jo'shqinlikdir. Mifologiya dastlabki bosqichda kishilar uchun bilim o'rganish va mustahkamlashning yagona manbai va usuli emasligi dargumon. Mif va marosim

arxaik madaniyatning go'yoki ikki tomoni, ya'ni – so'zdagi va harakatdagi, nazariy va amaliy. Mifologik bilim ilmiy haqiqatga ma'lum miqdorda daxldordir.

Mifologik bilimning ikkita asosiy ijtimoiy vazifasi bor:

1. Ushbu umumiylarning asosiy vazifalarini, ularning odatiy mayjudligini kishilar ongiga kirgizish va mustahkamlash, xususan, shakllangan qoidalarni tasdiqlash, qonuniylashtirish va xatto jamoani tiklash va barqarorlikni ta'minlash uchun ularni an'anaga aylantirish;

2. Jamoani qo'rquvidan xalos qilish maqsadida va ruhiy xalovatni kafolatlashda atrof-muhit bilan, butun tashqi olam bilan mustahkam aloqa o'matish va ta'minlash.

Mif olamni mavhum g'oyalardan buzilgan tarzini o'zida namoyon qilib, noaniq va quruq muxokamalarning shakllanishiga imkon beradi ya'ni, dastlabki davrda insonni uni chulg'ab turgan aniq kundalik ishlardan fikrini chalg'itib, hayoliy poetik olamga olib kiradi. Mif olamni jamoa bo'lib an'anaviy xis qilishdir, negaki, shu alfovza u xar doim ilk diniy tasavvurlar majmuuning negizi xisoblangan. Mif – dastlabki dunyoqarashning zaruriy, muqarrar shaklidir. Umum tasavvurlar mifning shakllanishiga sabab bo'lmaydi va xissiy tajriba-kuzatishlar uchun ham, noaniq-mavxum mulohazalarga ham asos bo'lmaydi. Guruhlar tushunchasi eng avvalo butun borliqni o'ziga qo'shib hissiy qayg'urishga tayanadi.

Axborotlar hajmini bexad o'sayotganligi uni uzatishning yangi kanallarini yaratishni talab qildi. Miflarning paydo bo'lishi mavhum tushunchalar vujudga kelganligi haqida, insonning nutqi rivojlanayotganligi haqida guvohlik beradi. Bunga bir misol – tasviriy san'atning rivojlanishidir: rasmlar bir qadar aniqlashib, soddalik va shartlilik kuchayib boradi. Tasvir ko'proq ramziylik belgi xususiyatini kasb etib, buning yordamida axborot berish mumkin bo'ladi. Topilgan petrogliflar (toshbitiklar) insonlar jamoasining hayot hodisalarini haqida yetarli, mufassal hikoyalarni o'zida saqlab kelgan. Bunday tasvirlarga misol qilib Surxandaryoning Zarao'tsoy darasidagi qoyatosh rasmlarini ko'rsatish mumkin. Bilimlarni saqlash va uzatishning yana bir vositali jamoaning alohida a'zolari, boshqa kundalik ishlardan ozod qilinib, faqat ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va uzatish bilan shug'ullangan. Bunday kishilar shamanlarga (sehrgarlarga) aylangan. Shamanlarni ko'pi yoshi ulug', hayotiy bilim va tajribaga ega, tabiatni kuzatib o'zlashtirgan, marosim va udumlarni biluvchi kishilar bo'lgan. Masalan, Shimoliy Amerika hindularning adjibve qabilasi

shamanlari o'zi yashayotgan joyning ov qilish shartlarini, hayvonlarning o'ziga xos fe'lini puxta o'rganadi, ovdan qaytgan ovchilardan har doim surishtirib o'z bilimini oshiradi. O'zlashtirgan ma'lumotlari shamanga to'g'ri qaror chiqarish imkonini berib, shu tariqa u qabila va urug' a'zolari ichida obro'ga ega bo'lishiga va natijada sehrgarlik udumlarini bajaruvchi asosiy ijrochisiga aylanib qoladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida Neolit davri ancha oldin boshlangan. Bunga mil. av. VI ming yillikda Kopetdog' etagida vujudga kelgan Joytun madaniyati guvohlik beradi. O'troq dehqonlar va chorvadorlarning bu madaniyati asosan, samonli loydan qurilgan uylardan iborat manzilgoh bo'lib Eron va Mesopotamiya xalqlari madaniyati bilan yaqin aloqada shakllangan Joytunliklarning ma'naviy madaniyatini rivoji haqida katta umumiylibodatxona devorlariga ishlangan rangtasvir dalil bo'ladi. Mil. av. IV-III ming yillikda Xorazm hududida neolit davriga oid Kaltaminor madaniyati shakllandi.

Neolit inqilobi mohiyatiga ko'ra arxaik madaniyatning oxiri hisoblanadi. Ishlab chiqarish faoliyatining yangi turi-dehqonchilik va chorvachilikka o'tish bilan inson tabiatda mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyatini namoyon qildi, bu insonning ijtimoiy va ma'naviy g'alabasi yedi. Agar arxaik madaniyatda jamoat fikri yetakchilik qilib, urug' a'zosi, urug' manfaatlari doirasida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, endi individual ong va qiziqish kuchaya boshladи. Neolit davrining oxiri va jez asrida arxaik madaniyat barham topdi. Bu davrda jamoa mulki o'rniغا xususiy mulk vujudga kelib, hunarmandchilik ajralib chiqadi va mahsulot ayrboshlash shakllanadi. Ijtimoiy tuzum shakli murakkablashadi. Mustaqil xo'jalik yuritishda muvoqiflashtirishni kuchaytirish zarurati, ko'pincha jamoaning boshqa a'zolari yoki qabila oilalar bilan qarindoshlik aloqalarining bog'lanmaganligi maxsus boshqaruв apparatini tuzishni talab qildi. Endi oqsoqollar va qabila yo'lboshchilariga yig'inining ahamiyati sezilarli oshdi, bu qabila yo'lboshchilariga sig'inishni shakllantira boshladи. Yo'lboshchi qabilaning baxt-saodat sohibi, ajodolar ruxi unga tuxfa qilgan maxsus fazilat "omad" egasi sifatida demokratiya belgilariga xurmat saqlaydi. Yo'lboshchilarga sig'inishda yo'lboshchining jamoa hayotida tutgan muhim o'rmini e'tirof qilish ifodasi turadi: -U nafaqat qabila hududini qo'riqlashni tashkil qilib qolmay harbiy yurishga boshchilik qiladi ham, shuningdek, muhim jamoat ishlarini bajarish uchun xonadanlarni birlashtiradi va jalb qiladi (kanal qazish, muxofaza to'sig'lar o'matish; yaylov, o'rmon, daryolar kabi umum foydalanadigan mulklar uchun).

Bilimning oshishi natijasida murakkab buyumlar yaratila boshlandi. qayiq va yelkanli kemalar, taqvim, hisob va o'lchov tizimi vujudga keldi. Xususiy

mulkchilikning paydo bo'lishi huquqning shakllanishiga olib keldi. Ayrimlari hozirgacha saqlanib kelayotgan an'analar va qadimgi folklor namunalari vujudga keladi (miflar, dostonlar, xikoyalar, marosim qo'shiqlari), yozuvning ilk tizimi shakllanadi; piktografik (rasm-yozuv), belgi yoki xindularning tugunli yozuvlari. Monumental me'morchilik ham vujudga keldi. Ilk monumental inshoatlar katta tosh bo'lak va tosh plitalardan qurilgan megalitlar hisoblanadi. Megalit inshoatlarning turlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, mengirlar baland toshdan iborat bo'lib, balandligi 20 metrdan oshadi, ular alohida yoki xiyobonlarga qator qilib qurilgan. Dolmenlar (tosh maqbaralar) tosh plitalardan sag'ana yoki maqbara (kulba) shaklda qurilgan. Kromlexlar esa atrofiga toshlar yotqizilgan inshoatlardir. Eng mashxur kromlex buyuk Britaniyadagi Stounxendj hisoblanadi. (mil. avv. II ming yillik boshlariga oid). Megalitlar sajdagox va ibodatlar joyi sanalsada, aslida ular boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan. Megalitlar xalqlarni birlashtirib, jamoaning barcha kuchlarini jipslashtirishga, yangi ijtimoiy tuzum vujudga kelayotgan xollarda insonlarni umumlashtirish (sotsalizatsiya) maqsadlariga xizmat qildi. Negaki, davlat tuzilishi jarayonida turli ijtimoiy qatlamlarning bo'linishi sodir bo'ladi; boshqaruvchilar, ma'naviy madaniyat va bilim egalari koxinlar va oddiy bajaruvchilar.

O'zbekiston hududida jez davri mil. avv. II ming yillik boshlarini o'z ichiga oladi. Xuddi shu davrda ikki turdag'i mustaqil madaniyat shakllanib aniq ajraladi: o'troq dehqonchilik vohalaridagi madaniyat; ko'chmanchi dashtliklar madaniyati. o'troq dehqonchilik madaniyati dastlab Surxondaryo vohasidagi Sopollitepa, Jarqo'ton madaniyatları, Farg'ona vodiysidagi Chust madaniyati, ikkinchisi-Zamonbobo, Tozabog'yob, Suyargan va Amirobod kabi joylarda vujudga keldi.

O'zbekiston janubi-Surxondaryo viloyatida hozirda ham mashxur bo'lgan ustalar, zargarlar va san'atkor – quruvchilar yaratgan madaniyat eng qadimgi madaniyatdir. Mil. avv. XVIII-X ming yillikka oid Sopollitepa va Jarqo'ton manzilgohlarida qadimgi sharq turidagi ilk shaharnoma tsivilizatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni kuzatiladi. Sopollitepa labirintnomasi (qasr) to'g'ri burchakli ko'cha tarmog'i va istexkom tizimi bo'lgan manzilgohlar majmuidan tashkil topgan. Jarko'tonda ham monumental me'morchilik xom g'ishtdan qurilgan. Markazda qal'a joylashgan, uylar xom g'ishtdan baland ko'tarib qurilgan. Har bir guzarda binoning o'rtaida yumaloq o'choq shaklida devor tokchasida olov mexrobdan iborat

sig'inadigan markazi bo'lgan. Ikkala manzilgohda jez yeritish, to'qimachilik, kulolchilik, zargarlik; suyak, tosh, yog'ochga ishlov berish gullab-yashnagan. Turli kulolchilik buyumlarini kulolchilik dastgohida pishirib sifatli tayyorlanganligi, shaklining chiroyliligi kulolchilik sohasining texnika va texnologiyasi yuqoriligidan dalolat beradi. Topilgan namunalardan ma'lum bo'lishicha O'zbekistonning Janubida yashovchi aholi qadimgi sharq, ayniqsa hind vodiysidagi Xarappa tsivilizatsiyasi namunalari bilan keng hamkorlikda bo'lgan. Buni Sopollitepa va Jarqo'ton shuningdek, O'zbekistonning boshqa dehqonchilik madaniyatida ham uchratish mumkin.

Bronza davrida shakllangan "ko'chmanchi chorvadorlar" madaniyati mil. avv. III ming yillik oxiri-II m. y. boshlariga oid bo'lgan Buxoro vohasidagi Zamombobo manzilgohida o'r ganilgan. Zamombobo aholisi katta yarim yerto'lalarda yashab, bronza va tosh qurollar ishlatishgan. Kulolchilik dastgohisiz qo'lda ishlangan tagi yumaloq, yassi sopol idishlardan foydalangan. Jez davrida madaniyat yodgorliklari Amudaryo va Zarafshonning qo'yli oqimidan, Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyatidan topilgan. Ular chorvador qabilalar madaniyatining vujudga kelishi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Chorvador qabilalar jez davrida o'troq turmush tarziga o'ta boshladi, qisman dehqonchilik bilan shug'ullanadi, keyinchalik ko'chmanchi chorvadorlarga aylanishgan.

Moddiy madaniyat namunalarining inson bilan aloqadorligi. Umuman olganda, insoniyatning bir necha ming yillik tarixi davomida turli-tuman madaniyatlar mavjud bo'lgan. Har bir madaniyat, shubhasiz, ma'lum bir etnos yoki etnik jamoa ta'sirida shakllanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, qadimiy diniy e'tiqodlar, marosimlar hukmron sinflar yoki biror-bir shaxs tomonidan o'ylab topilmagan, balki o'tmishning o'ziga xos tarixiy burilish davrida – insoniyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida yangi ma'naviy va ruhiy zarurat, fikriy va hissiy izlanishlar ehtiyojiga javob sifatida paydo bo'lgan. Bu moddiy madaniyat namunalari bevosita inson bilan aloqador bo'lgan. Qolaversa qadimiy diniy e'tiqodlar o'zining qadimiy ildiziga ega; ularda tabiat va jamiyat, makon va zamon to'g'risidagi qadimiy tasavvurlar hamda ularga ta'sir qilish yo'llari aks etgan. Mintaqaga islom kirib kelishi bilan ular butkul unutilib yo'q bo'lib ketmagan, balki, islomiy an'analar va rasm-rusumlarga moslashib, o'zaro uyg'unlikda yangicha *marosimiy-dunyoqarash simbiziozini* tashkil qilgan va to bugungi kunga qadar

qorishgan tarzda “xalqona islom” ko‘rinishda saqlanib kelmoqda. O‘z navbatida shuni ta’kidlash kerakki, “xalqona islom” nafaqat shariat qoidalari, balki islomgacha bo‘lgan qadimiy diniy e’tiqodlar va tasavvurlarni ham mujassamlashtirgan sinkretizmdan iborat.

Insoniyatning ilk diniy e’tiqodlaridan biri fanda totemizm nomi bilan mashhurdir. Totemizm e’tiqodi dunyoning turli mintaqalarida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lib, turkiy xalqlar, shu jumladan, o‘zbek xalqi totemistik qarashlari asosan ikki yo‘nalishda taraqqiy etgan. Bulardan biri qondosh ajdod boshi – bobokalon totemlar, boshqasi esa kishilarga homiy do’st jonivor va o‘simpliklardan iborat bo‘lgan.

Totemizmga daxldor fikrlarni to‘ldirish va dalillashda ibridoiy zamonga oid turli hayvonlar tasvirlari alohida ahamiyat kasb etgan. Bu borada akademik S.P. Tolstov ko‘pgina arxeologik ashyolar va tarixiy manbalar asosida Sharq xalqlari, xususan, turkiy qavmlar hayotida ot, ilon, ho‘kiz va boshqa hayvonlar totemiga sig‘inish hamda ularni ilohiyashtirish hollari tarixiy haqiqat ekanligini e’tirof etadi. Tarixiy ethnografik va arxeologik manbalardan ma'lumki, qadimgi turkiylar turmush tarzida bo‘ri, ot, burgut, baliq, ilon, daraxt kabi totemlarga sig‘inilgan. O‘zbek etnosining muhim komponentlарidan biri – qipchoqlar orasida ot totemi bilan bog‘liq *to‘rtayg‘ir, samanotli, qorabaytal, qulon* kabi bir qator urug‘lar bo‘lgan. Ot qadimda qipchoqlar va ularning ba‘zi bir urug‘larida urug‘ ajdodi – totemi hisoblangan. Ot totemiga bo‘lgan e’tiqod izlari o‘zbeklar an’naviy turmush tarzida bola tug‘ilishdan tortib to motamgacha bo‘lgan marosimlarda hanuzgacha saqlanib qolganligini qator ethnografik materiallar ham tasdiqlaydi.

Xullas, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan tarixiy-etnografik va filologik yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar natijasida tadqiqotchilar tomonidan totemik e’tiqodlar bilan bog‘liq qator toponimlar aniqlanib, ilmiy iste’molga olib kirildi. Jumladan, totemistik tasavvurlar bilan bog‘liq etnonimlarni o‘rganish asnosida *ayjin, buqa, bag‘ish, bahrin, ovshin, bug‘un, boybo‘ri, guvalak, ilonl, kaltatoy, kojar, kerayit, kiyikchi, javli, olchin, sari, toyloq, tulki, tulga, to‘pichoq, enaka, yobi(yobu), chovgan, chuvalay, qarg‘a, qiyg‘ochli, qorabura, qoralochin, qoraqush, qorago‘yli, qoraqursoq, quyin, qo‘zichi, qo‘zichi, qo‘ng‘iroq, qo‘chqorquloq* kabi 40 ga yaqin turkiy etnonimlarning totemik e’tiqodlar bilan aloqadorligi aniqlangan.

Umuman olganda, totemistik e'tiqodiy qarashlar va ular bilan bog'liq urfatlar tahlili shundan dalolat beradiki, totemizm e'tiqodining asosiy mazmun-mohiyatida nafaqat biror-bir jonzotni ilohiylashtirish, yoki u bilan g'ayriilohiy tarzda shajaraviy bog'lanish, shu bilan birga inson va tabiat, insoniyat va hayvonot olami o'rtasidagi munosabat, hayvonot olamiga bo'lgan taqlid va hurmat va etnomadaniyatning ayrim ko'rinishlari hamda dunyoqarash tizimini ko'rish mumkin.

So'nggi yillarda olib borilayotgan etnografik ilmiy izlanishlar, xususan birligina Farg'ona vodiysi shomon-baxshilari faoliyatini tadqiq qilish asnosida quyidagi etnolokal xususiyatlari:

a) vodiy shomonlariga xos lokal xususiyat ular tomonidan "*ko'chirma*", "*haqiqat*", "*bandi-bast*", "*issiq-sovuq*" kabi irim-sirim va urf-odatlarini bajarishida;

b) mahalliy shomon baxshilarning shomonlik marosimlari, seanslari va psixoterapevtlik vazifalarini faqat kunduz kuni, ya'ni quyosh botgunga qadar bo'lgan paytda o'tkazishida;

v) ularning asosiy atributlari doira, tasbeh, turli diniy kitoblar, tol novdasi bo'lganligida aniqlandi.

Etnologiya sohasini rivojlantirish muammolari. Har bir milliy-etnik madaniyat o'ziga xos xususiyatlari bilan ajrab turadi va o'ziga xoslik turli-tuman narsalarda namoyon bo'lishi mumkin. Har bir etnik madaniyat o'ziga xos mantiqqa ega va aynan mazkur mantiq asosida mazkur madaniyatga xos asosiy o'zgarmas va ikkinchi darajali o'zgaruvchan xususiyatlarni izohlash mumkin.

An'anaviy milliy madaniyatni yaxlit va ko'p qirrali hodisa sifatida o'rganish, uning tuzilishi, asosiy ko'rinishlari, shakllarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolyutsiyasi va umumqabul qilingan madaniyat tasnididan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy sohalariga to'xtalib o'tamiz. Holbuki, etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bo'lgan an'anaviy xalq madaniyat tizimining tarkibiy qismida: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e'tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq o'yinlari, dam olish madaniyatni, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me'morchiligi, xalq amaliy san'ati, xalq tabobati, xalq turmush madaniyatni kabi ko'plab sohalarni ajrata bo'ladi.

O'tgan XX asrning oxirgi choragida etnologiyada yangicha yo'naliishlarning paydo bo'lishi mazkur fan doirasida bajarilayotgan tadqiqotlarni ham tubdan ham mazmunan ham mohiyatan o'zgarishiga sabab bo'ldi. Aynan shu davrdan boshlab

tadqiqotchilar tomonidan an'anaviy ko'rinishni olgan uzoq yurtlardagi o'ziga xos yezgogamik madaniyatlar emas, balki, zamonaviy jamiyatlarni o'rganishga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi. Natijada qator yangi nazariyalar va maktablar paydo bo'ldi va tadqiqotchilar tomonidan etnologiyaning o'ziga xos yangi yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bajarila boshlandi. Jumladan, Farbiy Yevropa etnologiyasida ijtimoiy etnologiya, huquqiy etnologiya, siyosiy etnologiya, diniy etnologiya, xo'jalik (iqtisodiy) etnologiyasi shakllandi va istiqbolli rivojlanib bormoqda. Umuman olganda etnologiya sohasida shu kunlarda tadqiqot olib boruvchi yoki ushbu fanga qiziquvchi kishilar:

- insoniyat o'zini o'rabi turgan tevarak atrofni qanday tarzda tasavvur etadi?
- odamlar tasavvurida moddiy olamdag'i predmetlar qanday ma'no kasb etadi?
- ushbu qarashlarning o'zgarish jarayoni qanday kechadi?
- madaniyatlarni munosabatlar an'anaviy va zamonaviy madaniyatlarga qanday ta'sir o'tkazadi?
- dunyoning etnik manzarasi o'zida nimani aks ettiradi va bu manzaraning o'zgarishi qanday mexanizmlar asosida o'zgaradi?
- u yoki bu madaniyat vakillari dunyodagi sodir bo'ladigan o'zgarishlarga qaytarzda moslashadi va o'z navbatida u yashayotgan jamiyatning moslashishi qanday printsiplarga asoslanadi?
- zamonaviy industrial jamiyatda milliy-etnik madaniyatlarning roli va o'mi qanday?
- xar qanday holatda etnos vakillari tafakkurida nima o'zgarmaydi, yoki nima butkul unutilishi, yoinki o'zgarishi mumkin va o'z navbatida bu jarayon qanday kechadi?
- madaniyatlarning o'zining ichidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro aloqalar qaytarzda yuz beradi,
- etnik madaniyatda barcha tizimni mustahkam ushlab turuvchi va jamiyat hayotida sodir bo'ladigan qizg'in o'zgarishlar jarayonida himoya qiluvchi mustahkam o'zgarmas qism mavjud-mi? – degan savollarga javob izlaydilar.

Shubhasiz mazkur muammolarning aksariyati oxirgi o'n yilliklarda etnologlarning tadqiqot muammosiga aylandi, – deb aytish mumkin. Bu borada ayniqsa G'arb mamlakatlarida so'nggi o'n yilliklarda etnologiya fani "postmodernizm" falsafasiga asoslangan bo'lib, bunda bevosita ijtimoiy guruuhlar

orasidagi etnoslararo jarayonlarni tadqiq qilish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, lokal va global jarayonlarni tadqiq qilishda tadqiqotchilar tomonidan tadqiqiy tanlanish, ya'ni jamiyat hayotidagi barcha jarayonlarni emas, balki etnos va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda eng muhim deb hisoblangan qarashlarga tadqiq qilinmoqda. Boshqacha aytadigan bo'lsak, bajarilayotgan so'nggi tadqiqotlarda asosiy e'tibor insoniyatning rivojlanish bosqichlari, ya'ni uning yerda paydo bo'Igandan to hozirgi davrgacha bo'Igan tarixiy yo'linining global miqyosdagi tavsifiga emas, balki muammoviy tanlanish asosidagi tadqiqotlarga qaratilmoqda. Zero, bugungi kun rivojlangan mamlakatlarda etnologiya yo'nalishida bajarilayotgan ilmiy tadqiqotlarning aksariyati jamiyat hayotida aynan muhim va dolzarb deb e'tirof etilgan ijtimoiy muammolar doirasida amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Moddiy madaniyatning etnologik yo'nalishda tadqiq etilishi, qadimiy diniy tasavvurlar va e'tiqodiy qarashlarning arxaik izlari, xalq ijtimoiy turmush tarzi, an'anaviy moddiy madaniyat namunalari, moddiy madaniyat na'munalarida aks etuvchi ramz, belgilar, xalqona tasavvur, uy-joylar bilan bog'liq urf-odat va rasm-rusmlar, muqaddas ziyyaratgohlar va qadamjolar bilan bog'liq marosimlar va tasavvurlar, chaqaloq bilan bog'liq rasm-rusmlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Moddiy madaniyatning etnologik yo'nalishda tadqiq etilishini izohlab bering...
2. Moddiy madaniyat namunalarida aks yetuvchi ramz, belgilar va ular bilan bog'liq tasavvurlar, e'tiqodiy qarashlar haqida nimalarni bilasiz?
3. Moddiy madaniyat namunalarining inson bilan qanday aloqadorligi bor?
4. Xalq ijtimoiy turmush-tarzi, an'anaviy moddiy madaniyat namunalariga misol keltiring...
5. Moddiy madaniyat na'munalarida aks yetuvchi qanday ramz, belgilarni bilasiz?
6. Uy-joylar bilan bog'liq qanday urf-odatva rasm-rusmlarni bilasiz?
7. Bugungi kunda xalqimiz orasida muqaddas ziyyaratgohlar va qadamjolar bilan bog'liq qanday marosimlar va tasavvurlar saqlanib qolgan?

8. Chaqaloq bilan bog'liq rasm-rusumlarga misollar keltiring...

11-§. Milliylik – falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida

Badiiy madaniyatda xalq milliy xarakterining ifodalananishi. Millatdagi tafakkur, dard-fazilat, o'zgarish, iroda, yangilik, kurashchanlik va yaratuvchanlik, avvalo, uning adapbiyotida aks etadi. Faqat keng mehnatkash omma manfaatini ko'zlovchi adapbiyot xalq tarixi hamda timsolini chuqur milliy, chuqur umuminsoniy g'oyalar negizida yoritib berishi mumkin. Shunday so'z san'atigina o'z mahsuli bilan asrlar osha xalqlarga, elatlarga yo'ldosh bo'lib yashaydi. Madaniy va ma'naviy hayot kelajagi uchun mustahkam moydevor vazifasini bajaradi, taraqqiyotga xizmat qiladi.

Buyuk yozuvchi Gogolning quyidagi fikrlari xarakterlidir: "Haqiqiy milliylik rus kiyimini tasvirlashdan iborat emas, balki xalq ruhidan iborat. Hatto tamom boshqa bir dunyoni tasvirlovchi shoir ham milliy shoir hisoblana oladi. Buning uchun u ana shu dunyoga o'z milliy hislari nazaridan, o'z xalqining ko'zlarini bilan qarashi kerak, u shunday his etishi va gapirishi kerakki, uning vatandoshlari xuddi o'zlarini his etayotgan va gapirayotgandek his etsinlar".

Milliy spesifikating shakllanishi, o'zgarishlari va yangilanishi avvalo milliy xarakterda chuqur mujassamlashadi. Milliy xarakter milliylik tarkibida hamma vaqt muhim va salmoqdur o'rinn egallaydi. Shuning uchun u milliylik kategoriysi bilan baravar tasavvurga keladi, his qilinadi, G.I. Lomidze o'zining "Milliy xarakter problemasi" nomli maqolasini "Milliy xarakter tushunchasi milliy spetsifikating tarkibiy elementi sanaladi" degan fikr bilan boshlaganida juda haqli edi.

Xarakter milliylikni dialektik izchil, tarixan aniq, psixologik haqqoniy va taraqqiyotda namoyon qiladi.

Milliy xarakter ko'p asrlar mobaynida beto 'xtov shakllanadi. Uning yaralish va rivojlanish darajasini jamiyatning modaniy-ijtimoiy, siyosiy-madaniy, axloqiy-estetik tarzi belgilaydi. Har bir davrning va muhitning shunday belgilariga qarab, uning tarixi turlicha murakkablikda kechadi. Muntazam o'sish jarayonida ayrim sifatlar milliy xarakterga mustahkam singishadi, ilg'or jihatlar bilan mahdud tuyg'u va tasavvurlar kurashadi.

Chinakam milliy xarakter har doim xalqchil va zamonaviy bo'ladi. Uning xalqchilligi o'z millati manfaatiga moslik darjasini bilangina emas, kishilik taraqqiyotiga teskari kelmasligi, qardosh xalqlar ko'ngliga monandligi, ular hayoti va tafakkuriga bahra berishi bilan ham baholanadi. Milliy xarakterning zamonaviyligi

millat spesifikasida “yo‘lboshchilik” qilishidagina emas, balki o‘z xalqi iftixorini samimiylar namoyon etishi orqali yuksaklikka ko‘tarilgan baynalmilalligida ham ko‘rinadi. Shunday fazilatlari tufayli xarakterning milliy va xalqaro doirada mavqeい, yashovchanlik ruhi ortadi. Milliy xarakter sharoitga tobe element bo‘lib qolmaydi, uni yaratadi va o‘zgartadi.

Milliy xarakterning davrda tutgan o‘rnii, ijtimoiy, siyosiy, axloqiy-estetik qimmati uning umumbashariy ahamiyati bilan o‘lchanadi. Bularsiz xarakter hatto o‘z millatining takomili uchun ham xizmat qila olmaydi, maxdud, passiv va kelajakdan mahrum narsaga aylanib qoladi. Ayni paytda mushtaraklik pafosi milliy o‘ziga xoslik va xaraktersiz mavjud bo‘la olmaydi. Baynalmilal xarakter hamisha milliydir. Ma’lum xalq ilg‘or xarakterining belgilarini milliy va umuminsoniy deb, arifmetik ravishda ajratish mumkin emas. Harakat va dunyoqarashning ba’zi ko‘rinishlarini milliy, ba’zilarini esa o‘zgacha deb qat’iy chegaralovchi klassifikatsiya tuzib bo‘lmaydi. Haqiqat shundaki, ularni bir-biridan yiroqlashtirib yoki yakka-yakka holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular birgalikda yaxlit jarayonni tashkil etadi.

Yuqorida fikrlardan ayon bo‘ladiki, o‘ziga xos an’analar bilan umuminsoniylikning qonuniy birligini, milliy xarakterning ijtimoiy sharoitga bog‘liq taraqqiyoti bilan uning kishilik tarixidagi rolini adolatli idrok qilmay turib, so‘z san‘ati fazilatlarini, ijodkor yoki badiiy asar qahramonlari tuyg‘ularini analiz qilish o‘rinsiz.

Adabiyot xalqniig hayoti, tafakkuri, faoliyati, maqsadlarini, jamiyatning sotsial-siyosiy masalalarini badiiy zuhur etadi. Uning tasvir ob’ektida milliylik va baynalmilallik dialektikasi eng asosiy kategoriyalar bo‘lib sanaladi. Adabiyotda ham ular doimo birga rivojlanib boruvchi, birini ikkinchisidan ustun qo‘yib bo‘lmaydigan, bir-birini boyiguvchi jarayon.

Adabiy qahramon biron jamiyatda yashovchi xalqning zehni, dunyoqarashi va qiyofasini belgilovchi milliy xarakterni g‘oyaviy-badiiy in’ikos etadi. Jamiyatda aynan bir shaxs individualligi barobarida milliy xarakterning ko‘rinishi bo‘lgani kabi, badiiy obraz ham individual va o‘z o‘mida milliy xarakter bo‘lib gavdalanimog‘i kerak.

Milliylik va baynalmilallik adabiyot kashf etadigan qahramonlarning xarakterida yorqin ifodasiga ega bo‘ladi. Adabiy qahramon bu haqiqatni tarixiy, ijtimoiy, mahalliy jihatdan konkretlashtiruvchi o‘zak elementlardan. Milliylik

qahramonning harakat, dunyoqarash tarzida, psixologiyasi, odatlari, xulq-atvori va boshqa tomonlarida vujudga kelib, ikkinchi jihat shu asosdan unib chiqadi. Milliylik badiiy obrazning asosi va manbaidir. Obrazning badiiy estetik bahosi, insoniyatga tegishli pafosi uning o'quvchini ma'naviy oziqlantiruvchi, ruhlantiruvchi va ishontiruvchi milliy qiyofasiga bog'liq.

Qahramon xarakterining milliylik darajasi uning xalq ruhiga, hayot haqiqatiga, taraqqiyotning yetakchi tendensiyalariga mos kelishidan va zamonaviyligidan qidiriladi. Bunday xususiyatlar san'atkorona singdirilgan badiiy asargina umuminsoniy fazilatlar bilan to'liq bo'ladi. V.G. Belinskiy Lermontovning "Zamonamiz qahramoni" romaniga shu nomli maqola bag'ishlab, vogelikning, jamiyat kishilari xarakterining unda qanday tasvirlanganini ana shu jihatdan chuqur analiz qilgan edi. Belinskiy fikricha, romandagi Maksim Maksimich obrazi "sof rus tipi" ekani, yuksak badiiy tarzda yaratilganligi bilan Valter Skott, Fenimor Kuper yaratgan eng yaxshi xarakterlarni esga solsa-da, yangi kashfiyotligi, sof rus ruhidaligi va xususiyatlari bilan takrorlanmasdir. Buyuk tanqidchi tabiat bergen xarakterni uning o'z zamonasidagi mavjud sharoitda to'la gavdalantirishni yozuvchi zimmasida turuvchi katta vazifa deb ko'rsatadi, "Azamat bilan Kazbichning xarakterlari, - deb yozadi u romandagi cherkes xalqi vakillari haqida, - shunday tiplardirki, ular rusga qanday tushunarli bo'lsa, ingлизга ham, nemisga ham, fransuzga ham shunday tushunarlidir. Figuralarni o'z milliy qiyofasida va milliy libosida to'la gavdalantirib chizib berish deb ana shuni aytadilar!"

Turli mamlakat xalqlari milliy xarakterlari ular adabiyotining tom ma'nodagi real qahramonlaridir. Dunyo adabiyotining qahramonlari – xilma-xil millat va elatlarga mansub kishilar. Ular adabiyot sahifalariga betakror va yuksalishda bo'lgan o'z milliy qiyofalari, dard-iztirobi, ishq va shodligi, ruhiyati, tafakkur tarzi, harakatlari bilan kirib keladilar. Har qaysi milliy qahramon o'zida qadim zamonlardan beri alohidalashib kelgan, u yoki bu darajada rivojlanayotgan xalqining qiyofasini, mamlakatda tutgan mavqeyini namoyish qiladi.

Shunday ekan, millatlar adabiyoti qahramonlarining umuminsoniy tuyg'usi rang-barang milliy xarakterlar orqali yuzaga chiqadi. Har bir qahramon xarakter ildizlari to'ppa-to'g'ri uning o'z milliyligiga borib taqaladi hamda o'ziga xos ko'rinishlarda tarkib topadi. Uning belgi-xislatlari ifodasi milliy qahramon tabiatida boshqalararning takrori yoxud nusxasi bo'lib qolmaydi, balki o'zligining mavjud tasviridan iborat

bo'ladi. Unda baynalmilallik bilan milliylikning zich dialektikasi o'zaro to'la-to'kis singishgan holda aniq ko'rinishlar beradi.

Ko'p hollarda qahramon xarakterining milliyligi sifatida barcha xalqlar tabiatida mavjud tuyg'ular, fazilatlar (masalan, saxovat, vatanparvarlik, burch, sadoqat, mehmondo'stlik, bolajonlik kabi) tadqiq qilinlar ekan, bir xil yo'nalishdagi quyidagicha savollar paydo bo'ladi: bu tushunchalar boshqa millat kishilariga begonami? Bular obrazning umuminsoniyligi bo'lsa, uning milliyigini qanday tushunish kerak? Bunday savollarning qo'yilishi tahlil qilinayotgan qahramon xarakterining originalligi yoki, umuman, milliylikka shubha bilan qarash oqibatida tug'ilgan bo'lsa, to'g'ri bo'lmaydi. Chunki masalani shu xilda tasavvur etish milliylik va baynalmilallik dialektikasini kosmopolitik anglashga, milliy farklarni g'arazli baholashga olib keladi. Agar savollar o'sha umumiylar tushunchalarning aniq milliy belgilarni, ularning o'zga millatlardagi ko'rinishlariga qiyosni, yozuvchining shu tomonlamy ko'rsatgan mahoratini ko'zda tutsa, ularni ob'ektiv hisoblash mumkin. Gap butun insoniyatga xos tuyg'u, fazilat va tasavvurlarning qaysi xalq xarakterida, qay holda va qanday namoyoy bo'lishida. Millatning o'ta alohida belgilari qatorida uning umuminsoniy jihatlari ham hamma vaqt milliydir. Milliylik baynalmilat ahamiyati bilan barqaror bo'lgani kabi, baynalmilallik ham konkret milliy zamindan quvvat oladi. Juda umumiylar tushunchalarni ma'lum millatning butunlay o'ziniki qilib ko'rsatish ham jiddiy xatodir. Faqat unutmaslik kerakki, ular har milliylikda har xil ko'rinishlariga, ifoda tarzlariga ega bo'ladi. Milliy zamin ularga qo'shimcha ma'nolar beradi, ularning mantishni boyitadi va kengaytiradi. V.G. Belinskiy biz yuqorida to'xtalgan maqolasida Maksim Maksimich xarakterining xislatlarini uning harbiycha xitoblarida, aroq ichishlarida, tamaki chekishlarida emas, "balki muhitdag'i narsalarga o'z malakasidan va turmush tarzidan hosil bo'lgan nazari bilan qarashida va muhitdag'i narsalarga qarashining hamda odathing muqarrar natijasi bo'lgan shu tarzdagi harakat va so'zlarida" ko'radiki, bu o'rinda ham gap umuminsoniylikning milliy namoyon bo'lishi to'g'risida boradi.

Kishilik tarixining muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sharoitlari mushtaraklik tuyg'usini o'ziga xos, betakror namoyon qiladi. Bu tuyg'u muhitlari, manfaatlari, harakatlari bir-biriga mos kelayotgan xalqlarning ma'naviy saviyasi ifodasi sifatida jilolanadi. Uning butun mohiyat-e'tibori chegara bilmaydi. Vatanning qardoshlik oilasi doirasida qolib ketmaydi. Zero, bir mamlakat xalqlari o'z milliy zaminlarida

mustahkam turgani holda muammolari, tashvish-dardlari, intilish samaralariga ko'ra hamjihatlikni boshlaridan kechirar ekanlar, bu narsa dunyodagi biron ta xalq mehnatkashlarining manfaatiga zid bo'lib tushmaydi. Aksincha, bu jarayon zamirida jahondagi hamma xalqlarning progressiv intilishlariga, istiqboliga samimiy xayriyohlik, hurmat va e'zoz yotadi. Boshqalarni bilmoqqa qiziqish, ularga havas bilan qarash, yaqinlashishga ehtiyoj sezish milliy iftixordan uzoqlashish, ayrilish yoki uni umumlashtirib yuborishni anglatmaydi. Mushtaraklik tuyg'usi milliy o'ziga xosliklar, xarakterlar negizida qad ko'taradi.

Mushtaraklik tuyg'usi milliy adabiyotlar uchun ayricha mavzu yoki muammo, obrazlar tasviri uchun badiiy vosita yoki qo'shimcha belgi emas. Shuningdek, u millat xarakteridan tasodifiy holatlar, vaziyatlar tanlash va qahramonni o'zga xalqlar vakillari orasida ko'rish degan ma'noga ham olib kelmaydi. Xarakterning milliyligidan, milliy g'urur iftixoridan biroz bo'lsin chekkada ifodalananish mushtaraklik tuyg'usiga butunlay yot. Uning manbai - milliy qahramon xarakterining ruhi, vijdoni, erkin fuqarolik mas'uliyati, qilgan va qilmoqchi bo'lgan ezgu ishlari... Bu tuyg'u ("Ochilgan qo'riq", M. Sholoxov)ni qishloqda odilona turmush qurish ishiga boshlaydi. U Don bo'yidagi Gremyachiy Log xutoriga keladi. Mehnatkashlarning oromini va yangi hayot barpo etish rejalarini buzayotgan dushmanlarning tor-mor qilinishi yo'lida jonini ayamaydi. Kurashish va mehnat qilishning rus xarakteriga xos haqiqiy namunasini ko'rsatadi. Kondrat Maydannikov, Nagulnov va boshqa kazaklar Davidov ta'sirida ruhan o'sadilar.

Chingiz Aytmatov qahramonlari qirg'iz milliy zaminida harakat qiladilar. Ular o'z muhiti, psixologiyasi, harakati, o'y-hayoli, o'tmishi va buguni bilan qanchalik milliy bo'lsalar, shu darajada mamlakat kishisi, vatanparvari bo'lib gavdalanimishadi.

Fayziyning "Hazrati inson" romanida mushtaraklik tuyg'usi o'zbek xalqi vakillarining front ortidagi fidokorona hayoti ifodasidan, mehnatsevarlik, insonparvarlik, bolajonlik kabi umumbashariy fazilatlarning xalqimiz ko'rsatgan tarixan mashhur namunasi tasviridan balqib chiqadi. Mahkam aka bilan Mehriniso yetim qolgan o'n besh bolaga ota va ona bo'lishadi. Turli millat farzandlarini cheksiz mehr, cheksiz samimiyat bilan o'z panohlariga olishadi. Hamma millat bolasi -odam bolasi, odamni odamdan ajratmaslik kerak, deydi Mahkam aka. Ular bolalarining omonligi, kelajagi tashvishida tinim bilmaydilar. O'zlarida chinakam gumanizmni, xalqlar do'stligi kamoli va qudratini namoyish qiladilar. Romanning baynalmilal

tuyg'ulari bosh qahramonlar tegrasidagi Abduhafiz, Ismoiljon, Qodirxo'ja, Muborak, Ivan Timofeevich kabi obrazlar tufayli yanada to'lishadi. Tasvirlangan voqeа va qahramonlarning tarixiy asosga egaligi, asarda Yo'ldosh Oxunboboев hamda Usmon Yusupov siymolarining gavdalanishi davoming mohiyatini o'quvchi ko'z oldida yanada reallashtiradi.

Mushtaraklik tuyg'usi navqiron gruzin yigitи Avtandil Jakeli ("Qo'rqmang, onaginam", N. Dumbadze) xarakterining butun borlig'ini qurshagan. Yaqinlariga, gruzinlariga va diyoriga bo'lgan mehr unda Vatanga muhabbat bilan tabiiy payvandlashib ketgan. Vatan chegaralari uning ishtirokisiz ham himoyasiz qolmasligi Avtandilga tushunarli. Lekin u o'zining taqdirini, hayotda mavjudligini shu burchsiz tasavvur qila olmaydi. U yengil-yelpi yashab, vatanparvarlikni yuzaki faoliyatda, quruq romantikada va soxta nutqlarda ifoda qilmoqchi bo'lganlarga qarshi. Mamlakat sarhadlarini qo'riqlash shu ma'noda Avtandil uchun asl gruzinligini, ota-bobolarning ezgu odatlariga sodiqligini, qalbdagi ona-Vatan tuyg'usining muqaddasligini ham himoya qilmoq demakdir. U biladiki, mamlakatlarning chegarasi bor, qardoshlik va mehr-oqibatning esa chegarasi yo'q. Turkiya territoriyasida boshlangan kuchli yong'inni o'chirishda o'z chegarachilarining mardona yordami, ikki Vatan kishilarining og'ir damlardagi ahilligi Avtandil qalbiga ajib tuyg'ular olib kiradi. Unda bu mamlakatlarni bir-biridan ajratib turgan narsa qolmagandek tuyuladi.

Shunday qilib, qahramon xarakterida milliy va baynalmilal assoslар bir-biri bilan ijtimoiy-psixologik jihatdan nihoyatda jipslashib, uyg'unlashib ketgan bo'ladi. Chinakam milliy qahramon tabiatida bu birlik yetakchi rol o'ynaydi va obrazning ahamiyatini ta'minlaydi. Bunday xususiyatlardan mahrum bo'lgan, o'tkinchi, zararli mahalliy elementlar atrofida mahdudlashgan qahramon hatto milliy doiraning o'z ichida ham uzoq yashamaydi.


Vоqeliqning bor haqiqatini o'z milliyligida realistik namoyish etganligi tufayli adabiyotlar, ularning qahramondari bir-biridan farqlanib turadi, har qaysisi o'zicha original badiiy-estetik qimmat oladi. M. Sholoxov, Ch. Aytmatov, M. Avezov, O'. Sulaymon, M. Jumaboev, S. Sayfulin, V. Latsis, O. Gonchar, R. Hamzatov, M. Tursunzoda, M. Ibrohimov, B. Kerboboev, N. Dumbadze, A. Qodiriy, Cho'lpion, Hamza, U. Nosir, Oybек, E. Vohidov va A. Oripov kabi turli millat adiblarining ijodlari shunday xislatlarga konligi uchun biri ikkinchisini takrorlamaydi va ayni paytda umumbashariylik mezonlari talablariga mos keladi.

Adabiyot qahramoni milliyligi tushunchasi xarakterning ma'naviy dunyosida, hayotga qarash tarzida, harakatida milliy xususiyatlarning shunchaki mavjudligi va saqlanib qolayotganini bildirmay, ularning betinim o'sish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Milliy progressning xarakterda qanchalik aks etishi esa adabiyotning voqelik, xalq hayoti va dolzarb muammolar bilan munosabat hamda hamnafaslik darajasiga bog'liq, albatta. Aytish kerakki, milliylikning xalqchil, zamonbop chizilishida yozuvchining iste'dodi hal qiluvchi ahamiyatga ega. San'atkor asarida milliy ruh suyjet va g'oyalar voqe bo'lishining tabiiy sharti, bosh zaruratidir.

Xullaski, qahramon xarakterining barcha qirralarini tarixan konkret tadqiq qilmoq lozim. Insonda o'y, xislat, tuyg'u, kurash, mehnat, neki harakat bo'lsa, hammasi har xil sharoit va vaziyatda turlicha hayotiy ko'rinishga ega bo'ladi.

Badiiy asar obrazi – birinchi navbatda, o'z jamiyatining, davrining, muhitining qahramoni. Uning yashovchanlik darjasni, g'oyaviy-estetik ahamiyati ham, avvalo, o'zi mansub bo'lgan zamon kishilari xarakterini tipik ko'rsata olishi, davriy ishonchli masalalarni dadil ko'tarib chiqishi bilan o'chanadi. Va shundagina bunday qahramon turli millat-elat avloddarining izzat-ehtiromini qozonadi.

Etnik birliklar shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar. Kishilarning ijtimoiy etnik birliklari hayotida ma'lum bir moddiy-iqtisodiy, hududiy, ma'naviy, siyosiy o'zgarishlar ular ehtiyojini qondirish, manfaatlarining esa amalga oshuvini zaruran taqozo etadi. Bir tuzumdan ikkinchi yangi tuzumga o'tilish jarayonida milliy manfaatlar rivojida sifatiy o'zgarishlar sodir bo'lishi va o'z navbatida etnik birliklar hayotida yangi ehtiyojlar yuzaga kelishi milliy manfaatlar amalga oshishini zaruratga aylantiradi. Quyidagi 4-chizmada korsatilganidek, etnik birliklar shakllanishiga muayyan omillar. ta'sir qiladi:



4-chizma: Etnik birliklar shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar.

Xalq o‘z milliy mustaqilligiga erishgach, oldiga qo‘ygan maqsad, vazifalar mohiyatida uning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy manfaatlari amalga oshuvi uchun muhim shart-sharoitlar, imkoniyatlar izlab boriladi.

Milliy manfaatlар amalga oshuvi deganda, har bir etnik birliklarning o‘z ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy ehtiyojlarining qondirilishining millatlar hayotida ma’lum bir yangi o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga aytildi. Xalqimiz o’tmishi tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mustamlakachilik tuzumida kishilar ongi, tafakkuri, ma’naviyati, fikr erkinligi iskanjada bo‘lgani sabab, ularning moddiy- ma’naviy ehtiyojlari qondirilishi millatning yashab qolishi, o‘z mavjudligini himoya etish kabi maqsadlarga qaratilgan.

Milliy manfaatlarning haqiqiy ma’noda to‘la qonli amalga oshuvi mustaqillik zaminida real voqelikka o‘tadi. Ammo, mustaqillikning qo‘lga kiritilishi milliy manfaatlarimiz amalga oshuvining dastlabki belgilovchi imkoniyatidir. Mustaqillikka erishuv milliy manfaatlarimizning amalga oshishini ham bildiradi. Biroq, u hali millat a’zolarining haqiqiy milliy ehtiyojlarining to‘la ro‘yobga chiqishini anglatmaydi. Bu faqat millatlarning azaliy milliy manfaatlaridagi strategik maqsadining qo‘lga kiritilishini bildiradi. Mustaqillikka o‘tish davrida milliy manfaatlар amalga oshishidagi muammolar avvalo, har bir millat vakilining qaysi etnik guruhga mansubligini to‘la ma’noda anglashi, o‘z urf-odatlari, an’analariiga sodiq qolishi, moddiy-iqtisodiy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni, ongi va dunyoqarashini mustaqillik talablari asosida o‘zgartirishlari, qadriyatlarni anglashi, unga sodiq qolishlari hamda yagona millat vakillari sifatida demokratik davlat atrofida milliy birdamlikka kelishlari va har bir millatlar vakillarining o‘z shaxsiy ehtiyojlari va manfaatlarining tor doiradan milliy darajada tuyg‘unlashuvi kabi murakkab masalalardir.

Shaxsiy, qon-qarindoshuvchilik, urug‘-aymoqchilik kabi xususiy doiradagi manfaatlар shakllanishi umummiliy manfaatlар me’yori va mezonidan tashqarida yoki unga aloqasi bo‘lmaydigan holat deb ham qaralishi mumkin.

Yoki milliy manfaatlarning to‘la mohiyati barchaga birday aloqadorligini tushunmaslik yoki milliy manfaatlarning uning vakillari ehtiyoji va qiziqishlariga o‘z navbatida manfaatdorlik keltirish mexanizmlarning ishlab ketmasligi hodisasi ham ushbu jarayonni murakkablashtirish ehtimoli bo‘ladi. Yoki milliy manfaat va davlat

manfaati o‘rtasida farq va umumiylklarni aniq chegarasi, mezonlari aniqlashmagani ham milliy manfaatlar amalga oshuvini qiyinlashtiradi.

Milliy manfaatlar amalga oshuviga xos murakkabliklarni yuqoridagi keltirilgan “o‘tgan davr” va “hozirgi o‘tish davri mushkulotlari hamda jamiyatni yangilanish – “modernizatsiya”lash talablariga javob berish” tarzidagi guruhlarga ajratish mumkin. O‘tmish davr muammolar ni o‘tish davrida ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib turadi.

Mustaqillik, ozodlik, erkinlik, farovon hayot kabi kishilarni o‘ziga rom etadigan tushunchalar xalqimiz ongi va o‘z-o‘zini bilishning maqsad-muddaosiga aylanishi hamda ijtimoiy hayotda, insonlar turmushida qaror topishi o‘z-o‘zidan bo‘ladigan (voqelik) hodisa emas. Buning uchun konkret inson, shaxs, ijtimoiy guruhlar o‘z manfaatlarini millat va davlat manfaatlari bilan hamohanglikda, o‘zaro taqozolanganlikda anglashlari lozim bo‘ladi. Boshqacha aytganda, jamiyatda milliy o‘zlikni anglash mustaqillik talablari, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlar bilan hamohang bo‘lmog‘i zarur.

Milliy o‘zlikni anglash – millat va uning vakillari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy – madaniy ehtiyojlarini milliy taraqqiyot yo‘lida amalga oshishini aks ettirishi, ifodalashi kerak. Zero, mustaqillikning e’lon qilinishi, millat vakillarining o‘z etnik guruhlarga mansubligini anglab borishlari, o‘zlarining moddiy-ma’naviy manfaatlarini tushunishlarining o‘zi hali milliy o‘zlikni yuksakligini, milliy manfaatlar to‘la anglanganligi va amalga oshuvini bildirmaydi. Buning uchun moddiy-ma’naviy manfaatdorlik millat vakillarining hayot turmush tarziga sezilarli ta’sirini ko‘rsatishi zarur. Bu esa milliy o‘zlikni anglashning ijtimoiy hayot talab va ehtiyojlaridan, umumiy taraqqiyot darajalaridan orqada qolmasligini ham taqozo etadi. Milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi oqsoqlik yoki undagi ehtiyoj va junbushlik holatlari milliy manfaatlarni ham to‘la anglashi va amalga oshuviga to‘siq bo‘lib qolish mumkin. Bunday holatda, jamiyatda ijtimoiy inqirozlarga, milliy rivojlanishda milliy yo‘qotishlar va fojealarga olib kelinadi. Mustaqillik sharoitida ham azaldan milliy-davlat chegaralari, hudud, milliy davlatchilikni yaratish o‘z milliy iqtisodiy, ijtimoiy hayotini qurish, milliy etnik madaniyatlarini, tili va urf-odatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq milliy manfaatlar borasidagi muammolar mavjud bo‘ladi.

Mahalliy millat vakillari azaldan ajdodlari yashab, faoliyat yuritib kelayotgan o‘z vatanlarini milliy zamin holida qabul qilishlari, uni avaylab-asrashlari, unga

bo'lgan mehr-muhabbat, vatanparvarlik hissi va tuyg'ularini tarbiyalash va rivojlantirish ziddiyatlar bilan kechadi.

Chunki, bir necha o'n yillar davomida xalqimiz milliy ongida sovet zaminini milliy zamindan ustuvor deb qarashga asoslangan va shunday mafkura singdirilgan andozalar hamda milliy davlatchilik sovet davlatchiligi tizimi ta'sirida qolib ketganligi holatlari o'zining anchagacha salbiy ta'sirini ko'rsatib keladi. Milliy manfaat amalga oshishdagi muammolar real milliy iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayot hamda milliy xavfsizlikni ta'minlash sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'tish davrida real milliy iqtisodiyotda xo'jalik yuritishning azaliy qoloq agrar ko'rinishi mavjudligi, ishlab chiqarish kuchlari bilan ishlab chiqarish munosabatlari o'zaro muvofiq kelishini murakkablashtiradi.

Eski tuzumdan meros bo'lib qolgan xo'jalik yuritishning kollektivchilik, "umumxalq" davlat mulki bilan mulkchilikni turli ko'rinishlari o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish lozim. O'tish davrida yaratuvchilik iqtisodiy ruhiyatni mustaqillik, bozor munosabatlari talabiga muvofiq, yangitdan shakllantirish, tarbiyalash qiyin kechmoqda. Chunki, millat vakillari ongida, dunyoqarashida tadbirkorlik, ishbilarmonlik, yaratuvchilik, o'z yeriga xo'jayinchilik qilish ruhiyatini, ko'nikmalarini hosil etish lozim bo'ladi. Bu iqtisodiy hayotni tashkil etishdagi mulkka munosabat shaklini yaratish bilan bog'liqdir. Milliy manfaatlar iqtisodiy hayotni yuritishning azaldan mavjud bo'lgan, dehqonchilik, xunarmandchilik, chorvachilik, kasanachilik, tadbirkorlik kabi xususiyatlarni tiklash va bugungi bozor munosabatlari sharoitida mulkka egalikdagи jarayonlarning ishlab chiqarishda hal qiluvchi kuchi va sub'ektiga aylantirishda hozirda ham barchada bunday ko'nikma hosil bo'lmayapti. Bu bir tomonidan, eski tuzumdan meros bo'lib qolgan mulkdan begonalashuv bo'lsa, ikkinchidan, aholining faqat iste'molchi sifat-ko'nikmalari asosida yashab kelganligi oqibatidir. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy qonunlarni bilmaslik, bozor munosabatlari sharoitida erkin iqtisodiy faoliyat yurita olish jur'atining sustligi yoki uning mavjud emasligi bilan xarakterlanadi. Milliy manfaatlar amalga oshuvida jamiyatda keskin tabaqalanishning oldi olinishi ahamiyatlidir. Ammo, jamiyatda teng xuquqlilik, erkinlik, xurfikrlilik kabi demokratianing asoslari qaror topib borishi, huquqiy-siyosiy asoslanganligi, eng muhimmi, ijtimoiyatda barcha uchun yashash tarzining sog'lom muqobil tanlanishi uchun erkin sharoitlar, ularning faoliyat yuritishi uchun dastlabki startida teng

imkoniyatlar yaratilganligi ushbu toifa va qatlamlarning o'zaro munosabatlarida, moddiy-ma'naviy manfaatdorligida keskinlikni yumshatib turadi. Bordi-yu faoliyat munosabatlarida keskinlik vujudga kelish xavfi paydo bo'lsa, demakki, jamiyat iqtisodiy hayotida bozor qoidalari va talablarining, siyosatda esa, demokratiya talablarining jamiyat a'zolari tomonidan hali yaxshi anglab, o'zlashtirib olinmayotganligidan nishonadir. O'tish davrida yana bir muammo u ham bo'lsa, ijtimoiy hayotda demokratiya tanqisligi o'z kuchini ko'rsatib turaveradi.

Milliy manfaatlar amalga oshuvida iqtisodiy demokratiya tanqisligi, siyosiy plyuralizm kuchsizligi, ma'naviy nomukammallik mavjudligi ijtimoiy hayotning har bir konkret sohalari (iqtisodiy soha, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va hokazo sohalarning o'ziga tegishli hal qiluvchi jihatlari)dan tashqari, millat o'zligini anglashi talab darajasida emasligi bilan ham xarakterlanadi. Biz yuqorida millat shakllanish, milliy o'zlikni anglash rivojlanishining iqtisodiy, hududiy, ijtimoiy-siyosiy (davlat) madaniy birligi omillarining o'rni, ta'siri haqida so'z yuritgan edik. Ammo bu omillar ushbu jarayon sodir bo'lishining tashqi belgilovchilik roliga egadir. Haqiqiy ma'nodagi milliy o'zlikni anglash va milliy manfaatlar amalga oshushi milliy jabhalar hisoblanmish milliy madaniyat, urf-odatlar, milliy fe'l-atvor, qadriyatlar, milliy ruhiyat kabi omillarning milliy iqtisodiyotga, milliy davlatchilik va boshqaruv usul vositalariga, milliy (zamin) hududni tan olishga hodisasiga singib ketgan bo'lishi zarur. Yurtimiz har bir fuqarosi ongida ushbu sohadagi yutuq va muammolarni o'ziniki va o'ziga daxldor deb tushunish, ijtimoiy-siyosiy qarashlarida esa millat shu davlatni o'zining iroda va xohishini ifoda etuvchi, o'z xavfsizligini ta'minlovchi qadratli siyosiy qo'rg'oni deb bilishi va tushunish kabi vatanparvarlik tuyg'usini uzluksiz va izchil tarzda amalda tasdiqlash salohiyatiga erishsakkina, milliy o'zlikni anglash va milliy manfaatlar amalga oshuvini yanada faollashtirgan bo'lamiz.

Birinchidan, milliy manfaatlar mavjudligi uni amalga oshirishni taqozo etadi.

Ikkinchidan, milliy manfaatlar amalga oshushi unga xos bo'lgan ma'lum bir muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, muammolarni xarakterini milliy manfaatlar ko'lami, amalga oshish imkoniyatlari kabi qator omillar ham belgilab beradi.

To'rtinchidan, muammoning katta-kichigi bo'lmaydi. Nima bo'lishidan qat'inazар u inson va jamiyatni ich-ichidan yemirilishiga olib keladi. Muammolarni tashqi va ichki turlarga bo'lish mumkin. Tashqi va ichki muammolar o'z navbatida hal

etilmasa, ular o'zaro chatishib yirik fojealarga, butun insoniyat hayotini inqirozga duchor qiladi.

Beshinchidan, muammolarni hal etish imkoniyatlari uni keltirib chiqargan sabab(hodisa) mohiyatidan izlash kerak. Masalan, korruptsiya muammosi qaysi jabhada bo'lsa, o'sha sohadagi nodemokratik muhit, oshkoraliyni yo'qligi, mas'uliyatsizlik, xufiyona boylik to'plash kabi nosog'lom muhitning vujudga kelishi bilan bog'liqidir. Bu muammo avj olib bir butun ijtimoiy organizm-millatning mavjudligiga zimdan xavf soladi.

Oltinchidan, milliy manfaatlar amalgalash oshuvidagi muammolarni hal etish imkoniyatlari ichida milliy-ma'naviy -ruhiy salohiyatning bitmas-tuganmas qudratini yanada yuzaga chiqarish hal etuvchi o'ringa egadir.

Etnotsentrizm ommaviy ong va alohida shaxsning o'z-o'zini anglash darajasidagi psixologik mo'ljallar yig'indisi. Etnotsentrizm – o'z xalqi xulqi, madaniyati, urf-odatlari normalari va qadriyatlarini boshqa xalqlarga xos bo'lgan shunday xususiyatlarni baholash uchun asos qilib olinishini ifodalovchi tushuncha bo'lib, u kundalik hayotda va alohida olingan shaxs darajasida “biz-boshqalar” tarzida qaramaqarshi qo'yishda ko'rindi. Etnotsentrizm turli omillar, shu jumladan, milliy til va an'analar ruhida tarbiyalanish, milliy adabiyot va san'at ta'sirida ham shakllanishi mumkin. Har bir millat, elatning o'zi noyob bo'lganidek, ularning madaniyati va ma'naviyati ham o'ziga xos va betakror xarakterga ega bo'ladi. Shunday ekan, bir qadriyatlar tizimi boshqa qadriyatlar tizimini baholash uchun etalon, mezon sifatida olinishi mumkin emas. Umuman olganda, etnotsentrizm o'z mohiyatiga ko'ra, milliylik, milliy qadriyatlar atrofida birlashishga xizmat qilsada, bu birlashuv boshqa xalqlarga xos bo'lgan o'ziga xosliklarni inkor etish asosiga qurilganligi uchun ham uni qabul qilish mumkin emas.

Etnotsentrizm yoki o'z usuliga asosan amal qilishga e'tiborni jamlash va bunda dunyo mamlakatlarining amal qilishiga kam sezgir bo'lish yoki kam qiziqish - kasallik bo'lib, u ko'plab kishilarga, shu jumladan amerika tashkilotlarini boshqaruvchilariga ham yuqmoqda. Milliy o'ziga xosliklar hech bir xalqda birdaniga paydo bo'lmagan va bunday bo'lishi mumkin emas edi. Milliylikning taraqqiyot yo'li xalqning bosib o'tgan turmush yo'li bilan tengdosh, ya'ni u asrlar davomida shakllanib kelgan. Uning shakllanishi tekis, ravon emas, murakkab, ziddiyatli kechgan. Milliy belgi xususiyatlarda o'sish, yemirilish, kuchayish, kamsitilish,

tahqirlanish, yangilanish va ulug'lanishlar sodir bo'lgan. Xalq mavjud va doim harakatda, mehnatda, kurashda, boshqa el-yurtlar bilan qandaydir munosabatda ekan, uning o'zigagina oid xislatlar, odatlar, tuyg'ular, xulq-atvor ham ko'nikmalar to'xtovsiz rivoj topa boradi. Xuddi shu uzundan-uzoq kechmishga millat-elatlarni birodarlashtiruvchi xalqchillikning, umumbashariy ezguliklarning tarixi ham deb qaramoq darkor. Zeroki, xalq xarakteridagi ilg'or jihatlar nechog'lik milliy tarzda ifodalanishlaridan qat'i nazar, barcha zamonlarda beg'arazligicha qolib, ellar hamdo'stligiga xizmat qiladi.

Xalqning asl ko'rki sanalmish xususiyatlarni faqat uning o'z ichida yuz berayotgan hodisalar deb tushunish ko'p vaziyatlarda to'g'ri, ammo bu dunyo hamjamiyati taraqqiyoti qonunlariga xilofroq o'ylash va masalani bir yoqdama idrok etish bo'lib chiqadi. Demak, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xoslik rivojining "tashqi" tomonlari ham bor. Hech bir xalq o'zicha biqiq va boshqlardan ajralgan holda yashay olmaydi. Aksincha, ular bilan iqtisodiy-madaniy aloqaga kirishadi. Xilma-xil aloqa va munosabatlar millatlarning turmushi, ongi, hatto urf-odatlariga ma'lum ta'sir qiladi. Milliy xarakterda umuminsoniy xislatlar, xususiyatlar vujudga keladi. Ilg'or milliy tuyg'ular o'zga xalqlar ko'ngli va manfaatlariga mos keluvchi fazilatlar bilan boyiydi. O'zbek xalqi ham asrlar davomida juda ko'p xalqlar bilan, birinchi navbatda, O'rta Osiyoning boshqa xalqlari, Qozog'iston, Yaqin-O'rta Sharq hamda Rossiya xalqlari bilan iqtisodiy-madaniy aloqada bo'ldi. Bu aloqalar xalqlarning san'at va adabiyotida ham iz qoldirdi.

Xalqlar milliy spesifikasining (demakki, umuminsoniylikning ham) qanday namoyon bo'lishi har tuzumning iqtisodiy, sotsial-siyosiy, madaniy hayot tarziga bog'liq. Davr va shart-sharoitning amaldagi tendensiyalari, qonun-qoidalari milliylikka ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Oqibatda uning tarkibida, o'sish, kengayish, cheklanish, turg'unlashish, ravnaq topish, xullas, har turli o'zgarishlar ro'y beradi. Boshqacharoq aytganda, zamonlar unda o'zining yaxshi-yomon belgilarini, izlarini qoldiradi. O'z o'mida milliylikning ko'rinishlariga qarab, biror davr va muhitni tarixan aniq bilish, aniqlash, baholash mumkin bo'ldi.

Har xil zqadiyatli jamiyatlarda mazkur jarayon elu yurt boshqaruvinining qanday yo'lga qo'yilganligiga qarab, shu sharoitiga mos davom etdi. Mehnatkashlarning olijanob hislari, fazilatları, pok niyatları, kurashchanlik tuyg'usi hukmdorlarning qattiq zulmi va qarshiliqiga duch kelgan zamonlar bo'lgan. Keng xalq ommasini

iqtisodiy qolqolikda, ruhan passivlikda, jaholat ichida, ongsizlik asorati doirasida saqlashga tirishgan mustamlakachiliklar bo‘lgan.

Millatchilikni va reaksiyon g‘oyalarni milliy iftixor hissi deb targ‘ib qilib, xalqni chalg‘itishga, bemalol ezishga, millatlar o‘rtasida kelishmovchiliklar tug‘dirishga harakat qilgan siyosatlar ham ko‘p o‘tgani. Shunday ekan, dunyoning milliy turmushi, madaniyati, ideologiyasiga kurashlar nuqtai nazaridan qaralsagina, tarixan ob‘ektiv manzaralar ko‘zga tashlanadi.

Shu ma’noda xalqlarning hozirgi kungacha yetib kelgan butun oliyanob an’analari, ma’naviy-madaniy boyliklari murakkab va mashaqqatli tarixni boshdan kechirganlar. Progressiv kishilik hamma vaqt ota-bobolarining yaxshi ishlari, dard-o‘ylari, umidlarini asrash-avaylash yo‘lidan borgan. Moziyning moddiy-ma’naviy merosi, ezgu niyatları, ulug‘vor an’analari tan olmaslik ilg‘or dunyoqarashga mutlaqo begonadir.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyotiga katta-kichik har millat o‘zining fan va madaniyat bobidagi yutuqlari bilan ulush qo‘sadi. Ularning jahon madaniyatiga qo‘shgan hissalari jug‘rofiy jihatdan chegara bilmaydi. Gap shundaki, ayrim millat tafakkurining, ijodining asl namunalari barcha xalqlarni birday bahramand qiladi, boshqalarning ham ma’naviy boyligiga aylanib boradi. Mafkuraviy jihatdan esa madaniy meros mamlakatlardagi sinf va guruhlarning hammasiga xizmat qilavermaydi. U o‘zi kashf qilingan yurtdagi har qanday millatchi elementlarga nomuvofiq va hatto qarama-qarshi bo‘lganidek, o‘zga millatlarning noxolis toifalari manfaatiga ham nomuvofiq va zid keladi.

Etnotsentrizm millatchilikka asos bo‘luvchi omillardan biridir. O‘z o‘rnida millatchilik mahdudlik va mumtozlikni targ‘ib va tashviq qilishga asoslangan, o‘z millatiga chuqur ishonch va o‘zga millatlarga ishonchsizlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan nazariya va amaliyot hisoblanadi. Millatchilik ijtimoiy voqelik va unda kechayotgan jarayonlar millat tarixiy taraqqiyotning bosh sub‘ekti, milliy munosabatlар esa ijtimoiy munosabatlarning asosiy turi degan nuqtai nazaridan kelib chiqib baholana boshlagan makon va zamonda shakllanadi. Millatchilik tushunchasiga yuqoridaq kabi tus berish keng tarqalgan bo‘lsada, uning qamrov doirasini turlicha talqin qilish hollari mavjudligini ta’kidlash zarur. Masalan, sobiq ittifoq davrida millatchilik tushunchasi atayin soxtalashtirilgan va milliylikning har qanday ko‘rinishi millatchilik sifatida baholangan edi. Hozirgi davrda ayrim tadqiqotlarda “millatparastlik”, “millatparvarlik”

va “millatchilik” tushunchalarini mazmunan farqlash to‘g‘risida fikrlar bildirilmoqda. Xususan, millatparastlik “millatlarning tengligini inkor etish, o‘z millatini boshqa millatlardan ustun qo‘yish, unga imtiyozlar yaratishga intilish, o‘z millatiga sajda qilish, unga xolis baho bermaslik, kamchiliklar va nuqsonlarini sezmaslik”, millatparvarlik esa “millatlarning tengligini tan olish, barcha irq va millatlarga nisbatan teng munosabatda bo‘lish, o‘z millatiga, uning tili, madaniyatiga befarq bo‘lmaslik” tarzida talqin qilinadi.

G‘arb ijtimoiy fikrida millatchilik tushunchasiga pozitiv mazmun berish keng tarqalgan. Xususan, millatchilikni milliy davlatlarning shakllanishi imperiyalarning barbod bo‘lish jarayonida shakllangan siyosiy prinsip sifatida talqin qilish bunga misol bo‘la oladi. Bugungi kunda ayrim etnoslarning iqtisodiy, siyosiy va boshqa ko‘rinishlardagi salbiy tashqi ta’sirlarga javob reaksiyasi sifatida chiqadigan harakatlarni ham, shu jumladan, ko‘pgina xalqlarning chuqurlashib borayotgan integratsiya va dunyo miqyosidagi internatsionallashuv jarayoniga qarshilik ko‘rsatish yo‘lidagi urinislari ham aksariyat hollarda millatchilik deb baholanadi. Bunday talqin bizning falsafiy adabiyotlarimizda ham o‘z ifodasini topmoqda. Bu jarayonni sovet davrida haddan tashqari keng va salbiy talqin qilingan millatchilik tushunchasini “oqlash” ga urinish deb baholash mumkin. Ammo jiddiy tahlil qilinsa, bunday yondashuvda – ozodlikka intilayottan, o‘zligini saqlab qolish uchun kurashayotgan millatlarning harakati millatchilik sifatida baholanayotganini ko‘ramiz.

Aslida esa, bunday harakatlar, kurash jarayonida ro‘y beradigan ayrim og‘ishlarni inobatga olmaganda, mohiyatan istibdodni tugatishga o‘z millatining ozodligini, o‘ziga xosligini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgandir. Xususan, katta yoki kichik millatlarning millatchiliginu, boshqa millatlarni assimilyatsiya qilishga qaratilgan yoki milliy mahduddikka yo‘naltirilgan millatchilikdan farqlash lozim. Shuningdek, milliy kelishmovchiliklar va nizolar kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi tajovuzkor millatchilik bilan bir qatorda undan ham xavfliroq bo‘lgan yashirin, noziklashgan millatchilik ham mavjud. Oriy qavmiga mansub bo‘limgan xalqlarni jismongan yo‘q qilib tashlashdek maqsadni ko‘zlagan natsional-sotsializm (fashizm)da o‘zining eng mudhish qiyofasini namoyon etgani holda millatchilik irqchilik bilan qo‘silib ketganini ko‘ramiz.

Millatchilikda milliy egoizm, milliy fobizm, milliy antipatiyada namoyon bo‘lib, u milliy takabburlik, milliy manmanlik, milliy kekkayish kabi g‘ayriinsoniy

illatlarni keltirib chiqarishga asos bo'lishi mumkin. Qayerda milliy egoizm, milliy fobizm, milliy antipatiya bo'lsa, o'sha yerda unga qarama-qarshi o'laroq millatchilik rivojlanadi. Bu illatlar ko'pmillatlari mamlakatda millatlarni bir-biriga yaqinlashtirmaydi, balki ular orasiga adovat urug'ini sochadi, turli nizolarni kelib chiqishga sabab bo'ladi. Agar ular bartaraf etilmasa, turli millatlar orasida milliy alamzadalik kelib chiqishi mumkinligini zinhor unutmaslik kerak.

Millatchilikning turli ijtimoiy qatlamlarga tortilishi mumkin bo'lgan primitiv ko'rinishi maishiy millatchilikdir. O'ziga xos etnoijtimoiy birlik bo'lgan millat va ular o'rtasidagi munosabatlar mavjud bo'lar ekan, maishiy millatchilik u yoki bu darajada saqlanib qolaveradi, deyish mumkin. Tarixiy tajriba hal etilmagan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning ko'payib ketishi, ijtimoiyadolatsizlikning ildiz otishi sharoitida uning jiddiy o'sishidan dalolat beradi. Qanday shaklda bo'lmisin, millatchilik ortida mohiyat e'tibori bilan o'zga xalqlar va madaniyatlarni kamsitish, ularga mensimaslik bilan munosabatda bo'lish tuyg'ulari yotadi. Bunday qarashlar aksariyat hollarda millatning tarixiy rivojlanishi davomida ro'y bergan (ba'zan ro'y bermagan)adolatsizliklarda ham muayyan xalqlarni aybdor qilishga urinishlar bilan omuxta holda yuz ko'rsatadi. Umuman olganda, millatchilik bir tomonidan, boshqa millatlar bilan turli sohalardagi ayirboshlash jarayonidan mahrum qilib, millatning ma'naviy qashshoqlashuviga sabab bo'lsa, ikkinchi tomonidan, o'zaro kelishmovchiliklar uchun zamin yaratadi. Millatchilik tuyg'ulari butun millatni qamrab olgan va davlat strukturalari tomonidan bunday kayfiyatlar qo'llab quvvatlangan paytda esa u millatlararo munosabatlarning tarang holatda saqlanishiga, o'zaro ishonchszlik tuyg'ularining ildiz otishiga, mavjud muammolarni hal etishning cho'zilib ketishiga va doimiy beqarorlik holatining saqlanib qolishiga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda jahon tajribasi bu muammolarni bartaraf etishga bir yoqlama, yuzaki yondashuv jiddiy muammolar keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatdi. Xususan, davlatga o'z nomini bergan (titul) millat bilan o'sha joyda yashaydigan boshqa millat va elat vakillari orasidagi do'stona munosabatlar o'rnatish eng birinchi galda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masaladir. Aks holda jamiyat hayotidagi tinchlik va barqarorlik izdan chiqishi mumkin.

Bu masala bizning mamlakatimiz uchun ham juda muhim. O'zbekiston hududida qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o'rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy

bag'rikengligini ko'rsatadi. Millatlararo munosabatlarda uyg'unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko'p millatlilik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi. Mamlakatimiz Konstitutsiyasida "O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi", - deb ta'kidlanishi, "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunda esa barcha fuqarolarga ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqeい, irqi va milliy mansubligi, jinsi, ma'lumoti, tili, dinga munosabati, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqining berilishi belgilab qo'yilganligi ana shu bag'rikenglikning zamonaviy siyosiy-huquqiy ifodasidir. "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi". Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan ushbu qoida ham hayotda o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Respublikamizda milliy-madaniy ehtiyojlarni qondirishning muhim mexanizmiga aylangan 150 ga yaqin milliy-madaniy markaz faoliyat ko'rsatayotgani fikrimizning dalilidir.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Badiiy madaniyat, xalq milliy xarakteri, milliy mushtaraklik, milliy manfaatlar, qahramon xarakterining milliyligi, etnik birlik, etnotsentrizm, ommaviy ong, millatchilik, millatparastlik, milliy egoizm, milliy fobizm, milliy antipatiya, millatlararo munosabatlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Badiiy madaniyatda xalq milliy xarakterining ifodalanishini izohlang...
2. Milliy adabiyotimizda milliy mushtaraklik tuyg'usi ifodalangan qanday asarlarni bilasiz?
3. Milliy mushtaraklik tuyg'usi aks etgan jahon adabiyoti durdonalaridan qaysilarini bilasiz?
4. Etnik birliklar shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni sanab o'ting...
5. Etnotsentrizm nima?
6. Etnotsentrizm qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin?
7. Millatchilik nima va nima uchun salbiy illat hisoblanadi?
8. Milliy egoizm, milliy fobizm, milliy antipatiyaning salbiy oqibatlarini izohlang...
9. Millatni sevish va millatchilik tushunchalarini o'zaro qiyoslang...

12-§. Etnomadaniyat va milliy o‘z-o‘zini anglash

Milliy o‘z-o‘zini anglash ijtimoiy ong fenomeni sifatida. Insoniyat jamiyatini tarixiy taraqqiyoti o‘z-o‘zini anglash eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma’naviy voqelik, sha’n, qadr-qimmat, obro‘-e’tibor, or-nomus orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Hayotning ma’no-mazmuni, maqsadini tushunib yetish, o‘zlikni anglashdan boshlanadi. O‘zligini anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko‘tariladi. O‘zligini anglagan inson ma’naviy yuksalishga erishadi, har qanday sharoitda ezzulik sari harakat qiladi. Yuksak rivojlangan jamiyat esa o‘zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. Inson ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etilganda, uning mustaqil tafakkurga, e’tiqodga, bunyodkorlik qudratiga, o‘zgalar va butun borliq oldidagi mas’uliyat tuyg‘usiga ega ekanligi nazarda tutiladi. “Men kimman?”, “Bu yorug‘ dunyoga nima uchun keldim?”, “Menga ato etilgan buyuk ne’mat - hayotimni nimalarga safarbar etmog‘im lozim?”. Inson borki, ertami-kechmi ana shu savollarga javob izlay boshlaydi, kamolot sari yo‘l oladi. Bu yo‘lni - o‘zlikni anglash deb aytish mumkin. O‘zligini anglagan yoki anglay boshlagan kishigina shaxs darajasiga ko‘tariladi. Demak, o‘zlikni anglash, avvalo har bir insonning shaxsi, alohida “meni” bilan bog‘liq.

Mutafakkirlar qadimdan o‘zlikni anglash nimalarga qodir ekanligini chuqr anglab yetganlar. Masalan, Delfadagi Appalon ibodatxonasining devorlariga o‘yib yozilgan va an‘ana bo‘yicha yetti yunon donishmandlaridan biri – spartalik Xilonga tegishli deb hisoblangan “O‘zingni o‘zing angla” shiori qadimgi yunon falsafasining o‘zak masalasi bo‘lib qoldi. Yunon mutafakkirlarini bu borada izlanishga da’vat etdi. Eramizdan avvalgi V asrdayoq Protagor, “inson barcha narsalarning o‘lchovidir”, degan mashhur fikrni ilgari surdi. Suqrot uchun esa “o‘zingni o‘zing angla” hikmati donishmandlikning qoidasiga aylandi. R.Dekard “Agar men har qanday narsa va hodisa haqida fikr yuritadigan bo‘lsam men o‘zimni sub’ekt sifatida mavjudligimni qis qilaman. Jon Lokk o‘z-o‘zini anglashni insonning ichki kechinmalarini bilishdagi tajriba va amaliy faoliyat sifatida talqin qiladi.

O‘zlikni anglash milliy o‘z-o‘zini anglashga zamin yaratadi. Bir qator tadqiqotlarda milliy o‘z-o‘zini anglash ijtimoiy ong fenomeni sifatida talqin etilib, o‘z o‘rnida 3 ta komponentdan iborat deb ko‘rsatiladi. Ya’ni: o‘z-o‘zini bilish; o‘z-o‘zini qadrlash, baholash va emotSIONAL holatini anglab etish; milliy o‘zlikni boshqarish.

Etnomadaniyat va milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchalari bir-biri bilan uyg‘un tushunchalardir. Milliy o‘z-o‘zini anglashning asosiy omillari milliy mansublikni chuqur anglash, o‘z millati istiqbolgi oldida mas’ullikni his qilish bo‘lsa, etnomadaniyat ham o‘zbek xalqining kelib chiqishi, uning madaniyati, turmush tarzi, ma’naviy-ma’rifiy xususiyatlarini tarixiy jarayonlarda ravnaq topib hozirgi klinikgacha rivojlanib kelayotgan ma’naviy hamda madaniy merosidir.

Har bir xalqning yuqori darajasida o‘zlikni anglash, milliy g‘urur, vatan fidoyisi bo‘lish, o‘z xalqidan faxrlanish hissi o‘sha davr jamiyatni tartib-qoidalariga ko‘ra, ko‘pchilikda bir xil, yuksak saviyada bo‘ladi. Aholining o‘zlikni anglash darajasi fuqarolarning hayot mazmuniga, kundalik turmush-tarziga aylanadi.

G.V.Sheleпов etnik jamoani “kelib chiqishi va uning etnik o‘z-o‘zini anglashida namoyon bo‘lishi, til, hudud, madaniyat va turmushning ba‘zi belgilarining birligi asosida shakllanadigan ma’lum tarixiy va iqtisodiy shart-sharoitlar natijasida paydo bo‘ladigan ijtimoiy jamoaning maxsus ko‘rinishidir”, deb ta’riflaydi.

Aslida milliy o‘z-o‘zini anglash millatning moddiy hamda ma’naviy manfaatlarni himoya qiluvchi va rivojlantiruvchi omil hisoblanadi. U faqat milliy manfaatlarni himoya qilish bilan cheklanmaydi, u millatni “harakat”ga keltiradi va birlashtirib turadi. Xususan, millat taraqqiyoti jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilishda milliy o‘z-o‘zini anglash omili millatni jiqlashtiradi va uni umummaqsadlar yo‘lida harakatga keltiradi. U har qanday millat uchun zarur asosiy o‘ziga xos belgilari tizimida yetakchi o‘rinni egallaydi. Milliy o‘z-o‘zini anglash millat abadiyligini ta’minlashning eng muhim omilidir. Chunki bu salohiyat millatning o‘ziga xostligini va manfaatlarni himoya qilib turadi. Xitoy faylasufi Shan Yan (mil.avv. 390-338) fikricha, “Nodon xalqni boshqarish oson. Tentak odamlarni og‘ir mehnatga majburlash oson. Aqli kishilarni esa mashaqqatli mehnatga jalb etish mushkuldir”⁴³.

Hadisda “Kimki o‘zligini tanisa, robbini taniydi” deb yozilgan. Bu hadisda buyuk hikmat yashiringan, ya’ni har bir inson o‘zi intilmasa, maqsadlar qanchalik ulug‘ bo‘lmasin, biror-bir natija bermaydi. Shuning uchun ham islom ahli, mutasavvif allomalar insonni “olam mehvvari” deb bilganlar.

⁴³ Ҳақиқат манзаралари. 96 мұмтоз файласуф. -Т.: Яңти аср авлоди, 2002. 92-бет.

Hazrat Navoiyning “El netib topqay menikim, men o‘zimni topmasam” – degan so‘zлari bugungi kunda ham chuqur ma’no kasb etadi. Ulug‘ mutasavvuf alloma Bahouddin Naqshband inson o‘z-o‘zini anglab yetish orqali Haqni, Haqiqatni taniydi, Alloh vasliga yetishadi, deydi. Ammo hayotining yakuniy maqsadi bu emas. Dilida Alloh (“dilda yor”) jo bo‘lgan kishi ishga kirishmog‘i (“dast ba kor”) ezgu ishlarga qo‘l urishi lozim. U aslo eldan, xalqdan o‘zini ayirmasligi, aksincha Orif odam Haqni dilda tutgan holda xalq bilan birga bo‘lishi lozim. (“Xilvat dar anjuman”).

Agar tariximizga murojat qilsak buyuk shaxslar o‘zligini anglash natijasida dashmanlardan ona-Vatanni himoya qilib, xalq uchun xizmat qilganligiga guvoh bo‘lamiz. Ulardan Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo va yurt qayg‘usida yashagan jadid ziyolilar, yana o‘nlab, yuzlab ulug‘ ajodolarimiz hayoti, o‘z taqdirlarini xalq millat butun insoniyat taqdiri bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rganlar. Inson o‘zligini anglashini ijtimoiy munosabatlar asosida ko‘rishni orzu qilgan hazrat Alisher Navoiy buni aniq qilib shunday ifoda etgan edi:

Odame ersang demagil odame -

Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami

Mutafakkirlar e’tirof etganidek, o‘zini anglagan inson, o‘zi uchun nima foydaliligi va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo‘lidan keladigan ish bilan shug‘ullanish asnosida o‘z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan xoli bo‘ladi. Buning natijasi o‘laroq, u o‘zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo‘lida foydalana biladi. Oqibatda o‘zini kulfatlardan asraydi. O‘zligini anglagan odamda mehr, muruvvat kuchli bo‘ladi. Manmanlik kabi salbiy qusurlarni xush ko‘rmaydi. “*Manmanlik*, - degan edi mashhur ma‘rifatparvar Abdulla Avloniy, - *johilona kabru g‘ururdan paydo bo‘ladurgan eng yomon xulqlarning biridurki, kishini har yerda ma ‘yus va mahjub qilur*”⁴⁴.

Avloniy inson manmanligi haqida gapirgan. Agar manmanlik kasaliga millat, xalq yoki biron bir din vakillari uchrasa ne oqibatlarga olib keladi? Misollar talaygina. Birgina o‘z xalqi ongiga “oliy irq”qa mansublik g‘oyasini singdirishga uringan fashizmning butun insoniyat boshiga yog‘dirgan balolarni yoki buyuk davlatchilik shovinizmi sobiq Ittifoqda yashagan elat va xalqlarga keltirgan azob-

⁴⁴ Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2-жилд. -Т.: Маннавийт, 1998, 80-бет..

uqubatlarni eslash kifoya. Ayrim siyosatdonlar bugungi kunda ham diniy, irqi, milliy ziddiyatlarni avj oldirishga harakat qilayotgani va oqibat o'laroq dunyoning turli chekkalarida urush olovi alangananayotgani barchaga ma'lum.

Umuminsoniy madaniy qadriyatlarning etnik madaniyat va milliy o'z-o'zini anglash bilan uyg'unligi. Milliy o'zlikni anglash muayyan etnik birlikka, milliy davlatga mansub bo'lib, uning oldidagi burch va mas'uliyatni anglash, shu millatning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, manfaatlarini himoya qilishga va rivojlantirishga, milliy birlik va hamjihatlikni ta'minlashga yo'naltirilgan umumlashgan nazariy qarashlar hamda amaliy harakatlarning ifodasıdir.

Milliy o'zlikni anglash masalasiga tavsif berishda kompleks yondashuv an'anaviy va hozirgi zamон institutlarining (oila, mahalla, maktab, OAV, davlat va nodavlat tashkilotlar, fondlar) faoliyatlarini bugungi reallik asosida o'rganish zaruriy ahamiyatga egadir

O'zlikni anglash muammosi individual va ijtimoiy ong, fan va amaliyot uchun fundamental ahamiyatga ega, uning turli aspektlari bilan falsafa, ruhshunoslik, antropologiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, tarix va boshqa fanlar shug'ullanadi. O'zlikni anglash siyosat, amaliyot, xalqaro munosabatlar va boshqaruv nuqtai nazaridan ham o'ta ahamiyatlidir. Har bir millat boshqalarga o'xshamagan udumlari, o'ziga xos yashash tarzi bilan go'zal. Demak, taraqqiy etgan davlatlarda har bir millatning milliy xususiyatlariga hurmat bilan qaralishida ulkan ma'no bor. Shu jumladan, O'zbekistonda ham millatlar orasidagi tenghuquqlilik, har bir millatning urf-odatlari, an'analariga, tili va udumlariga hurmat bilan qarash tamoyillari qonun bilan kafolatlangan.

Mashhur fransuz gumanist yozuvchisi fashizmga qarshi urushda jonini fido qilgan Antuan de-Sent-Ekzyuperi insonning o'zini anglashini ahli bashar oldidagi mas'uliyat hissi bilan bog'laydi. *"Inson bo'lish - bu mas'uliyat sezishingdir, - yozadi u, - o'zingga aloqasizday tuyulsa ham qashshoqlik oldida andisha qilishingdir. O'z gashtingni qo'ya turib, dunyodagi bunyodkorlikka ko'maklashganiningni his etishingdir"*⁴⁵. Lo'nda qilib aytganda, o'zga millat va xalqlarni kamsitgan millat hech qachon buyuk bo'lolmaydi. Buyuk Alisher Navoiy bu haqda shunday deydi:

⁴⁵ Тафаккур гулшани. Ватандои ҳамда хорижий алломаларнинг афоризмлари ва ҳикматли сўзлари. –Т.: Адабиёт ва санъат наприёти. 1989, 34-бет..

“Naf’ing agar xalqqa beshak erur,
Balki bu naf o‘zingga ko‘prak erur”.

Milliy o‘zlikni anglash aynan ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish, o‘z xalqining tarixi, madaniy merosini o‘rganish, bugungi holati va ertangi istiqbolini aniq tasavvur etishdan boshlanadi. Har bir insonning mehnati, faoliyati, hayotiy maqsadlari ma’lum bir qadriyatlarga erishish, moddiy va ma’naviy boyliklarga ega bo‘lishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. O‘z o‘rnida milliy ma’naviy qadriyatlar, etnik madaniyat va milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchalari umuminsoniy madaniy qadriyatlar bilan uyg‘un tushunchalardir. Zotan, O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan ko‘p millatli xalqqa xos bo‘lgan umummilliy milliy qadriyat - bag‘rikenglik, o‘zaro ahillik, madaniy-ma’rifiy yaqinlikdir.

Istiqlol – o‘zaro hurmat, bir –birini tan olish va bir –birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari o‘zaro munosabatlarda ham jahon davlatlari o‘rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy me’zonlar asosida yashash demakdir.

Etnomilliy o‘zlikni anglash xalqning milliy va mental xususiyatlari, uning hozirgi va uzoq muddatga mo‘ljallangan manfaatlarini ro‘yobga chiqarish shart-sharoitlari va omillari to‘g‘risida tasavvurlar beradi. An‘anaviy qadriyatlar o‘z- o‘zini anglashning ichki salohiyati ekanligidan hamda jahonda ro‘y berayotgan global ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar tufayli dunyoning ko‘plab mamlakatlari madaniyatiga singib ketgan qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etayotganligini anglashga ko‘mak beradi.

Turli xalqlarning turmush tarzi va madaniyati, milliy xarakteri, mentaliteti tabiiy- geografik muhitga va shu asosda shakllangan xo‘jalik faoliyati hamda uning madaniy-xo‘jalik an‘analari bilan chambarchas bog‘liqidir. Chunki tabiiy sharoitning ta’siri, belgilari etnik madaniyatning barcha sohalarida, ya’ni ishlab chiqarish vositalari, ayniqsa mehnat qurollari, turar joylar, uy-joy qurilishi, kiyim-kechaklari va ro‘zg‘or buyumlari, xo‘jalik-madaniy an‘analari hamda xalqlarning etnik xususiyatlarida ham namoyon bo‘ladi.

Shubhasiz, bu borada O‘zbekistonning turli tarixiy etnografik mintaqalarida yashovchi etnik va etnografik guruhlarning etnomadaniy identikligi (etnik o‘zlikni anglash), nafaqat etnologlar uchun qiziqarli ilmiy muammo, balki zamonaviy etnomadaniy jarayonlarni tahlil qilishda ham muhim ahamiyatga molik bo‘lgan mavzulardan biri sanaladi.

Aynan mustaqillik yillarda mamlakatimiz- dagi 130 dan ortiq xalqlar va elatlar bilan birga O'zbekistonda yashovchi arablarda ham milliy o'zlikni anglash, an'analar va ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash tuyg'ulari rivojlanmoqda. Bunday tuyg'ular etnik o'zlikni anglash bilan birga, umuman insoniy qadriyat va manfaatlar mushtarakligini ta'minlashga qaratilmog'i lozim.

Bugun O'zbekistonda yashab kelayotgan turli millatlarning etnik o'zlikni anglashi birinchidan, yosh avlodning milliy o'zlikni anglashida, ularda axloqiy yetuklikni shakllantirishda va turmush tarzining rivojida muhim o'rinni tutsa, ikkinchidan, O'zbekistonda yashab kelayotgan o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, arab va boshqa millat, elat vakillarining etnik o'zlikni anglashida milliy urf-odat va an'analarimizning ham o'ziga xos o'rni bor.

Milliy o'z-o'zini anglashning genezisi va funksiyasini o'rganishda etnopsixologiya va etnopedagogika usullaridan foydalanish. Insonning o'zligini anglashi genezisi uning turmush tarziga borib taqaladi. Turmush tarzi – shaxs ijtimoiy guruh, elat, millat, xalqning kundalik hayotini ifodalovchi tushuncha bo'lib, turmush tarziga turli jihatlar: falsafiy, sotsiologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-guruhiy va boshqa nuqtai-nazardan yondashiladi. Shaxs, ijtimoiy guruh turmush tarzi muayyan davr shart-sharoitlarining butun majmuasi bilan belgilanadi.

Turmush tarzi ijtimoiy kategoriya. U turmush darajasi deb ataladigan iqtisodiy kategoriyaga nisbatan kengdir. Turmush darajasi, asosan, miqdor ko'rsatkichiga ega bo'lsa, turmush tarzining mohiyati, mazmuni va namoyon bo'lish shakllari ko'p holatda kishilarning hayot kechirishi, mehnati, sog'ligi va hatto xulq-atvori bilan ifodalanadi. Muayyan elat, millat va xalqning turmush tarzi ularning yashash joylari bilan bog'liq holda shakllanib o'zgarib boradi. O'zbek xalqi o'z hayot faoliyatida kamtarlik, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, bag'rikenglik, sofdillik kabi axloqiy xislatlarga alohida e'tibor beradi. O'zbek xalqida bunday fazilatlar milliy urf-odat va an'analarda, kundalik hayot tarzi va millatlararo munosabatlarda aks etgan. Xalqimiz hayotida odob-axloq me'yordagi rasm-rusumlar, an'analar va odatlarning ahamiyati beqiyosdir. O'zbek xalqi azaldan jamoa bo'lib yashab, mahalla, qo'shnichilik udumiga qat'iy rioya qilgan. Oilada tug'ilgan har bir go'dakka yaxshi niyat bilan ism qo'yilgan, savodini chiqarish uchun uni ustoz-muallim qo'liga topshirilgan. Farzandlarni hunarli va uy-joyli qilish ota-onalar faoliyatining eng

muhim vazifasiga aylangan. Odamlarning, xususan, yoshlarning yurish-turishi, ular amal qiladigan tamoyillar hamisha jamoa nazarida bo‘ladi.

Demak, turmush madaniyati - oila va kundalik turmushda mavjud bo‘lgan oilaviy burch, o‘zaro hurmat, sadoqat, or-nomus kabi an’analarni avloddan-avlodga o‘tkazish asosida davom ettirish vositasi hisoblanadi. Shuningdek, turmush madaniyatida insonadolatli jamiyat qurish va unda boy-badavlat, tinch-totuv, baxtli yashash g‘oyasini ilgari suradi.

Insonni dunyoga kelishi, faqat tug‘ilishdan iborat tabiiy-biologik hodisa emas, balki tug‘ilgandan keyin o‘z zamonasining tarakqiyoti darajasiga ko‘tarilishi, mavjud ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashi, jamiyatda o‘z o‘mini belgilab olishi, tarixiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanishi, o‘z e’tiqodiga, o‘zligiga, hayotda o‘z o‘rniga, mavqeiga ega bo‘lishi va buning uchun tarbiya olishi kerak bo‘ladi. Bu jarayonda katta avlod o‘zining yashash, kurash va mehnat tajribasini, bilim va malakalarini kichik avlodga beradi. Bu esa tarbiya deb ataladigan insonning shakllanishida, rivojlanishida muhim o‘rin tutadigan ijtimoiy hodisa orqali amalga oshiriladi. Jamiyat rivojlangan sari barkamol, yetuk hamda o‘zligini anglashga qodir shaxslarni yyetishtirish zarurati ham ortib boradi. O‘zlikni anglashning genezisi va funksiyasini o‘rganishda etnopsixologiya va etnopedagogika usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda etnopedagogika va etpsixologiya atamalarining mazmun va mohiyatiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ma’lumki, pedagogika atamasi ham lug‘aviy ma’nosigi jihatidan “bola yetaklovchi” ya’ni tub ma’nosiga qaraydigan bo‘lsak “tarbiyachi” degan ma’noni anglatadi. Ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishda, tarbiyaviy jarayonda o‘zbek pedagogikasining durdonalari bo‘lgan shoh asarlardan, ularda tasvirlangan, ilgari surilgan ilg‘or, milliy g‘oyalardan foydalanish, ulardan yoshlarni bahramand qilish, tarbiyalanuvchilar ongida axloqiy mavzulardagi fikrlarni singdirish, Sharq mutafakkirlari asarlardagi pedagok g‘oyalarni o‘rgatish, ta’lim jarayonida ulardan foydalanish ijodiy fikrlashni, o‘zlikni anglashni, e’tiqodga sodiqlikni vatanga muhabbat, millati farovonligi yo‘lida qayg‘urishii, davlatni yuksaltirish sohasida jonkuyarlikni, barcha go‘zal insoniy fazilatlarni mujassamlashtirish yo‘lida qo‘yilgan yuksak qadam bo‘ladi. Chunki, o‘zbek xalq pedagogikasi va manbalari bo‘lgan xalq donoligi namunalari asrlar osha bizni ezgulikka, insoniylikka yetaklaydi.

O'zbek xalq pedagogikasi turkiy xalqlar-ota-bobolarmiz uzoq moziyda yaratgan va ko'z qorachig'iday asrab-avaylab, saqlab kelgan ota meros, Sharq xalqlarining boy va betakror odobnomasi, xalq pedagogikasidagi eng yaxshi namunalar, buyuk namunalar, buyuk allomalar yaratgan asarlari bilan qo'shilgan holda shakllanganligi, rivojlapanligi va boyib borganligini e'tirof etish birdan bir to'g'ri yo'ldir.

Darhaqiqat Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtning kelgusi boshqaruvchisi - yangi avlod tarbiyasi birinchi o'ringa chiqdi. Shu sababli ham yoshlarni, kelajakni davomchilarini tarbiyalashdek og'ir, mashaqqatli, ma'suliyatli hamda sharaflı ishni bajarish pedagogikaning zimmasida ekan bu yo'lda hech qanday kamchilik, xatoliklarga yo'l qo'ymaslik kerak bo'ladi.

"Etnopsixologiya" - etnologiya va psixologiya fanlarining qo'shilishidan tashkil topgan bo'lib, grekcha "etnos" xalq, qabila, "psixologiya"- ruh ilmi, degan ma'nolarni anglatadi. Bu fan ma'lum millat va etnik birlik vakillarining o'ziga xos ruhiy qiyofasi, xulq-atvorini, zamonaviy termin bilan aysak, "mentalitetini" o'rGANADI. Har bir xalqqa xos bo'lgan milliy xarakter, urf-odat va an'analar, milliy tuyg'ular va did (ta'b), etnik ong va milliy o'zini o'zi anglashni vujudga kelishi, namoyon bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyaning o'rGANISH ob'ekti hisoblanadi.

Tadqiqotchilar tomonidan etnopsixologiya masalalarini o'rGANISHDA ma'lum muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lsa ham, lekin uning ko'p muammolari hali o'zining yechimini to'la topgan emas. Shulardan biri - milliylik va baynalminallik xususiyatlarining o'zaro munosabatidir. Millat, sinflar va turli ijtimoiy guruahlarni o'rGANISHDA faylasuflar, sotsiolog va tarixchilar, asosan, ularning moddiy va ma'naviy madaniyati, tarkibi, ijtimoiy munosabatlariga e'tiborni qaratgan bo'lsalar, psixologlar esa, shaxs psixologiyasini o'rGANISH bilan cheklanib qolishgan. Ayrim psixologlar esa (S.L.Rubinshteyn) umuman ijtimoiy va etnopsixologiya fanlarining mavjud bo'lishligini shubha ostida olgan.

Etnopsixologik muammolarni tadqiq etuvchi jahon olimlarining juda ko'pchiligi, bu muammolarni o'rGANISH qiyin ekanligini, bu sohada uchraydigan murakkabliklarni ta'kidlashadi. Chunki etnopsixologik xususiyatlari empirik tadqiq etish qiyin. Barcha murakkabliklarni qamrab oluvchi metodlar yaratilmagan. Boz ustiga bir mamlakatda, boshqa bir madaniyatni o'rGANISH uchun yaratilgan metodlar, ikkinchi bir xalqlarni o'rGANISHDA natija bermasligini, hatto, qarama-qarshi

ko'rsatkich berishi mumkin. Bu sohadagi muammo yana shundaki, bir etnos ichidagi turli sinflar, sotsial guruhlarda milliy xususiyatlarning namoyon bulishi ma'lum darajada bir biridan farqlandi. Shuning bilan birligida, tadqiqotchi etnik psixologiyadagi o'ziga xoslik, boshqa etnik guruhlardan farq qiluvchi maxsuslik va umumiylit tomonlarni ochib bera olishi kerak. Va nihoyat, etnopsixologik xususiyatlar qotib qolgan, o'zgarmaydigan narsa emas. Ular ma'lum bir ijtimoiy o'zgarishlar natijasida, ayrim bir xususiyatlarini o'zgartirishi, yangi ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi xislatlarni hosil qilishi mumkin.

Konkret odam ruhiyatining etnik xususiyatlarini o'rganishga qadim vaqtlardan buyon katta diqqat-e'tibor berib kelishgan. Bu qiziqish, ayniqsa, keyingi yillarda hududiy, turli milliy, etnik nizolar va to'qnashuvlarning kuchayib ketayotganligi bois yanada ortdi.

Boshqa xalqlarga, etnik guruhlarga xos bulgan ruhiy xususiyatlarni, qo'shni qabilalarning yashash tarzini o'rganishga bo'lgan qiziqish qadim vaqtlardayoq bir qancha amaliy ehtiyojlar, avvalo iqtisodiy, savdo-sotiq va harbiy maqsadlar natijasida vujudga kelgan.

Xalq etnopsixologik xususiyatlarining madaniyat va tarix bilan bog'liqligi. Muayyan xalqning etnopsixologik xususiyatlari shu xalq madaniyati, tarixi bilan chambarchas bog'langan. *Birinchidan*, ajdodlarimizning tarixiy evalyutsiya davrlarida qo'lga kiritgan yutuqlarini; *ikkinchidan*, xalqimizning madaniy-ma'rifiy merosi, milliy qadriyatları, urf-odatlari, rasm-rusumlarini; *uchinchidan*, xalqimizning axloq-odob saboqlaridan namunalarni o'rganish jarayonida uning tarixiga murojaat qilib, madaniyati bilan ro'baru kelamiz.

Millat va millat bilan bog'liq bo'lgan ko'plab omillar ijtimoiy va siyosiy hayotda muhim rol o'ynab kelgan va bundan keyin ham uzoq davrgacha o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Olimlarning ko'rsatishicha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining turli bosqichlarida turgan to'rt mingga yaqin millat, elat va turli xalqlar mavjud ekan. Ularning har birini o'z tarixi, madaniyati va milliy qadriyatları bor. Ularni o'rganish millatlararo munosabatlarni tashkil qilishda, turli iqtisodiy, madaniy aloqalarini o'matishda katta yordam beradi.

Lekin yaqin davrgacha bizning ijtimoiy fanlar tizimida milliy masalalar va unda psixologik omillarning tutgan o'mniga yetarlicha baho berilmay kelindi. Ayrim hollarda esa asossiz ravishda inkor etildi. Hatto ba'zi bir tadqiqotchilar milliy

xususiyatlar, etnopsixologiya masalalarini o'rganishga shubha bilan qarashdi. Bunda ular etnopsixologiya masalalarini o'rganish bir xalqni maktab, ikkinchisini kamsitishga olib kelishi, irqchilik, millatchilikni kelib chiqishiga sabab bo'ldi, deb xavotirlanishdi. Bu hadiksirashda ma'lum asos ham bor edi. Etnopsixologiyaga oid ayrim tadqiqotlarda mualliflar o'z millatlartni haddan tashqari ko'klarga ko'tarib yuborish, boshqa qo'shni xalqlardan ustun qo'yish hollari bo'lganki, bu tabiiy turli noroziliklarni tug'ilishiga sabab bo'lgan. Shuning bilan birgalikda xalqlarning voqelik va tabiatni idrok qilish, kiyinish, avlodlar tarbiyasi, avlodlar o'rtasidagi munosabatlardagi o'ziga xosligini hisobga olmaslik ham mumkin emas. Etnik o'ziga xosligini inkor etish, milliy munosabatlarda hisobga olmaslik turli salbiy munosabatlarni, hatto etnik nizolarni keltirib chiqaradi. Qadimgi dunyo mutafakkirlari Aristotel, Gerodot, Gippokrat, Demokrit, Pifagor va boshqalar barcha ijtimoiy va psixologik hodisalarni tushuntirib berish uchun yagona bo'lgan umumiyl tamoyillarni, nazariyalarni qidirib topishga, xususan, xalqlarning turli psixologik xususiyatlarga ega bo'lishining sabablarini tushuntirib berishga harakat qiladilar. Etnopsixologik xususiyatlarning vujudga kelishini ular asosan, tabiy-geografik muhitning ta'siri bilan boglab tushuntirdilar. Masalan, qadimgi dunyoning buyuk mutafakkiri Gippokrat (eramizdan avvalgi 460-375) o'zining "Xavo, suv va quruqlik", degan asarida xalqlarning turli ruhiy va jismoniy xususiyatlarni bevosita iqlim sharoiti bilan bog'lagan holda tushuntirib berdi.

Xalqlarning xarakter va temperament xususiyatlarining vujudga kelishini ular iste'mol qilayotgan oziq-ovqatlar bilan bog'lab tushuntirishga ham urinishlari bo'lgan. Mashhur matematik va faylasuf Pifagor (eramizdan avvalgi 570-500) ning tushuntirishiga qaraganda, hayvon go'shti va yog'ini ko'p iste'mol qilinishi, xalqlarda qattiqqu'llik va dag'allikni vujudga keltiradi. Aksincha, o'simlik mevalari va sabzavotlarni muttasil iste'mol qilinishi esa tana faoliyatini suslashtirib, odamlar tabiatini muloyimlashtiradi.

Antik dunyoning buyuk aql egasi Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322 y), haddan ortiqcha issiq yoki sovuq iqlim sharoitida yashaydigan xalqlar qattiqqo'l, shafqatsiz bo'lishadi, deb ishongan.

Buyuk bobomiz A.R.Beruniy "Osori boqiya" (Abadiy qadriyatlar) asarida turli xalqlar: qadimgi greklar, eroniylar, sug'dlar, xorazmliklar, xristianlar va dinlar, yaxudiylar, musulmonlarning ruxiy xususiyatlari va ularning eralarini boshlanish

sabablarini ko'rsatib bergen. U bu xalqlarning ma'lum davrlar ish vaqtлага to'g'ri keladigan mashhur bayramlari, xotira kunlari, hamda bir xalqni ikkinchisidan farqlantiradigan urf-odatlari, turli xalqlar qo'llayotgan yil hisoblash usullari, oy va yillarning farqi kabi masalalarni bayon qilib bergen.

Turli xalqlarga xos xususiyatlarni o'rganish uchun Beruniy o'ziga xos ilmiy metod yaratadi. Buning uchun, deb ko'rsatadi u, qadimgi xalqlar rivoyatlarini hamda o'tmish avlodlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi lozim. Shuning uchun "Muqaddas kitob" larga amal qiluvchi xalqlar, muayyan aqidalarga rioya etuvchi dinlar, mazxablarga e'tiqod qo'yganlar izidan borishga to'g'ri kelishligini ko'rsatadi. Bunda ularning turli qarashlari asos qilib olinadi va isbot qilish maqsadida keltirilgan so'z, fikrlarni va faktlarni bir-biri bilan solishtirib ko'rish lozim. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlarni, ularga qo'shilib ketgan afsonalardan tozzalash kerak bo'ladi, deydi.

Beruniy o'zining mashhur "Hindiston" asarida hindlarning dini va tafakkur qilish xususiyatlari, diniy va dunyoviy hayoti bilan bog'liq bo'lган urf-odatlari, ularning xudolarga ishonishlari, materiya va shakl, jonning ko'chib yurishi, do'zax va jannat haqidagi tasavvurlari bayon qilingan.

Xalqlarning psixologik xususiyatlarni iqlim va boshqa tabiiy omillar bilan bog'lab tushuntirish keyingi davrlarda yashab ijod qilgan XVII-XIX asr mutafakkirlari-Monteske, J.J.Russo, Didro, Gumboldt, shuningdek, hozirgi davrdagi ayrim tadqiqotchilar faoliyatida ham uchraydi. Sotsiologiyadagi "geografik determinizm" oqimining asoschilaridan biri-fransuz ma'rifatparvari Sh.Monteske (1689-1755 y) ham xalqlar o'rtasidagi ruhiy tafovutlarni asosan, kishilar tanasiga doimiy ta'sir etadigan turli-tuman tabiiy-iqlim natijasi, deb tushuntiradi. Uning fikricha, iqlim va zamin xalqlarning axloq normalarigagina ta'sir etib qolmasdan, shuning bilan birga davlat siyosatiga, madaniy taraqqiyot darajasiga "psixologik qiyofa" siga ham kuchli ta'sir ko'rsatar ekan. Iqlimning rolini haddin tashqari oshirib yuborish natijasida Monteske sovuq iqlimda yashaydigan xalqlar chidamli, baquvvat, issiq iqlimda yashaydigan xalqlar esa jismoniy jihatdan zaif va ojiz bo'lishida, degan xulosaga keladi.

Iqlim sharoiti ta'sirida inson tanasida bo'ladigan fiziologik jarayonlarni ijtimoiy-siyosiy hodisalar va axloq normalari vujudga kelishi uchun moddiy asos qilib olinishi, biologik va sotsial konuniyatlarni bir-biri bilan chalkashtirib yuborish hisoblanadi. Bu esa oxir oqibatda ijtimoiy-tarixiy hodisalarni tushurib berishda

noto‘g‘ri xulosalar qilishga olib keladi. Iqlimi omillarning rolini oshirib yuborish etnik xususiyatlarni o‘zgarmaydigan va doimiy bo‘lgan hodisa, degan xulosa qilishga olib keladi. Vaxolanki, kurramiz iqlimida keyingi yuz yilda deyarli keskin o‘zgarishlar sodir bo‘lmasan bo‘lsa ham, insonlar hayotida katta ijtimoiy-tarixiy o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi, bu o‘zgarishlar o‘z navbatida xalqlarning psixologik qiyofasida ham katta o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi.

Shuning bilan birgalikda etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishida tabiy-geografik muhitning rolini ham butunlay inkor etib bo‘lmaydi. Geografik joylashish o‘rnii va iqlim sharoiti xalqning yashashi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit sifatida uning iqtisodiy rivojlanishida, psixologiyasining shakllanishida ma’lum rol o‘ynaydi. U yoki bu mamlakatdagi ishlab chiqarishning rivojlanishi, xo‘jalik yuritish xususiyatlari va hayot tarzi ko‘p jihatdan tabiy-iqlim sharoitlari bilan belgilanadi. Lekin ijtimoiy tizim va tarixiy o‘zgarishlar mamlakatning geografik joylashishiga, tabiy sharoitlariga bog‘liq holda vujudga kelmaydi.

XX asrda Yevropada yangi bir g‘oya- “xalq ruhi” keng tarqala boshlandi. Bu g‘oyaga ko‘ra har bir xalq, etnik guruh avvaldan instinktiv ravishda berilgan o‘z “ruhi” ga ega ekan. Har bir irq, xalq ma’lum anatomik tuzilishiga ega bo‘lgani kabi o‘z ruhiga ham ega bo‘lib, u xalq taqdiri va kelajagini belgilab turadi. Bu ruh xalqning siyosiy tuzumini, e’tiqod va ishonchni, diniy qarashlarini boshqarib turadi. “Xalq ruhi” nazariyasining to‘la bayoni, ayniqsa, Gegel falsafasida o‘z aksini topdi. Gegel har bir xalqning o‘tmishi va kelajagini mana shu “Mutloq ruh” bilan bog‘lab tushuntiradi. Turli xalqlarning ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, hatto irqiy tafovutlarining asosini ham shu “ruh” tashkil etadi, deb ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra u ayrim Osiyo xalqlari to‘g‘risida bo‘lmasur fikrlar bayon etgan holda, nemis millatini eng oliv irq va tarixiy o‘tmishga ega bo‘lgan millat, deb davo qilib chiqadi. Xitoy xalqi to‘g‘risida “ular hamma ma’naviy narsalar - erkin axloq-odob, yuksak tuyg‘u, diniy e’tiqod va haqiqiy san’at xislatlaridan mahrum”, deb yozadi⁴⁶.

Nemis faylasufi M.Losarus va tilshunosi G.Shteyntallar 1859 yilda “Xalq psixologiyasi va lingvistikasi jurnali” ni chop eta boshladilar va birinchi marta “Xalq psixologiyasi”, degan terminni muomalaga kiritib, xaqli ravishda etnopsixologiya fanining asoschilari bo‘lib qolishdi.

⁴⁶ Гегел. Соч., т. 8. –М.: 1935, с.131.

Etnopsixologiya masalalarini tadqiq etishda nemis psixologi V.Vundtning katta xizmatlari bor. 1900 yilda uning "Xalqlar psixologiyasi", degan 10 tomlik asari bosilib chiqdi. V.Vundt qarashlarining muhim tomoni shundaki, u etnopsixologik xususiyatlarning shakllanishi va rivojlanishini tarixiy jarayonlar, ijtimoiy hodisalar asosida tushuntirib berishga harakat qildi. Masalan, u nemis xalqining psixologik xususiyatlarini tahlil qilganda, ular xarakterida tadbirkorlik, har bir ishni xisob-kitob bilan qilishlik, batartiblik va Vatan oldidagi burchni yaxshi his qilish kabi ijobiy xislatlar bilan birqalikda boshqalarga ko'r-ko'rona ergashish va taqlid qilishlik ham borligini ko'rsatib o'tadi. Bu kamchilikning vujudga kelishida Germaniyaning siyosiy faoliyatida Yevropadagi boshqa mamlakatlarga qaraganda keyinroq maydonga chiqishi va Germaniyada o'rtta asrchilik diniy mutaassiblik bilan yangi davr o'rtasidagi uzoq yillar mobaynida davom etgan kurash natijasi bo'lib, bu tarixiy jarayon nemislarning psixologik qiyofasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan, deb yozadi.

Sanoat ishlab chiqarishning rivojlanib borishi natijasida tashqi bozorga ehtiyoj va ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan katta o'zgarishlar sotsiologlar, etnograflar va psixologlar oldiga turli xalqlar, sinflar, ijtimoiy qatlamlar psixologiyasini, omma va olomonga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlarni atroflicha o'rganish vazifasini qo'ydi. Natijada bu davrga kelib etnopsixologiya muammolarini o'rganish ancha rivojlandi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Milliy o'z-o'zini anglash, fenomen, ijtimoiy ong fenomeni, umuminsoniy madaniy qadriyatlar, etnik madaniyat, etnik madaniyat va milliy o'z-o'zini anglash uyg'unligi, o'z-o'zini anglash genezisi, etnopsixologiya, xalq etnopsixologik xususiyatlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy o'z-o'zini anglash tushunchasining mazmun va mohiyatini izohlab bering...
2. Fenomen nima?
3. Milliy o'z-o'zini anglashni ijtimoiy ong fenomeni sifatida sharxlab bering...
4. Umuminsoniy madaniy qadriyatlarga misol keltiring...
5. Etnik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
6. Umuminsoniy madaniy qadriyatlarning etnik madaniyat va milliy o'z-o'zini anglash bilan uyg'unligi nimalarda namoyon bo'ladi?
7. Milliy o'z-o'zini anglashning genezisi va funksiyasini tushuntirib bering...

8. Milliy o‘z-o‘zini anglashning genezisi va funksiyasini o‘rganishda qanday etnopsixologik va etnopedagogik usullardan foydalanish mumkin?

IV BOB.

EKOLOGIK ONG, ETNOMADANIYAT, MILLIY G‘OYA, TARIXIY ONG, ETNIK VA IJTIMOIY XOTIRA, TOPONIMIKA – ETNOMADANIYATIMIZNING O‘Q ILDIZLARI

13-§.Ekologik ong va etnomadaniyat

Ekologik ongning etnomadaniyat bilan uyg‘unligi. Bugungi kunda qator manbalarda “ekologik ong” atamasi qo‘llanilmoqda. Xo‘sh, ekologik ongning o‘zi nima, uning qanday belgilari bor?

Ma‘lumki, inson butun borlig‘i bilan tabiatga bog‘langan. Tabiatni ob‘ekt sifatida idrok etish, tabiat bilan o‘zaro ta’sirga kirishish, tevarak-olam bilan bo‘lgan munosabatlarni yo‘lga qo‘yish – ekologik ongning eng muhim belgilari bo‘lib, mazkur ijtimoiy ongga antropotsentrizm, antiekologizm va ijtimoiy optimizm xosdir. Mazkur qoidalar quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1) Odamlar genetik irsiylikdan tashqari madaniy irsiylikka ham ega bo‘lganligi bois, inson yer yuzidagi u hukmronlik qiladigan boshqa barcha jonzotlardan sifatiy farqlanadi.

2) Inson faoliyatini biofizik emas, aynan ijtimoiy va madaniy omillar belgilaydi: inson tabiat kontekstida emas, ijtimoiy kontekstda yashaydi.

3) Texnologik va ijtimoiy progress cheksiz davom etadi va barcha ijtimoiy muammolar u yoki bu darajada o‘z yechimiga ega bo‘ladi.

Ekologik ongning zamонавиј antropotsentrik ko‘rinishi bu olam to‘g‘risidagi quyidagi jihatlar xos bo‘lgan tasavvurlar tizimidir:

1) tabiat va inson o‘rtasidagi ziddiyat oliy qadriyat bilan uning mulki o‘rtasidagi munosabatlarda o‘z aksini topadi (inson oliy qadriyat tabiat uning mulkidir);

2) tabiatni inson tomonidan bir tomonlama ta’sir ko‘rsatish ob‘ekti sifatida idrok etilishi,

3) tabiat bilan o‘zaro ta’sirga kirishish motivlar va maqsadlarini pragmatik ko‘rinishi.

XX astning 20-30-yillarda AQSHda ro‘y bergan “buyuk depressiya” dan keyin yangi “ekologik defitsit” deb nom olgan muammo insoniyat tsivilizatsiyasi taraqqiyotida yuzaga keldi.

Ekologik sotsiologiya mutaxassislari insoniyat kelajagi to‘g‘risidagi tasavvurlar voqelikdan ancha chetlashishi mumkinligini prognoz qilmoqdalar. Global miqyosida ro‘y beradigan ekologik defitsit odamlarni “har kim o‘zi uchun” yoki “imkoniyati borlar o‘zini qutqarsin” tamoyillariga binoan harakat qilishga undaydi. Hayotiy zarur manbaalar uchun kurash ijtimoiy aloqalarni uzilishiga, axloqiy qadriyatlar devalvatsiyasiga (qadrsizlanishiga) olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatning yuzaga kelishi insoniyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning yangi tizimini shakllantirish zaruriyatini paydo qildi. Bu xol “yangi invayronmental” paradigmmasini vujudga keltirdi (New Environmental Paradigm).

Invayronmentalizmning asosiy xususiyati shuki, nafaqat nazariya, balki jamiyatning ekologik yo‘nalishdagi “yashash siyosatini” shakllantirish va inson faoliyatining kognitiv va prakseologik sohalarini kengaytirishga yo‘naltirilgan ma’lum kommunikativ amaliyot ekanligidir.

“Yangi invayronmental” paradigmaga asoslangan ekologik ong ekotsentrik deb nomlangan, chunki unga quyidagi xususiyatlar xosdir:

1)Tabiat bilan insoniyat o‘rtasidagi uyg‘un taraqqiyot oliv qadriyatdir. Inson tabiat mulkdori emas, tabiiy hamjamiyatning bir a’zosidir.

2)Olamning shajaraviy manzarasidan voz kechish. Inson aqli borligi uchun alohida e’tiborga molik deb e’tirof etilmaydi, aksincha, uning aqli borligi uni qurshab turgan tabiatga bo‘lgan munosabatlarga qo‘sishimcha majburiyat kiritadi. Odamlar olami bilan tabiat olami bir tizimning xalqalari bo‘lganligi uchun bir-biriga qarshi qo‘yilmaydi.

3)Tabiat bilan o‘zaro ta’sirga kirishish maqsadi nafaqat inson ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishdir, balki, butun tabiiy hamjamiyatlarining ehtiyojlarini inobatga olishdan ham iborat.

4)Tabiat bilan o‘zaro ta’sirga kirishish “ekologik imperativ” shiori bilan belgilanadi: tabiatdagi ekologik muvozanatni buzmaydigan narsalar va xatti-harakatlar to‘g‘ri va ma’qullangandir.

5)Tabiat va barcha tabiiy narsalar inson bilan o‘zaro ta’sirga kirishish bo‘yicha teng huquqli sub’ekt sifatida idrok etiladi.

6)Axloqiy me’yorlar va qoidalar nafaqat odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga, balki tabiat olami bilan bo‘lgan o‘zaro ta’sirga ham taalluqlidir.

Ekologik ongning sotsiogenez jarayonidagi taraqqiyoti quyidagi o'chamlarda o'z ifodasini topadi: a) psixologik qarama-qarshilik – uyushuv, b) tabiatni ob'ekt-sub'ekt sifatida idrok etilishi, v) tabiat bilan o'zaro munosabatga kirishishning pragmatik-nopragmatik ko'rinishi.

Ijtimoiy ekologik ong sotsiogenezida antropotsentrik va ekotsentrik tendensiyalar kuzatiladi.

Antropotsentrik tendensiya quyidagilarda o'z ifodasini topadi: ibtidoiy ong – antik ong – xristianlik – kartezianlik.

Ekotsentrik tendensiya quyidagilarda o'z ifodasini topadi: invayronmental konservatsionizm – ekologizm – universal axloq.

Sharq madaniyatlariga xos bo'lgan ekologik ong taraqqiyotiga quyidagi tendensiyalar to'g'ri keladi: sharqona diniy-falsafiy tizimlar, ibtidoiy ekologik ong ko'rinishini saqlab qolishi bilan tabiatni ma'naviy qadriyat sifatida idrok etishni kuchaytirgan.

Ekologik madaniyat va etnoekologik an'analar haqidagi tarixiy falsafiy manbalar. Tabiatni avaylab-asrash odobi zardushtiylik dinida ham targ'ib qilingan. "Avesto" kitobida dunyoning moddiy asosi deb hisoblangan yer, tuproq, havo muqaddaslashtiriladi. Yer va havo shunday e'zozlanganki, havoni bulg'ash, ifloslantirish, hayvonlar o'ligi, u yoqda tursin, hatto odamlar jasadini ham yerga ko'mish gunohi azim hisoblangan. Tabiat qonunini buzganlar uchun ularning jasadlarini maxsus "Ostodon" deb atalgan sopol idishlarga ko'mish urf bo'lgan. Qabrlar juda chekkada, aholidan ancha narida bo'lgan. Ariqlar va daryolar suvidan faqat ichish uchun foydalanish mumkin, unda cho'milish, najas bilan harom qilish, tupurish, hayvonlarni oratalish ta'qiqlangan. Tabiat in'omlarini asrashni ular o'zlarining burchlari deb hisoblab, uning boyligi havo, suv, yerni muqaddas deb bilganlar. Yer bizni boqadi, unda bug'doy va ekinlar pishadi. Ekin ekish, ziroatchilik bilan shug'ullanishni ming marta ibodat qilishdan ko'ra ulug'roq deb bilganlar. Otabobolarimiz ham azaldan "suvga tupurma, tabiatni bulg'ama, daraxtni sindirma, jonivorni jonsiz qilma, nonni uvol qilma" deb o'git berib kelganlar.

9-asrgacha Markaziy Osiyoda podshohlar, xalifalar har juma kunlari xalq oldiga chiqib, davlat tomonidan chiqarilgan qonunlarga bo'ysunish, itoatkorlik, tabiat ato etgan barcha ne'matlarni asrab-avaylash haqida va'z aytganlar, xalqning ongiga, ruhiyatiga ta'sir etganlar. 9-asrdan keyin esa bu ish notiqlarga yuklatilgan va voiz

Koshifiy singari notiqlar dunyo yuzini ko'rgan. Shuningdek, yozma manbalar ham juda ko'plab yaratila boshlangan. Bu yozma manbalar yosh avlod ta'lif-tarbiyasini hamda ongiga ta'sir qilish uchun xizmat qilgan. O'tmishda ajdodlarimiz ona tabiatga munosabatlari buyuk bobokalonlarimiz Abu Ali ibn Sino, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ko'plab allomalarimiz biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy meroslari ichida Ona yerning qadr-qimmati, sahovati, tabiatdan olingan noz-ne'matlar barchasi insonlar uchun buyuk tuhfa ekanligi, ona tabiat in'om etgan bu tuhfalarini asrab-avaylash barcha insonlarning burchi ekanligini yozib o'tganlar.

"Sog'lom muhit-inson salomatligi" shiori ostida O'zbekiston Ekologik Harakati hamda hududiy bo'limlar tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda aholining ekologik madaniyati va ma'naviyatini yuksaltirishda buyuk allomalarimiz asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlardan ruhiyatiga hayotiy saboq bo'ladigan allomalarimiz o'gitlari o'z natijasini amalda ko'rsatadi. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, o'rtalar tibbiyot ilmining olyi cho'qqisi edi. Ibn Sino tibbiyot tarixida fizioterapiya asoschilaridan biri hisoblanadi. Kishi organizmiga tashqi muhit ta'siri muhimligini bilgan alloma ayrim kasalliklar suv va havo orqali tarqashi haqidagi fikrni bayon etgan. Havoning toza-musaffoligi inson umrini uzaytirishini quyidagi so'zi bilan ifodalaydi. "Agar chang va g'ubor bo'limasa inson ming yil yashardi".

Allomaning yuqoridagi gaplaridan inson sihat-salomatligi, tabiiy sog'lom muhit bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlab o'tilgan. Ko'pgina hollarda ajdodlarimiz o'gitlariga e'tibor berilmayotganligini, tabiatning bir bo'lagi bo'lgan inson o'z ona tabiatiga nisbatan vahshiyona munosabatini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, qirg'oq mintaqalarida qo'y va qoramollarni boqish, sholi va qishloq xo'jalik ekinlarini ekish holatlari. Barg va xazonlarni yoqish, qurilish ishlarida ochiq maydonlarda bitumni alangalatib yoqish. Noqonuniy daraxtlarning kesilishi kabi qonun buzilish holatlari davom etmoqda.

Hadis ilmida ham ekologik muammolarga alohida e'tibor berilgan, xususan, o'tmish ajdodlarimizning zaminga munosabatlari, qarashlari va o'gitlari Hadis ilmiga hamohang tarzda yosh avlod ongiga singdirishga, ularning ta'lif-tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Hadis ilmida insonni tabiat boyliklarini tejab ishlatishga, muhofaza qilishga chorlaydigan fikrlar ham talaygina. Jumladan, "Kishilarga soya

beruvchi daraxtni kesgan kishi boshi bilan do‘zaxga tashlanadi”, “Qaysi bir musulmon ekin eksa yoki biror daraxt o‘tqazsa, so‘ng uni mevasidan yewilgan narsaning har biridan unga sadaqa sababi yoziladi. “Suv – muqaddas unsurlardan biri”, “Suvga tupurma, makruh bo‘ladi” degan naqlar uchraydi. Tabiat va uning mahsullari inson uchun ekan, barcha tirik mavjudotlarni, o‘simliklarni himoya qilish hamda suv, tuproq, havo, olov kabi unsurlardan oqilona foydalanishimiz muhim.

Xalq axloqida tabiatni asrash haqidagi tasavvurlarning shakllanishi. Inson ham tabiatning bir bo‘lagi hisoblanib, u bilan birga yashaydi. Tabiat insonni boqadi, yediradi, to‘ydiradi. Kerak bo‘lsa, kiyintiradi ham.

Shunday ekan, unga doimo ehtiyyotkorona, oqilona munosabatda bo‘lmog‘imiz, tabiatda hamma narsa o‘zaro bog‘liqligini unutmasligimiz lozim. Tabiat hodisalari, masalan, havoga bulut chiqib, chaqmoq, yomg‘ir quyishi, bundan o‘t-o‘lanlar, maysalar suvgaga to‘yinishi, ko‘karishi, daryo-dengizlarda suvning ko‘payishi yoki qor yog‘sa, don-dun, xirmon barakali bo‘lishi, bug‘doylarning hosili mo‘lligi yoki yog‘ingarchilik kam kelgan yilda hamma joy sarg‘ayib qurib ketishi yoki suvdan tejab ishlatmaslik oqibatida Orolning qurib ekologiyaning izdan chiqqanligi, bir qancha hayvonlarning turlari yo‘qolib ketganligi va hokazo. Shuningdek, jonli jonzotlarni ko‘p ovlamaslik, qushlar va hayvonlarga e’tibor berish, havoni zaharlamaslik kabi salbiy oqibatlarni, ular keltiradigan zararlarni o‘ylab ko‘rmoq lozim. Agar tabiat boyliklarini tejamat, avaylamay ishlataversak, oqibati yomon hollarga olib keladi. Tabiat ham vaqtি kelib bizdan o‘ch oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Sog‘lom avlod” davlat dasturi eng ulug‘ va savob g‘oyadir. Mashhur faylasuf Seneka: “Kelajak avlodni o‘ylamagan xalq dunyodagi eng baxtsiz xalqdir” deydi. Haqiqatan ham ertangi avlodni o‘ylamagan xalq majruh bo‘lishi, qullikka tushishi va shu tariqa Yer yuzidan yo‘qolib ketishi mumkin. Sog‘lom avlod ona Vatanning kelajagi, tayanchi va davomchisidir.

Ha, haqiqatan ham bizning ona Vatanimizning jannatmakon diyorligi, unda behisob bog‘-rog‘lar, daryolar, meva-chevalar, noz-ne’matlar bisyorligi, shifobaxsh giyoh va suvlarning ko‘pligi, Yer ostida insoniyat uchun barcha zarur ma’dan boyliklarining borligi, xalqi mehnatkash va yaratuvchi ekanligi, saxovatpeshaligi, yurtning boyligi “oq oltin” va donga konligi har doim ham boshqa xalqlarning havasini keltirgan, e’tiborida bo‘lgan. Biz esa shunday jannatmakon diyorda

yashayotganligimizdan faxrlanmog'imiz, bir zarra tuprog'ini ham avaylamog'imiz lozim. Yoshlar tabiat bilan tanishar ekanlar, ularda tabiat go'zalliklaridan zavqlanish bilan birga Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatsevarlik, nafosat, tabiatni sevish, unga mehr-muhabbat bilan qarash, uning unsurlari — havo, suv, tuproq va boshqa shu kabilardan to'g'ri foydalanish, to'g'ri munosabatda bo'lish tuyg'ulari shakllanadi.

Ba'zan shunday salbiy hodisalarga ham duch kelinadiki, qancha-qancha mehnatlar, iqtisodiy surf-xarajatlar evaziga keladigan nonni ayamay isrof qilish, axlatga tashlash, ariq va anhorlarga mag'zava to'kish, axlat oqizish, korxona chiqindilarini ag'darib, suv va zaminni, havoni zaharlash, suvni behuda sarflash kabi illatlarga yo'l qo'yiladi.

Bunday salbiy hodisalarga, fojealarga mustaqillikka erishganimizdan so'ng asta-sekin chek qo'yila boshlandi. Zero, O'zbekiston Konstitutsiyasining 50-moddasida shunday deyilgan: "Fuqarolar atrof muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar".

Bolalarimizga yoshlikdanoq nima mumkin, nima mumkin emasligini o'rgatib bormog'imiz farz. Masalan, daraxtni sindirma u bizni mevasi bilan boqadi, havoni tozalaydi, soya-salqini bilan huzur beradi. Oxiri qarib, qurigani o'tin bo'lib, non pishirishga yoki uy isitishga yaraydi.

Qushlarni o'ldirmang, ular bizning do'stimiz. Qushning ham joni bor, inida polaponi bor. U ham bolasini boqishi kerak. Agar siz uni tutib olsangiz, unda bolalari ham ochidan o'ladi, qarg'aydi. Suvni tejang, u sizni tashnalikdan asraydi, bog'-rog'laringizni ko'kartiradi va hokazo.

Ha, inson tabiatdan yaralgan, u tabiatning bir zarrasi. Tabiatning o'z qonun-qoidasi bor. Undagi muvozanatni buzishga hech kimning haqqi yo'q. Tabiat insonning yashashi uchun yaralgan. Inson hayotga kelar ekan, tabiat bilan bir butunligini doimo his qilib yashaydi. U ulg'aygan sari borliqni, atrofidagi olamni, tabiat in'om etgan barcha noz-u ne'matlarni bus-butunligicha saqlash uchun harakat qiladi. Undan foydalanish va yashash uchun kurashadi. O'zi bilgan barcha narsalarni o'zidan keyingi avlodga qoldirishga harakat qiladi. Ona tabiatdagagi mo'jizalardan ongli ravishda foydalanadi, hayotiy tajriba va ta'lif -tarbiya manbai o'chog'i – Ona tabiat ekanligini anglab yashaydi. Tabiat in'om etgan bilimi va boy tafakkuri bilan kelgusi avlodlarga o'zining merosini qoldiradi.

Zamonaviy global ekologik ziddiyatlarni yechishda davlat tashkilotlarining roli. “Asrlar tutash kalgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘l qovushtirib o‘tirish – o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko‘plar ushbu muammoga beparvolik va mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo‘lmoqdalar”.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lishga majburdirlar”(50-modda) yoki yana “Er, yer osti boyliklari, suv, o‘simplik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralarni umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”, (55-modda) deyiladi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda jamiyatning atrof-muhit bilan munosabatining buzilishi ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun yosh avlodni bugungi kundanoq ekologik savodxonligini oshirish, tabiat qonun-qoidalari bilan tanishtirish, tabiatni muhofaza qilishga, uni asrab-avaylashga, tabiat boyliklaridan unumli foydalanishga o‘rgatmoq, ona tabiatni sevish, mehr-muhabbat hissini tarbiyalash lozim. Inson onadan tug‘ilib, olamga kelgan kundanoq tabiat ehsonlaridan bahramand bo‘ladi. Shu havodan nafas oladi, olamni taniydi. Ota-bobolarimiz tabiat boyliklarini asrlar davomida ko‘z qorachig‘idek asrab, bizlarga meros qilib qoldirganlar. Har birimiz tabiatni, hayvonot dunyosini, dov-daraxtlarni, giyohlarni asrab-avaylashimiz kerak. Atrofimizdagilarni ham tabiatga bo‘lgan munosabatlariga e’tibor berishimiz, bilmay nihollarni sindirsma, shifobaxsh giyohlarni payhon qilsa, go‘zallik elchisi gullarni uzsa, tanbeh berishimiz, ularning foydalari haqida gapirishimiz lozim. Iloji boricha o‘zimiz nafas olib turgan havoni, oldimizda oqib turgan svjni iflos qilmasligimiz, bulg‘amasligimiz muhim ishdir. Chunki, tabiat musaffo bo‘lsa, xalq ham sog‘lom bo‘ladi. Ekoliya izdan chiqmaydi. Ona tabiatimiz boyliklarini behuda isrof qilmaslik, atrof-muhitimizni toza saqlashga o‘rganmog‘imiz kerak. Biz tabiat sirlarini ko‘proq o‘rgatmog‘imiz uchun tez-tez tabiat qo‘yniga sayr qilmog‘imiz, olam o‘zgarishini, fasllar almashinishini kuzatmog‘imiz, ko‘p kitoblar o‘qib, nazariy va amaliy bilimlarimizni oshirib bormog‘imiz kerak.

Tabiatni asrash keng jamoatchilikning burchi, shunday ekan biz ham kelajakdagi avlodlarimiz uchun ma’naviy ekologik merosimizni qoldirishimiz kerak.

Ularga tabiiy boyliklarimizni asrab-avaylash, ulardan oqilona foydalanish, ko'z qorachig'idek asrashni doimo uqtirib o'tishimiz va o'rgatishimiz lozim.

Atmosfera havosining ifloslanish darajasi avtotransport vositalarining soniga, ularning motor va karbyuratorlarining normal ishlashiga, shahar ko'chalarining aeratsiyasiga, daraxtzozlarning ko'p va kamligiga, havoning iqlim sharoitiga va boshqalarga bog'liqdir. Endi o'ylab ko'ring, 20-40 yoshli o'pkasi sog', nafas yo'llari ravon bo'lgan odamlar, bir daqiqada normal holatda 16-20 marta nafas oladi, har nafas olganda o'pkaga 400-500 ml havo kiradi. U organizmni kislorod bilan ta'minlaydi, havo bilan organizmga har nafas olganda 90-100 ml. kislorod kiradi.

Kislorodsiz hayot bo'lmaydi. Organizmdagi modda almashinish jarayonlari havo kislorodi bilan chambarchas bog'liq. Shu havo bilan uni ifloslantiruvchi zararli changlar, gazlar ham odam organizmiga kiradi. Bir daqiqada o'rta hisobda inson 17-18 marta nafas olsa, qancha zararli omillar inson organizmiga kirishi mumkin? Agar ular gigiyenik normadan ortiqcha bo'lsa, qanday kasalliklarni chaqirishi mumkin? Shuning uchun ham havosi o'ta ifloslangan shaharlarda nafas yo'llarining, umuman inson organizmining har xil kasalliklari: anemiya, bronxit, o'pka yallig'lanishi, rinit va boshqa xastaliklar ko'payishiga sabab bo'ladi.

Samarqand shahrining havosi chang, azot, oltingugurt, uglerod oksidlari, fторli vodorod va boshqa turli zararli chiqitlar bilan ifloslanmoqda. Havoning azot oksidlari bolalarda nafas yo'llari, ko'z, tamoq kasalliklarini keltirib chiqaradi. Oltingugurt gazi esa ko'rish, nafas olish eshitish a'zolari kasalliklarini kuchaytiradi. Kanserogen moddalar esa insonning asab va jinsiy sistemasiga, inson hujayralarida modda almashuviga salbiy ta'sir qiladi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Inson hayoti va salomatligi hamma narsadan ustun. Xalqimizda "Boylikning boshi – Sog'liq" degan naql bor. Bu dono fikr yurtimizda istiqlol yillarda olib borilayotgan siyosatning tub zamiriga sindirilgan. Zero, har tomonlama sog'lom xalq davlatimizning kuch – qudrati bebahो boyligidir.

Vazirlar Mahkamasining 2010 yilda mamlakatimizning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'rzasini tinglab, ko'nglimda xuddi shunday mulohaza o'tdi. Yurtboshimiz tomonidan sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish va ushbu tizimda sifat o'zgarishlarini amalga oshirishni ta'minlashga doir keltirilgan har bir

raqam zaminida ne-ne zahmatli mehnat, millat uchun, xalq uchun yuksak g'amxo'rlik etganini anglab olish qiyin emas.

Bitta misol - qariyb 20 yil mobaynida odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko'rishi esa 75 yoshgacha oshdi. Abu Ali ibn Sino: "Odamning salomatligi tashqi sharoit bilan chambarchas bog'langan" deganda ming bor haq edi. Shuningdek, buyuk rus olimi I.P.Pavlovning: "Inson 100 yil yashashi mumkin, lekin, biz o'zimizning, o'z a'zolarimizga nisbatan shafqatsizligimiz tufayli bu muddatni ko'p yillarga qisqartirib yuboramiz" degan so'zlarini eslashni lozim topdik. Inson o'z sog'ligini asragan taqdirda tabiatni, hayot davomiyligini asragan bo'ladi.

Inson salomatligini ta'minlash va umrini uzaytirish nimalarga bog'liq ekanligini aniqlashga harakat qilinsa, samarali tarzda oziqlanish, atrof – muhitning salbiy ta'sirlaridan himoyalanish va ma'lum tizimga kirib kelgan turmush tarzini keskin o'zgartirmaslik lozim ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Salomatlik deganda, odamning biologik, psixologik va ijtimoiy nuqtai nazardan o'zini faol tarzda namoyon qilishining optimal holati tushuniladi. Ma'lumki, inson hayoti tabiat qurshab turgan tabiiy omillar –havo, ona – zamin, suv va suv havzalari, butun borliqning paydo bo'lishi va rivojlanish qonuniyatlarini falsafiy nuqtai nazardan bilish, o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda tabiatni muhofaza qilish, ekologik muammo milliy xavfsizlik taqdiriga aylanib qoldi. Ekologik xavfsizlik va atrof – muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir.

Inson butun umri davomida deyiladi muqaddas kitoblarda, suv, tuproq, olov, umuman dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus – butun asrashga burchlidir.

Jonli tabiat ham, jonsiz tabat ham doimiy haraktda, ular o'rtasida to'siq yo'q. Ular bir – biridan sifat jihatidan farq qilsada, bir biri bilan chambarchas bog'langan. Ular o'rtasidagi moddiy birlik ularning kimyoviy tarkibidan aniq ko'rindi.

Masalan, odam organizmidagi kislород, temir uglerod, natriy, kaliy, xlor, kalsiy, fosfor va boshqa elementlar jonsiz tabiatda ham uchraydi. Tirik jismalarning eng muhim xususiyati – moddalar almashinuvidan, jonli tuzilishlarning buzilishi va yangidan tuzilish jarayonlaridan iborat. Ana shu jarayonlar, jismlar yashashining asosiy shartidir.

Hayotiy – maishiy jarayonlar oqibatida paydo bo‘layotgan millionlab tonna chiqindilar svjni, havoni, tuproqni – ona zaminni ifloslantirmoqda. Bu aholi o‘rtasida yuqumli va yuqumsiz kasallilarning tarqalishiga sabab bo‘lmoqda.

Atrof muhitning radioaktiv va kimyoviy moddalar bilan bulg‘anishi aholining, chorva mollarining, parrandalarning zaharlanishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda sanoat, qurilish va maishiy chiqindilarni to‘plash, qayta ishslash va yo‘q qilish muhim ekologik muammolardan biri hisoblanadi.

Ekologik muammolar keyingi 15 yilda shunday keskin tus oldiki, bugungi kunda ular hal etilmas ekan, inson halokatga yuz tutishi aniq bo‘lib qoldi. Bu haqda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlari bayon qilmoqdalar. Hamma (joyda), mamlakatlarda atrofimizni o‘rab turgan olamni kelgusi avlodlar uchun saqlab qolish maqsadida ekologik falokatning oldini olish xususida qonun va qarorlar qabul qilinmoqda.

Sanoat, maishiy, qurilish va boshqa korxonalarda ishlatiladigan toshko‘

mir, neft mahsulotlari va boshqa narsalarni olishda juda ko‘p miqdorda ishlatiladi. Ularning texnologik jarayonida yonishi natijasida ko‘p miqdorda zararli changlar, gazlar, aerozollar, qurum, turli kimyoviy moddalar atmosferaga chiqarib tashlanadi.

Masalan, 1 kg toshko‘mirda 2% atrofida oltingugurt bo‘lsa, yonilg‘i yonishi uchun 10m³ havo (kislород) kerak bo‘ladi. Havo tarkibiga, toshko‘mir yonishi natijasida 20 gramm oltingugurt havoga shimiladi. Toshko‘mirning yonishidan ko‘p miqdorda (40-35%) chiqindi paydo bo‘ladi va atmosfera havosiga tashlanadi. Shuningdek bir tonna toshko‘mir yoqilganda 200 kg atrofida kul tushadi, undan 160 kg havoga uchib ketadi.

Insonlar va hayvonlar uchun o‘ta xavfli hisoblangan: is gazi, azot oksidi, sulfat angidridi va boshqa kimyoviy moddalar atmosfera havosini ifloslantiradi. XXI asming eng global muammolaridan biri – aholi yashayotgan turar joylar havosining zararli kimyoviy moddalar bilan ifloslanishining 65-70% sababchisi avtomobil transporti hisoblanadi. Ta’kidlash kerakki, hozirgi paytda Samaraqand shahrida faqat eng il avtomobillar soni qariyb 150 mingdan oshib ketdi. Ana shu avtomobilning bittasi 200 dan ortiq turli xil zararli va zaharli kimyoviy moddalar va birikmalarни havoga chiqarmoqda. Shuningdek, o‘rtacha 1 dona eng il avtomobil har yili atmosfera havosidan 4 tonna kislород olib, dudbo‘roni orqali havoga 500 kg is gazi

va karbonat angidrid gazi, 40 kg azot oksidi, 200 kg har xil birikmali karbon suvlar, hamda bir necha kg. tetroetil qo'rg'oshin tashlar ekan.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Ekologik ong, Ekologik ong va etnomadaniyat uyg'unligi, ekologik madaniyat, etnoekologik an'analar, xalq axloqida tabiatni asrash haqidagi tasavvurlar, zamonaviy global ekologik ziddiyatlar, jonli tabiat, jonsiz tabiat, inson salomatligini ta'minlash va umrini uzaytirish, zamonaviy global ekologik ziddiyatlar, ekologik xavfsizlik, atrof – muhitni muhofaza qilish muammosi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ekologik ongning etnomadaniyat bilan uyg'unligi nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Ekologik madaniyat va etnoekologik an'analar haqidagi qanday tarixiy falsafiy manbalarni bilasiz?
3. Xalq axloqida tabiatni asrash haqidagi tasavvurlar qaysi davrlardan boshlab shakllana boshlagan?
4. Tabiatni asrash bilan bog'liq qanday xalq udumlari va xalq maqollarini bilasiz?
5. Inson salomatligini ta'minlash va umrini uzaytirishning tabiiy omillari nimalar bilan bog'liq?
6. Zamonaviy global ekologik ziddiyatlarni yechishda davlat tashkilotlarining roli qanday?

14-§. Yangilangan milliy o'z-o'zini anglash strukturasida etnomadaniy jarayonlar

Etnoijtimoiy - etnomadaniy jarayonlar, milliy o'zlikni anglash, mentalitet tushunchalarining mazmun-mohiyati va o'zaro uyg'unligi. Etnomadaniyat har doim nihoyatda muhim mavzu bo'lib kelgan, bundan keyin ham uning dolzarblii oshib boraveradi. Chunki, u millat mavjudligining asosi, uning bugungi va istiqbolini ta'minlaydigan ma'naviy boylik hisoblanadi.

Aslida etnoijtimoiy - etnomadaniy jarayonlar, milliy o'zlikni anglash, mentalitet bir-biri bilan uyg'un tushunchalardir.

Etnoijtimoiy jarayon – bu muayyan etnik guruhning etnografik qiyofasi, hayot tarzi qoidalari, ruhiy-emotsional xususiyatlari, urf-odatlari, an'analar, rasm-rusumlari, iqtisodiy munosabatlari va xo'jalik yuritish usullari, tabiiy muhitga

moslashish jarayonidir.

Akademik Ahmadalı Asqarovning yozishicha, “Tarix fanidagi mavjud ilmiy ishlanmaga ko‘ra, har bir xalqning kelib chiqish tarixi ikki bosqichdan iborat bo‘ladi. Birinchi bosqich - etnogenez, ikkinchi bosqich - etnik tarixdan iborat. Xalq tarixining etnogenez qismi uning elat, xalq bo‘lib shakllanguniga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Xalq etnogenezi juda uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon. Uning ibtidosi qabila va qabila ittifoqidan boshlanadi. Qachonkim, aynan o‘rganilayotgan xalqning etnogenezi yakunlangach, uning etnik tarixi boshlanadi. Etnik tarix ham juda uzoq davom etadigan tarixiy va etnomadaniy jarayon bo‘lib, etnik tarix o‘z rivojining ma’lum nuqtasiga yetgach, uning millat bo‘lib shakllanish jarayoni boshlanadi”.

O‘z-o‘zini anglash bu xalqning, millatning o‘tmish tarixiy taraqqiyot yo‘lini, ota-bobolari, nasl-nasabi, avlodu-ajdodlarining kim bo‘lganligi va ularning jahon ilm - fani va madaniyati taraqqiyotiga qo‘shgan buyuk hissalarini bilib olishdir. Milliy o‘zlikni anglash – millat yashayotgan Vatanning porloq istiqbolini ta’minalash uchun qanday imkoniyatlar va qulayliklarga ega ekanligini chuqur anglab yetish, ular bilan cheksiz faxrlanish, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish, real voqelikka aylantirish uchun o‘zini safarbar etish, barcha imkoniyatlar, kuch g‘ayratini ishga solish demakdir. Millat mavjud bo‘lishi uchun til, hudud va ma’naviyat asosiy shart bo‘lgani kabi milliy o‘zlikni anglash ham asosiy zaruriy shart hisoblanadi.

O‘zlikni anglash o‘z mohiyatiga ko‘ra millat va elatlar uchun xos bo‘lgan ma’naviyat xususiyatlarini ifoda etib, o‘z funksiyasiga ko‘ra miliy manfaatlarni himoya qiladi.

Shunday qilib, har bir millat va elatning o‘zini real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma’naviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarga mansubligini, manfaatlarni va ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishga milliy o‘zlikni anglash, – deb ataladi va aynan ana shu milliy o‘zligik anglashi etnomadaniy jarayon hisoblanadi.

Mentalitet – (lotincha “ichki tuyg‘u, aql-idrok”) “jamiat, millat, jamaa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma’naviy salohiyati, insoniy qadr-qimmati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvatidir”. Mentalitetning bu ta’rifidan uning naqadar murakkab ekanligi va millat hamda jamiat hayotida uning

ulkan o‘rin tutishi ko‘rinib turibdi. Shuni alohida e’tirof qilib o‘tish lozimki, xususan o‘zbek xalqining noyob milliy mentaliteti bo‘m-bo‘sh joyda, g‘oyibdan paydo bo‘lib qolgan emas. Milliy udum va urf-odatlarimiz ming-minglab yillar, o‘t-olovda toblanib, mashaqqatli turmush sinovlaridan o‘tib muqim topgan.

Birinchi marta 1691 yilda ingliz lug‘atlarida paydo bo‘lgan mentalitet so‘zi XIX asr o‘rtalariga kelib boshqa G‘arbiy Yevropa tillarida ham tarqala boshladi. XIX asrning oxirlarida ilmiy adabiyotlarda ham qo‘llana boshlaydi: fransuz sotsiologiya maktabining asoschisi Emil Durgheym uni individdan yuqori turuvchi (jamoaviy) ma‘naviy o‘ziga xosliklarni ifodalovchi sinonim sifatida ilmiy amaliyotga olib kiradi.

O‘zbek millatining bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, jug‘rofiv yashash sharoiti quyoshli kunlari, hosildor zamini, sersuv daryolari, shirin-shakar mevali bog‘lari, qadimiy obidalari shu xalqning aqliy qobiliyatlarini va ruhiy quvvatining yuksakligidan dalolat beradi.

Tarixda ma’lumki, dunyodagi har bir millatning shu jumladan o‘zbeklarning ham aqliy ruhiy qiyofasi ya’ni milliy mentaliteti o‘ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimi shart-sharoitlar doirasida shakllangani bois, uning jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo‘lgan munosabati ham turli bo‘lishi shubhasiz.

Zero, milliy o‘ziga xosliklar uzoq; tarixiy davrdagi ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o‘mashuv, o‘zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi va aynan mana shular hamda xalqning ruhiy-psixologik qarashlari negizida qadimiy an‘analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi.

Mentalitet yuqorida qayd etilgan xususiyatlardan tashqari millatlarning aqliy-intellektual imkoniyatlari va ruhiy-psixologik o‘ziga xosliklarini qamrab oladi. Xarakterdagи o‘ziga xosliklarning negizini esa shu xalqning tarixiy tajribalari, urf-odatlar, marosim va ma’rakalarining yaxlit tizimi tashkil etadi. O‘zbek xalqining etnik jihatidan ko‘p tarmoqli va sertomir ekanligi uning mentalitetida barcha urug‘ va ijtimoiy qatlamlar uchun umumiyl jihatlar, jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi fazilatning ayniqsa rivoj topishni taqozo etib kelgan. Xalqimiz fe’lidagi bag‘rikenglik, hotamtoylilik, mehmondo’stlik, o‘zaro hamkorlikda moyillik, g‘am-anduhi paytlarda nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik fazilatlari ana shu jamoaviy yakdillikni ta’minalash, til va dil, fikr birligini saqlash ehtiyojlaridan

tug‘ilgan va sayqal topgandir.

Ikkinci guruh, sabablar doirasiga muayyan millat istiqomat qilib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jug‘rofiy-hududiy va iqlimi omillar ta’sirini ko‘rsatib o‘tish joizdir. Ma’lumki, mamlakatimizning asosan tekislik va cho’llardan iborat keskin kontinental iqlimli, jug‘rofiy hududda joylashganligi, jazirama issiq, yoz bilan qahraton qishni, almashinishi, bahor va kuzning shiddat bilan kelishi va ketishi xalqimizning fe'l-atvorida aniqlik va lo‘ndalikni, to‘poriliq qaynoq mehrini, qattiqqo‘llik va intizomni tarkib toptirgandir. Xullas, xalqimizning intellektual ma’naviy qiyofasi-mentalitetiga baho berishda yuqoridagi muhim jihatlarni e’tiborga olish zarurdir.

Etnojitmoiy va etnomadaniy jarayonlarning milliy o‘z-o‘zini anglashga ta’siri juda katta. Etnomadaniyat millatning botiniy (ichki) va zohiriyligi (tashqi) salohiyatini o‘zida ifoda etadi. Ularsiz millatni tasavvur ham etib bo‘lmaydi. Zero, millatning shakllanishi etnogenetik jarayon kabi uzoq davom etadigan tarixiy jarayon bo‘lib, millat etnik tarixning eng yuqori yuksak cho‘qqisi, kamolat bosqichchisi,

birinchidan, bu bosqichga ko‘tarilgan xalqning davlati millat nomi bilan yuritiladi; ikkinchidan, millat nomi bilan yuritilgan davlat chegaralari qat’iy, daxlsiz, jahon jamoatchilik tashkilotlari tomonidan tan olinadi;

uchunchidan, aniq hududiy chegarada muomilada bo‘lgan umum millat tili davlat tili maqomi darajasiga ko‘tariladi;

to‘rtinchidan, ahollining o‘zlikni anglash darajasi fuqoralarning hayot mazmuniga, kundalik turmuz tarziga aylanadi;

beshinchidan, millatga xos milliy mentalitet shakllanadi;

oltinchidan, davlat jamiyat tomonidan boshqariladi, ya’ni davlat millatning xohish-irodasini bajaruvchi mexanizmga aylanadi.

Millatni til, territoriya va etnomadaniy jihatdan birlashtiruvchi omil iqtisodiy negizdir. Millatning iqtisodiy-xo‘jalik birligi asosida til va territoriya hamda etnomadaniy birliklar shakllanib boradi. Millatning iqtisodiy va siyosiy birlashishi xalq og‘zaki tilining (lahjalarining) yaqinlashishi asosida yagona milliy til-yozma adabiy tilning paydo bo‘lishiga olib keladi. Lahjalar o‘rnini milliy adabiy til egallaydi. A.Navoiy va M.Z.Bobir tillari eski o‘zbek adabiy tili bo‘lib, bu tilda Mahmur, Mashrab, Uvaysiy, Nodira, Ogahiy, Avaz O’tar, Huvaydolar ijod qildilar. Bu til Komil Xorazmiy, Munis, Feruz, Muqimiy, Furqat, Zavqiyalar zamonasida

yanada sayqal topib, jadidlar davrida o‘zining yuksak cho‘qqisiga ko‘tarildi. Uning zamimida shakllangan hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘ofur G‘ulom, Hamid Olimjon, Zulfiya kabi badiiy ijodning darg‘alari qalam tebratdilar. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tiliga davlat tili maqomini berilishi o‘zbek millatining mustaqil hayot sari qo‘ygan birinchi dadil qadami bo‘ldi. Bu qadam o‘zbek millati tarixida oshkoraliq va demokratiya uchun kurash amaliy hayot bilan bog‘lanib ketgan damlarda qo‘yildi.

Mustaqillik tamoyillarining siyosiy va mafkuraviy tamal toshlarini qo‘yish esa o‘zbek millati tarixida 1991 yil 31 avgustdan boshlandi. Mustaqil O‘zbekiston davlati o‘zbek millatini uzil-kesil shakllanishining bosh omili sifatida jahon xaritasida paydo bo‘ldi. Har bir xalqning o‘ziga xos, o‘ziga mos etnoijtimoiy va etnomadaniy jarayonlari bor. Ularning shakllanishi ham uzoq davom etadigan ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi va o‘z o‘rnida jamiyat, millat, jamoaning tarixan tarkib topgan tafakkur darajasi, ma‘naviy salohiyati, insoniy qadr-qiymati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy qiyofasi va quvvati bo‘lgan mintalitetni yuzaga keltiradi.

Millatga xos bo‘lgan “fazilat” va “qadriyatlar”ning etnomadaniyatda aks etishi. Etnomadaniyat sohasida qator ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan biri U.X. Qoraboyev o‘zining “Etnokultura” monografiyasida etnomadaniyatga quyidagicha ta’rif bergan: “Etnomadaniyat -bu tarixiy ijtimoiy-madaniy shakllangan meros, qadriyat, fikrlar tizimi, obrazlar, qarashlar, tafakkur, tamoyillar, xalqning o‘z asosi, bebafo an’analari, ommaning tajribasi, avloddan avlodga o‘tadigan va hayotda o‘z o‘rmini topgan ma‘naviy-axloqiy yo‘nalish (oriyentatsiya)lardir”.

Etnomadaniyat o‘z ichiga yuqorida prof. U.X.Qoraboyev tomonidan ko‘rsatilgan bayram urf-odat madaniyati, an’anaviy o‘yinlar madaniyati, xalq hordiq madaniyati, an’anaviy xalq ijodiyoti, xalq ekologiyasi madaniyati kabilar bir qatorda har bir millatga xos bo‘lgan “fazilat” va “qadriyatlar”ni ham oladi. Jumladan, o‘zbek etnomadaniyati tizimiga ularga xos bo‘lgan kamtarlik, vazminlik, andishalilik, xushmuomalalik, mehribonlik, oila muqaddasligi tuyg‘ularning ustivorligi, sharmayolik, o‘zaro yordam, kattaga hurmat, kichikka izzat, oqko‘ngillilik, bag‘rikenglik va boshqa fazilatlar ham kiradi. Ular qaysidir darajada va ko‘rinishda boshqa millat

va elatlarda ham mavjud bo‘lishi mumkin. Lekin ular hech qachon aynan o‘zbeklarda mavjud bo‘lgan ko‘rinish va darajada takrorlanmaydi.

Xuddi shuningdek, o‘zbeklarda ham aynan boshqalarda bo‘lgan fazilat va qadriyatlar takrorlanmaydi. Shuning uchun ham millatlarni bir-biridan farq qildiradigan omillarning markazida ana shu fazilatlar, qadriyatlar, urf-odat, an’ana, kiyimlar va boshqalar turadi. Ya’ni millatning keng ma’nodagi “ma’naviy axloqiy ruhiy boyliklari va ularni o‘zida ifoda ettiradigan moddiy boyliklari “etnomadaniyati”ni – tashkil qiladi.

Masalan, milliy bayramlarda qo‘llaniladigan udumlar, o‘yinlar, xalq ijodiyoti natijasida vujudga kelgan moddiy asboblar, kiyimlar va boshqalarda moddiylik o‘z ifodasini topgan.

Shuning uchun ham ularni boshqalarnikidan farqlashda alohida mutaxassis bo‘lish ham shart emas; Ikkinchidan, ular millatning aql- zakovati, estetik didi va qo‘l mehnati bilan vujudga kelgan. Ularda “mavhumlik” yo‘q, aksincha milliylik aniq namoyon bo‘lib turadi. “Fazilatlar” qanchalik “milliy” bo‘lmasin, ularda “mavhumlik” nisbatan o‘z ifodasini topgan. Jumladan, milliy, ma’naviy-axloqiy va ruhiy fazilatlarni faqat xatti-harakatlar yoki turli munosabatlarda solishtirish orqali farqlash mumkin. Ammo, ular o‘rtasida uzviy bog‘liq mavjud. Ularni birini ikkinchisisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Millatning moddiy madaniyati, uning aql zakovati, mehnati natijasida vujudga keladi. Shuning uchun ham unda milliy ruhiyat, milliy “menlik” o‘z ifodasini topadi.

Agar o‘zbeklarga xos bo‘lgan fazilatlarning qaysi birini olib ko‘rilsa, ulardagi o‘ziga xoslik “moddiy madaniyatda” aniq namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin. Jumladan, o‘zbeklarga xos bo‘lgan vazminlik ularning avlod-ajdodlaridan bizgacha yetib kelgan me’morchilikda binolardagi sokinlik va salobatda namoyon bo‘lsa, o‘zaro yordam, hashar mahallada yoki qarindosh urug‘ o‘rtasida to‘y, maraka o‘tkazishda yoki uy-joy qurilishida bir-birlariga moddiy yordam ko‘rsatish, mehribonlikni biron kishining boshiga mushkul ish tushsa yoki keksalar, bolalarga ota-onasiga, aka-ukalar, opa-singillar, o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin. Ularning ko‘pchiligi boshqa millatlarda uchramaydi.

Sotsiolog, prof. M.Bekmurodovning ta’kidlashicha, o‘zbeklardagi jamoaviylikning ildizlari uzoq tarixiy taraqqiyot va turmush kechirish shart-sharoitlari bilan bog‘liq. U shunday yozadi: “O‘zbek xalqi asrlar mobaynida jamoa

bo'lib istiqomat qilib kelgan va oilasi, o'z urug'i, el-elati, vatani, kasbi-koriga sodiqlik asosiy tamal toshi vazifasini o'tagan"⁴⁷.

Demokratik islohotlar – xalqlar etnik ongidagi o'zgarishlar omili. qanchalik noqulay bo'lmasin, o'zgacha fikrni ham eshitmoq, hamma ijtimoiy tabaqalar bilan, xalq bilan hisoblashmoqdir. Insoniy munosabatlardagi ana shu bag'rikenglikni davlat siyosatiga aylantirib, uni „demokratiya“ deb ataydilar.

Hozirgi davrda “demokratiya”ning bir necha ma'nolari mavjud. “Demokratiya”ning *birinchi ma'nosi* uning etimologiyasi, ya'ni atama sifatida kelib chiqishi bilan bog'liq. Chunki, qadimgi Gretsiyada paydo bo'lgan “demokratiya” atamasi *demos* – „xalq“, *kratos* – „hokimiyat“ dan iborat bo'lib, “xalq, hokimiyati” deb tarjima qilinadi. AQShning sobiq Prezidenti A. Linkoln ushbu ta'rifni yanada tushunarliroq qilib, “demokratiya – xalq uchun xalq saylagan xalq boshqaruvidir”, deb izohlaydi. (goverment of the people, bu the people, for the people.).

Yuqoridagi ta'riflarga ko'ra, demokratiya xalqning o'zidan kelib chiqadi („of“), xalq tomonidan amalga oshiriladi („bu“), xalq manfaatlari uchun xizmat qiladi („for“). Biroq, ayrim mualliflar “demokratiya” so'zining tom ma'nosi, ko'pchilik o'ylaganidek, “xalq hokimiyati” emas, balki “yo'qsillar hokimiyati” (“demos” - mulksiz, yo'qsil, mansabsiz) deb hisoblaydilar. Bu fikri rad etish shuning uchun ham mushkulki, Qadimgi Gretsiyadagi Afina davlatida 400 ming aholi bo'lib, uning faqatgina 40 mingigina teng huquqli fuqarolar bo'lishgan. Mana shu o'n foiz aholi butun “demos” nomidan hokimiyatga da'vogarlik qilgan. Buning ustiga ayollar, ko'chib kelganlar, qullar siyosiy huquqlarga ega bo'lмаганлар.

Demokratiyaning etimologik ta'rifiga nisbatan kengroq tushunish uning *ikkinci ma'nosini* keltirib chiqaradi. Unga ko'ra demokratiya “boshqaruv va qarorlar qabul qilinishida a'zolarning teng ishtirokiga asoslanuvchi har qanday tashkilotning tuzilish shakli”⁴⁷ deya e'tirof etadi.

Uchinchi ma'noda demokratiya qadriyatlarning ma'lum bir tizimiga asoslanuvchi ijtimoiy tuzum ideali sifatida tushuniladi va uning qadriyatlariga erkinlik, tenglik, inson huquqi, xalq suvereniteti va boshqalar kiritiladi.

⁴⁷ Бекмуродов М. Ўзбек менталитети: жамоавийлик ва индивидуалик нисбати. “Хуррият” газетаси, 2002 йил, 17 апрел.

To'rtinchi ma'nosida demokratiya xalq hokimiyatchiligi, demokratik maqsadlar va ideallarni amalga oshirish uchun ijtimoiy va siyosiy harakatlar sifatida qaraladi.

Bugungi demokratik islohotlar xalqlar etnik ongidagi o'zgarishlarga, bugun etnomadaniy hayotimizda sodir bo'layotgan evolyusion jarayonlarga chuqurroq qaraydigan bo'lsak, fikrimizcha, unda ijtimoiylashuv jarayonlari sodir bo'layotganini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy ijtimoiy psixologiyada keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra, ijtimoiylashuv - individning hayoti davomida o'zi yashayotgan jamiyat taalluqli bo'lgan qadriyatlar, ijtimoiy rollar, xulq-atvorlarni o'zlashtirishidir. Bu holatda ijtimoiylashuv cheksiz hisoblanib, biron bir davri bilan chegaralanmay, aksincha, individning hayoti davomida ijtimoiy malakalarni o'zlashtirish bilan bog'liq hisoblanadi. Ba'zi hollarda ijtimoiylashuv barcha odob-axloq va qadriyatlar tizimini o'zlashtirishi mumkin.

Keng qamrovli adabiyotlar tahliliga tayanadigan bo'lsak, bugungi kunda yoshlarning iqtisodiy ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi hamda dinamik xarakter kasb etuvchi ijtimoiy omillarni quyidagi ko'rinishda to'laqonli tasavvur qilish mumkin:

a) **megaomillar**: transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar;

b) **makroomillar**: mamlakat, davlat, madaniyat;

v) **mezoomillar**: etnos (millat), hududiy shart-sharoitlar, shahar va qishloqlar, OAV;

g) **mikroomillar**: oila, mehnat jamoasi, ta'lim muassasalari yoki diniy idoralar.

O'sib kelayotgan barkamol avlodni o'tish davridagi tanaffuslar oralig'ida ularni o'zgarayotgan shart-sharoitlarga mos ravishda aniq bilimlarga tayanib tarbiyalash, mohiyatan dolzarbdir. Shundan kelib chiqqan holda soha mutaxassislari oldida turgan vazifalardan biri - bu bolaning shaxs bo'lib shakllanishi davomida unga iqtisodiy hodisalar haqidagi tasavvurlarni singdirish, ya'ni iqtisodiyot olamida namoyon bo'ladigan voqeja va hodisalar to'g'risidagi bilimlarni bolalik davri bosqichlariga mos ravishda shakllantirishdir.

Jahon miqyosida informatsion xurujlarning tobora kuchayayotgan bir sharoitida, yoshlарimizni ularning ta'siridan himoyalash, ularning milliy o'zligini anglash kabi etnomadaniyatimizning boy zaminlaridan barhamand qilish ayni paytda dolzarb vazifalardan biridir.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Etnoijtimoiy va etnomadaniy jarayonlar, milliy o‘z-o‘zini anglashning yangilanishi, lyuralizm, “fazilat” va “qadriyatlar”, demokratiya, demokratik islohotlar, xalqlarning etnik ongi, etnik ongdagi ijobiy va salbiy omillar, ijtimoiy psixologiya, iqtisodiy ijtimoiylashuv, ijtimoiy omillar, megaomillar: transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar; makroomillar: mamlakat, davlat, madaniyat; mezoomillar: etnos (millat), hududiy shart-sharoitlar, shahar va qishloqlar, OAV; mikroomillar: oila, mehnat jamoasi, ta‘lim muassasalari yoki diniy idoralar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Etnoijtimoiy va etnomadaniy jarayonlarning milliy o‘z-o‘zini anglashning yangilanishidagi ahamiyati qanday?
2. Etnomadaniyat millatning botiniy (ichki) va zohiriyligi (tashqi) salohiyatini o‘zida ifoda etishini misollar bilan izohlang...
3. Milliy o‘z-o‘zini anglashdagi plyuralizmning milliy tiklanish bilan bog‘liqligi qay tarzda namoyon bo‘ladi?
4. Etnomadaniyatda millatga xos bo‘lgan “fazilat” va “qadriyatlar”ning aks etishiga misollar keltiring...
5. Nima uchun demokratik islohotlarni xalqlar etnik ongidagi o‘zgarishlar omili deb hisoblaymiz?
6. “Demokratiya” so‘zining etimologiyasini izohlang...
7. Bugungi kunda yoshlarning iqtisodiy ijtimoiylashuviga ta’sir qiluvchi qanday omillar mavjud?


15-§.Etnomadaniyat va milliy g‘oya mushtarakligi

Milliy g‘oyada ma’naviy qadriyatlarga ega bo‘lgan etnos xususiyatlarining ifodalanishi. Milliy g‘oya – millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shaklidir. U bevosita insonlarning o‘zligini anglash bilan bog‘liq.

Milliy g‘oya va etnomadaniyatning uzviyligi shundaki, ularning har ikkisi ham milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslanadi

O'zbek xalqining chaqaloq tug'ilgandan boshlab, insonni so'nggi yo'lga kuzatishgacha bo'lgan asriy ajoyib odatlari, qadriyatlari borki, ularning har biriga ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Milliy g'oyada ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan etnos borlig'i ifodalanadi (5-chizma).



5-chizma: Milliy g'oyada etnos xususiyatlarining ifodalanishi

Milliy o'zini anglagan xalq o'zining boshqa millatlar ichida birortasidan kam yo'rtiq emasligini, bu zamin barcha insonlar uchun umumiy makonligini, inson hayoti uning barcha burjlari eng oliy qadriyatligini tushunib etadi. Bu esa umumbashariy o'zlikni anglashning aynan o'zidir.

Milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettiradi. Ikkinchi jahon urushi yillarda fashistlar Fransiyani bosib olganda "qarshilik

ko'rsatish" g'oyasining milliy g'oya darajasiga ko'tarilgani va Fransiyaning ozod etilishi milliy g'oyaning juda qisqa muddatda ham ulkan ahamiyat kasb etishiga misol bo'la oladi.

U yoki bu g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi millatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liq.

Biz ba'zan oynai jahon orqali qandaydir sabab bilan xotirasini yo'qtogan kishilar haqidagi filmlarni ko'rib qolamiz. Ular ota-onasi u yodqa tursin, hatto o'z ismlarini ham unutib, faqat shaklan odam, aslida ayanchli jonivorlarga aylanib qoladilar. Endi xotirasiz xalqni tasavvur qiling. Bu chinakam fojiadir. Xotira shaxs uchun ham, xalq uchun ham bebahoe ne'matdir. Har qanday xotirada, hatto yosh bola yodida ham tarixiylik elementlari bo'ladi. Tarixiylik xotiraning tayanchidir. Shu sababli bosqinchilar doimo xalqning xotirasini, ya'ni tarixini yo'qotishga harakat qilganlar. Chunki xotirasiz xalq manqurt bo'ladi. Buyruq berilsa bas, o'zini o'zi qira boshlaydi.

Tarixiy xotira – inson ma'naviyatining ajralmas qismi, o'tmishni bilish, uni qadrlash, undan saboq olish natijasidir. Zero, tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi, ulami dilga jo etib, bunyodkorlik va yaratish yo'lidan izchil borishga undaydi

Buyuk mutafakkir Beruniy ta'kidlaganidek, "o'tmish kelajakning kalitidir". Uni bilish imkoniga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Mustaqillik tufayli xalqimiz tili, madaniyati, urf- odatlari, an'analarini, qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'z tarixini mukammal bilish imkoniga ega bo'ldi.

Tarixiy xotira qanchalik boy, mazmunli bo'lsa, xalq shunchalik uyushgan, hamjihat, ulug'vor ishlarni bajarishga qodir bo'ladi. Tarixiy xotiraning o'ziga xos jihatlaridan yana biri o'z o'tmishidan faxrlanish tuyg'usidir. Dunyoda hududi O'zbekistondan bir necha marta katta bo'lgan ba'zi davlatlar ham, aholisi o'troq bo'lib yashashni boshlagan moziyning azaliyligi, o'nlab shaharlarining tarixi 2500 yildan ortiqroq ekanligi bilan g'ururlana olmaydi.

O'zlikni anglash va tarixiy xotira bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. O'zini anglagan odam ajdodlari, xalqi bilan g'ururlanganidek, tarixni yaxshi bilgan shaxs, shubhasiz, o'zini ham teran tushunib boradi.


Bir so'z bilan aytganda, tarix shunday manbaki, u insonning o'zini anglashi, jamiyat oldidagi burchi, ajdodlar ruhi oldidagi mas'uliyatini to'g'ri tushunishiga, istiqbolni to'g'ri belgilashga imkon beradi.

Milliy g'oya va etnomadaniyatning uzviyliги yana shundaki, ularning har ikkisi ham milliy-ma'naviy qadriyatlarga asoslanadi, buni 6-7 chiznalarda ko'rish mumkin: O'zbek xalqining chaqaloq tug'ilgandan boshlab, insonni so'nggi yo'lga kuzatishgacha bo'lgan asriy ajoyib odatlari, qadriyatlari borki, ularning har biriga ko'plab misollarni keltirish mumkin. Masalan, xalqimizning sodda tilida o'zbekchilik degan so'z bor. Bu bizning milliyligimizning asosi bo'lib, xalqimizga xos xislatlar majmuasi, xarakterini anglatadi.



6-chizma: Milliy g'oya va etnomadaniyatning uzviyliги

Xalqimizning milliy o'ziga xosligi, oilaga munosabat, jamoaviy turmush tarzi, ya'ni mahallachilikda ham alohida sezilib turadi.



7-chizma: Milliy g'oya oziqlanadigan etnomadaniyat tizividagi manbalar

Fuqarolik jamiyat shakllanishining dastlabki siyosiy instituti rolini o'ynaydigan oila xususida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, oilada jamiyatga xos bo'lgan tipik xususiyatlar va vaziyatlar o'z in'ikosini topadi. Oilada har bir bolaga qadriyatlar tizimi – nima yaxshi-yu nima yomonligi, qaysi xatti – harakati ma'qul, qaysinisi noma'qul, qaysi fikr ma'niliyu, qaysi kiri bema'ni ekanligi to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar ota – ona, yaqin qarindosh - urug', qo'ni – qo'shni orqali singdiriladi. Bundan tashqari, aynan oilada hokimiyat va obro'lilik, ya'ni "avtoritet" to'g'irisidagi, siyosiy ongga aloqador bo'lgan, siyosiy ma'daniyat va huquqni ifodalovchi tasavvurlar ham kurtak topadi. Bir qarashda oddiy tuyulgan er va xotinning nikohga bo'lgan munosabati, uni qadrlashi bola ilk yoshlikdan oilani, oiladagi burch va mas'uliyatning mohiyatini teran tushunib borishga imkon beradi. Bundan tashqari umumxalq referendumlari, saylovlari, saylovoldi jarayonlariga munosabat, bunda ota – onaning faol va ongli ishtirok etishining o'zi ilk yoshdan murg'ak qalbda shu jamiyat va undagi siyosiy hayotning teng huquqli ish-tirokchisi bo'lishi mumkinligi hissini tarbiyalaydi.

Jamiyatning manfaatlari keng qamrovli bo'lib, u har bir fuqaroning turfa qiziqishlari, ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Bu holat uning haq – huquqlari ko'pligini keltirib chiqaradi. Buni biz bugungi kunda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida ko'rib turibmiz.

Mustaqillik yillarda mahallaga tarixda ko'rilmagan darajada e'tibor kuchayib, o'z – o'zini boshqaruvchi tashkilot sifatida haq – huquqlari ortib bormoqda. Bu bejiz emas, albatta.

O'zbek xalqi qadim zamonlardan buyon jamoaviy turmush tarzida yashab kelgan. Kishilar, oilalar muammolari mahallaning ko'pni ko'rgan oqsoqlollar, onaxonlari yordamida hal etilgan. Jamoaviy turmush tarzi jamiyat taraqqiyotiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Xususan, temuriylar davrida shaharlarda turli hunar egalari mahalla-mahalla bo'lib yashagani jamiyatni iqtisodiy, ma'naviy jihatlardan juda yuksaltirgan.

Millatlararo munosabatlarda barcha millat va elatlar manfaatlarini himoya qilinishining abamiyati. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir-biri bilan bevosita bog'liq. Ularning har ikkalasi bir-biriga ta'sir etadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan va mohiyatan boyitadi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlar va xalqlarning maqsad, intilishlarining yaxlitligi, umumiyligini ifodalaydi. Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarda barcha millat va elatlar manfaatlarini himoya qilish ko'zda tutilgan. Hatto mayda millat deb e'tirof etilgan millat vakillarini ham.

Milliy g'oya, etnomadaniyat kabi milliy va umuminsoniy qadriyatlar tushunchalari ham mavhum narsalar emas. Umuman, milliy qadriyatlar siz umuminsoniy qadriyatlar ham bo'lmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar milliy qadriyatlarning o'ziga xos majmuasidir. Masalan, har bir millat, xalqning asl fuqarosi o'z vatanini obod, xalqini farovon ko'rishni istaydi. Ma'lumki, bu milliy istiqlol g'oyasining bosh maqsadidir. Shu bois milliy va ma'naviy umuminsoniy qadriyatlar fuqarolik jamiyatining muhim zaminini tashkil qiladi. Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilish, dunyodagi ko'plab xalqlar, elatlar, millatlarning o'tmishdag'i, hozirgi davrdagi va istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon sivilizatsiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy, milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Aytish joizki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir – biri bilan bevosita bog'liq. Ularning har ikkalasi bir – biriga ta'sir etadi, biri ikkinchisini to'ldiradi, mazmunan va mohiyatan boyitadi.

Umuminsoniy qadriyatlar barcha millatlar, elatlari va xalqlarning maqsad, intilishlarining yaxlitligi, umumiyligini ifodalaydi. Mamlakatimizda millatlararo munosabatlarda barcha millat va elatlari manfaatlarini himoya qilish ko'zda tilig'an. Hatto mayda millat deb e'tirof etilgan millat vakillarini ham.

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtaida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga bo'lgan olujanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.

U do'stona munosabatlar ustun bo'lgan sharoitda ijtimoiy taraqqiyotning omili sifatida maydonga chiqadi.

O'zbekiston hududida qadim-qadimdan ko'plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtaida asrlar davomida milliy nizolar bo'lmagani xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millatlarni o'zaro hamjihatlik ruhida tarbiyalash maqsadi istiqlol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir. U xalqimizga bo'lgan olujanoblik va insonparvarlik fazilatlariga asoslanadi.

U do'stona munosabatlar ustun bo'lgan sharoitda ijtimoiy taraqqiyotning omili sifatida maydonga chiqadi.

"O'zbekiston xalqi" tushunchasi mamlakatimizda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtaida o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlik uchun ma'naviy asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari Konstitusiyamizda "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", deb ta'kidlangan. Bu borada hayotimizda ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Konstitusiyamizning 18-moddasida "barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, dini ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi

va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdir", - degan qoida mustahkamlanib qo'yilgan.

E'tibor berilsa, mazkur qoidada milliy hayotga, fuqarolarning milliy histuyg'ulariga daxldor muhim ahamiyatga ega bir qator tamoyillar belgilab qo'yilganiga ishonch hosil qilish mumkin.

Birinchidan, fuqarolarning milliy mansubliklaridan qat'iy nazar qonun oldida tengligi mustahkamlangan;

Ikkinchidan, fuqarolarning diniy, e'tiqodiy farqlaridan qat'iy nazar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi ta'kidlangan. Diniy qadriyatlar millat ma'naviyatining ajralmas qismi ekanini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur qoidaning hayotiy-amaliy ahamiyati oydinlashadi.

Uchinchidan, fuqarolarning irqiy tengligi qayd etilgan. Irqchilikdan g'ayriinsoniy mafkura va amaliyotning tariximizda umuman kuzatilmaganini alohida qayd etish lozim.

Ammo ayrim mintaqalarda tajavvuzkor millatchilik g'oyalari bilan qurollangan ayrim guruuhlar diniy aqidaparastlik va irqchilik qarashlaridan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinayotganini ham unutmaslik zarur. Demak, muayyan hollarda ular omuxtalashgan shaklda ham chiqishi mumkin. Axborot globallashuvi kechayotgan bugungi kunda turli g'oyalalar hech qanday chegaralarni tan olmay kirib kelishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ushbu tamoyilning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

Tarixiy tajriba ko'p millatli davlatning barqarorligi millatlararo munosabatlarga daxldor huquq va erkinliklarini to'g'ri belgilab qo'yish bilan bir qatorda amaliyotda unga qanchalik rioya qilishga ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Millatlararo totuvlik – mintaqaviy konfliktlarni yechish omili. Millatlararo totuvlik millatlararo ziddiyatlarning oldini olinishida eng muhim omil hisoblanadi. O'zbekiston 1995 yil 16 noyabr kuni YUNESKO xalqaro tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari Butunjahon deklaratsiyasi" millatlararo va dinlararo hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan fundamental xalqaro-huquqiy hujjat bo'lib, bugungi kunda uning normalari respublikamiz qonunlariga to'liq implementatsiya qilingan va hayotimizga samarali tatbiq etilmoqda.

Yer yo‘zida 6,5 milliardga yaqin aholi, 3 mingga yaqin millat mavjud. Ular o‘z qatorida insoniyatning o‘rtalari hisob bilan 96 foizini birlashtiradi. Qolgan 4 foizi elatlari va qabilalardir. Har bir millatning soni 10 mingdan bir necha yuz minggacha boradi. Millatlar son jihatidan 5 ta guruhgaga bo‘linadi:

1. Buyuk millatlar: aholisi har biri 100 milliondan ortiq songa ega.
2. Katta millatlar: aholisi 50-100 million atrofida.
3. Yirik millatlar: aholisi 10-50 million atrofida (O‘zbekiston ham)
4. O‘rtalari millatlar: aholisi 1-10 million atrofida.
5. Kichik millatlar: aholisi har biri bir necha mingdan 1 milliongacha.

Sayyoramizda 1600 dan ortiq etnik guruh yashaydi. Ammo ularning ko‘pchiligi o‘z milliy davlatchiligiga ega emas. Dunyo siyosiy xaritasida 200 ga yaqin davlatlar bo‘lib, ular 2 turga: 1) polietnik (ko‘p elatlari) va 2) monoetnik (bir elatlari) davlatlarga bo‘linadi. O‘zbekiston ko‘p millatli, polietnik davlatdir.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, bundan 100 yil avval hozirgi O‘zbekiston hududida 70 ga yaqin millat istiqomat qilgan. 30 yil o‘tgach bu raqam 91 taga, 1959 yilda 113 taga, 1978 yilda 123 taga etgan.

1989 yilda o‘tkazilgan oxirgi aholi ro‘yxati ma’lumotida O‘zbekistonda 136 millat va elat vakillari istiqomat qilishlari ko‘rsatilgan. (8-rasm).



8-rasm: Yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillari

O‘zbekiston ko‘p millatilik va ko‘p dinlilik sharoitida millatlararo hurmat va totuvlik ruhi bilan doim ajralib turgan. O‘zbek zaminida istiqomat qiluvchi barcha millat va elat vakillari bir birini tushunishga va totuvlikka intilayotgani respublikadagi barqarorlikning o‘ziga xos alomatidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 15 iyunda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek, "bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'analari muhim rol o'yamoqda".

"Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlар yaratilgan.

Biz bugun amalga oshirayotgan Harakatlar strategiyasining beshinchи ustuvor yo'nalishida ham millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha eng muhim vazifalar belgilab berilgan.

Yurtimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 138 ta milliy madaniy markaz katta rol o'yamoqda"⁴⁸.

O'zbekistonning milliy-madaniy xilma-xilligi milliy o'zlikni anglashning o'sishi va ma'naviy-ruhiy tiklanish bilan qo'shibil, jamiyatning yangilanishiga, uning tolerantligiga qudratli turki bo'lib, respublikaning jahon hamjamiatiga qo'shilishi uchun quay sharoit yaratdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning madaniyati, tili, urf-odat va an'analari hurmat qilinishi qator qonun hujatlarida ham aks ettirilgan. Masalan, "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining "Bilim olish huquqi" deb nomlangan 4-moddasida har kimga uning jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeい, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'i nazar, bilim olishda teng huquqlar kafolatlanishi alohida qayd etilgan.

Yoki "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini olaylik. Mazkur qonunning "Murojaat etish huquqidан foydalani layotganda kamshitishga yo'l qo'yilmasligi" deb nomlangan 10-

⁴⁸Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз тақдиди ва келажаги йўлида янада ҳамохиҳат бўлиб қатъият билан харакат килайлик.// "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг соғлигини асрash – давр талаби" мавзусидаги анжуманда ёзланган нутқ. //Халқ сўзи, 2017 йил, 16 июнь.

moddasida davlat organlariga murojaat etish huquqidan foydalanilayotganda jismoniy shaxsning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab kamsitishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi kam sonli etnoslar huquqlarini himoyalashning davlat konsepsiysi O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 4-moddasida aniq aks ettirilgan: "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi".

O'zbekiston davlat siyosati millatchilik, irqchilik, genotsid, xalqlarni zo'rlik bilan chiqarib yuborish yoki boshqa joylarga ko'chirish, o'zga xalqlar huquqlarining kamsitilishi va assimilyatsiya siyosatini to'liq inkor etadi.

Respublika Konstitusiyasining 57-moddasiga muvofiq "Konstitusiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitusiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushish, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'ligi va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylantirilgan birlashmalarning, Milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta'qilanganadi".

80-yillar oxiri -90 yillar boshida Sobiq Sovet ittifoqining bir qator hududlari (Boltiqbo'yli, Kavkaz respublikalari)da millatchilik avj olgan bo'lsa, O'zbekistonda millatlararo totuvlik bardavom bo'lib, odamlar milliy yoki diniy belgilarga ko'ra ajratilmadi.

Mamlakatda demokratik siyosiy islohotlarni amalga oshirishda milliy omilga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston davlat qurilishi modeli uning hududida tarixan tarkib topgan jamiatning ko'p millatli tarkibini saqlab qolish va mustahkamlash hamda ushbu omildan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdek pirovard maqsad vazifalarini bajarish g'oyasiga asoslanadi.

Mamlakatda demokratik siyosiy islohotlarni amalga oshirishda milliy omilga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston davlat qurilishi modeli uning hududida tarixan tarkib topgan jamiatning ko'p millatli tarkibini saqlab qolish va mustahkamlash hamda ushbu omildan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishdek pirovard maqsad vazifalarini bajarish g'oyasiga asoslanadi.

Xalqaro demokratik tamoyillarga muvofiq keluvchi, fuqarolarning teng huquqligini belgilab bergen qonunchilik bazasi millatlararo totuvlikni saqlash va mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Milliy g'oya, milliy va umumbashariy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, manqurtlik, mafkuraviy muammo, profi-laktika, poligon, plyuralizm, axborotlashgan jamiyat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Milliy o'zlikni anglash nimalarga bog'liq?
2. Umumbashariy o'zlikni anglash deganda nimani tushunasiz?
3. Tarixiy xotira bilan manqurtlikning qanday bog'liqligi bor?
4. Jamiyatning axborotlashuvi qanday jarayon?
5. Milliy g'oyada ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan etnos borlig'i mohiyatining ifodalanishini tushuntirib bering...
6. Sotsializm davri xalqlari ongida milliy g'oyaga munosabat qanday edi?
7. Millatlararo munosabatlarda mayda millat va elatlar manfaatlarini himoya qilishning qanday ahamiyati bor?
8. Nima uchun madaniyatlararo muloqot mintaqaviy konfliktlarni yechish omili hisoblanadi?

16-§. Etnomadaniyat va etnopsixologiya

Etnopsixologiya tushunchasining mazmun va mohiyati. "Etnopsixologiya" - etnografiya va psixologiya fanlarining qo'shilishidan tashkil topgan bo'lib, grekcha "etnos" xalq, qabila hamda "psixologiya"- ruh ilmi, degan ma'nolarni anglatadi.

Bu fan ma'lum millat va etnik birlik vakillarining o'ziga xos ruhiy qiyofasi, xulq atvorini, zamonaviy termin bilan aystsak, mentalitetni o'rghanadi. Har bir xalqqa xos bo'lgan milliy xarakter, urf - odat va an'analar, millat tuyg'ulari va did, etnik ong va milliy o'zini anglashi, namoyon bo'lishi, o'zgarishi va rivojlanishi kabi masalalar ham etnopsixologiyani o'rghanish obyekti hisoblanadi.

Millat va millat bilan bog'liq bo'lgan ko'plab omillar ijtimoiy va siyosiy hayotda muhim rol o'ynab kelgan va bundan keyin ham uzoq davrgacha o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Olimlarning ko'rsatishicha ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotni turli bosqichlarida turgan 4 mingga yaqin millat va elat hamda turli xalqlar mavjud ekan.

Etnopsixologik xususiyatlarining ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga ayrim ya'ni urug', qabila, millatlarga xosdir.

Etnopsixologik xususiyatlar ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek faqat bir omil -tabiiy muhit ta'siri bilangina vujudga kelib qolmay uning vujudga kelishid uchta omil ta'sir ko'rsatadi. **Birinchi** omil - bu -siyosiy -iqtisodiy va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtmoiy jarayonlari tizimi bo'lsa, **ikkinchisiga** shu etnik birlik yashab turgan tabiiy-geografik muhitning xususiyatlari kiradi. **Uchinchi** omilga esa xalq hayotida bo'lib o'tgan tarixiy hodisa va voqealar kiradi.

Lekin shuni aytish kerakki, etnopsixologik xususiyatlar tizimida kishilar ruhiyatining mazmunini avvalo birinchi omil-siyosiy-iqtisodiy ijtimoiy o'zgarishlar belgilab beradi. Tabiiy geografik omil esa asosan etnopsixologik qiyofaning tashki ifodalarini belgilaydi. Shuning uchun ham bu omil kuzatayotgan kishi nazariga birinchi omilga qaraganda yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar so'zsiz uning psixologiyasida o'chmas iz qoldiradi. Tabiatdagi ayni bir voqelikning doimiy ta'siri natijasida kishilar bu voqelikdagi xususiyatlarni boshqa sharoitda yashayotgan etnik guruh vakillariga qaraganda chuquroq idrok qilishga o'rganib qoladilar.

Atrofdagi voqelikni, hodisalarini o'ziga xos ravishda idrok qilish tasavvur va fikr qilish va ularni tab' va tuyg'ular, urf -odat va an'analar, karakter tarzida namoyon bo'lishi etnopsixologiyaning qaytarilmas betakror xususiyatlari hisoblanadi.

Ma'lum bir millat vakillarining o'ziga xosligini, ya'ni rubiy xususiyatlarini tushunish va tushuntirish uning namoyon bo'lishi sababini organizmning miyaning tuzilishidan emas, balki yuqorida aytganimizdek, xalqning tarixiy taraqqiyoti, uni o'rab turgan tabiiy muhitning shart-sharoitlaridan qidirish kerak.

Ularning har birini o'z tarixi, madaniyati va milliy qadriyatlari bor. Ularni o'rganish millatlararo munosabatlarni tashkil qilishda, turli iqtisodiy, madaniy aloqalarni o'rganishga katta yordam beradi. Lekin, yaqin davrgacha bizning ijtimoiy fanlar tizimida milliy masalalar va unda psixologiya omillarining tutgan o'mniga

yeterlicha baho berilmay kelindi. Ayrim hollarda esa asossiz ravishda inkor etildi. Hatto ba'zi bir tadqiqotchilar milliy xususiyatlar, etnopsixologiya masalalarini o'rganishga shubha bilan qarashdi. Bunda ular etnopsixologiya masalalarini o'rganish bir xalqni maktab, ikkinchisini kansitishga olib kelishi, irqchilik, millatchilikni kelib chiqishiga sabab bo'ladi, deb xavotirlanishdi.

Etnopsixologiyaga oid ayrim tadqiqotlarda mualliflar o'z millatlarini haddan tashqari ko'klarga ko'tarib yuborish, boshqa qo'shni xalqlardan ustun qo'yish hollari bo'lganki, bu tabiiy turli noroziliklarni tug'ilishiga sabab bo'lgan. Shuning bilan birgalikda xalqlarning voqelik va tabiatni idrok qilish, kiyinish, avlodlar tarbiyasi, avlodlar o'rtasidagi munosabatlardagi o'zaro xosligini hisobga olmaslik ham mumkin emas.

"Yaponiyaga birinchi marta kelib qolgan yevropalikni,- deb yozadi I. . Kon, - Yaponiyalikning faqat xursand bo'lgandagina emas, hatto unga tanbeh berganda ham, yoki sizni biror qayg'uli narsa, masalan, o'lim to'g'risida gapirganda ham kulimsirab gapirishi, taajjubga, xijolatga tushurib qo'yadi. Tajribasiz odam beorlik, surbetlik yoki raxmsizlik deb hisoblashi mumkin. Aslida kulimsirash bu yerda boshqacha ramziy mazmunga ega; bu bilan u og'ir vaziyatni yengillashtirish, bu qiyinchiliklarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishga tayyor ekanligini ta'kidlash va shu kabi mazmunni bildiradi".

Turli ijtimoiy tizim va iqtisodiy ukladlar taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan amaliy faoliyat shakllari turli ruhiy jarayonlar tizimining shakllanishini belgilab beradi. Shuning uchun ham turli tarixiy davrlarda, ijtimoiy tuzimda yashayotgan xalqlar bir-biridan faqat ongning mazmuni bilangina farqlanib qolmasdan, shuningdek faoliyat shakllarining tuzilishi jihatidan ham farqlanadilar.

Etnopsixologyaning o'ziga xos xususiyatlari va uning muayyan xalq bioetnogenetik xususiyatlari bilan bog'liqligi. Qadimgi dunyo mutafakkirlari Aristotel, Gerot, Gippokrat, Demokrit, Pifagor va boshqalar barcha ijtimoiy va psixologiya hodisalarni tushuntirib berish uchun yagona bo'lgan umumiy tamoyillarni, nazariyalarni qidirib topishga, xususan, xalqlarning turli psixologik xususiyatlariga ega bo'lishining sabablarini tushuntirib berishga harakat qiladilar. Etnopsixologiya xususiyatlarni vujudga kelishini ular asosan, tabiiy-geografik muhitning ta'siri bilan bog'lab tushuntirdilar. Masalan, qadimgi dunyoning buyuk mutafakkiri Gippokrat (eramizdan avvalgi 460-375 yil) o'zining "Havo. Suv va

quruqlik”, degan asarida xalqlarning turli ruhiy va jismoniy xususiyatlarini bevosita iqlim sharoiti bilan bog’lagan holda tushuntirib beradi. Xalqlarning temperament va xarakter xususiyatlarining vujudga kelishini ular iste’mol qilayotgan oziq-ovqatlar bilan bog’lab tushuntirishga ham urinishlar bo’lgan.

Xalq etnopsixologiyasining o’ziga xos xususiyatlari, yani, etnopsixologik qiyofasi tushunchasiga ko’p tadqiqotchilar o’z ta’riflarini berib o’tganlar. Masalan rus tadqiqotchisi S.I.Korolyov shakllangan etnik qiyofa “ma’lum darajada muhofaza qiluvchi mexanizm rolini o’ynaydi. U xuddi elakdek, yot narsalarni ajratib, uni yo qabul qiladi, yoki uni shu xalqda mavjud bo’lgan normalar asosida qayta ishlab beradi yohud inkor qiladi” – deb ta’rif bergen.

Korolyov ta’rifini biroz boshqacharoq talqin etadigan bo’lsak, etnoslarning psixologik qiyofasi-ularning atrofdagi voqelikni, hodisalarni o’ziga xos ravishda idrok, tafakkur, tasavvur qilishi ularga bo’lgan munosabatning urf-odat, an’analar, xarakter tarzida namoyon bo’lishidir.

Har bir xalqning psixologik qiyofasiga mos tarzda madaniyati, oilaviy va ijtimoiy munosabatlar tizimi, yosh va jinslar o’rtasidagi farqlanish, diniy e’tiqodga nisbatan munosabat va shu bilan bog’liq harakatlar, kayfiyatlar hozirgi davrda esa siyosiy jarayonlarga munosabatlar ham shakllanadi.

Muayyan bir etnik guruqlar ma’lum bir tarixiy rivojlanish bosqichida o’ziga xos ruhiy-axloqiy xislatlarga ega bo’lib boradi va bu hol ularning madaniyatiga ham kuchli ta’sir ko’rsatadi. Masalan, biz ruhiy-axloqiy xislatlarimiz va shunga bog’liq turmush tarzimiz bilan xuddi shu makonda bir asr oldin yashagan o’z ajodolarimizdan ancha farq qilamiz.

Har bir xalqning tarixi va taqdiri o’ziga xos kechadi. Agar xalq tarixini va uning psixologik xususiyatlarini bir-biriga solishtirsak, biz etnopsixologik xususiyatlarida xalq tarixi chuqr aks ettishini ko’ramiz.

Rus adibi *S.Sulginskiyning* ushbu fikrlarida ham Sharq va G’arb xalqlarining etnopsixologik fazilati aks etgan: “G’arb – oqil, Sharq – donishmand, G’arb – kenglik, Sharq – teranlik, G’arb – harakat bilan yashagan, Sharq esa orzu-umid bilan, agar G’arbning atoqli olimlari faol bo’lsalar, Sharqda ular faylasuflar... G’arbgaga nisbatan bir-necha asrlar avval Sharqda ilm-fanning deyarli barcha sohalari uchun asos yaratilgan edi”.

Jahon etnopsixologiya maktablari. Ma'lumki, XX asming 30 - yillarigacha Amerikada etnologiya mashhur olim Frans Boas maktabi ta'sitida rivojlangan. Frans Boas (Frenz Boas, 1858–1942 yy) g'oyalari bir necha o'n yillar oldin nafaqat psixologik antropologiya, balki madaniy antropologiyaning qator dastlabki asosiy magistral yo'nalishlari uchun asosiy pillapoya bo'lib xizmat qilgan. Baosni tadqiqotchilar zamonaviy etnologiyaning me'mori deb hisoblaydilar.

Baos o'zidan oldingi o'tgan tadqiqotchilar mavhum yoki noto'g'ri xulosalarga kelgan va shu bois etnologiyani yangidan yaratmoq zarur degan xulosaga kelgan. U yangidan etnografik materiallar yig'ish uchun oldingi tadqiqotchilardan ko'proq dala ekspeditsiyalari tashkil etish va ular asosida yangi metodlar va konsepsiylar yaratish zarur deb hisoblagan. Bu borada Amerika maktabining vakillari o'zlarining dala tadqiqotlarini o'tkazish jarayonida ko'plab psixologik va psixatrik uslublardan foydalangan. Natijada psixologik antropologiyaga oid ko'plab ma'lumot yig'ishga muyassar bo'lingan.

Psixiantropologik nazariyaga bo'lgan ehtiyoj natijasida etnopsixologik maktab taraqqiy etadi.

Etnologiyada psixologik yo'nalish o'zining taraqqiyoti jarayonida o'zining konseptual vorisligini saqlagan holda bir necha marotoba nomini almashtirgan. Mazkur yo'nalish dastlab Frans Baosning tarixiy maktabi, keyinchalik, Shaxs va Madaniyat maktabi, undan keyin "milliy xarakter"ni tadqiq qilish, XX asming 60 yillardan boshlab to hozirgi kungacha esa-psixologik antropologiya, yoki ko'pincha etnopsixologiya nomi bilan yuritiladi.

Etnopsixologiya maktabi namoyandalarining ta'kidlashlaricha: "madaniyat" mavhum tushunchadan ko'ra kengroqdir, lekin bu borada birinchi o'rinda individ, shaxs turadi. Shu bois, ularning fikricha, har bir xalq madaniyatini tadqiq qilishda individ va shaxsni o'rganishdan boshlamoq joiz.

Dastlabki etnopsixologik konsepsiya etnolog olimlar tomonidan emas, balki psixolog olim, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, Abram Kardiner (1891-1981 y) tomonidan yaratilgan. U o'z qarashlarini "*Individ va uning jamoasi*"(1937) va "*Jamiyatning psixologik chegarasi*" nomli asarlarida etnopsixologiya maktabining asosiy g'oyalarini bayon qilgan. Uning tasavvuriga ko'ra, insонning shaxsiy xususiyatlari u tug'ilgandan keyingi dastlabki paytlardanoq shakllana boshlaydi.

Bu shakllanish tashqi ta'sirlar va ayniqsa har bir jamiyatdagi o'ziga xos bola

parvarishlash usullari: ovqatlantirish, yo'rgaklash, ko'tarish, keyinroq esa yurishga, gapirishga va ozodalikka o'rgatish kabilar orqali amalga oshadi.

Shuning uchun ham inson ruhiyatining shakllanishi asosan 4-5 yoshgacha davom etadi va undan keyin mustahkamlanadi va butun umr deyarli o'zgarishsiz qoladi. Kardinerning bosh g'oyasida "asosiy shaxslar" tushunchasiga urg'u beriladi.

Kardiner tasavvuriga ko'ra, inson shaxsiy qarashlari u tug'ilgandan keyingi dastlabki kunlardanoq shakllana boshlaydi. Bu bevosita unga tevarak-atrofdagilarning munosabatlari asosida shakllanadi. Bolalik davrida bo'lgan munosabat uning kelgusidagi hayot faoliyatida o'ziga xos iz qoldiradi.

Jahon etnologiyasida etnopsixologiyaning o'mi haqidagi fikrlarimizni yakunlar ekanmiz, ilg'or mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni yechishda etnopsixologik tadqiqotlar natijasidan samarali tarzda foydalanganligini ta'kidlab o'tish joiz.

Xalqimiz etnopsixologik xususiyatlarini o'rganish zaruriyati. Xalqimiz moddiy va ma'naviy madaniyatining ajralmas qismi sanalmish uning e'tiqodi, urfatlari, uy-joyi, kiyim-kechagi-yu taomlarini o'rganish bilan bir qatorda ana shu o'ziga xos moddiy va ma'naviy madaniyatni shakllanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan xulq - atvori va ruhiyatini tadqiq etish ham muhimdir.

Faqat etnopsixologik tadqiqotlar bilangina biz tariximizning keyingi davrida xalqimiz ruhiyati va xulq atvorida paydo bo'lgan loqaydlik, boqimandalik, ma'suliyatsizlik, millatparvarlik va vatanparvarlik tuyg'ularidan uzoqlashish kayfiyatları, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning sustligi kabi salbiy hislatlarning vujudga kelganlik sabablarini ochishimiz, jonkuyarlik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik va boshqa shu kabi fazilatlarni rivojlantirishning yo'llarini topishimiz mumkin.

Jahon tarixiga nazar soladigan bo'lsak, inglizlardagi kuchli tadbirkorlik, tashabbuskorlik va tarbiyadagi qattiqqo'llik hislati, nemislardagi o'ta mas'uliyatlilik va o'ziga ishonch hislari, yaponlarning millatparvarligi va jamoa manfaatini e'zozlashlari, fransuzlardagi doimo yangilikka va erkin fikrlashga intilish bu xalqlar yashayotgan yurtlarni dunyoda eng taraqqiy etgan mamlakatlarga aylantirdi.

Beruniy "O'tmish yodgorliklari" kitobida qadimiy sharq xalqlari – arablar, suriyaliklar, yahudiylar, eroniylar, sug'dlar, xorazmliklar va shu zamonda yashagan boshqa xalqlarning turmushiga oid ma'lumotlarni haqiqat va sog'lom fikr nuqtai

nazaridan tahlil qiladi. Bu asar etnopsixiologiya fani tadqiqotchilari uchun manba vazifasini bajara oladi.

Falsafa, etnografiya, ijtimoiy psixologiyaga oid aksariyat adabiyotlarda milliy ong va milliy o‘zini - o‘zi anglash tushunchalari deyarli farqlanmasdan, sinonim so‘zlar sifatida ishlatib kelinadi. To‘g‘ri, ular o‘rtasida mazmunan uzviy bog‘liq va yaqinlik bor. Ular bir jarayonning turli bosqich darajalaridir.

Millatning o'zini- o'zi anglashi-etnik psixologiyasining ancha keyin vujudga kelgan murakkab fenomeni hisoblanib, u milliy ong asosida vujudga keladi va uning tuzilmasiga kiradi. Milliy o'zini - o'zi anglash millatning uz manfaati, maqsadi va motivlarini anglab yetish darajasini bildiradi. Shuningdek, u millat tomonidan o'zining o'tmishi tarixi, etnik kelib chiqishi, milliy g'oyalari, kelajagi jahon jamiyatida tutgan o'mini bilishi bulib vatanparvarlik, milliy g'urur, sha'n, burch ko'rinishlariда namoyon bo'ladi.

Insonning milliy ongi mansubligini anglashi millat hayotidagi voqeа vakillar ongida katta o'zgarishlar bo'lishiga, milliy o'zini - o'zi anglashning rivojlanishiga va boyishiga olib keladi. Milliy o'zini - o'zi anglashda millat ziyolilari katta rol o'yнaydilar. Ular o'z milliy tilida san'at va adabiyotini rivojlantirishi, milliy qadriyatlar uchun qayg'urish orqali milliy manfaatga g'oyalar uchun kurashib, milliy o'zlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu kurash, ayniqsa milliy til, milliy qadriyatlar kansitilgan, milliy manfaatlar xavf ostida qolgan paytlarda kuchayadi.

Milliy o‘zini-o‘zi anglashda ma’lum subyektivizm mavjud bo‘lib, u muayyan tarixiy va ijtimoiy davrlarda o‘z yo‘nalishini o‘zgartirib turishi mumkin. Ba’zan bu yo‘nalishi o‘z chegarasidan chiqib “millatchilik” degan xavfli, xatarli holatni tug‘diradiki, milliy o‘zlikni boshqa etnik guruhlarga qarama - qarshi qo‘yish, milliy mahdudlik kabi nomaqbul ko‘rinishlarga aylanadi.

Milliy mansublikni anglash bilan bog'liq xususiyatlar ancha barqaror bo'lib, doimo ijtimoiy siyosiy tarixiy o'zgarishlar ta'siriga berilmasligi yoki nisbatan kam berilish mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerak, tarix taqozosini bilan o'z Vatanidan ajrab boshqa yurtlarga borib qolgani va u yerda uzoq vaqtlar davomida yashayotgan kam sonli millat vakillarida milliy ongni shakllanishi o'ziga xos qonuniyatlar asosida kechadi. Ularning milliy tilni saqlashi, milliy urf odat va an'analarga rioya qilish qadriyatlar bilan bevosita aloqasi ma'lum darajada saqlangan. Bunday sharoitda hech bir avlod yakilida etnik ong katta avlod tomonidan berilayotgan ma'lumotlar, oila

azolari va yaqin qarindoshlar o'rtasida so'zlashuvlar vositasi hisoblangan ona til, milliy madaniyat haqidagi bilimlar asosida vujudga keladi. Turli davrlarda uzoq ajnabi yurtlarga borib qolgan millatdoshlarimizning hayoti bunga misol bo'ladi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Etnos, etnopsixologiya, etnik birlik, urf – odat, an'ana, milliy ong, milliy did, qadriyat, milliy goya, millat ruhi, etnik xususiyat, etnik psixologiya, etnik ong, milliy xarakter, milliy urf - odat, milliylik, millat tuyg'usi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Etnik xususiyatlarni shakllanishi va o'zgarishida ijtimoiy omillar qanday ta'sir etadi?
2. Etnopsixologik xususiyatlar muxofaza kiluvchi mexanizm deganda nimani tushunasiz?
3. Tabiiy muhitning etnik xususiyatlarini shakllanishidagi roli nimadan iborat?
4. Etnopsixologiyaga umumiy tavsif bering...
5. Etnomadaniyatda milliy g'urur va milliy o'z-o'zini anglashning ifodasini tushuntirib bering...
6. Milliy tiklanish va etnomadaniyat rivojlanishining qanday tendensiyalari bor?
7. Etnomadaniyat va tarixiy ongni qiyoslang...

17-§. Etnik va ijtimoiy xotira

Tarixiy ong, tarixiy va ijtimoiy hamda etnik xotira. Har qanday davrda ham jamiyat o'z tarixini anglashga harakat qiladi. Tarixiy ong, tarixiy va ijtimoiy xotira, etnik xotira xalq ma'naviyatini asosini tashkil etadi.

Tarixiy ong, tarixiy va ijtimoiy xotira, etnik xotira hozirgi global mafkuraviy tahdidlar omili kuchayotgan dunyoda kishilarda unga o'z g'oya va e'tiqodi bilan qarshi tura olish imkoniyatini yaratadi. Shu bois tarixiy ong, tarixiy va ijtimoiy xotira, etnik xotirani shakllantirish hamda rivojlantirishning falsafiy muammolarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

➤ Tarixiy ong jamiyat, uning ijtimoiy guruhlari va individlarning o'z o'tmishi va butun insoniyat o'tmishi to'g'risidagi tasavvurlari majmui;

➤ "Tarixiy ong ijtimoiy ong shakli bo'lib, jamiyat tomonidan o'zining kelib chiqishi va zamondagi o'rni, o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi o'rtasidagi aloqadorlikning anglanishi, ijtimoiy vogelikning obyektiv idrok etilishidir;

➤ tarixiy xotira – ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarning kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo‘lishi, eslanishi, qadrlanishi;

➤ Insonni butun insoniyat yaratgan moddiy va manaviy boyliklar bilan bog‘lab turadigan, uning ongi va kundalik amaliy faoliyatiga ruhiy manaviy ozuqa beradigan qudrat – tarixiy xotiradir;

➤ tarixiy xotira – ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarning kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo‘lishi, eslanishi, qadrlanishi;

➤ Insonni butun insoniyat yaratgan moddiy va manaviy boyliklar bilan bog‘lab turadigan, uning ongi va kundalik amaliy faoliyatiga ruhiy manaviy ozuqa beradigan qudrat – tarixiy xotiradir;

➤ ijtimoiy xotira ajdodlarning ijtimoiy tuyg‘ulari, hissiyotlari, farazlari, nazariyalari, kayfiyatlar, g‘oyalari va qarashlari, odatlari va an‘analarining avlodlar ongi va faoliyatida qayta namoyon bo‘lishi, eslanishi, qadrlanishidir;

➤ tarixiy ong ijtimoiy xotiraning tarkibiy qismi, uning elementlaridan biridir;

➤ Etnik xotira - urug‘, qabila, elat, millat ajdodlari tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy boyliklarning urug‘, qabila, elat, millat vakillari ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo‘lishi, eslanishi, qadrlanishi”.

“Xotira” tushunchasi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan va tizim sifatidagi “ong”ni tarkib toptiradigan, o‘zaro bog‘langan, ko‘plab elementlardan, shu jumladan xotiradan ham iborat bo‘lgan ancha kengroq “ong” tushunchasining muhim, aytishimiz mumkinki, hatto markaziy elementi hisoblanadi. Bunda ong tizimidagi xotira – “kechinmalar onidan so‘ng idrok etish va tasavvur etishni saqlab qolish qobiliyati; xotira (obrazli ifodalaganda) saqlovxonani ham bildiradi”.

Tarixiy ong va tarixiy xotira tushunchalarini tadqiq etish ongning mohiyati, uning struktrurasi muammosining, ijtimoiy ongni va uning shakllari, shu jumladan, milliy ongni shakllantirish hamda rivojlantirishning kam tadqiq qilingan bir qator jihatlarini ochib berish bilan uzviy bog‘liq.

Tarixiy ong va tarixiy xotira hozirgi global mafkuraviy tahdidlar omili kuchayotgan dunyoda kishilarda unga o‘z g‘oya va e’tiqodi bilan qarshi tura olish imkoniyatini yaratadi. Shu bois tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish hamda rivojlantirishning falsafiy muammolarini tahlil qilish va ochib berish maktabgacha

muassasalarda, umumta'lim maktablarida, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida, mehnat jamoalarida bu g'oyat qimmatli fazilatni har bir shaxsda shakllantirish ishini yaxshiroq bilib olishga ko'maklashadi.

Ma'lumki, tarixiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Shu o'rinda ijtimoiy ongga ta'rif berib o'tish maqsadga muvofiq:

Ijtimoiy ongga bir qancha ta'riflar berilgan, ularni umumlashtirgan holda, quyidagicha ta'rif berish mumkin: ijtimoiy ong ijtimoiy borliqning ma'naviy in'ikosi sifatida ijtimoiy tuyg'ular, hissiyot, farazlar, nazariyalar, kayfiyatlar, g'oyalar va qarashlar, odatlar va an'analar tizimidir.

Ijtimoiy hayot rang-barang, xilma-xil bo'lgani uchun ijtimoiy ong ham tegishlicha turli shakllarga bo'linadi. Bular: iqtisodiy ong, siyosiy ong, huquqiy ong, axloqiy ong, estetik ong, ekologik ong bo'lib, biz yana tarixiy ongni, ongning elementi sifatida, shu jumladan tarixiy ongning muhim elementi sifatida tarixiy xotirani ham bunga qo'shish mumkin. Ijtimoiy ongning barcha shakllari o'zaro bog'liq, o'zaro munosabatda, o'zaro birikadi va bir-birini o'zaro to'ldiradi.

Ijtimoiy ong shakllaridan bo'lgan tarixiy ong va tarixiy xotira murakkab hamda serqirra hodisadir. Tarixiy ongga, shuningdek uning tarkibiy qismi bo'lgan tarixiy xotiraga, ularning o'zaro hamda ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan aloqasiga ko'plab ta'riflar berilgan.:

"Tarixiy ong, bu – har qanday bilimda bo'ladigan, hamma narsa, hatto ma'naviy borliq ham bo'lib o'tganligini anglashdir".

"Tarixiy ong ijtimoiy ong shakli bo'lib, jamiyat tomonidan o'zining kelib chiqishi va zamondagi o'mi, o'tmishi, bugungi kuni va kelajagi o'rtasidagi aloqadorlikning anglanishi, ijtimoiy vogelikning obyektiv idrok etilishidir".

Tarixiy ong "ilgari sodir bo'lgan tarixiy voqealarni o'zida aks ettirgan turlituman manbalar, ashyolar avloddan avlodga meros sifatida o'tib, tariximiz, madaniyatimizning uzlusizligini ta'minlaydi".

"Ilm-fanda tarixiy ong deganda odatda ijtimoiy guruqlar, sinflar, xalqlar, millatlarda o'zining kelib chiqishi, o'z tarixidagi muhim voqealar va o'tmishdagi buyuk arboblar haqida, o'z tarixinining boshqa kishilik jamoalari va umuman bashariyat hamjamiyati tarixi bilan nisbati haqidagi qarashlar, an'analar, udumlar, odatlar, konsepsiylar mujassami tushuniladi".

Shu ma'noda aytish mumkinki, tarixiy xotira – ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning kishilar ongi va kundalik amaliy faoliyatida qayta namoyon bo'lishi, eslanishi, qadrlanishi bo'lsa, ijtimoiy xotira ajdodlarning ijtimoiy tuyg'ulari, hissiyotlari, farazlari, nazariyalari, kayfiyatlar, g'oyalari va qarashlari, odatlari va an'analaring avlodlar ongi va faoliyatida qayta namoyon bo'lishi, eslanishi, qadrlanishidir.

"Insonni butun insoniyat yaratgan moddiy va manaviy boyliklar bilan bog'lab turadigan, uning ongi va kundalik amaliy faoliyatiga ruhiy manaviy ozuqa beradigan qudrat tarixiy xotiradir". Shuningdek adabiyotlarda "tarixiy ong ijtimoiy xotiraning tarkibiy qismi, uning elementlaridan biridir", degan fikr ham mavjud. Bizning fikrimizcha, tajribadan ko'rinishicha, "tarixiy ong" tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra, "ijtimoiy xotira" tushunchasi bilan qiyoslaganda, unga nisbatan ancha keng tushunchadir, chunki yuqorida aytib o'tganimizdek, "xotira" tushunchasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan va yana ta'kidlaymizki, birgalikda tizim sifatidagi "ong"ni tarkib toptiradigan o'zaro bog'langan ko'plab elementlardan, shu jumladan xotiradan ham iborat bo'lgan ancha kengroq bo'lgan "ong" tushunchasining muhim, aytishimiz mumkinki, hatto markaziy elementi hisoblanadi. Bunda ong tizimidagi xotira – "kechinmalar ongdan so'ng idrok etish va tasavvur etishni saqlab qolish qobiliyati; xotira (obrazli ifodalaganda) saqlovchi xonani ham bildiradi".

Ayni mahalda shuni nazarda tutish zarurki, "ijtimoiy ong – bu obyektiv olam va ijtimoiy borliqning kishilar ongida aks etishidir. Shunday ekan, har bir xalq, elat va millat o'zining ijtimoiy hayotini aks ettiradigan etnik ongga egadir. Mazkur etnik ongning tarkibiy qismini urug', qabila, elat va millatlarning ongi tashkil etadi. Etnik ong ijtimoiy ongga nisbatan konkret tushuncha bo'lib, unda urug', qabila, elat, millatlarning ijtimoiy hayoti, madaniyati, urf-odat va an'analari, tarixi, ijtimoiy psixologiyasi, dunyoqarashi aks etadi.

Yuqorida bayon etilganlardan tashqari, tarixiy ong tizimida xotira "nafaqat tarixiy xotirani saqlaydi, balki inson ongida shakllangan bilim asosida o'tmishda ro'y bergan voqealarni tahlil etadi, xulosa chiqaradi, xarakterli tomonlarini qabul qiladi, turmushga joriy etadi va jamiyatning hozirgi sharoiti bilan solishtirib, qadrini belgilaydi".

Bizningcha, ong va tafakkur – jarayon, xotira esa qobiliyatdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy ongning barcha shakllari

o'zaro uzviy bog'langan, bir-biri bilan munosabatda bo'ladi, bir-birini o'zaro boyitadi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan yuqoridagi ta'rifu talqinlardan kelib chiqib aytish mumkinki, tarixiy ong bilimlar, tasavvurlar, qarashlar, an'analar, marosimlar, urf-odatlar, g'oyalar, konsepsiylar, fikrlarning shunday yig'indisini, majmuini tashkil etadiki, ular vositasida individlarda, ijtimoiy guruhlarda, xalqlarda, millatlarda o'zining kelib chiqishi, o'z tarixidagi eng muhim voqealar va o'tmishdagi buyuk arboblar to'g'risida, o'z tarixining kishilarning boshqa mushtarakligi, shuningdek inson sotsiumi va o'zining undagi o'mi bilan nisbati to'g'risida muayyan tasavvur paydo bo'ladi.

Tarixiy ong – o'tmishni uning umuman jamiyatga, xususan turli ijtimoiy-demografik, ijtimoiy-professional, etnoijtimoiy, etnokonfessional guruhlarga, shuningdek alohida individlarga xos bo'lgan butun rang-barangligini hisobga olgan holda baholash hamdir. Bizningcha, tarixiy ong jamiyat, uning ijtimoiy guruhlari va individlarning o'z o'tmishi hamda butun insoniyat o'tmishi haqidagi tasavvurlari yig'indisidir. Tarixiy ongda o'tmish, bugun va kelajak uyg'unlikda in'ikos etiladi.

Etnik va ijtimoiy xotirada etnik xususiyatlar va tarixning namoyon bo'lishi. Inson o'zining etnik va ijtimoiy xotirasiga ega bo'lmasdan turib, hayotida sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning mohiyatini tushunib yetolmaydi. O'z kelajagini tasavvur qila olmaydi. Insoniyat avlodlarining o'zaro aloqadorligi natijasida vujudga kelgan qadriyatlar, ya'ni ajdodlar va avlodlarning ruhiy-ma'naviy merosi umuminsoniy madaniy meros xazinasiga qo'shiladi va asta-sekin etnik va ijtimoiy xotiraga aylanib boradi.

Abu Nasr Forobiyning tushuntirishicha, etnik va ijtimoy xotira har bir millat, har bir xalq yaratgan ma'naviy boyliklar, umuminsoniy madaniy meros bilan birlashganda, umuminsoniy madaniy meros xazinasiga qo'shilgan paytdagina sodir bo'ladi. Uning yozishicha: "Odamlarning bir avlod o'lib ketgach, ularning jismlari yo'q bo'lib ketadi, ammo ruhlari vujud (qiyofasi)dan qutulib, saodatga erishadilar. So'ng boshqalar ularning o'rnini egallab, ular qilgan ishlarni qiladilar. Bu avlod odamlari ham dunyodan o'tgach, xuddi shunday yo'l bilan ruhlari avvalgilarning izidan borib, qiyofalari (fe'l va fazilatlari), quvvati va sifati o'xshash, yaqin ruhlar bilan qo'shilishlari mumkin".

Etnos, bu biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir. U kishilik taraqqiyoti ma'lum bir bosqichining hosilasidir. Etnos o'zining shakllanish jarayonida, ya'ni etnogenez bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy sabablarga ko'ra, uning tarkibiga yangidan-yangi etnik qatlamlar qo'shilib boradi. Bu tabiiy hol. Dunyoda hech bir xalq yo'qki, u o'z etnogenez jarayonining ilk bosqichlaridan to millat darajasiga ko'tarilgunicha boshqa etnik qo'shilmalarsiz rivojlangan bo'lsa. Demak, yer yuzining barcha xalqlari kelib chiqishi jihatidan ko'p etnik qatlamlidir.

Har bir xalqning etnik tarixini o'rganish etnik birlikning shakllanish jarayonini ilk bosqichdan boshlashni taqozo etadi. Har bir xalqning etnik tarixi bilan shug'ullanganda nafaqat etnik birlikning boshlang'ich jarayonini, balki uning keyingi davrlarini, unga hos etnik belgi va alomatlarni aniqlab, o'rganib borishlik talab etiladi. Etnik birlik belgilari bir vaqtida paydo bo'lmaydi, balki etnogenez jarayoni davomida bosqichma-bosqich tarkib topib boradi. Etnos belgilari orasida til birligi, etnomadaniy birlik va o'zlikni anglash birligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Har qanday ijtimoiy mushtaraklik o'zining kelib chiqishi, o'z tarixidagi eng muhim voqealar, o'tmishdagi buyuk (ba'zan unchalik buyuk bo'lмаган) arboblar to'g'risida, o'z tarixinining insoniyat tarixidagi o'mi haqida, o'z tarixinining boshqa xalqlar tarixi bilan nisbati to'g'risida muayyan tasavvurlar tizimiga ega. Bu tasavvurlar, birinchi navbatda, turli tarixiy rivoyatlar, hikoyatlar, afsonalar, ertaklar, asotirlar tufayli mavjud bo'lib, ular jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismini tashkil etadi hamda uning o'zini ifodalashi va o'zini qaror toptirishining muhim usullaridan biri hisoblanadi.

Tarixiy ong, ijtimoiy ongning boshqa shakllari singari, tarkiban murakkabdir.

Tarixiy ongning birinchi (quyi) darajasi odatdagidek usullarda shakllanadi va unga muvofiq keladi. Shakllanish jarayoni bevosita hayotiy tajribani to'plash asosida yuz beradi. Ya'ni kishi butun hayoti davomida muayyan voqealarни kuzatadi, ularda ishtirok etadi. Ular to'g'risida to'plangan taassurotlar, hodisalar, ular haqidagi fikrlar vaqtি kelib xotira bo'lib jamlanadi. Tarixiy ongning quyi bosqichidagi odatiy ong egalari bo'l mish individlar ham uni tizimga solishga, butun tarixiy jarayonning qismi sifatida baholashga qodir emaslar. Bu daraja, odatda, ko'pincha noto'liq, noaniq, subyektiv bo'lgan qandaydir noravshan, hissiyotga to'liq esdaliklar hamda tasavvurlardan iborat bo'ladi.

Tarixiy ongning navbatdagi darajasi avvalgi darajadagiga nisbatan yaxshi rivojlangan shakldagi tarixiy xotirani o‘z ichiga oladiki, uni konkret faktlarga muayyan tarzda qaratilgan, o‘tmish haqida axborotning ahamiyati hamda dolzarbligini hozirgi va kelajak zamon bilan chambarchas aloqada aks ettiruvchi sifatida ta’riflash mumkin.

“Tarixiy xotira selektiv xususiyatga egaligi tufayli ularni (tarixiy ong elementlarini) saralay oladi, bir tizimga solishga xizmat qiladi” yoki “tarixiy xotirada san’at, urf-odat, marosimlar bilan bog‘liq axborotlar saralangan tarzda jamlanadi va saqlanadi”.

Badiiy adabiyot, san’at asarlarida tarixiylik va tarixiy xotira. Tarixiy xotira nomsiz xalq ijodiyoti, tarixiy rivoyatlar, dostonlar, afsonalar, qahramonlik eposi, ertaklar badiiy adabiyot va san’at namunalarini yordamida shakllanadi.

Odatda, xalq ijodiyotida buyuk kishilar jasorati va qahramonligi, ezungulikning yovuzlik ustidan g‘alabasi kuylanadi. Tarixiy xotira, tarixiy ongning zaruriy muhim, aytish mumkinki, markaziy elementini, xalq ma’naviy hayotining ajralmas qismini tashkil qiladi va shuningdek, uning o‘zini o‘zi ifodalashi hamda milliy xarakter xususiyatlari namoyon bo‘lishi usulidir. Bunda o‘z o‘tmishini tanlashga, uni qahramonona miflashtirishga moyillik ko‘rinib turadi. O‘tmishning ahamiyati va uning talqini vatanparvarlik, o‘zining ushbu birlikka mansubligidan faxrlanish tuyg‘usi singari fazilatlarning shakllanishiga xizmat qilishi tufayli ushbu hol yuz beradi.

Shuning uchun tarixiy xotira ko‘pincha tarixiy shaxslar, o‘tmish yetakchilari faoliyatini baholash orqali shaxsiylashtiriladi, biron-bir tarixiy voqealari, davrlari, umuman o‘z tarixi to‘g‘risida taassurotlarni, mulohazalarni, fikrlarni shakllantiradi.

Ikkinci darajadagi tarixiy ong ham muhim, ham tasodifiy hodisalarini qamraydi, ham bir tizimga solingen axborotni, ham tartibga keltirilmagan axborotni o‘z ichiga oladi.

Tarixiy ongning amal qilishida tasodifiy axborot muhim rol o‘ynaydi. Uni ko‘pincha kishi atrofidagi odamlar madaniyati, shuningdek ijtimoiy guruh, birlik, mamlakat, davlatning hayoti to‘g‘risidagi tasavvurlarini o‘z ichiga oladigan an‘analar, urf-odatlar taqozo etadi.

Tarixiy ongning ushbu darajasida an‘analar kattalarning hatti-harakatiga taqlid qilish vositasida yosh avlodga o‘tkaziladi, axloqiy an‘analar muayyan xulqatvor

ko‘rinishini kasb etadi. Axloqiy an’alar “xalqning qalbi” deb yuritish rasm bo‘lgan narsaning asosini tashkil qiladi. Tarixni bilish bir tizimga solinmagan, unga asotirona elementlar hamda sodda hissiy baholashlar xosdir. Biroq tarixiy ong va tarixiy xotiraning ushbu darajasini tarkib toptiruvchilar jamuljam holda milliy xarakterning asosi bo‘lib, uning barqaror xususiyatlarini, shuningdek insonning xatti-harakati, odatlari, hissiyotining namoyon bo‘lishini belgilab beradi.

Shunday qilib, tarixiy ong va tarixiy xotira inson tomonidan oilaviy shajarasidagi, o‘z xalqi tarixidagi o‘zining “Men”ini anglashining, o‘zining “Men”ini va umumiy “Biz”ni milliy va madaniy birlik ma’nosida, umuminsoniy madaniyatda tushunishining asoslaridan birini tashkil qiladi.

Tarixiy ongning yangi bosqichi ma’naviy madaniyat ta’siri ostida shakllanib, rivojlanishi mumkin. Ma’naviy madaniyat badiiy adabiyotni, kino, radio, televideniye, teatr, rang-tasvir, shuningdek tarixiy obidalarini o‘z ichiga oladi. Biroq tarixiy ongning ushbu darajasida shakllantirilgan tasavvurlar xronologiya jihatidan uzuq-yuluq, betartibligicha qolaveradi, yorqinligi va emotSIONalligi bilan farqlanib turadi. Bu tasavvurlar butun umr davomida saqlanib qolishi mumkin. San’at rang-barang go‘zal turlari bilan insonga ulkan hissiy ta’sir ko‘rsatishga qodir. Bu esa yozuvchi, dramaturg, rejissyor, rassomga ularning asarlari tarixiy jihatdan haqiqat va to‘g‘ri bo‘lishi uchun katta mas’uliyat yuklaydi, asarlarning ahamiyatini oshiradi. Ayni mahalda tarixiy ong bu darajada ham tarixiy jarayonni tizimli bilishga aylanmaydi.

Adabiyot, san’at va, ayniqsa, globallashuv sharoitida bosma va elektron ommaviy axborot vositalarining jamiyatning tarixiy ongini, fikrlarini, tavajjuhi va antipatiyasini shakllantirishdagi roli juda ulkan, lekin bu ular jiddiy tarixiy bilimlar manbai bo‘lib xizmat qiladi, degani emas. Ular ko‘pincha o‘tmishning sun‘iy yaratilgan talqini modelidan iborat bo‘ladi. Bunday tasavvurlar ommaviy ong tomonidan qo‘llab-quvvatlangudek bo‘lsa, ular jamiyatning bosqichma-bosqich rivojlanishiga tahdid solishi mumkin. Xalqlar uchun muhim bo‘lgan ko‘plab hodisalar, oshkora, ba’zan esa murosasiz munozaraga, hatto, boshqa xalqlar vakillarining to‘qnashuviga olib kelib, umuman tarixiy ongning, shuningdek tarixiy xotiraning juda salmoqli omili bo‘lishi mumkin. Shuning uchun e’tibor qilinadigan narsani to‘g‘ri tanlash va tarixiy hodisalarni to‘g‘ri talqin qilish, birinchi navbatda, xalqlarning bag‘rikenglarcha hamkorlik qilishiga ko‘maklashadi. Aks holda uzoq

saqlanib qolish, ijtimoiy keskinlikni yuzaga keltirish va mojarolarni keltirib chiqarish qobiliyatiga ega bo‘lgan ehtiyojkorlik, noto‘g‘ri xulosa chiqarish, salbiy qarash singarilar hosil bo‘ladi.

Muayyan miqdordagi aholining tarixiy ongi va tarixiy xotirasi o‘tmish avlodlardan qolgan uzuq-yuluq ilmiy bilimlar, sodda tasavvurlar va baholar, an‘ana va urf-odatlarning murakkab qorishig‘idan iborat. Ular kishi ma’naviy olamini boyitishga yordam berishi so‘zsiz, biroq soddaligicha qolaveradi, ularga ilmiy teranlik, tarixiy jarayonlarni harakatlantiruvchi kuchlarni tushunishi, o‘zlarining hatto oddiy bilimlaridan konkret siyosiy vaziyatlarni tahlil qilishda foydalana bilish mahorati yetishmaydi. Tarixiy ong shakllanishining ushbu bosqichlarida inson ham nazariy formulalardan, falsafiy va sotsiologik kategoriyalardan foydalanmaydi, balki ko‘proq amaliy turmushdagi “birlamchi fikrlash shakllarini” ishga soladi.

Bunday sharoitda tarixiy ongni ilmiy asosda shakllantirish hamda rivojlantirish masalasi keskin ko‘ndalang bo‘ladi. Shuningdek, bunga qo‘srimcha o‘tmish to‘g‘risidagi, uning hozirgi zamon bilan uzviy aloqasi hamda jamiyatni kelajakda rivojlantirishning ehtimol tutilgan tamoyillari to‘g‘risidagi tasavvurlarning muayyan tizimini tarkib toptiruvchi tarixiy bilimlar yordamida erishish mumkin. Bunday bilimlarni tarixni muntazam va chuqur o‘rganish jarayonida egallah mumkin.

Tarixiy jarayon to‘g‘risidagi muntazam bilimlar matabda ijtimoiy fanlarni o‘zlashtirishda egallanadi, bunda o‘quvchilar o‘tmish to‘g‘risida ilk bor bir tizimga solingen tarzda tasavvur hosil qiladilar.

Zero, mamlakat, xalqning asosiy rivojlanish davrlarini obyektiv tarzda in’ikos ettiruvchi tarixiy ong, tarixiy xotira muntazam, to‘liq, his-tuyg‘uga berilmay va tarixiy faktlar o‘rniga hayolot va tusmollar keltiriladigan soxtalashtirishga urinishlarsiz beriladigan obyektiv tarixiy axborotsiz shakllanmaydi.

O‘z xalqining tarixiy o‘tmishi uchun iftixor tarixiy ong va tarixiy xotiraning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, uning milliy qadr-qimmatini shart qilib qo‘yadi. Ushbu fazilatlardan mahrumlik buzuq psixologiya shakllanishiga olib keladi: kishilarda o‘zining norasoligi hissi, kamsitilganligi, istiqboli yo‘qligi, xafsalasi pir bo‘lishi, ruhiy noqulaylik hissi yuzaga keladi.

To‘rtinch (oliy) bosqichda tarixiy ong va tarixiy xotira o‘tmishni har tomonlama nazariy tushunish negizida, tarixiy rivojlanish tamoyillarini aniqlash darajasida shakllanib, rivojlanadi. Tarix hamda boshqa fanlar tomonidan o‘tmish

to‘g‘risida to‘plangan bilimlar, umumlashtirilgan tarixiy tajriba asosida ilmiy dunyoqarash shakllanadi hamda rivojlanadi, tabiat hamda kishilik jamiyatini rivojlantiruvchi kuchlar, uni davrlashtirish, tarix mazmuni, ijtimoiy rivojlanish tipologiyasi, modellari to‘g‘risida ozmi-ko‘pmi aniq tasavvur hosil qilishga uriniladi.

Shunday qilib, tarixiy jarayonning ma’naviy jihatini tashkil qiluvchi ijtimoiy ong elementi bo‘lmish tarixiy bilimni tizimli tarzda, uning barcha bosqichlari hamda darajalarida qabul qilish zarur, chunki tizimli yondashuv�iz tarixiy ong haqidagi tasavvurlar to‘liq bo‘lmaydi. Mamlakat tarixiy xotirani yo‘qotar ekan, kelajakdan mahrum bo‘ladi. Kelajak nafaqat orzu yoki istak, balki bilish predmeti ham bo‘lgani uchun o‘tmishni, masalan, O‘zbekiston tarixini tushunish jarayoni uning zaruriy elementi hisoblanadi. Bu uning o‘tmishni bilish bo‘g‘inigina bo‘lmay, balki kelajagini prognoz qilishning tarkibiy qismi hamdir.

Tarixiy ong va tarixiy xotira ko‘plab fanlarni, ayniqsa eng avvalo, tarixni o‘rganish jarayonida shakllanadi. Tarixiy ong va tarixiy tajriba har qanday jamiyat uchun ulkan nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega.

“Xotirasiz biz oniy mavjudot bo‘lib qolardik – deb hisoblaydi S.Rubinshteyn, – o‘tmishimiz kelajak uchun o‘lik bo‘lib qolardi. Hozirgi kun, o‘tishiga ko‘ra, o‘tmishda qaytmas bo‘lib yo‘qolib ketardi”⁴. Ko‘rinib turganidek, sabablar yetarlicha ishonchli, lozim darajada aniq-ravshan va muayyan ma’noda, oljanob hamdir, chunki kishilarning o‘z mamlakatining to‘la ma’nodagi fuqarosi bo‘lish ehtiyojiga javob beradi. Bunda identifikatsiya (o‘z mamlakati, xalqi bilan bir bo‘lish) sabablari hamda obyektiv bilimlarga intilish ham bor, chunki bu hozirgi kunni yaxshi tushunish imkonini beradi, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda ko‘maklashadi. Aholi tarixni bilmasdan turib madaniyatli inson bo‘lish mumkin emasligini tushungani holda, tarixiy bilimlarni farzandlarni tarbiyalash vositasи deb hisoblaydi.

Kishilar mushtarakligi tarixiy ong va tarixiy xotira sharofati bilan, o‘z o‘tmishini bilish asosida, o‘zining jahon tarixiy jarayonidagi o‘mini bilish asosida o‘zini birlik sifatida anglaydi. Natijada tarix ijtimoiy ong bilan uzviy qovushib ketadi. Uning majmu holda jamiyat ongini (qarashlari, g‘oyalari, siyosiy va huquqiy ongi, tarixiy ongi, xotirasi, axloqi, dini, san’ati, fanini) tashkil qiluvchi barcha elementlari o‘z tarixiga ega. Ularni har bir hodisani kelib chiqqan konkret sharoit va vaziyatlar, rivojlanish sharoiti nuqtai nazaridan qarab chiquvchi tarixiy yondashuv asosidagina tushunish va bilish mumkin.

Xuddi shuning uchun ham hozirgi zamonning eng muhim muammolari bo'yicha munozaralarda doimo o'tmishga murojaat qilinadi. Zamonaviy ijtimoiy nazariyalar hamda mafkuraviy tizimlar o'tmishni baholash negizida ishlab chiqiladi. O'tmish bilan hozirgi zamonning uzluksiz aloqasi va vorisiyligi shu tariqa hosil bo'ladi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Tarixiy ong, etnik ong, ijtimoiy ong, tarixiy xotira, etnik xotira, tarixiy xotira darajalari, tarixiy xotiraning selektiv xususiyati, tarixiy ongni ilmiy asosda shakllantirish, tarixiy xotirada san'at, urf-odat, marosimlarning ifoda etilishi va hk.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Etnik xotira deganda nimani tushunasiz?
2. Tarixiy xotiraga umumiy tarzda ta'orif bering...
3. Tarixiy ong nima?
4. Prezident Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" asarlarida bu borada qanday fikrlar o'rtaga tashlangan?
5. Tarixiy va etnik xotirani qiyoslang...
6. Ijtimoiy xotira nima?
7. Ijtimoiy xotirada xususiy etnik vogelikni aks etishini izohlang...
8. Badiiy adabiyot, san'at asarlarida tarixiylik va tarixiy xotira qay tarzda namoyon bo'ladi?

18-§. Toponomika – etnos ongingining tarkibiy qismi

Toponomika – milliy o'z-o'zini anglash, etnik xotira va etnik ongning tarkibiy qismi. Yer yuzida mavjud bo'lgan har bir narsaning o'ziga xos atamasi bor. Insonlar uchun o'zlarining nomlari qanchalik zarur bo'lsa, o'z atrofida bo'lgan narsalarning nomlanishi ham shunchalik muhim hisoblanadi. Jug'rofiy obyektlarning nomlanishi shular jumlasidandir.

Jug'rofiy nomlar, ya'ni joy nomlari fanda toponimiya deb ataladi. **Toponimiya asli yunoncha so'z bo'lib, "topos" – joy va "onoma" – nom, ya'ni joy nomi degan ma'noni beradi.** Joylarning nomlanishi qanday paydo bo'lgan? Nima uchun joylarga nom qo'yiladi?

Insoniyat vujudga kelib, rivojlana boshlagan dastlabki vaqtданоq joy nomlariga ehtiyoj sezsa boshlagan. Bu ehtiyoj ularga joylarni bir-biridan farqlash,

o'zlariga kerak bo'lgan joy va manzilni topish zaruratidan kelib chiqqan. Agar joylarga biron bir nom berilmaganda, odamlarga yashash uchun ko'pgina qiyinchiliklar tug'ilardi. Shaharlar, qo'rg'onlar, qishloqlar, tumanlar, viloyatlar va hatto ko'chalar, mahallalar nomlanmasa, odamlar o'zlariga kerakli manzillarni topa olmas, pochta, telegraf va telefon stansiyalari esa ishlay olmas edi. O'z navbatida, bu holat transport harakatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lardi.

Joy nomlarining vazifasi hilma xil. Shulardan birinchisi va asosiysi kerakli manzilni aniqlash va topish vazifasidir. Lekin ularning yana bir muhim vazifasi bor. Joy nomlari ko'pgina jihatdan bizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ham berishi mumkin. Uning tarixiy, jug'rofiy va lisoniy (lingvistik) jihatdan beradigan ma'lumotlari shular jumlasiga kiradi.

Joy nomlari tarixiy o'tmishni o'zida aks ettirgan bir ko'zgudir. Ya'ni ular bugungi avlodda milliy o'z-o'zini anglash tuyg'usini shakllantiradi, etnik xotirani uyg'otib, etnik ongning tarkibiy qismiga aylanadi.

Ular bizga turli tarixiy xalqlar, elatlari, ularning urf-odatlari, yashash tarzi, kasb-korlari va boshqa xususiyatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Biz o'zimiz yashayotgan yerdagi joy nomlari orqali o'tmishda bu yerlarda kimlar yashaganligi, ular qaysi tilda gaplashganligi, qanday urf-odatlarga va diniy e'tiqodlarga amal qilganliklari, qaysi urug' va qabilaga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Shuning uchun ham tarixchilar, arxeologlar, etnograflar va tilshunoslar tez-tez joy nomlariga murojaat qilishib, ulardan o'zlariga zarur bo'lgan ma'lumotlarni olishadi.

Alisher Navoiyning "Tarixi muluki ajam" asari uning ajoyib tarixchi ekanidan darak beradi. Bu asarini yozar ekan, muallifning o'zidan ilgari o'tgan mashhur tarixchilar asarlarini qunt bilan o'r ganib chiqqani ko'zga yaqqol tashlanadi. Asarda Eronning afsonaviy va tarixiy hukmdorlaridan to'rt sulola – Peshdodiyilar, Kayoniylar, Ashkoniyilar va Sosoniylar hamda shu sulolalarning har biriga mansub bo'lgan podshohlar haqida alohida-alohida to'xtalib o'tadi. Va o'z o'mida podshohlar xususida so'z ketar ekan, ular yashagan, hukmronlik qilgan hududlar ham tilga olinadi.

Geografik joy nomlari har bir xalq tilida ma'lum qatlarni tashkil qiladi. Lekin toponimlar haqida ham kishi ismlari singari tadqiq ishlari olib borilmoqda. Toponimlar bevosita xalq tarixi bilan bog'liqidir. Ko'pchilik hollarda mikro va makrototonimlarda uzoq o'tmishning «belgi»lari saqlanib qoladi. Mana shu

«belgi»lar vositasida mazkur joy yoki millat tarixi yana qo'shimcha faktlar bilan boyiydi, xalq tasavvuridagi ayrim noto'g'ri xulosa, qarashlar faktlar asosida oydinlashtiriladi. Shuning uchun ham tilshunoslikda toponimik tadqiqotlar keng o'rinn olgan.

Alisher Navoiy asarlarida eski o'zbek adabiy tili lug'at sostavida boshqa turkumdag'i so'zlar ko'p uchragani singari, 295 ta geografik nomlar uchraydi.

Xususan, Alisher Navoiyning «Tarixi muluki ajam» asarida ham taxminan 100 ga yaqin geografik joy nomlari uchraydi. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

Eram – afsonaga ko'ra, xudolikni da'vo qilgan Shaddod ismli podshoning barpo etgan bog'i(200);

Yaman–Arabiston janubidagi mamlakat nomi(200);

Shodruvon – joy nomi(226);

Bahrayn – Fors qo'lting'idagi orol(210);**Haram** – Misr(200);**Amu** –Amudaryo, daryoning nomi(203);**Ummon** –Katta dengiz, hozirgi Arabiston dengizi(200);**Mag'rib**–O'rta asrlarda O'rta dengiz va Afrika al-Mag'rib deyilgan(bunda Jazoyir, Tunis, Marokash yerlari tushunilgan)(189); **Durri safid** – Erondagi qo'rg'on nomi (197);

Zobiliston — Xurosonning janubidagi viloyat nomi, Kobul atrofidagi yerlar, markazi Zovil(231);

Arab – Arabiston yarim oroli, Arab mamlakati(226);**Farg'ona** – Movarounnahrdagi o'lka va shahar nomi(225);**Makka** – Arabistondagi shahar va hk.

Har bir joy nomida ma'lum bir ma'no va mazmun bo'ladi. Lekin vaqt o'tishi bilan uning shakli o'zgargan bo'lishi mumkin. Mavjud geografik nomlarning kelib chiqishiga qarab shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

Joy nomlari guruhlari. Har bir joy nomida ma'lum bir ma'no va mazmun bo'ladi. Lekin vaqt o'tishi bilan uning shakli o'zgargan bo'lishi mumkin. Mavjud geografik nomlarning kelib chiqishiga qarab shartli ravishda quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Joyning holati, xosiyati, yer yuzasi va iqlimiga bog'liq nomlar.
2. Suv obyektlariga bog'liq nomlar
3. O'simlik va hayvonlarga bog'liq nomlar.
4. Foydali qazilmalarga bog'liq nomlar.
5. Kasb-hunardan olingan nomlar.

6. Xo'jalik buyumlaridan olingen nomlar.
7. Xalq, qabila va urug'larga bog'liq nomlar.
8. Aholining ijtimoiy axvoldidan kelib chiqqan nomlar.
9. Shaxslarning ism familiyalariga qo'yilgan nomlar.
10. Afsona va diniy nomlar.
11. G'aroyib nomlar.
12. Migratsion nomlar.
13. Xato nomlar.
14. Yangi zamon nomlari.

Joy nomlari o'z ijodkorlari bo'lmish insonlar kabi jonli bir jarayondir. U ham tug'iladi va ma'lum bir davr yashaydi. Vaqt o'tishi bilan uning shakli va shunga bog'liq ravishda mazmuni o'zgarishga uchraydi. U o'z umrini yashab bo'lgach, o'ladi. Joy nomlarining yashovchanligi ham turlichaligiga bo'ladi. Shunday nomlar borki, ular asrlar davomida yashab kelmoqda. Bu xususiyat yirik obyektlar nomlariga xos bo'lishi mumkin. Bunday obyektlar sirasiga tog'lar, tog' tizmalari, katta daryolar, aholisi ko'p bo'lgan yirik shaharlar va qishloqlarni kiritish mumkin.

1996 yil 31 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy – birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponomik obyektlarni tartibga solish to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorda joylarda toponomik obyektlarning eski tuzumga xizmat qiladigan xalqimizning tarixi milliy an'analaraiga bog'liq bo'lmagan nomlarning saqlanib turganligi qoralanadi va boshqa nomlar almashtirish lozimligi, bu ishni boshlash va tugallashni aniq muddati belgilandi.

Joy nomlarining o'ziga xos xususiyatlari. Shunday nomlar bo'ladiki, ular yaratilgandan so'ng ma'lum bir davr yashaydi va turli voqealardan ta'sirida o'z umriga xotima yasaydi. Davr sinoatlariga dosh berolmay faqat joy nomlarigina yo'qolmaydi, balki ularning ijodkorlari bo'lgan xalq va uning tili ham yo'qlik sari yuz tutishi mumkin. Yer yuzidan ma'lum xalqning yoki tilning yo'qolishi, o'z navbatida, joy nomlarining taqdiriga ham katta ta'sir ko'rsatadi. O'sha xalq tomonidan yaratilgan joy nomlari vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketishi yoki keyingi til vakillarining talaffuzi natijasida kuchli fonetik o'zgarishga uchrab, tushunarsiz holga kelib qolishi mumkin.

Bizga tarixdan ma'lumki, o'lkamiz hududida o'tmishda qadimgi xalqlarga mansub bo'lgan sug'dlar, saklar, massagetlar, xorazmiylar, paraganiylar, baqtriyaliklar

yashab o'tishgan. Lisoniy tadqiqotlarning ko'rsatishicha ular sharqiy eroniy tillar sirasiga kiruvchi qadimgi til va lahjalarda so'zlashishgan. Bu tillar umumiy tarzda sug'd, baqtriya va xorazm tillari deb ataladi. Bu tillar o'zlarining lisoniy xususiyatlariga ko'ra bir-biriga yaqin tillar bo'lib, uning sohiblari bo'lган xalqlar o'zları yashagan hududdagi joylarni, geografik obyektlarni shu tillar doirasida nomlaganlar.

Ular bizga turli tarixiy xalqlar, elatlar, ularning urf-odatlari, yashash tarzi, kasb-korlari va boshqa xususiyatlari to'g'risida ma'lumot beradi. Biz o'zimiz yashayotgan yerdagи joy nomlari orqali o'tmishda bu yerdarda kimlar yashaganligi, ular qaysi tilda gaplashganligi, qanday urf-odatlarga va diniy e'tiqodlarga amal qilganliklari, qaysi urug' va qabilaga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Shuning uchun ham tarixchilar, arxeologlar, etnograflar va tilshunoslar tez-tez joy nomlariga murojaat qilishib, ulardan o'zlariga zarur bo'lган ma'lumotlarni olishadi.

Keyingi davrlarda sodir bo'lган turli tarixiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy voqeа-hodisalar oqibatida bu xalqlar va ularning tillari yo'qolib ketgan. Ulardan qolgan joy nomlarining aksariyati ham yo'qolgan, o'mniga boshqa nomlar paydo bo'lган. Ularning faqat bir qismigina turli fonetik o'zgarishlar bilan bizning davrimizga qadar yetib kelgan. Buxoro, Samarqand, Xiva, Urganch, Xorazm, Termiz, Farg'ona, Namangan, Qo'qon, Koson, G'uzor, Romitan, Vobkent, Shopirkon, G'ijduvon kabi shahar nomlari; Abron, Kamandi, Lagandi, Parg'uza, Vatkana, Zachkana, Varganza, Vardon, Gushman, Navmetan kabi aholi maskanları nomlari shular jumlasidandir.

Nomlangan obyekt qanchalik katta bo'lsa, uning nomi ham shunchalik turg'un bo'ladi. Ular kichik obyekt nomlariga qaraganda nisbatan uzoqroq yashashi mumkin. Ularga boshqa geografik obyektlar qatori daryo nomlarini ham kiritish mumkin. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lган katta daryolar sirasiga kiruvchi Amudaryo, Sirdaryo, Qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, Chirchiqdaryo kabilar juda qadimiy bo'lib, ular o'z hayotlari davomida ko'plab nomlarning sohibi bo'lganlar.

O'lkamizning eng yirik daryosi hisoblangan Amudaryoning o'tmishda Vahrud, Vaxsh, Ob, O'kuz, Oks, Oksus, Arang, Jayxun, Obi Omuya kabi nomlar bilan atalganligi tarixiy yozma manbalarda bitilgan. Kattaligi jihatidan o'lkamizning ikkinchi daryosi hisoblangan Sirdaryoning nomlari esa yana ham ko'proq bo'lган. Qadimgi yozma manbalarda uning Yaksart, Qasart, Xasart, Qonqa, Choch daryosi, Gulzaryuun, Yanji o'g'uz, Sayxun, Banokat daryosi kabi nomlari tilga olingan. Zarafshonning esa Jirt, Jon, Nomiq, Obi kuhak, Sug'd daryosi, Xo'jand suyi, Daytiya singari nomlar bilan

atalgani tarixiy yozma manbalarda bitilgan. Qashqadaryo ham tarixiy yozma manbalarda Keshkrud, Keshrud, Tum, Dumo kabi nomlar bilan tilga olingan.

Azaldan turli shaharu qishloqlar, mahallayu ko'chalar, bog'lar, tog'lar, ummonu daryolargacha turfa nomlar bilan atalib keligan. Joy nomlarini tanlashda donishmand bobokalonlarimiz ular mazmun mohiyatiga jiddiy e'tibor bilan qaraganlar. Biror joyga shunchaki nom qo'yilmagan. Ko'p hollarda joylar tabiat, manzarasi, odamlarining mashg'ulotlariga mos nom tanlangan.

Ma'naviy qadriyatlar orasida joy nomlarining ahamiyati beqiyos. Joy nomlari – mahalliy aholining betakror ma'naviy merosidir. Beqiyos ma'naviy boyliklarimiz bisoti bo'lган mahallalarimizda nafaqt nomlar, balki yana o'nlab asl qadriyatlar ham saqlanib keladi. Ajdodlardan meros mahallalar aslida qadimiy qadriyatlar beshigidir. Mahalla avvalo odamlar boshini qovushtiradigan maskan hisoblangan. Mamlakatimizda mahalla faoliyatiga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda ajdodlarimizning ana shu ibratli ishlarini izchil davom ettirish ham farz, ham qarzdir.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Toponomika, joy nomlari, joy nomlarini guruhlarga bo'lish, joy nomlarining vazifasi, qatag'on qilingan xalqlarning etnik ongi, toponomika va o'z-o'zini anglash, mahallalarning nomlanishi, svoyet davrida joy nomlariga munosabat

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Toponomika nima?
2. Mayjud geografik nomlarning kelib chiqishiga qarab shartli ravishda qanday guruhlarga bo'lish mumkin?
3. Alisher Navoiy asarlarida nechta geografik nomlar uchraydi?
4. Joy nomlanishining yosh avlod milliy g'ururini yuksaltirishdag'i ahamiyati qanday?
5. 1996 yil 31 mayda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qanday qarori e'lon qilindi?
6. Qatag'on qilingan xalqlarning ijtimoiy ongida toponomik nomlar qay tarzda ifodalanadi?
7. Qatag'on qilingan xalqlarning etnik ongidan ular yashagan hududning geografik nomining yo'qotilishi sabablarini izohlang...
8. Joy nomlarining ma'naviy qadriyatlar orasidagi ahamiyati qanday?

**ETNOMADANIYATGA OID ATAMA VA TUSHUNCHALARING IZOLI
LUG'ATI**

Etnomadaniyat	Biror xalqning kelib chiqishi (bu borada o'zbek xalqi), uning madaniyati, turmush tarzi, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini tarixiy jarayon (davr)larda ravnaq topib, hozirgi kunimizgacha rivojlanib kelayotgan ma'naviy hamda madaniy merosini o'rganadigan fan.
Etno	Elat, xalq demakdir va shu bilan birga, ma'lum bir elat yoki xalqqa bo'lgan ishora, ko'rsatuv.
Etnografiya	Biror xalqning kelib chiqishi (etnogenezi).
Etnonim	Xalq nomi yoki xalq nomini ifodalovchi so'z sifatidagi atama.
Etnonimka	Leksikologiyaning xalq, qabila hamda urug'chilik nomlarini o'rganishga qaratilgan bo'limi
Etnograf	Etnografiya fani bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan mutaxassis.
Madaniyat	Bu so'zning talqini kishilar hayotini ikki turdag'i ko'rinishi, ya'ni ko'chmanchi-dashtu-sahrolarda yashovchi xalqlar hamda shaharda yashab, shaxarga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatalib kelingan.
Madaniyat	<i>Jamiyat va inson tarixiy tarqqiyotining muayyan bir darajasi, kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek ular yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari.</i>
Madaniy meros	O'tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma'naviy madaniyat boyliklari majmui.
Zardo'sht	Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining islomgacha bo'lgan dini-zardushtiylik hamda uning asoschisi.
Tarixiy manba	O'tmishdan qolgan hamda jamiyat hayotining ayrim bosqichi yoki tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan moddiy va ma'naviy yodgorliklar.
Ashyoviy manbalar	Ashyoviy manbalarga qadimgi odamlarning manzilgohlari, binolar, turli inshoatlar, mehnat qurollari va turli buyumlar.
Etnografik manbalar	Xalqlarning kelib chiqishi, turmush tarzi, ma'naviy hayotini, sodir bo'lgan va bo'layotgan etnik jarayonlarni o'zida aks ettirgan materiallar.
Fol'klor manbalar	Xalq og'zaki ijodi orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan turli rivoyatlar, asotirlar, xalq dostonlari va maqollarda tarixning u yoki

	bu tomonlari aks ettirgan manbalar.
Lingvistik manbalar	O'zbek tili va boshqa tillarning leksik tarkibida mavjud bo'lgan va hozir ham mavjud atamalar va toponimlar (joy nomlari)ni tadqiq etish jarayonida qo'liga kiritilgan qimmatli tarixiy materiallar.
Fotohujjatlar	Fotograf hamda kino san'ati paydo bo'lgandan so'ng vujudga kelgan, tariximizning turli lahzalarini jonli tarzda gavdalantiradigan tarixiy manbalarning yangi bir guruh.
Fonohujjatlar	Grammafon plastinkalari hamda magnit tasmalarga yozib olingan nutqlar, suhbatlar, adabiyot va san'at asarlari.
Yozma manbalar	Tarixiy manbalarning muhim va asosiy qismi hisoblangan, qoyalarga, taxta va matolarga, pergament qog'ozlarga yozilgan bitiklardan iborat bo'lgan manbalar.
Urf-odat	Kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikmasi.
An'ana	Ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab olgan tushuncha.
Marosim	Inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatda o'tadigan, umum qabul qilingan tartib-qoidalarga amal qilinadigan tadbir.
Xalq o'yinlari	O'zining vujudga kelishi va rivojlanishiga ko'ra g'ayri oddiy hodisa emas, balki xalqning hayotini muayyan aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyotining qonunlari bilan belgilanadigan maqsadli faoliyat.
O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi	O'zbek xalqining asrlar davomida ijodkor farzandlari tomonidan yaratilgan madaniy merosi.
Folklor	Inglizcha so'zdan olingan, "xalq donoligi", "xalq donishmandligi" ma'nolarini anglatuvchi tushuncha.
Qadimgi davr folklori	Qadim zamonlardan to X asrga qadar yaratilgan va ijro etilgan folklor asarlari.
Mif	Ibtidoiy jamoa a'zolari tomonidan olam va odamning paydo bo'lishi haqida to'qilgan eng qadimgi hikoyalar.
Totemizm	ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lgan dinning alohida shakli, odamning ko'pincha bir hayvon yoki o'simlik bilan aloqasi borligi haqidagi ishonch - e'tiqodi.

<i>Fetish</i>	Qadimgi ajdodlarimiz topingan jonsiz narsa – predmetlar.
<i>Animizm</i>	Insonning tabiatdagи g‘ayri tabiiy voqeа-hodisalarga ishonch bildirish xususiyati bilan bog‘liq e’tiqod.
<i>Axuramazda</i>	Yaxshilik, yorug‘lik, obodonchilik va ezgulik kuchlarining ma’budi.
<i>Ahriman (Angra Manyu)</i>	Barcha yozuvlik va yomonlikning rahnamosi.
<i>Epos</i>	Rivoyat, hikoya, qo’shiq so‘zidan iborat bo‘lgan, badiiy adabiyotda voqeа, hodisani bayon qilish, hayotiy lavhaning tafsilotlarini ifodalash.
<i>Maqol</i>	Xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so‘zlar.
<i>Doston</i>	Fors tilidan olingan, “qissa”, “hikoya”, “tarix” ma’nolarini ifodalovchi tushuncha.
<i>Xalq teatri</i>	Paydo bo‘lishi ovchilik, dehqonchilik, xalq bayram va boshqa ommaviy marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan xalq og‘zaki ijodining yana bir serqirra san’at turi.
<i>Tarbiya</i>	Asli arabcha so‘z bo‘lib, “parvarish qilish, ta’lim berish, o‘rgatish” degan ma’noni anglatuvchi tushuncha.
<i>Xalq pedagogikasi</i>	Xalqimizning ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotining barcha tomonlarini – xalq donishmandligi va odobnomasini, xalq og‘zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo‘nalishlarini, shu bilan birga diniy-axloqiy ta’limotni ham qamrab oluvchi tushuncha.
<i>Bayram</i>	Biror-bir muhim hodisa, voqeа, sanani ko‘pchilik bo‘lib, ko‘tarinkи ruhda, kuy-qo’shiq, xursandlik bilan nishonlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўгрисида //Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., б-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда, 23-сон, 448-модда, 37-сон, 982-модда.
2. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб қатъият билан ҳаракат қиласайлик:// "Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, мұқаддас динимизнинг соғлигини асраш – давр талаби" мавзуусидаги анжуманда сўзланган нутқ.//Халқ сўзи, 2017 йил, 16 июнь.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришини янги босқичга кўтариш тўгрисида"ти ПҚ 3160-сонли қарори.//Халқ сўзи, 2017 йил, 29 июл.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь. –Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2018, 169-бет.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чукурлаштириш йўлида.- Т.:Ўзбекистон, 1995 йил, 152-бет.
7. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. //Тарихчи олимлар ва журналистлар билан сұхбат. "Мулоқот" журнали. 1998 йил 5-сон.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
9. Гегел. Соч., т. 8. –М.: 1935, с.131.
10. Авдеева Л.Тансевалное искусства Узбекистана. –Т.: 1960.
11. Согдийские документы с горы Муг. Чтение, перевод, комментарий. 1962.
12. Рахмонов М. Ўзбек театри тарихи. Т. :1968 йил.
13. Абулқосим Фирдавсий. Шоҳнома. –Т.: Faфур Ғулом, 1975 йил.
14. Каримова Р. Хоразмча рақс. –Т.: 1975 йил
15. Кодиров М. Ўзбек театри анъаналари –Т.: 1976 йил.
16. Каримова Р. Бухорча рақс. – Т.:1977 йил.
17. Тафаккур гулшани. Ватандош ҳамда хорижий алломаларнинг афоризмлари ва ҳикматли сўзлари. –Т.: Адабиёт ва санъат нашириёти, 1989 йил
18. Арутюнов С.А. Народы и культуры. Развитие и взаимодействие.–М.:Наука, 1989.
19. Ўзбекистон ҳалқлари тарихи. –Т.: Фан, 1992 йил, 1-жилд.
20. Сайдкулов Т.С. Ўрта Осиё ҳалқлари тарихининг тарихнавислигидан лавҳалар. – Т.: Ўқитувчи, 1993 йил.
21. Абдурахмонов Ф.Р. Мустақиллик ва миллий манбаатлар. – Т.: Фан, 1994 йил.
22. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.:Ўқитувчи, 1995 йил, 1 жилд.
23. Сайдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон тарихи манбалардан. –Т.: 1996 йил.
24. Сайдуллаев А.С. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. - Т.:Ўқитувчи, 1996 йил.

25. Қорабоев У.Х. Ўзбекистон байрамлари. – Т.: Ўқитувчи, 1996 йил.
26. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйуси. – Т.: Ўзбекистон, 1996 йил.
27. Шониёзов Ш.К. Ўзбек халқининг этногенезига оид баъзи назарий масалалар. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998, 6-сон.
28. Абдулла Авлоний. Таинланган асарлар. 2-жилд. -Т.: Машнавият, 1998.
29. Баркамол авлод орзуси. –Т.: Шарқ, 1999 йил.
- 30.Хоназаров Қ. Миллий менталитет-тараққиёт омили. // Мулоқот. – Т.:2000 йил, №3.
- 31.Махмудов Т. Авесто ҳақида. – Т.:Шарқ, 2000.
- 32.Исҳоқов М., Отахўжаев А. ва бошқа. Қадимги ёзма ёдгорликлар.Қаюмов А. – Т.: 2000 йил.
- 33.Авесто Яшт китоби, Т.: 2001 йил.
- 34.Бекмуродов М. Ўзбек менталитети: жамоавийлик ва индивидуаллик нисбати. “Хуррият” газетаси, 2002 йил, 17апрел.
- 35.Аҳмедов Б.А. Ўзбекистон тарихи манбалари. –Т.: Ўқитувчи, 2001 йил.
- 36.Қорабоев У.Х. Ўзбек халқи байрамлари. – Т.: Шарқ, 2002 йил.
- 37.Ҳақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф. -Т.: Янги аср авлоди, 2002 йил.
- 38.Бўронов Қ.Б. Халқимиз маънавияти ва маърифатининг теран илдизлари. – Т.: Фан, 2003 йил.
- 39.Йўлдошева С. Халқ урф-одатлари ва анъаналари. – Т.: Ижод дунёси, 2003 йил.
- 40.Муродов М., Қорабоев У., Рустамова М. Этномаданият.–Т.: Адолат, 2003 йил.
41. Бекмуродов М.Б. Ўзбек менталитети. – Т.: 2004 йил.
- 42.
43. Тургунов Ф. Мехнат менталитети: Янгиланиш ва тараққиёт диалектикаси. – Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2004 йил.
44. Маманазаров Н. Мустақиллик ва миллий-этник жиҳатлари. – Т.: 2004 йил.
45. Каримов И. Миллат шаъни. – Т.: Янги аср авлоди, 2005 йил.
- 46.Корабоев У.Х Этнокультура. (традитсионная народная культура). – Т.: Шарқ, 2005 йил.
- 47.Гаюпова Ш. Менталитетнинг ижтимоий-фалсафа соҳасида ўрганилишининг назарий асослари.-Фалсафа соҳасида ўрганилишининг назарий асослари // Фалсафа ва ҳуқук, – Т.: 2005, №3.
48. Ashirov A. Oilaviy marosimlarning ba'zi falsafiy-ahloqiy masalalari // Falsafa va huquq. – Т.: 2006. - № 3.
49. Утанова У. Этномаданиятнинг яшовчанлик сири // Тафаккур. – Т.: 2006, №3..
50. Ibrogimov A. O'zbek mahallasi. –Т.: Ma'naviyaт, 2007 yil.
51. Қўчкоров В. Миллий ўзликни англаш ва ижтимоий-сиёсий жараёнлар. – Т.: Академия, 2007 йил.
52. Нишонова О.З. Этник маданият ва маросимлар. Маъразалар матни. – Т.: ЎДСИ, 2009 йил.
53. Собирова М.А. ва бошқ. “Этномаданият” фанидан электрон дарслик. – Т.: 2014 йил.

INTERNET SAYTLARI

www.uza.uz

www.edu.uz

www.uzedu.uz

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

www.tdpu.uz

www.ma'naviyat.uz

MUNDARIJA

Kirish.....	5
I BOB. ETNOMADANIYAT FANINING IJTIMOIY FANLAR 9	
TIZIMIDA TUTGAN O'RNI.....	
1-§.Etnomadaniyat fanining predmeti, maqsad va vazifalari.....	9
2-§.Markaziy Osiyo xalqlari tarixi, madaniyati, etnografiyasi muammolari.....	29
3-§.O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixiga oid eng muhim manbalar.....	50
II BOB. QADIMGI DAVR O'ZBEK FOLKLORI, XALQ OG'ZAKI 73	
IJODI, XALQ DOSTONLARI, MAQOLLAR, MILLIY RAQSLARNING ETNOMADANIYATNI BOYITISHDAGI ROLI VA O'RNI.....	
4-§. Etnomadaniyatning shakllanishida xalq o'yinlarining o'rni.....	73
5-§. Qadimgi davr o'zbek folklori – etnomadaniyat tarixida muhim manba.....	89
6-§. O'zbek xalq og'zaki ijodi: xalq maqollari, topishmoqlari va xalq dostonlari.....	100
7-§. Madaniy taraqqiyotda xalq teatri va milliy raqslarning o'rni.....	136
III BOB. ETNOPEDAGOGIKA VA MILLIY MA'NAVIYAT – 149	
ETNOMADANIYAT FANINING TARKIBIY QISMASI.....	
8-§. Etnopedagogika va milliy ma'naviyat.....	149
9-§. An'anaviy oila – turmush marosimlari – xalq madaniyatining fenomeni.....	164
10-§.O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxaik izlari.....	183
11-§.Milliylik – falsafiy va axloqiy kategoriya sifatida.....	202
12-§.Etnomadaniyat va milliy o'z-o'zini anglash.....	219
IV BOB. EKOLOGIK ONG, ETNOMADANIYAT, MILLIY G'OYA, TARIXIY ONG, ETNIK VA IJTIMOIY XOTIRA, TOPONIMIKA – 233	
ETNOMADANIYATIMIZNING O'Q ILDIZLARI.....	
13-§.Ekologik ong va etnomadaniyat.....	233
14-§.Yangilangan milliy o'z-o'zini anglash strukturasida etnomadaniy	244

54.Cc	jarayonlar.....	
15-§.	Etnomadaniyat va milliy g'oya mushtarakligi.....	252
16-§.	Etnomadaniyat va etnopsixiologiya.....	263
17-§.	Etnik va ijtimoiy xotira.....	270
18-§.	Toponomika – etnos ongning tarkibiy qismi.....	280
	Etnomadaniyatga oid atama va tushunchalarning izohli lug‘ati.....	287
	Foydalilanilgan adabiyotlar.....	290

MARHABO SOBIROVA, ESHQOBIL HOLIQOV

ETNOMADANIYAT

Toshkent - “ INNOVATSIYA-ZIYO ” - 2019

Muharrir Xolsaidov F.B.

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 20.07.2019 da ruxsat etildi. Bichimi 60x90.
“Times New Roman” garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog`i 18. Nashr bosma tabog`i 17,9.
Adadi 100 nusxa.

